

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**«MILLIY G‘OYA: O‘ZBEKISTONNI
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI» fani bo‘yicha**

MA‘RUZALAR MATNI

Termiz – 2018

Mazkur o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 24 avgustdagi 603-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan BD-1.02 raqamlari bilan 2017 yil 18 avgustda ro'yxatga olingan "Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanidan namunaviy dastur asosida tayyorlandi. Majmuada kunduzgi va maxsus sirtqi talabalariga "Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanining mazmun-mohiyatini to'liq va mukammal o'rgatish nazarda tutilgan.

Tuzuvchilar:

Allamuratov Sh.A. - TerDU "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi" kafedrasida
o'qituvchisi

Taqrizchi:

Rasulov H.M. - TerDU "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi" kafedrasida
dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi.

***O'quv-uslubiy majmua Termiz davlat universiteti Denov filiali Kengashining
201__-yil _____dagi ____- sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.***

SO‘Z BOSHI

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua “Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fanidan bo‘lib, Tarix fakultetining “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan.

“Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fani ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga asosan 2-semestrda 24 soat auditoriya soatlarida o‘qitiladi. Semestr davomida “Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fanining mazmun-mohiyatini to‘liq va mukammal o‘rgatish nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirayotgan beshta ustivor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ongu tafakkuri, intilishi va harakatlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shu bois, O‘zbekistonda ta‘limning ijtimoiylashuviga alohida e‘tibor berilib, o‘qitilayotgan fanlarning mazmunini yanada boyitish zamon talablariga moslashtirilishi bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu "Ta‘lim to‘g‘risidagi" Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, talaba yoshlarimizni Vatan va millat manfaatlarini yo‘lida fidoiylilik ko‘rsata oladigan, mustaqilligimizning mohiyatini va qadrini anglaydigan, uni har qanday xavf-xatardan asrashni o‘zining muqaddas burchi deb biladigan, muayyan mutaxassislikni, kasb-hunarni chuqur yegallagan, mustaqil, yerkin fikrlaydigan, ma‘naviy va jismonan barkamol insonni tarbiyalash uchun oliy ta‘lim tizimida gumanitar va ijtimoiy fanlarning dasturlarini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda. Bu yesa yoshlarda tarixiy voqelikka obyektiv baho berish va to‘g‘ri xulosa chiqarish malakalarini shakllantirishni talab qiladi. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek: “Ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”. Demak, obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etayotgan xalqimiz taraqqiyotining bugungi kuni va kelajagini bevosita ifodalaydigan Harakatlar strategiyasini yoshlarimiz ongiga g‘oyaviy tamoyillar, asosida yetkazib berish, ularda mamlakatimiz hayotida ustivor bo‘layotgan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradigan mavzularni o‘rgatish “Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fanining mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Mazkur fan doirasida «Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi» fanining mazmun-mohiyati, haqqchilik, insonparvarlik, bag‘rikenglik va xalqimiz hayotida tutgan o‘rni bilan bog‘liq masalalar o‘rganiladi. Harakatlar strategiyasi O‘zbekistonda huquqiy demokratik asosdagi xalq davlatini barpo etish yo‘lini har tamonlama asoslab beradigan xujjat ekanligi ushbu fanning asosiy mavzulari doirasiga kiradi.

“Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” – o‘rganishga imkoni ochilgan yangi fanlardan biridir. Mazkur fanning maqsadi ijtimoiy, siyosiy milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ustivor ahamiyatga ega ekanligi ezgu g‘oyalar va sog‘lom mafkuradan mahrum biron bir millat va jamiyatning uzoqqa bora

olmasligini, har qanday xalq va davlat o'z taraqqiyotining mana shunday strategik tamoyillarini belgilab olishi zarurligi ijtimoiy jarayonlarning muqarrar qonuniyat ekanligini yoshlarning qalbi va ongiga singdirishdan iboratdir.

Bu esa kelajagimizni yaqqol tasavvur etish, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yot mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, va nihoyat, yurtimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy istiqlol g'oyasi orqali harakatlar strategiyasini o'rganish yehtiyojini yuzaga keltirdi. «Ushbu ta'limotni qanday zarurat shakllantirdi?» va «Undan ko'zlanayotgan maqsad-muddaolar nima?» - degan savollarga javob Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Bizning vazifamiz-to'plangan ilg'or halqaro amaliyotga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot modelini qat'iy amalga oshirishdan iborat" degan ta'kididir.. Shu ma'noda, u mamlakatimiz taraqqiyotining obyektiv zaruriyati, qonuniy hosilasi, xalqimiz maqsad-muddaolarining ifodasidir. Bu yesa, o'z navbatida, yangi boshlayotgan fanimizning maqsad va vazifalaridan biridir. Bugungi kunda prezidentimiz tomonidan «Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz» - degan ezgu va hayot baxsh shior asosidaolib borilayotgan islohatlari fikrimizningning haqqoniyligini isbotlaydi.

"Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanining qonun-qoidalari, tushuncha va tamoyillarini o'rgatishda quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

mustaqillik biz uchun yeng oliy qadriyat, uni asrab-avaylash yesa har birimizning muqaddas burchimiz yekanini talabalarning qalbi va ongiga singdirish;

yoshlarda g'oyalar o'z ma'no-mohiyatiga ko'ra bunyodkor yoki vayronkor bo'lishi, ularning xalqlar va davlatlar taraqqiyotiga ta'siri, hozirgi zamonning mafkuraviy manzarasi, buzg'unchi g'oyalarning ta'siridan hushyor va ogoh bo'lish shartlari va mezonlari haqidagi hayotiy va haqqoniy tasavvurlarni shakllantirish;

o'quv mashg'ulotlarini olib borishda talabalarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish, ta'lim-tarbiyanining ilg'or, ta'sirchan vositalaridan, zamonaviy o'qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;

ayrim tushunchalarni haddan ziyod soddalashtirish, ta'limning yeskicha uslub va tamoyillarni qo'llash natijasida fanning qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik;

ta'lim jarayonida tazyiq o'tkazmasdan ma'rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlash, bahs-munozara yuritish ko'nikmalarini oshirishga e'tibor qaratish.

Bulardan tashqari Harakatlar strategiyasini mazmun-mohiyatini tushuntirishda o'qituvchi va tinglovchilar orasida o'zaro hamfikrlik va hamkorlik muhitini shakllantirish, mavzuning tushuncha va tamoyillarini sharhlashda hayotiy misollar, bugungi dunyoda ro'y berayotgan voqealar tahlilidan, matbuot materiallaridan keng foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

I. MA'RUZA MATERIALLARI

II SEMESTR

1-MA'RUZA. MILLIY G'OYA: O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.

Reja:

1. "Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Milliy go'yaning mustaqil demokratik taraqqiyotni ta'minlashning muhim sharti ekanligi.
3. Yoshlarda milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik fazilatlarini mustahkamlash va unga yo'naltirish.
4. "Milliy g'oya, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanining qonuniyatlari, asosiy tushunchalari, g'oyaning jamiyat rivoji bilan uzviy bog'liqligi va unga ta'siri.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: «Aqliy hujum», BBB me'todi, «Blits so'rov», mini keyslardan foydalanish.

Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi.

Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana gap nima haqida ketayapti!

Shavkat Mirziyoyev

Tayanch so'zlar

Milliy g'oyaning shakllanish tarixi va rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatlari, amal qilish prinsiplarini o'rganish fanning predmeti sifatida.

Milliy g'oyaning mustaqil demokratik taraqqiyotni ta'minlashning muhim sharti ekanligi. Yoshlarda milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik fazilatlarini mustahkamlash va unga yo'naltirish.

"Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanining qonuniyatlari, asosiy tushunchalari, g'oyaning jamiyat rivoji bilan uzviy bog'liqligi va unga ta'siri.

"Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

"Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanining predmetini milliy go'yaning shakllanish tarixi, rivojlanish qonuniyatlari va amal qilish prinsiplari, "Harakatlar strategiyasi"ning asosiy tushuncha va tamoyillari haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Milliy g'oya bilan yoshlarimizni qurollantirish, ertangi baxtli kelajakka ishonch va umid ruhini qaror toptirish milliy mafkuramizning o'zagini tashkil etmog'i lozim. Yoshlarda sog'lom tafakkur va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularda el-yurt oldidagi ma'naviy burchini to'g'ri anglashni, milliy g'oya orqali milliy urf-odat va an'alarimizga mehr-muhabbatni uyg'otishni, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

"Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fani yoshlarda milliy g'urur, mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, daxldorlik, fidoyilik, vatanparvarlik, xalq ishiga kamarbastalik ruhini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur fanning qonun qoidalari, tushunchalarini o'rganishdan oldin quyidagilarga alohida e'tibor berishimiz kerak:

- yoshlarimiz ongi va qalbida ezgu g'oyalarlarga sadoqat tuyg'usini uyg'otish asosida mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

- “Harakatlar strategiyasi”ning asosiy tushuncha va tamoyillarini anglatish;
- yoshlarni ongli yashashga, o‘z aqli, fikriga, ezgu insoniy mafkuraga, aniq milliy g‘oyaga suyanib yashashga o‘rgatish;
- globallashtirish avj olayotgan davrda mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish;
- axborot xurujlariga qarshi tura oladigan barkamol inson tarbiyasini kuchaytirish;
- mafkuraviy profilaktika orqali sog‘lom e‘tiqodni shakllantirish;
- yoshlarda Vatan kelajagi, xalq farovonligiga daxldorlik hissinu uyg‘otish;
- mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo‘llari, usullari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalarga e‘tibor qaratishimiz zarur.

“Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fanining asosiy maqsadi yoshlarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasining g‘oyaviy asoslari, maqsad va vazifalari, amalga oshirish shart-sharoitlari hamda omillarini o‘rgatish va ularda g‘oyaviy kurashchanlik, mustaqil dunyoqarashlarini yanada mustahkamlashdan iborat.

Fanning vazifalari-talabalarga:

- milliy g‘oya va mafkura rivojlanishining tarixiy bosqichlari va uning nazariy konseptual asoslari;
- milliy mafkurada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, g‘oyalar xilma-xilligi va mafkuraviy jarayonlarning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri;
- O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi–milliy taraqqiyotning g‘oyaviy asosi ekanligi;
- globallashtirish davrida axborot makoni va g‘oyaviy mafkuraviy kurashlar;
- milliy g‘oyaga daxldorlik hissi – barqaror taraqqiyot omili ekanligi;
- milliy g‘oya targ‘ibotida innovasion texnologiyalardan foydalanish haqida ilmiy nazariy bilim berishdan iborat.

Strategiya - rejalashtirilgan, uzoq muddatga mo‘ljallangan yo‘l hisoblanadi. Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning **beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi**¹ taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

I. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish. (Osmon ko‘k rang - osmon va toza suv ramzi, buyuk Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi).

II. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish. (Binafsha rang - qoida va taqvo ramzi, adolat elementlari).

III. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish. (oltin rang - kuch va boylik ramzi, iqtisodiy rivojlanish elementlari).

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish. (Qizil - hayot ramzi, munosib hayot standartlari).

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish. (Oq - tinchlik va poklik ramzi, tinchliksevar siyosati elementlari).

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatidagi dastlabki nutq va ma‘ruzalaridayoq “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” degan g‘oyalarni o‘rtaga tashladi.

1. Milliy go‘yaning mustaqil demokratik taraqqiyotni ta‘minlashning muhim sharti ekanligi.

“Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fani mamlakatimizda amalga oshirilayotgan O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasining g‘oyaviy asoslari, maqsad va vazifalari, amalga oshirish shart-sharoitlari hamda omillari haqida tasavvurga ega bo‘lishni;

Milliy g‘oya va mafkura rivojlanishining tarixiy bosqichlari va uning nazariy konseptual asoslari haqida, milliy mafkurada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, g‘oyalar xilma-xilligi va mafkuraviy jarayonlarning ijtimoiy taraqqiyotga ta’sirini milliy g‘oya – O‘zbekiston

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

demokratik taraqqiyotining muhim omili ekanligini singdirishni, O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi – milliy taraqqiyotning g'oyaviy asosi ekanligi haqida ilmiy va nazariy masalalarni bilishi va ulardan foydalana olishni;

Bugungi globallashuv davrida axborot makoni va g'oyaviy mafkuraviy kurashlar, Milliy g'oyaga daxldorlik hissi – barqaror taraqqiyot omili ekanligi, milliy g'oyani targ'ibot qilishda innovasion texnologiyalardan foydalanish haqida nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi.

Milliy g'oya qanday g'oya ekanligiga to'xtalishdan oldin, g'oya tushunchasi, belgilari, turlari haqida tasavvurga ega bo'lishimiz kerak.

“G'oya” aslida arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida – maqsad, intilish, niyat, qasd degan ma'nolarni anglatadi².

G'oya voqelik va hayot ta'sirida uni aks ettirish asosida inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va insonlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr, dunyoni bilishning o'ziga xos shakllaridan biridir.

U shaxs, jamiyat, ijtimoiy guruh, partiya va boshqalarning muayyan maqsadlarini ifodalaydi, ularni bu yo'lda birlashtiradi, uyushtiradi, faoliyatga undaydi, safarbar qiladi. G'oyaning namoyon bo'lish xususiyatlari, o'ziga xos belgilariga quyidagilar kiradi:

1. G'oya eng avvalo, muayyan maqsadni ifodalaydi, insonlarni ana shu maqsadga erishish uchun chorlaydi, safarbar etadi.

2. G'oya hayotiy va ilmiy dalillarga asoslangan holda ish ko'radi, faoliyat olib boradi.

3. G'oya biron-bir ijtimoiy voqelikning in'ikosi bo'lib obyekt va subyektning o'zaro dialektik birligiga asoslanadi.

4. G'oya muayyan mafkura uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

5. G'oya nazariy va amaliy bilimlar birligiga tayanadi.

6. G'oya biron-bir farazni ifodalaydi³.

G'oyalar namoyon bo'lish xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga: **bunyodkor va vayronkor; ilmiy va xayoliy; falsafiy; dunyoviy va diniy; badiiy; ijtimoiy-siyosiy; sinfiy, milliy, umumxalq va umuminsoniy; ma'naviy va ma'rifiy; axloqiy va estetik; tarbiyaviy** va hokazolarga bo'lamiz.

G'oyaning jamiyat taraqqiyoti uchun muhim turlaridan biri milliy g'oyadir.

Milliy g'oya-1) millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlarini va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli. 2) Mustaqillik yillarida shakllangan, o'ziga xos falsafiy asosi, ilmiy-nazariy va tarixiy ildizlarga ega yaxlit ta'limot. Buyuk davlat va jamoat arbobi I.A.Karimov tomonidan yaratilgan ushbu ta'limot mamlakat taraqqiyotining ob'ektiv zarurati, milliy rivojlanishning qonuniy hosilasi sifatida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etayotgan xalqimizning maqsad-muddaolari va orzu-intilishlarini ifodalaydi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq birinchi Prezidentimiz tomonidan milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillari, mezon va xususiyatlari belgilab olindi. Birinchi Prezident Islom Karimovning 1998 yil “Tafakkur” jurnali bosh muharriri bilan suhbatidan “Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin”, 2000 yil “Fidokor” gazetasi muhbiri bilan savol-javoblarida “Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir” nomli ma'ruzalarida shu yili chop etilgan “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida, “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” va boshqa bir qator asar va ma'ruzalarida milliy g'oya asoslab berildi.

Xususan, milliy g'oyaga Prezidentimiz quyidagicha ta'rif beradi: *“Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtida yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini*

²O'zbek tilining izohli lug'ati. J.5.-T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 455-bet.

³Yaxshilikov J. Ya., Muhammadiyev N. E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi, “Fan”, 2017, 35-bet

o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz"⁴.

2001-yil 18-yanvarda O'zbekiston Prezidentining «**Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar**» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va Respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»gi Farmoyishi qabul qilindi⁵. Shuningdek, **2006-yil 25-avgustda** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «**Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida**»⁶ Qarori, **2017-yil 28-iyulda** «**Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida**» gi PQ-3160-son Qarori⁷ qabul qilindi.

Insoniyat taraqqiyoti biron-bir jamiyatning ezgu g'oyalar va mafkurasiz rivojlana olmasligini tasdiqlab kelmoqda. Milliy g'oya har bir jamiyat ijtimoiy -siyosiy taraqqiyotini ta'minlovchi milliy omil sifatida namoyon bo'ladi. Ajdodlarimiz jamiyatning barcha bosqichlarida jamiyat a'zolari tafakkuriga ezgulikka va bunyodkorlikka chorlovchi g'oyalarni singdirib kelganlar. Masalan, zardushtiylik dinining «Avesto» kitobidagi g'oyaviy konsepsiya – «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal» tamoyili buning yorqin dalilidir. Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettiradi. O'z davrida (1941-1945 yillarda) fashistlar bosib olgan Fransiyada «qarshilik ko'rsatish» g'oyasining milliy g'oya darajasiga ko'tarilgani va bu mamlakat ozod etilishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotgani fikrimizga dalil bo'la oladi. Muayyan g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi millatning mavjud holati bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, ana shu negizga tayangan holdagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtda erishishi lozim bo'lgan maqsad-muddaolari va mo'ljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin. Har bir xalq o'z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo mafkura masalasini, uning o'zagini tashkil etadigan, o'ziga xos birlashtiruvchi yadro vazifasini o'taydigan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muammosini hal qiladi.

Mamlakatimiz uchun milliy g'oya haqidagi masalaning bugungi amaliy ahamiyati shundaki, biz yangi jamiyat qurish, mustaqil demokratik taraqqiyot davrini boshdan kechirmoqdamiz. Aynan shunday paytda aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi xilma-xil qarashlar shakllanishi mumkin. Bunday sharoitda millat va jamiyatning parokanda bo'lib ketishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Aks holda siyosiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlar o'z ahamiyatini yo'qotadi, mustaqillik yo'lida g'ovlar paydo bo'ladi.

Milliy g'oya mamlakatimizda erkin, huquqiy-demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash, milliy g'oyani jamiyatimiz a'zolari ongiga singdirish, milliy g'oya va «Harakatlar strategiyasi»da ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab berilgan qadriyatlar targ'ibotiga e'tibor qaratish, xalqimizning milliy o'zligini anglab, mustaqillikni mustahkamlash ishiga kamarbasta bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, g'oya, ya'ni maqsad ko'p hollarda amaliyotdan ilgari yuradi. Avval muayyan g'oya jamiyat a'zolarining umumiy maqsadi sifatida ilgari surilib, so'ng ushbu maqsadni bajarish uchun amaliy faoliyat boshlanadi. Shu jihatdan ham milliy g'oya o'zligimizni anglab ijtimoiy taraqqiyot va barqarorlikni ta'minlashimiz yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlangan quyidagi fikr mazkur yo'nalishdagi faoliyat uchun asosiy mezondir: **«Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa — ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga**

⁴ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., 2008, 71-bet

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvarda qabul qilingan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»gi farmoyishi. «Ma'rifat» gazetasi. 2001 yil 20 yanvar.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustda qabul qilingan «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori. «Xalq so'zi» gazetasi, 2006 yil 26 avgust.

⁷ Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston! O'z R mustaqilligining 26-yilligiga bag'ishlangan uslubiy qo'llanma, T., «Paradigma», 2017, 55-bet

qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat".

Shunday qilib, milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oyadir.

Milliy g'oya – u yoki bu millat, xalq, elatning milliy an'analarini, turmush tarzini va tanlab olgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimni va umuman milliy manfaatlarini himoya qiladigan, qo'llab-quvvatlaydigan, ularni mustahkamlash uchun ko'maklashadigan qarashlar majmuidan iborat. O'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq kelajagini belgilaydi, unga etishning o'ziga mos yo'llarini tanlaydi. Ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlar bilan barcha g'oyaviy tamoyillarini ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo'lgan g'oyalar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan «Vatan ravnaqi», «Yurt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson», «Ijtimoiy hamkorlik», «Millatlararo hamjihatlik», «Diniy bag'rikenglik» kabi g'oyalar ana shunday umummilliy g'oyalar qatoriga kiradi.

2. Yoshlarda milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik fazilatlarini mustahkamlash va unga yo'naltirish.

Milliy g'oya orqali yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik fazilatlarini mustahkamlash va unga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy g'oyaning umuminsoniy qadriyat tamoyillari insonparvarlik, inson qadr-qimmatini sha'ni va or-nomusi, haq-huquqlari hamda manfaatlarining ustuvorligi printsipiga tayanadi. Unda insonning hayoti oliy qadriyatdir. Bu tamoyil o'tkinchi xarakterga ega bo'lmay, balki O'zbekistonning demokratik rivojlanish istiqbolini o'zida mujassam etadi. Bunda milliy g'oyaning insonparvarlik va demokratik tamoyillari inson hamda jamiyat manfaatlarini uyg'unligini belgilab beruvchi tayanch nuqta va jipslashtiruvchi omil vazifasini o'taydi. Demak, milliy g'oya ikki muhim, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan negizga tayanadi. Bu bir tomondan, O'zbekiston xalqining tarixi, turmush tarzi, urf-odat, an'analari, madaniyati bilan bog'liq milliy-madaniy meros bo'lib, bu uning asosi, bosh negizi, tayanchi hisoblanadi. Ikkinchisi, dunyo xalqlari e'tirof etib, faqat ezgulikka, bunyodkorlik ishlariga, o'zaro totuvlik va hamjihatlikka xizmat qilib kelayotgan umuminsoniy tamoyillardir. Shu ma'noda milliy g'oya umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi.

Milliy qadriyatlarga sodiqlik - milliy g'oyaning tayanch negizlaridan biridir. Bu tamoyil yoshlarda o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, kelajak avlodlarga yetkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdan qolgan buyuk madaniy boyliklarimiz, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni ijodiy jihatdan o'rganish - bu prinsipning asosiy jihatidir. Milliy g'oyaning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiqlik tamoyillari bir-birini boyitadi, ayni paytda o'zaro mushtaraklikda rivojlanadi.

Yoshlarda vatanparvarlik fazilatlarini mustahkamlash va unga yo'naltirish milliy g'oyamizning asosiy yo'nalishlaridandir. Vatanparvarlik-Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqning or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg'udir.

Vatanparvarlik - ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan karaydigan, Vatan manfaatlarini yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat.

Vatanparvarlik bu-yurtimizda mavjud bo'lgan salohiyat va boyliklarni ishga solish, ulardan oqilona foydalanish, o'z kuch imkoniyatimizga, ota-onalarimizdan kolgan bebaxo meros, milliy urf-odat va an'analariga suyanish, qadriyatlarni tiklash, bir-birimizga yelkadosh bo'lish ehtiyojini har tomonlama tushunib yetish demakdir.

Vatanparvarlik, bu - O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muxitini, biz barpo etayotgan farovon va osuda xayotni tuzish, tabora kuchga kirayotgan davlatimizni ag'darish, tanlagan yo'limizdan qaytarish, odamlarning yuragiga vahima va qo'rquv solish hisobidan ularning ertangi kuniga bo'lgan ishonchini yo'qotish,

bir-biriga qarshi qo'yish, yurtimizda, mintakamizda o'z manfaatini, o'z siyosatini o'tkazishga harakat qilayotgan g'animlarga qarshi kurash demakdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish, ularni Vatanga muxabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Inson o'z yurtini qanday bo'lsa shundayligicha sevishi, uning rivoji uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi lozim. Vatanparvarlik kishilarda asosan uch bosqichda namoyon bo'ladi:

- 1) bilish - Vatan tushunchasiga xos kadriyatlarni egallash;
- 2) e'tiqod - mazkur qadriyatlar to'g'risida olgan bilimlarini e'tiqodga aylantirish;
- 3) harakat - bu e'tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muxabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi. Albatta, jahon - keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakkayu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan".

4. "Milliy g'oya, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanining qonuniyatlari, asosiy tushunchalari, g'oyaning jamiyat rivoji bilan uzviy bog'liqligi va unga ta'siri.

"Milliy g'oya, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanining qonuniyatlari 2 turga bo'linadi.

1) umumiy

2) o'ziga xos qonuniyatlardir.

1. Umumiy qonuniyatlar turli xalqlar, mamlakatlar, jamiyatlar hayotida amal qiladigan umumiy asosga ega bo'lgan ichki zaruriy bog'lanishlar bo'lib, u jamiyat va mafkuralar (g'oyalar)ning bir-birlari bilan uzviy bog'liqligi qonunidir. Jamiyat mafkurasiz yashay olmaydi. Demak, **birinchidan**, mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. **Ikkinchidan**, qayerdagi, g'oyaviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha erda begona g'oya asosida bo'lgan mafkuralar ta'siri uchun sharoit vujudga keladi. U jamiyat oldidagi maqsadlar, uni amalga oshirish vositalaridir. Demak, Milliy g'oyaning umumiy qonunlari quyidagilardan iborat:

1) Turli xalqlar, turli jamiyatlar mavjud. Ularning maqsadlari ham, rivojlanish yo'llari ham turli xil. Ya'ni rivojlanishning, ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xilligi qonun orqali namoyon bo'ladi.

2) Dunyoning mafkuraviy manzarasi turli xil maqsadlar, turli xil manfaatlar, qarashlar bilan bog'liq holda namoyon bo'lgan va bo'lib qolmoqda. Bu ezgu g'oyalar bilan birga yovuz g'oyalarning ham yashovchanligini, «dunyoda mafkura sohasida kurashning» davom etib kelayotganligining asosida yotgan o'ziga xos jihatidir.

3) Globallashuv jarayonining milliy g'oyaga ta'sir etishi ham o'ziga xos umumiy qonuniyatdir. Bu jarayon turli mamlakatlar, xalqlar hayotida ularning bir-biriga bog'liqligini, o'zaro ta'sirini oshiradi, ma'naviy, g'oyaviy hayotida aks etmasdan qolmaydi.

2. O'ziga xos qonuniyatlar o'zbek xalqining hayoti, turmush tarzi, tarixi, madaniyati, milliy-madaniy merosi va qadriyatlarini aks ettiradi. Bu qonuniyat Milliy g'oyaning mazmuni, maqsadi va xususiyati nuqtai nazaridan qaraganda alohida, ustuvor ahamiyatga ega. Chunki bu qonuniyatni hisobga olish o'zbek xalqining, millatning kelajagi bilan o'zligini saqlab qolish hamda o'z negizida rivojlanishini, dunyoda o'ziga xos o'ringa ega bo'lishni e'tirof etish bilan bog'liq. Tarixiy jihatdan yondashganda, bu sohada «turli g'oyalar», «mafkuralar» ana shu muhim qonuniyatlarga zid bo'lgan holatlarni ham kuzatishini ko'rsatadi. O'zbek xalqini tilidan, madaniyatidan, tarixidan ajratib qo'yishga bo'lgan urinishlar bunga misoldir. Chunki yot va begona g'oyalar xalqning turmush tarzi, milliy-madaniy qadriyatlaridan ajratib qo'yish orqali uni zaiflashtirishga va o'z irodasiga bo'ysundirishga harakat qilgan.

Demak, Milliy g'oyaning qonuniyatlari har bir xalq uchun milliy o'ziga xosligini zamon yutuqlari bilan bog'lanishning nafaqat kafolati, balki rivojlanish strategiyasi hamdir.

Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi fanining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini quyidagicha aks ettirish mumkin: shaxs, jamoa, millat, jamiyat, davlat g'oyaviy

milliy-mafkuraviy qadriyatlarini yuksaltirish. Bular g'oyaviy mafkuraviy, milliy ong, ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq qonuniyatlardir. Lekin ular umumiy aloqadorlikda uyg'un rivojlanadi va jamiyatda aks etadi. Inson shaxsini g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan shakllantirishga qaratilgan qonuniyatlardan tashqari biz yuqorida bayon etgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar, qonuniyatlar ham mavjud. Albatta, mazkur qonuniyatlar o'ziga xos, xususiy va umumiy jihatlarga ega bo'lib, ba'zi sohalarda ularni chuqur o'rganish, tahlil qilish lozim. Ularni o'rganish jarayonida milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasining umumiy tamoyillari mohiyati va mazmunidan kelib chiqmoq kerak. Shu boisdan ham mustaqil taraqqiyot yo'lidan borishning turli konkret sharoitlardagi o'ziga xos xususiyatlari, yo'nalishlari va umumiy qonuniyatlari o'rtasidagi bog'lanishlarni teran o'rganmoq va ularni tadqiq etish foydadan holi emas.

Milliy goya va mafkura fanining kategoriyalar(tushunchalar)ini⁸ umumiy, substansional va funksional kategoriyalarga ajratish mumkin. Bunda:

1) umumiy kategoriyalarga - goya, mafkura, bunyodkor goyalar, vay-ronkor g'oyalar, milliy goyalar, umuminsoniy goyalar, dunyoviy goyalar, diniy goyalar, falsafiy goyalar, ijtimoiy-siyosiy goyalar;

2) substansional kategoriyalarga - milliy istiqloq mafkurasini, mafkura evolyusiyasi, mafkura yakkahokimligi, mafkuraviy vaziyat, mafkuraviy poligon, mafkuraviy maqsad, mafkuraviy siyosat, mafkuraviy xavfsizlik, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy tarbiya, g'oyaviy mustaqillik, g'oyaviy ziddiyat, g'oyaviy bo'shliq, g'oyaviy zaiflik, g'oyaviy savodsizlik, g'oyaviy qaramlik, g'oyaviy mutaassiblik, g'oyaviy parokandalik;

3) funksional kategoriyalarga - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi, Komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, Millatlararo totuvlik, Dinlararo bag'rikenglik kabi tushunchalarni kiritish mumkin.

G'oya jamiyat rivoji bilan bog'liq bo'lib, unga ta'sir qiladi. Jamiyat rivoji uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo'lib, unda kishilarning erishgan moddiy va madaniy merosi o'z aksini topgan. Tarixiy taraqqiyot jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda yuz beradi.

Har bir davlat va jamiyat qurilishi bir-biridan shakl va mazmun jihatdan farq qilib, bu ularning rivojlanish xususiyatlaridagi o'ziga xoslikni belgilaydi. Ayni paytda, dunyodagi barcha davlatlar va jamiyatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida umumiylik ham mavjud bo'ladi. Bunday umumiylik real ijtimoiy asoslarga ega bo'lib, u insoniyatning umumiy manfaat va maqsadlarini ifoda qiluvchi g'oyalarda yaqqol ko'rinadi. Xususan, ijtimoiy - tarixiy taraqqiyotdagi umumiylik, mutanosiblik tamoyillari insoniyatni birlashtirish, uyushtirish, jipslashtirish, yagona ezgu maqsadga safarbar etish jarayonida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, har bir davlat va jamiyat rivojlanishida umumiylik, mutanosiblik bilan birga o'ziga xoslik ham bor. Bunday o'ziga xoslikning yuzaga kelishiga o'sha davrdagi siyosiy tuzum, iqtisodiy hayot, madaniy turmush, g'oyaviy-mafkuraviy muhit ta'sir ko'rsatadi. «Sodda qilib aytganda, - degan edi Birinchi Prezident I.Karimov, - muayyan davlat va jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi hayotning o'zi o'rtaga qo'yayotgan shart va talablarning hisobga olinishini taqozo etadi. Aytish mumkinki, taraqqiyotning har bir bosqichi - bu yangi muammolar va ularni bartaraf etish yo'lidagi yangi vazifalar demakdir. Bu - hayot qonuniyati, biz uni inkor etolmaymiz va inkor etishga haqqimiz ham yo'q».

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, har qanday jamiyatning u yoki bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti vorislik tamoyiliga ega bo'lsada, biroq u konkretlik xususiyatiga egadir. Konkretlik xususiyati o'z navbatida taraqqiyotning har bir ijtimoiy-siyosiy bosqichining mazmun, mohiyatini belgilab beradi. Boshqacha aytganda, tarixiy taraqqiyotning mavjudlik belgisi uning g'oyaviy-mafkuraviy mazmunida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy taraqqiyot bilan g'oya va mafkuralarning uyg'unligi insoniyat rivojlanishining muhim shartidir. Ayni paytda, har qanday g'oya va mafkura xalq, millatning tub manfaatlarini asosidagina real

⁸ «Kategoriya» grekcha so'z bo'lib, "g'uvoh", "ta'rif", "ifodalovchi", degan ma'noni bildiradi.

kuchga aylanishi mumkin. «Milliy g'oya haqida ko'p va uzoq fikr yuritish mumkin. U hayotning o'zi kabi cheksiz mavzudir. Milliy g'oya xalqning milliy manfaatlaridan kelib chiqadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. 89-bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T., «Ma'naviyat», 2008.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.56 B.
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
5. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvarda qabul qilingan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»gi farmoyishi. «Ma'rifat» gazetasi. 2001 yil 20 yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustda qabul qilingan «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori. «Xalq so'zi» gazetasi, 2006 yil 26 avgust.
8. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005, 3-30-betlar.
9. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati / Q.Nazarov, I.Ergashev va boshqalar. T., “G'afur G'ulom” NMIU, 2007.
10. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi .- T.: Akademiya, 2011.
11. Yaxshilikov J. Ya., Muhammadiyev N. E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi, “Fan”, 2017

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Milliy g'oya-O'zbekiston jamiyati rivojlanishining g'oyaviy asosi.
2. G'oyalar rivojlanishida siyosiy yetakchilarning roli.
3. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oya va mafkuraning roli.
4. Prezident Islom Karimov asarlari-milliy g'oya va mafkuraning ilmiy-uslubiy asosi.
5. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish” -milliy mafkuraning bosh g'oyasi.
6. G'oya, mafkura va milliy g'oya tushunchalarining ijtimoiy-siyosiy mohiyati, ularning umumiyliigi va farqlari.

GLOSSARIY

MAFKURA - fikrlar majmui, g'oyalar tizimi, e'tiqod

AKSILOGIYA - (yun. «axio» - qadriyat va «logos» - fan, ta'limot) – qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan.

G'OYANING TURLI KO'RINISHLARI mazmuni va namoyon bo'lish shakliga ko'ra – ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g'oyalarga bo'linadi.-

MILLIY G'OYA - millatning o'tmishi, buguni, istiqboli, manfaat va maqsadini ifodalovchi ijtimoiy g'oya.

BUNYODKOR G'OYALAR - 1) Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan tushuncha; 2) Jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi g'oya.

VAYRONKOR (BUZG'UNCHI) G'OYALAR - 1) bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha;

2) insonni va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalardir.

Keyslar banki

Keys 1. Qanday vayronkor g'oyalarni bilasiz?

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

Vayronkor g'oyalarning turlarini keltiring (individual holda).

Nazorat savollari:

1. "Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi fanining predmeti.
2. G'oya – insoniyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi omili, hayotiy maqsadlar ifodasi.
3. Mafkura tushunchasining mazmuni, mafkuraning funksiyalari va shakllari.
4. Milliy g'oya tushunchasi, uning tuzilishi va namoyon bo'lish xususiyatlari.

Test savollari:

1. Milliy g'oyaning bosh g'oyasi nima?

- A) ozod va obod Vatan;
- B) xalq farovonligi;
- C) ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot;
- D) erkin hayot.

2. Bizning bosh strategik maqsadimiz nimalardan iborat?

- A) bozor iqtisodiyotiga utish;
- B) erkin demokratik davlat barpo etish;
- C) fuqarolar jamiyatining mustaxkam poydevorini shakllantirish;
- D) bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustaxkam poydevorini shakllantirish.

3. Milliy mafkuraning asosiy g'oyalari.

- A) komil inson, bagrikenglik, totuvlik;
- B) dinlararo bagrikenglik, Vatan ravnaki, yurt tinchligi;
- C) xalq farovonligi, ijtimoiy xamkorlik, millatlararo totuvlik, komil inson;
- D) B va C.

5. Qanday g'oyalar taraqqiyotga xizmat qiladi?

- A) mustaqillik g'oyalari;
- B) vatanparvarlik g'oyalari, tinchlik g'oyasi;
- C) bunyodkor g'oyalar;
- D) barchasi.

2-MA'RUZA. MILLIY G'OYANING NAZARIY KONSEPTUAL ASOSLARI

Reja:

1. Milliy g'oya O'zbekiston jamiyati rivojlanishining g'oyaviy konseptual asosi. Milliy g'oya shakllanishida ilmiy, ma'naviy meros.
2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyoti uchun zarurligi to'g'risida.
3. Milliy g'oyaning inson, xalq va millatlarning orzu-umidlari, maqsad va intilishlari, moddiy va nomoddiy merosi, qadriyatlar bilan bog'liqligi.
4. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoev Milliy g'oyani mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichidagi ijtimoiy birdamlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilganligi to'g'risida.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: «Aqliy hujum», Klaster metodi, «Blits so'rov», mini keyslardan foydalanish.

Yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-etiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir.

Shavkat Mirziyoyev

Tayanch so'zlar

Milliy g'oya O'zbekiston jamiyati rivojlanishining g'oyaviy konseptual asosi. Milliy g'oya shakllanishida xalqimizning ilmiy, ma'naviy, tarixiy va falsafiy merosi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyoti uchun zarurligi to'g'risida. Milliy g'oyaning ob'ekti jamiyat rivojlanishi, hayot sohalari, ajdodlar va avlodlarning inson, xalq va millatlarning orzu-umidlari, maqsad va intilishlari, moddiy va nomoddiy merosi, qadriyatlar bilan bog'liqligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Milliy g'oyaning mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichidagi ijtimoiy birdamlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilganligi to'g'risida.

Milliy g'oya O'zbekiston jamiyati rivojlanishining g'oyaviy konseptual asosi. Milliy g'oya shakllanishida ilmiy, ma'naviy meros.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining uzluksizligini ta'minlash uchun xalqni bir maqsad yo'lida birlashtirish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan sobiq sovetlar tuzumining mafkuraviy aqidalaridan voz kechish lozim edi. Sovet mafkurasini kommunistik partiyaning g'oyalariga tayanuvchi va sovet totalitar rejimining g'oyaviy tayanchi funksiyasini bajarar edi. Bu mafkura qadimiy va boy tarixiy ma'naviy qadriyatlarga ega xalqning manfaatlariga mos kelmaydigan mafkura edi. Chunki u, milliylikdan begonalashgan, milliy mansublikka qarshi – innatsional, har qanday diniy e'tiqodga qashi – ateistik mafkura edi. Shu sababli undan voz kechildi. Mustaqillik mafkurasining konseptual asoslari esa hali yaratilmagan edi. Buning ustiga xalqimizning milliy mentaliteti mustamlakachilik davrlarida jiddiy ta'qiblarga uchrab, deformatsiyalangan. Ya'ni xalqimizning ayrim vakillari hatto o'zining o'zbekligini ham unitayozgandi.

Bunday sharoitda, ya'ni amaldagi mafkuradan voz kechilgan, yangi mafkuraning konseptual tamoyillari hali ishlab chiqilmagan bir sharoitda izchil oilaviy tarbiya ko'rmagan, o'zligini anglab olishga ulgurmayan ayrim yoshlarimiz ongida mafkuraviy bo'shliq (vakuum) hukm surardi. Bunday yoshlarni begona mafkuralar ta'siridan himoyalash ham dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Chunki, mustaqillik arafasida (oshkoralik davrida) va mustaqillikning ilk davrlarida turli ekstremistik oqimlar, diniy aqidaparastlar, diniy-konfessional yo'nalishdagi missionerlik

tashkilotlari mafkuraviy qadriyatlarini shakllanmagan soddadil yoshlarimizni, ularning fikru-zikrini o'zlarining millatni deformatsiyalovchi g'oyalariغا xizmat qildirish maqsadida buzg'unchi kuchlar safiga qo'shib olishga shay turishardi.

Bu mamlakatimiz mafkuraviy mustaqilligini saqlashga, mamlakatda barqaror tinchlikni ta'minlashga qarshi qaratilgan katta xavf edi. Ayniqsa, ko'p millatlar va elat vakillari yashaydigan, turli din va diniy konfessiyalarga e'tiqod qiladigan aholi yashaydigan bizning yurtimizda millatlararo, dinlararo mojarolar boshlanib ketish xavfi keskinlashishi mumkin edi. Buning ustiga xalqimiz 70 yillik kurashchan ateizm hukmronligi davrida musulmonchilik an'analaridan ham birmuncha begonalashib qolgan edi. Mustaqillik munosabati bilan mamlakatimizda diniy e'tiqod erkinligiga keng yo'l ochildi. Bu masalada O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1992 yil 2 iyulda so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Dinga, diniy tashkilotlarga keng yo'l ochib berildi. Buyuk hajga ilgari nari borsa besh-olti kishi borardi. Endi har yili minglab odamlar muqaddas joylarga emin-erkin ziyoratga borishyapti. Din odamzodni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Din bu dunyoning o'tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini hushyor bo'lishga, harom yo'llardan uzoq yurishga, yaxshi bo'lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi. Biz dinga bundan keyin ham barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz. Diniy rasm-rusumlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta'limga doimo jiddiy e'tibor beriladi". (O'zbekistonning Birinchi Prezidenti ilgari surgan bu g'oyalar bugungi kunda uning sadoqatli shogirdi, Sh.M.Mirziyoyev tomonidan muvaffaqiyatli ravishda amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonining beshinchi bandi bevosita shu masalaga qaratilgan).

Dinga bunday demokratik yondashuvni o'sha davrda hamma ham to'g'ri qabul qilavermasdi. Yurtimizda e'tiqod erkinligi qaror topishi bilan xalqimiz emin-erkin ibodatlarini davom ettira boshlashdi, ammo, an'anaviy diniy ibodatlar bilan fundamentalistik g'oyalarni ajrata olmaydigan ba'zi yoshlar va hatto ayrim soddadil kattalar ham dinni bir yoqlama tushuna boshladi. Bunday kishilar ongiga diniy qadriyatlar sifatida turli xil diniy aqidaparastlik g'oyalari bilan mutaassiblashgan oqimlarning buzg'unchi g'oyalar ham suqilib kira boshladi. Ayniqsa, arab mamlakatlarida faoliyat olib borayotgan fundamentalistik kuchlar vahobiylik g'oyalarini, Turkiyadan diniy ma'rifatparvarlik shiori ostida nurchilarning siyosiy hokimiyatni egallashga chaqiruvchi g'oyalari, dinni siyosiy lashtirib talqin etuvchi xizbut-tahrirchilar harakati hamda ular bilan til biriktirgan mahalliy oppozitsion guruhlarining faoliyati ham kuchaya boshladi. Bunday vaziyatda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining nazariy konseptual asoslarini ishlab chiqish hayotiy zaruriyatga aylangandi.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga alohida e'tiborni qaratdi. Islom Karimovning jamoatchilik oldidagi chiqishlarida milliy manfaatlar, milliy istiqlol, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va milliy mentalitet masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan edi. Buni ayrim siyosatdonlar Islom Karimovning millatchilikka yo'l ochishi deb talqin eta boshlashdi. Ammo o'zbek xalqining asrlar davomidagi ezgu niyati mustaqil davlatchiligimizni rivojlantirish, milliy manfaatlarni himoya qilish yo'li bilan amalga oshishi oddiy haqiqat edi.

Xalqni milliy manfaatlar himoyasi yo'lida birlashtirish uchun xalqning mafkuraviy konsepsiyasini ishlab chiqishi lozim edi. Bu hayotiy zaruriyatni chuqur anglagan I.A.Karimov o'zining asarlar to'plamining 1-jildini "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura" deb atadi. Bu kitobda O'zbekistonning barcha sohalardagi milliy manfaatlari o'z ifodasini topgan edi.

I.Karimov milliy g'oyaning nazariy konseptual asoslarini ishlab chiqish lozimligiga alohida e'tibor berib, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilingan kunning bir yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali majlisda shunday dedi: "Asosiy qonunimizda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, deyilgan. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasini maqomiga ko'tarilishi mumkin emas. Bu konstitutsiyaviy qoida bizning oldimizga milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini qo'yadi.

Milliy istiqloq mafkurasi xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qilishi lozimligini hech qachon unutmaylik". Haqiqatdan ham bu masala nihoyatda dolzarb masala edi. I.Karimovning keyingi maqolalarida, ayniqsa, "Tafakkur" jurnali bosh muharriri Erkin A'zamov bilan suhbatda milliy mafkura masalasi bosh mavzu sifatida muhokama qilindi. Bu suhbatda mafkuraning mohiyati, uning asosiy vazifalari, totalitar mafkuraning oqibatlari. Jahondagi mafkuraviy jarayonlar, mafkuraviy poligonning har qanday harbiy poligonlardan xatarli ekanligi. Milliy mafkuraning xususiyatlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, mafkuraviy bo'shliqning vujudga kelish sabablari, mafkuraviy immunitet va uning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rni, milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirish yo'llari, mafkurasizlik, mafkuraviy nigilizm va boshqa masalalar bu suhbatda muhokama qilingan.

Milliy g'oyamiz shakllanishida ilmiy va ma'naviy merosimizning o'rni va ahamiyati nihoyatda katta. Milliy g'oya har bir jamiyat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini ta'minlovchi milliy omil sifatida namoyon bo'ladi. Ajdodlarimiz jamiyatning barcha bosqichlarida jamiyat a'zolari tafakkuriga ezgulikka va bunyodkorlikka chorlovchi g'oyalarni singdirib kelganlar. Masalan, zardushtiylar dinining «Avesto» kitobidagi g'oyaviy konsepsiya – «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal» tamoyili buning yorqin dalilidir. O'rta asrlarda vujudga kelgan g'oyalar o'sha davr madaniyatining bir qismi bo'lib, u ulug' bobokalonlarimizning islom diniga, Sharq falsafasi va jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan ta'limotlarida ifodalangan. Ma'lumki, islomiy g'oyalar Qur'oni Karim va hadislardagi ta'limotning asosi sifatida shakllanib, ular islom qonun-qoidalari, iymon-e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlarda o'z ifodasini topgan. Bunday g'oyalarni anglashda Imom Buxoriyning Qur'oni karimdan keyingi asosiy kitoblardan biri sifatida tan olinadigan "Sahih Buxoriy" asari katta ahamiyat kasb etadi. Unda islom ta'limotining asosiy g'oyalari sharhi o'z ifodasini topgan.

Ushbu ta'limotni o'rganish va uning turlicha talqin qilinishi ko'plab mazhablarni vujudga keltirdi. Islom falsafasida mashshoiyunlar va tabiiyularning (Arastu falsafasi va tabiatni o'rganishga ahd qilganlarning) falsafiy g'oyalari o'sha davr ma'naviyatining dunyoviy hamda diniy masalalarda, jahon falsafiy tafakkurida ro'y berayotgan jarayonlarga nisbatan tashabbuskor kuch ekanini ko'rsatib turibdi. Bu sohadagi asosiy g'oyalarga ko'ra, insoniyat istiqboli komil insonni shakllantirish orqali yuzaga keladi, iymon-e'tiqod, axloq-odob esa inson tafakkurining ajralmas tarkibiy qismidir. Mazkur yo'nalishdagi g'oyalar talqinida o'z o'rniga ega bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotida insonning o'z gunohlarini, jumladan, shaxsiyatparastlik, ta'magirlik, boriga qanoat qilmaslik kabi illatlari ayovsiz ochib tashlanib, ulardan uzoqlashishga da'vat qilinadi. Vatanparvarlik jasoratini ibrat tariqasida ko'rsatgan Najmiddin Kubro o'z tariqatining mohiyatini o'nta usulda mujassamlagan. Bular - Tangriga o'z xohishi bilan yuzlashish, zuxd fi dunyo - har qanday lazzatdan o'zini tiyish, tavakkul - Allohga e'tiqodi pokligi uchun barcha narsalardan voz kechish, qanoat, uzlat - xilvatni ixtiyor qilish, mulozamat az-zikr - uzluksiz zikr, tavajjuh - Haqqa muhabbat qo'yish, sabr - nafs balosidan ozod bo'lish, muroqaba - tafakkurga g'arq bo'lish, rizo - Tangri xushnudligini qozonishdan iborat. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, ezgu g'oyalarni insonlar qalbida shakllantirish bilan birga, farovon hayot kechirishning asosiy manbai mehnat orqali kun kechirish ekanini targ'ib etishdir. Bahouddin Naqshband ta'limotining mohiyati "Dil ba yoru dast ba kor" g'oyasida yakqol ifodasini topgan. Inson Alloh inoyati natijasi bo'lib, bu dunyoni unutib qo'ymasligi lozim, uning qalbi doimo Allohda, qo'li esa mehnatda bo'lmog'i kerak. Uning ta'kidlashicha, qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi, bu esa ko'ngilni poklab, ruhni ilohiy kuvvatdan bahramand qiladi. Abu Nasr Forobiy inson aql vositasida ilm-fanni yaratadi, deydi. Fan tufayli hodisalar mohiyati ochib beriladi, har bir fan insonning muayyan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Mutafakkir o'z asarlarida komil inson, fozil fuqaro, odil hukmdor, baxt-saodat, unga erishish yo'llari, davlatning xususiyatlari, axloqiy va aqliy tarbiya, ijtimoiy istiqbol to'g'risidagi ilg'or g'oyalarni ilgari surgan. Buyuk qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniyning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy g'oyalari asosida shakllandi. Beruniy "Oddiy javharlar paydo bo'lish va yo'q bo'lishni bilmaydi", degan g'oyani ilgari surgan. Bunda abadiylik birinchi sabab

bilan bog'liq, chunki u yaratuvchi umrini anglatadi. Yana bir alloma Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida ilm va axloq-odob uyg'unligi, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, kishilarning o'zaro hamkorligi, hukmdorning burchi to'g'risida qiziqarli g'oyalarni ilgari surgan. Uningcha, barchani bir xil ijtimoiy mavqega erishtirib bo'lmaydi. Aslida ular uchun muayyan sharoit yaratib bermoq lozim.

Insoniyat tarixida shunday g'oyalar borki, ular buyuk ishlarga tayyor millatlarni o'zining yo'l boshchilari etakchiligida, tarixning muayyan qisqa bosqichlarida ming yillarda qo'lga kiritish mumkin bo'lgan natijalarga erishishga undaydi. Aynan bunday goyalarning amaliy ifodasi insoniyat tarixiga shu millatga mansub buyuk kishilarning o'chmas nomini bitadi, jahon madaniyatini boyitadi, umumbashariy taraqqiyotga ulkan hissa bo'lib qo'shiladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan etishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar hayoti hamda faoliyati asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spetamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy va Bobur Mirzo kabi atoqli farzandlari bunyodkor g'oyalar sohiblaridir. Amir Temur va temuriylar davridagi ana shunday yuksak g'oyalar xalqimizning milliy dahosini eng yuksak cho'qqiga ko'tardi. Amir Temurning "Kuch - adolatda" g'oyasi mamlakatdaga salbiy illatlarni yo'qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o'rnatishda, insonparvarlik g'oyalarini tarqatishda asosiy o'rin egalladi.

Shu davrning mevasi - Alisher Navoiy ijodiy merosida insonparvarlik va komil inson g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Shoir o'z asarlari orqali ushbu g'oyalarni yoydi, turli millat va elatlar o'rtasidagi do'stlikni ulug'ladi. Xalqni farovonlikka, baxt-saodatga eltuvchi, hamma teng, zulm-istibdoddan xoli bo'lgan davlat tuzumini orzu qildi. Navoiyning yaxshilik, ezgulik, muhabbat, do'stlik, adolat, tinchlik, osoyishtalik kabi umuminsoniy g'oyalari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar to'g'risidagi qimmatli fikrlari respublikamiz istiqbolga erishganidan so'ng ham barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz o'tmishida temuriylardan keyingi ijtimoiy-falsafiy g'oyalar rivoji alohida o'ringa ega. Ma'lumki, temuriylar davlati asta-sekin inqirozga yuz tutib, mayda davlat-larga bo'linib ketdi, mahalliy nizolar kuchayishiga olib keldi. Bu iqtisod, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at ravnaqiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ayniqsa, tabiiy-ilmiy fanlar rivoji zaiflashdi, dunyoviy bilimda tanazzul ro'y berdi. Shunga qaramasdan, davr mohiyatini aks ettiradigan teran fikr va g'oyalar vujudga keldi. Masalan, Boborahim Mashrab insof, adolat, diyonat, saxovat, aql-zakovat, ruhiy komillik, halol-lik, mehr-oqibat, kamtarlik kabi ma'naviy-axlokiy fazilatlarni tahlil qilib, salbiy illatlarni qoraladi. Uningcha, inson o'z millati boyligi bilan emas, balki odamiyligi, insonparvarligi, vijdoni bilan boshqalardan afzal bo'la oladi. Shoir o'z ijodida Allohga muhabbat g'oyasini tasvirlaydi. U tasavvufning qalandarlik tariqatini tanlaydi, xalqni ezgulikka, insof va diyonatga, to'g'rilikka chaqiradi. Inson hirsu ochko'zlik, hayvoniy sifatlar, manmanlik, xudbinlik kabi xislatlardan poklanish uchun o'z asli - ilohiy ishqqa yuz tutishi lozim. Aks holda, u insoniyatini yo'qotib, tubanlashib ketishi muqarrar. Ogahiy o'z ijtimoiy qarashlarida insonparvarlik g'oyalarini ilgari surdi, odamlarni yaxshilik va ezgulikka, xayrli ishlarga va ma'rifatparvarlikka da'vat etdi. Ahmad Donish esa o'z asarlarida mamlakatni odilona boshqarish uchun islohot zarurligini uqtirdi. Uningcha, hukmdor bilimdon, aqlli bo'lib, xalqning manfaatini himoya qilishi, o'z atrofidaqilar bilan kengashib, davlatni idora qilishi lozim. A. Donishning g'oyalari hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

XX asr boshida vujudga kelgan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyondalari - Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida ma'rifatparvarlik g'oyalari yanada kuchaydi. Ular yangi maktablar qurish, yosh avlodni ilmiy kilishga, ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashga katta hissa qo'shgan mutafakkirlardir. Ularning asarlarida millat va Vatan taqdiri, axloq va ta'lim-tarbiya kabi masalalar, xalqlarni birlashtirish, butun o'lkaning ma'rifiy taraqqiyoti uchun kurash g'oyalari ilgari surilgan.

Shuningdek, xalqni asriy qoloqlikdan qutqarish yo'llari, iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatni xom ashyo qaram-ligidan xalos etish, ma'rifat va ma'naviyatni yuksaltirish masalalari yoritilib, jaxon fani hamda texnikasi yutukdarini o'rganish kabi g'oyalar ham jadidlar faoliyatining asosiy mezonlaridan biri edi. Ularning millatparvarlik va vatanparvarlik

ruxi bilan sug'orilgan g'oyalari hozir ham ma'naviyat hamda ma'rifatni ravnaq toptirishda, xalqning o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega.

2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyoti uchun zarurligi to'g'risida.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning eng katta xizmatlaridan biri odamlarning tafakkurini o'zgartirish, ularning ongida yangi milliy g'oya, milliy mafkura asoslarini shakllantirish va mustahkamlash ishiga rahnamolik qilgani bo'ldi. Ma'lumki, akademik Islom Abdug'anievich Karimov o'zidan bebaho ilmiy, ijtimoiy-siyosiy meros qoldirdi. Vatanimiz Islom Karimovning "O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura"(1996), "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin"(1996), "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir"(1996), "Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi"(1997), "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida"(1998), "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz"(1999), "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz"(2000), "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak"(2002), "O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi"(2006), "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch"(2008), "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari"(2009), "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida"(2011), "Ona Vatanimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir"(2015) va boshqa asarlari hamda ma'ruzalarida bayon qilingan g'oyalari asosida rivojlanishning ravon yo'liga chiqib oldi. Mazkur manbalar asosida milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyoti uchun zarurligi nazariy konseptual jihatdan asoslab berildi.

Milliy g'oyaning xalq ongiga singdirilishi milliy manfaatlarni to'g'ri belgilashga va o'z navbatida vatanparvar, mas'uliyatli insonlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda hayot Birinchi Prezidentimizning "Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar"⁹ degan fikrining naqadar to'g'ri ekanini isbotladi. "Ushbu g'oyani qanday zarurat shakllantirdi?" va "Undan ko'zlanayotgan maqsad-muddaolar nima?" degan savollarga javoblar buyuk davlat va jamoat arbobi Islom Karimovning ko'p yillik izlanishlari, asarlaridagi fikr-mulohazalarida o'z aksini topdi. Bu asarlarda milliy istiqloq g'oyasining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari aniq ifodalab berilgan.

Ushbu yaxlit ta'limotning nazariy manbalarini o'rganishda Birinchi Prezidentimizning istiqloqni ilk yillaridayoq chop etilgan asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, ayniqsa, "O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura" nomli birinchi jildga kirgan asarlarni alohida ta'kidlash lozim. Ushbu jildidan o'rin olgan "Istiqloq yo'li: muammolar va rejalar" asarida ham bu masalaga katta e'tibor berilgan. Jumladan, davlatimiz rahbari mazkur asarda bugungi kunda ham xalqni yakdil qila oladigan ishlar va g'oyalar oz emasligi, ularning ichida eng ulug'i, eng olijanobi — O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini ta'minlash ekanini alohida ta'kidlaydi. Ushbu fikrning davomida "Mafkura hukmron bo'lgan joyda tenglik va adolat bo'lmaydi. Biz buni o'tmishdagi achchiq tajribamizdan juda yaxshi bilamiz"¹⁰ degan tarix haqiqati o'z ifodasini topgan.

Milliy g'oyaning nazariy asoslari, mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalarining jamiyat hayotida o'rni, ahamiyati va zarurligini yangicha idrok etishda Islom Karimovning "Tafakkur" jurnali Bosh muharriri savollariga javoblari aks etgan "Jamiyatimiz mafkurasiga xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin" asari, shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Asarda jamiyat mafkurasining asl ma'no-mohiyati, "xalqni — xalq", "millatni — millat" qilishga xizmat qilishdan iborat asosiy vazifasi bilan bog'liq yo'nalish va muammolar atroficha tahlil etib berilgan.

Buyuk davlat arbobi Islom Karimov ushbu asarda jamiyat mafkurasiga quyidagicha ta'rif beradi. "Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini

⁹Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. - T.: "O'zbekiston", 1999, 843-bet

¹⁰Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. - T.: «O'zbekiston», 1996, 14-bet

aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman"¹¹.

Milliy g'oyaning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari bilan bog'liq masalalar buyuk davlat va jamoat arbobining "Milliy g'oya — xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" mavzuida "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblarida o'z aksini topgan. Unda ta'kidlanganidek, bugungi dunyo insonlar va xalqlarning ongi hamda qalbini egallashga qaratilgan turli g'oyalarning sinov maydoniga aylanib qoldi. O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilmiy muomalaga bir qator tushunchalar kiritilganligini qayd etish lozim. Ular qatorida "mafkuraviy immunitet", "mafkuraviy profilaktika" kabilardir. Ana shu tushunchalarning mazmuni oydinlashtirilganda hozirgi dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yanada yaqqolroq tasavvur qilish imkoni tug'iladi. "Mafkuraviy immunitet" tushunchasini Birinchi Prezidentimiz dastlab Islom Karimov ishlatgan va unga quyidagicha ta'rif bergan - "Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur"¹².

Demak, mafkuraviy immunitet - davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov "Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur"ligi haqidagi fikrni alohida ta'kidlaganlar¹³.

Milliy g'oyaning nazariy manbalari qatorida Prezident Islom Karimovning Oqsaroy qarorgohida 2000 yilning 6 aprelida bir guruh ziyolilar, olimlar va mutaxassislar bilan bo'lib o'tgan yig'ilishdagi ma'ruzasi alohida ahamiyat kasb etadi. "Milliy g'oya - davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai" mavzuidagi mazkur ma'ruzada ta'kidlanganidek, o'z davlatchiligiga ega bo'lishni ko'zlagan har bir xalq o'z maqsadiga olib boradigan g'oya va mafkurani belgilab olishga harakat qiladi, zero, busiz biror jamiyat, davlat taraqqiyotga erisha olmaydi. Kelajak sari yo'naltiruvchi kuch vazifasini esa milliy g'oya, milliy mafkura bajaradi"¹⁴. Ushbu asarda Birinchi Prezidentimiz milliy mafkura hech qanday holda davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilmasligi kerakligi, mamlakatimizda g'oyalar xilma-xilligi saqlangan holda har qanday partiya, harakat, har qaysi inson, fuqaroning o'z fikrlarini erkin ifoda etishi, shu bilan birga milliy g'oya davlatimiz, jamiyatimiz, xalqimiz yuksalishi yo'lida, buyuk kelajak barpo etishda va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashimizda yagona birlashtiruvchi kuch-qanot bo'lishi shartligini ta'kidlagan edilar.

Prezident Islom Karimov asarlar to'plamining 9-jildida ham mamlakatimiz taraqqiyotining barcha muhim masalalari teran nazariy tahlil qilingan, amaliy maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, 2000-yil "O'zbekiston" nashriyotida nashrdan chiqqan "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasiga Islom Karimov yozgan so'z boshida milliy g'oyaning asosiy maqsadi, mazmun mohiyati, uni shakllantirish yo'nalish va tamoyillari haqida to'xtalib, shunday deb yozadi: "Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'alarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularning yaratuvchanlik ishlarga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir"¹⁵.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida jamiyat rivojlanishi qonuniyatlari, shart-sharoitlari va omillariga amal qilib kelingan turli xil

¹¹Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. - T.: "O'zbekiston", 1996, 89-bet

¹²Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. - T.: "O'zbekiston", 2000, 494-bet

¹³Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. - T.: "O'zbekiston", 2000, 494-bet

¹⁴Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. - T.: "O'zbekiston", 2000, 440-bet

¹⁵Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulimiz. 9-jild. - T.: "O'zbekiston", 2001, 222-bet

qarash va yondoshuvlarga nisbatan yangicha konseptual g'oyalar asoslab berildi va ishlab chiqilganligini quyidagi g'oyalar orqali ko'rish mumkin:

“Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi”¹⁶ – deb ta'kidlaydi Birinchi Prezident I.Karimov. Demak jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi qarashlarni o'zgartirish jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq kommunistik g'oya aqidalardan voz kechish zamon o'zgarishlarini hisobga olishga alohida e'tibor qaratiladi. Va mavjud an'anaviy qarashlarni o'zgartirish bilan bog'liq g'oyalar va qarashlar o'rtaga tashlanadi.

Natijada jamiyat rivojlanishi to'g'risida mavjud bo'lgan an'anaviy qarash o'zgardi. Uni quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

- jamiyat, jamiyat rivojlanishi tushunchalariga yangicha qarash amalga oshirila boshlandi. U materialistik dialektika qolipidan, prinsiplaridan xalos etildi;

- jamiyat taraqqiyoti faqat moddiy ishlab chiqarishga bog'liq degan g'oyaga yangicha qarashga asoslanildi. Formatsion qarashdan voz kechildi. Jamiyat taraqqiyotiga sivilizasion yondoshuv amal qila boshladi;

- jamiyat taraqqiyotiga sinfiy qarashdan voz kechildi. Jamiyat rivojlanishida inson omiliga – oliy qadriyat sifatida qarala boshlandi;

- jamiyat rivojlanishini inson va ongi tafakkuriga bog'liq ekanligiga alohida e'tibor berila boshlandi. “Ong va tafakkur o'zgarmasa ijtimoiy hayot o'zgarmaydi” (I.Karimov) degan g'oya ilgari surildi va ilmiy asoslab berildi;

- jamiyat iqtisodiy negizi o'zgartirildi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkning xilma-xilligiga o'tildi.

- Jamiyat rivojlanishi “ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi”¹⁷ bilan bog'liq qonuniyatga amal qila boshladi.

Jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi yangicha ilmiy-nazariy g'oyalarning o'zgarishi ijtimoiy hayot sohalarini tubdan o'zgartirish bilan bog'liq. Bu buyuk siyosat va davlat arbobi I.Karimov asarlarida “O'zbekistonni mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanishi” hamda “o'zimizga xos va mos taraqqiyot yo'lidan boramiz” va “o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz” g'oya va maqsadlarida orqali aniq ifodasini topadi. Va jamiyat rivojlanishi buning uchun muayyan o'tish davri va taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tish zarurligi, mohiyati asoslab beriladi.

Jamiyat ijtimoiy hayoti sohalaridagi tub o'zgarishlar deganda uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyaviy asoslarini tubdan o'zgartirish va yangicha asosga (negizga) o'tkazilishini anglatadi. Natijada mustaqillik tufayli jamiyat ijtimoiy hayoti sohalari tubdan o'zgardi. Uning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida ko'ramiz. Unga ko'ra “O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas”¹⁸.

Shuni ta'kidlash kerakki, Islom Karimov asarlarida jamiyat rivojlanishi bosqichlari quyidagicha asoslab berilgan.

1. 1989-1991 yillar - Mustaqillik ostonasi
2. 1991-2000 yillar - O'tish davri bosqichi
3. 2000-2007 yillar - Mamlakatni modernizatsiyalash
4. 2007 yildan 2016 yil sentabrgacha - Mamlakatda demokrataik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bosqichi.

Mazkur jamiyat rivoji bosqichlarida g'oyaviy-mafkuraviy sohada quyidagi tub o'zgarishlar amalga oshirildi:

- Kommunistik g'oya aqidalaridan voz kechildi. Milliy g'oya: asosiy tushunchalari va tamoyillari ishlab chiqildi;

¹⁶Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: “O'zbekiston”, 2011

¹⁷Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengimas kuch. T., 2008

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 12-modda, 2017

- Milliy g'oya negizlariga tayangan holda O'zbekiston jamiyati rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari asoslab berildi;
- Jamiyat rivojlanishida milliy madaniy meros hamda umuminsoniy qadriyatlar, demokratik prinsiplarga amal qilina boshlandi.

Xullas, Islom Abduganiyevich Karimov – Milliy g'oya va mafkura konsepsiyasining asoschisi hamda amaliyotga faol tatbiq etuvchisi, O'zbekistonda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning xassos yetakchisi, Ona Vatan taraqqiyotining yirik ilhomchisidir. Shu sababli Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: “Haqiqatdan ham, Birinchi Prezidentimiz biz uchun yangi hayot, yangi jamiyat asoschisi, mustaqil O'zbekiston bunyodkori sifatida tariximizda mangu qoladi, yuksak ibrat namunasi bo'lib xalqimiz qalbida abadiy yashaydi”¹⁹.

3. Milliy g'oyaning inson, xalq va millatlarning orzu-umidlari, maqsad va intilishlari, moddiy va nomoddiy merosi, qadriyatlari bilan bog'liqligi.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi eng asosiy vazifa, deb ta'kidlagan buyuk davlat va jamoat arbobi Prezident Islom Karimov, milliy istiqloq g'oyasini shakllantirish va odamlar ongiga singdirishdan iboratdir.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan kundan boshlab jamiyatimizning milliy g'oyasini yaratish dolzarb vazifa bo'lib qoldi.

1993- yil 23- aprel kuni Prezident Islom Karimov bir guruh adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqloq g'oyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida 1993- yil 7-may kuni nutq so'zlab, Prezident Islom Karimov quyidagilarni ta'kidladi:

- milliy istiqloq g'oyasi xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim;

- shu bilan birga, bu g'oya xalqimizda, o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli asosda munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

„Tafakkur“ jurnalining 1998- yil 2- sonida jurnal bosh muxbirining savollariga Birinchi Prezident Prezident I.Karimovning javoblari e'lon qilindi. Mazkur javoblarda milliy g'oyamizni nazariy va amaliy jihatlari yanada chuqurroq yoritildi. Bugungi kunda sobiq Ittifoq zamonida hukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mutelik holatiga solgan, manqurtga aylantirgan kommunistik mafkurani tanqid qilish, taqiq qilish, ma'muriy choralar ko'rish yo'li bilan yengib bo'lmaydi. “G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin“, - degan haq fikrni ilgari surdi Islom Karimov.

Milliy istiqloq g'oyasidan kutilgan maqsad nima? “Maqsad degani - xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir... Toki bu maqsad xalqni - xalq, millatni – millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga aylansin”.

Buyuk davlat arbobi I. A. Karimov Milliy mafkuraning shakllanishida kimning manfaatlari va qarashlari yuzaga chiqishi kerak? - degan savolga quyidagicha javob bergan edi:

“Sodda qilib aytganda, jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo'lmish, oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g'ayrat manbai bo'lishi lozim”.

Prezident I. A. Karimov suhbatda “Xo'sh, milliy g'oya, milliy mafkura nimalarni o'zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak?” degan savolni qo'yadi va unga javob berar ekan, quyidagi dasturiy ahamiyatga molik fikr-mulohazalarni, vazifalarni ilgari surgan:

¹⁹ Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016, 41-bet

- birinchidan, milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart;

- ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya-mafkura bo'lishi kerak;

- uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor;

- to'rtinchidan, milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur;

- beshinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajakni uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

4. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoev Milliy g'oyani mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichidagi ijtimoiy birdamlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilganligi to'g'risida.

Ma'lumki, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish, ijtimoiy birdamlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun juda ko'plab normativ-me'yoriy hujjarlar qabul qilmoqda va amaliy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Prezident tomonidan qabul qilinayotgan barcha qaror va farmonlar qanchalik darajada o'z vaqtida ijro etilsa, erksevar, mehnatkash xalqimiz jamiyat hayotining barcha sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi va shunchalik darajada strategik jihatdan o'zining jahon hamjamiyati oldida g'oyaviy-mafkuraviy daxlsizligini ta'minlashga qodir bo'ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "yanada ogoh va sergak bo'lish, eng asosiy boyligimiz bo'lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko'p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir".

Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o'zaro hurmat va mehroqibat muhitini ko'z qorachig'idek saqlash hamda mustahkamlashni Yurtboshimiz ustuvor vazifasi deb e'lon qildi.

Ma'lumki, yurtimizda vijdon va e'tiqod erkinligi, turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanib, diniy bag'rikenglik muhiti mustahkamlanmoqda. Hozirgi vaqtda diyorimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari o'zaro hamjihat yashamoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash davlatimiz e'tibori markazida bo'ladi. Ularning o'rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmaydi. Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo'lishni talab etmoqda.

Shu borada O'zbekiston chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yurtimiz ostonasiga hech qanday balo-qazoni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar hamisha mamlakatimiz diqqati markazida bo'ladi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "O'zbekiston va uning bag'rikeng xalqi tinchliksevar siyosat yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash tamoyillarini amalga oshirish

pozitsiyasida doimo mustahkam turib kelmoqda. Lekin, zarur bo'lsa, biz mamlakatimiz suvereniteta va mustaqilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan har qanday urinishlarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz. Shuning uchun men, xalqimizga murojaat qilib, shuni aytmoqchimanki, bu masalada hech kimda hech qanday ikkilanish va shubha bo'lmasligi lozim. Bunga bizning kuchimiz ham, qudratimiz ham etarli"²⁰.

O'zbekistonning hozirgi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda milliy mafkuramiz g'oyalarini muvaffaqiyatli tarzda amaliyotga tadbiiq etmoqda. Jumladan, ma'naviy tarbiyani yanada takomillashtirishga bag'ishlangan qarorlarida, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Termizda Imom Termiziy xalqaro markazi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi va Qarshida Nasafiylar markazini bunyod qilish bo'yicha olib borayotgan say'i harakatlari ham I.Karimovning milliy mafkura konsepsiyasini amalga oshirish yo'lidagi amaliy faoliyatining uzluksiz davomidir.

Mustaqil ta'lim mavzulari

- Markaziy Osiyo mutafakkirlarining milliy g'oya, g'oyaviy ta'sir usullari haqidagi qarashlari.
- Milliy g'oya-O'zbekiston jamiyati rivojlanishining g'oyaviy asosi.
- Prezident Shavkat Mirziyoyevning ijtimoiy birdamlikni ta'minlash haqidagi fikrlari.

GLOSSARIY

MILLIY G'OYA - millatning o'tmishi, buguni, istiqboli, manfaat va maqsadini ifodalovchi ijtimoiy g'oya.

BUNYODKOR G'OYALAR - 1) Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan tushuncha; 2) Jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi g'oya.

VAYRONKOR (BUZG'UNCHI) G'OYALAR - 1) bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha; 2) insonni va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalardir.

Keyslar banki

Keys 1. Milliy g'oyaniy nazariy konseptual asoslarini aniqlang.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

Nazorat savollari:

1. Milliy g'oya O'zbekiston jamiyati rivojlanishining g'oyaviy konseptual asosi ekanligini isbotlab bering.
2. Milliy g'oya shakllanishida ilmiy, ma'naviy meros nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyoti uchun zarurligi to'g'risida fikrlarini ayting?
4. Milliy g'oyaning inson, xalq va millatlarning orzu-umidlari, maqsad va intilishlari, moddiy va nomoddiy merosi, qadriyatlar bilan bog'liqligi asoslab bering.
5. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoev Milliy g'oyani mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichidagi ijtimoiy birdamlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilganligi to'g'risidagi fikrlarni aniqlang.

²⁰ Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016, 8-9-betlar

3 - MA'RUZA. JAMIYAT MAFKURASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI

Reja

1. Jamiyat mafkurasining davlat mafkurasidan farqlanishi. O'zbekiston jamiyati hayotining g'oyaviy mafkuraviy asoslari va uning konstitutsion prinsiplari.
2. Milliy g'oyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar.
3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarda an'anaviylik va zamonaviylik munosabati.
4. Qadriyatlarning tarix sinovidan o'tganligi, jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'siri, inson va xalqlarning maqsad va manfaatlariga to'g'ri kelishi, yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va jamiyat taraqqiyotida ahamiyati.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: Venn diagrammasi, «Aqliy hujum», Klaster metodi, «Blits so'rov», mini keyslardan foydalanish.

Tayanch so'zlar

Jamiyat mafkurasining davlat mafkurasidan farqlanishi. O'zbekiston jamiyati hayotining g'oyaviy mafkuraviy asoslari va uning konstitutsion prinsiplari. I.A.Karimov milliy g'oyaning ikki negizi to'g'risida. Milliy va umuminsoniy tamoyillar. Milliy-ma'naviy meros va qadriyatlar. Moddiy va nomoddiy madaniyat. Xalq og'zaki ijodi. Tarixiy meros va xotira. Urf-odat va an'analar. Til. Din. Adabiyot. Ong va dunyoqarash. Umuminsoniy qadriyatlar. Inson erkinligi, huquq va manfaatlar ustuvorligi. Qonun ustuvorligi. Adolat tamoyili. Ta'lim-tarbiya, ilm-fan rivojlanishi. Demokratiya. Bozor iqtisodiyoti tajribalariga tayanish.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarda an'anaviylik va zamonaviylik munosabati. Qadriyatlarning tarix sinovidan o'tganligi, jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'siri, inson va xalqlarning maqsad va manfaatlariga to'g'ri kelishi. yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va jamiyat taraqqiyotida ahamiyati.

Yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish hamda ularda atrof muhitga nisbatan ratsional yondashuv ko'nikmasini hosil qilish.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 12-

modda.

1. Jamiyat mafkurasining davlat mafkurasidan farqlanishi. O'zbekiston jamiyati hayotining g'oyaviy mafkuraviy asoslari va uning konstitutsion prinsiplari.

Jamiyat mafkurasining davlat mafkurasidan farqlanishi haqida so'z yuritishdan avval mafkura tushunchasining mohiyati, tasnifi, shakllari haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. "Mafkura" arabcha so'z bo'lib, fikr yuritish, tafakkur, e'tiqod va maslaklar tizimi²¹ degan ma'nolarni anglatadi.

Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, elat, millat, xalq, jamiyat, davlat ehtiyoj va manfaatlar, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

G'arb mamlakatlari tillarida mafkura «ideologiya» atamasi vositasida qo'llaniladi. «Ideologiya» yunoncha «ideya» va «logos» so'zlarining birikmasidan tashkil topgan bo'lib, g'oyalar haqidagi ta'limot degan ma'noni bildiradi. Bu atama ilk bor 1797 yilda fransuz inqilobi davrida faylasuf va iqtisodchi Destyut de Trasse tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U 1815-

²¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. J.2.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 558-bet.

yilda yozgan “Ideologiya elementlari” nomli kitobida “ideologiya” soʻzini falsafiy tushuncha sifatida ishlatgan.

Har qanday mafkura quyidagi maqsadlarni koʻzda tutadi: 1) muayyan gʻoyaga ishonitirish; 2) uyushtirish; 3) safarbar etish; 4) maʼnaviy-ruhiy ragʻbatlantirish; 5) gʻoyaviy tarbiyalash; 6) gʻoyaviy immunitetni shakllantirish; 7) harakat dasturi boʻlish. Mafkuraning moʻljal, xulq-atvor, emtsiya kabi elementlari mavjud.

Davlat va jamiyat mafkurasi tushunchalarini bir-biridan farqlanadi. Oʻzbekistonda biror mafkuraning, hattoki milliy istiqloq mafkurasining ham davlat mafkurasi darajasiga koʻtarilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Oʻzbekistonda milliy mafkuraning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Bu nazariy asos bugundayoq oʻz mahsulini bermoqda. Shuningdek, uni xalqqa yetkazish uchun jamiyatning ilgʻor fikrli kishilari shoirlar, yozuvchilar, siyosatshunoslar, faylasuflar mahkam bel bogʻlab ishga kirishdilar. Umuman olganda tarix, falsafa, siyosat, adabiyot va boshqalar bu mafkurani xalqqa toʻgʻri yetkaza bilmoqlari lozim.

Mafkuraning nazariy asoslari Oʻzbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan. Mafkurani xalqqa yetkazishda uning asarlari metodologik vazifani bajarmogʻi lozim. Jumladan, davlat va jamoat arbobi Islom Karimov mafkuraning jamiyat hayotida tutgan oʻrni haqida: “Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura boʻlmasa odam, jamiyat, davlat oʻz yoʻlini yoʻqotish muqarrar²². Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini koʻzlagan va uning dunyodagi oʻrnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun oʻrtasida oʻziga xos koʻprik boʻlishiga qodir gʻoyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman²³. Shu oʻrinda notoʻgʻri fikrga oʻrin qoldirmaslik kerak.

«Mafkurani Birinchi Prezident ishlab chiqqan ekan, demak u davlat mafkurasi ekanda, bu Konstitutsiyaga xilof-ku» deyish nooʻrin. Oʻzbekistonda hech bir mafkura hukmron boʻla olmaydi. Ushbu holat Oʻzbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 12-moddasida ham oʻz ifodasini topgan. Bu haqda birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov 1993 yildayoq «Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi maqomiga koʻtarilishi mumkin emas. Bu konstitusiyaviy qoida bizning oldimizga milliy istiqloq mafkurasini yaratish vazifasini qoʻyadi», deb taʼkidlagan edi. I.Karimov Oʻzbekistonning milliy mafkuraning nazariy asoslarini Prezident sifatida, davlat mafkurasi sifatida ishlab chiqqan emas. Milliy mafkura oʻzbek xalqining jonkuyar vakili, haqiqiy vatanparvar, insonparvar, tinchliksevar vakili tomonidan ishlab chiqilgan. Bu mafkura insonlar ongiga davlat tomonidan zoʻrlilik bilan singdirilayotgani yoʻq. Balki, xalqning dilidagi gaplar boʻlgani uchun ongimizga singib bormoqda.

“Davlat mafkurasi” bilan “jamiyat mafkurasi” tushunchalarining maʼno-mazmunidagi farq milliy gʻoya jamiyat mafkurasi ekanligi hamda biron-bir mafkurani davlat mafkurasi sifatida oʻrnatish mumkin emasligi gʻoyasi strategik, konseptual asosga ega ekanligini koʻrsatadi. Milliy mafkura hech qanday shaklda davlat mafkurasi maqomiga koʻtarilmasligi, aylanmasligi kerak. Milliy mafkura jamiyatimizdagi qarashlar rang-barangligi, gʻoyalar xilma-xilligini saqlagan holda, ularni bir-biri bilan munozara qilishiga, kurashishiga, bahslashuviga, har qanday partiya, harakat, har qaysi inson, fuqaroning oʻz fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qilishiga ziyon yoki tazyiq koʻrsatmasligi lozim. Har qanday gʻoya, hatto u qanchalik soxta, qanchalik yasama boʻlmasin, agar odamlar ongiga uzluksiz singdiraverilsa, uning katta kuchga aylanishini mustamlakachilar yaxshi bilar edi. Shuning uchun ham mustabid tuzum oʻzining bor mafkuraviy kuchini, butun ommaviy axborot vositalarini, bir ishora qilsa, “labbay!” deb bel bogʻlab turuvchi dastyorlarini ishga solib, odamlar ongini yolgʻon gʻoyalar bilan tinimsiz zaharlar edi. Oʻtgan davr biz uchun tarix, binobarin, ana shu tarixdan toʻgʻri saboq chiqarishimiz, ayni vaqtda rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini oʻrgangan holda oʻz kelajagimizni yaratishimiz kerak. Uzoq va yaqin tarixdan yaxshi maʼlumki, biron mamlakatda,

²²I.A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali Bosh muharririning savollariga javoblar, 1998 yil 2-soni “Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz”. T. 7. T., “Oʻzbekiston” 1999 yil. 84-bet.

²³ Oʻsha asar. 89-bet.

biron davlatda yakkayu yagona g'oya yoki mafkura hukmronlik qilgan ekan, bu jamiyat, bu davlat, albatta, inqirozga yuz tutadi.

Shu davrgacha mafkura faqat sinfiy xarakterga ega deb e'tirof etib kelingan. Lekin Temur davlati mafkurasi, garchi Buyuk Temur uni mafkura deb atamagan bo'lsa-da, aholining barcha tabaqalari manfaatini ifodalagan ekan, buyuk davlat arbobi Islom Karimov tomonidan mafkura nazariyasiga kiritilgan, «jamiyat mafkurasi», «xalq mafkurasi», «milliy mafkura», «mafkuraviy immunitet» kabi tushunchalarning mohiyati aholiga tushuntirib berilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

2. Milliy g'oyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

Mukammal shakllangan, o'tmishimizga, milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, an'analarimiz, ruhiyatimizga hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan mafkurasiz jamiyatimizning olg'a qarab, buyuk kelajak sari intilishini tasavvur qilish qiyin.

Mafkura xalqimizning tabiati, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan quyidagi milliy qadriyatlar va xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-ona, mahalla-kuy, umuman jamiyatga hurmat-e'tibor;
- millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga hurmat va kichikka izzat;
- mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligi ramzi-ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat va hokazo.

Milliy mafkura quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi:

- qonun ustuvorligi;
- inson haq-huquqlari va hurfiylik;
- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- diniy bag'rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish;
- ma'rifatparvarlik;
- o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va hokazo.

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi-**ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir**. Bu g'oya xalqimizning azaliy intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash milliy mafkuraning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda yoshlarda o'tmish tariximizga buyuk bobokalonlarimizga hurmat hissini uyg'otish, ular bilan faxrlanish, ularning jahon tarixida tutgan o'rinlarini yoshlar ongiga singdirish Vatanimizning kelajagini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'analarimizga vorislik asosida yondoshish jamiyatimiz jipsligini ta'minlashda muhim vositadir. Shu o'rinda qadriyat tushunchasining mazmunini tushunish lozim. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarda an'anaviylik va zamonaviylik munosabati.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarga bolinadi.

Milliy qadriyatlar alohida olingan xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari va millatlarning o'zligini belgilaydigan boshqa o'ziga xos tomonlari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot, turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati, xalq o'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, marosimlari milliy qadriyatlarga kiradi.

Har qanday millat ijtimoiy-tarixiy birlik sifatida o'ziga xos, betakror jihatlariga ega. O'z milliy qadriyatlarining obyekt va subyekt sifatida har bir millat qadriyatlarini rivojlantirib, takomillashtirib boradi. Shu bilan birga o'zi ham ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib, yangilanib, rang-barang jihatlar kashf qilib boradi, bu ikkala hususiyat ham milliy qadriyatlarda aks etadi.

Milliy qadriyatlar milliy makonda shakllanadi, rang-barang tarzda namoyon bo'ladi, kishilar ongiga ta'sir qiladi, ular uchun ma'naviy mezonlar rolini o'ynaydi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimiy yangilanib, ya'ni zamonaviylik kasb etib, avlodlardan avlodga an'anaviylik asosida o'tib boradi.

Milliy qadriyatlar kishilarning o'zaro munosabatlari, ijtimoiy faoliyati, xatti-harakatlari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan maqsad, ehtiyoj, qiziqish va intilishlari uchun asos bo'ladi, moddiy va ma'naviy sohalarida muayyan natijalar, ya'ni milliy-madaniy boylar, yutuqlar sifatida namoyon bo'lishi ham mumkin.

Mintaqaviy qadriyatlar bir-biriga yaqin bo'lgan sharoitlarda yashagan va mehnat qilgan, tarixi tutash bo'lgan mamlakatlar va xalqlarda uchraydi. Masalan, Markaziy Osiyo xalqlari turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlari bir-biriga yaqin bo'lishi ko'plab umumimintaqaviy qadriyatlar shakllanishiga olib kelgan. Mehmondo'stlik, bolajonlik, yaqin qo'ni-qo'shnichilik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug'lar, dostlar bilan yaqin aloqada bo'lish, saxiylik, halol bilan haromni farqlash Markaziy Osiyo xalqlarining hammasiga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlaridir.

Umuminsoniy qadriyatlar jahon sivilizatsiyasining yaxlitligi, uning barcha bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'langanligining ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar deb barcha insonlarning tarixi, merosi, istiqloli, istiqboli va manfaatlarida mavjud bo'lgan tutash, umumiy bo'lgan zaminlar va manfaatlar asosida tashkil topgan, taraqqiyotning yangi bosqichida ham barchaning manfaatiga mos keladigan ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hodisalar va boylarlarga aytiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar qandaydir o'zgarimas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'priklar vositasini o'tab, insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vazifasini o'taydi. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir.

Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat, inson huquqlari ustunligi, xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, tinchlik, osoyishtalikni ta'minlash, tabiatni asrash va bohqalar umuminsoniy qadriyatlarining hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir.

4. Qadriyatlarining tarix sinovidan o'tganligi, jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'siri, inson va xalqlarning maqsad va manfaatlariga to'g'ri kelishi, yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va jamiyat taraqqiyotida ahamiyati.

Qadriyat [arabcha. qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi] - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma'naviy boylar va bohqalar qadriyat hisoblanadi.

Qadriyat - tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan ular uchun foydali ahamiyatli, moddiy – iqtisodiy, madaniy-ma'naviy mafkuraviy, siyosiy huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig'indisidir.

Insonning insonga ibrati, tarbiyadagi ta'sirini uning o'zi baholay olmaydi, balki boshqa inson baholaydi. Demak, qadriyat sifatidagi inson ta'sirida uning qadri, ahamiyati namoyon bo'ladi, boshqa kishi esa ana shu bevosita ta'sir natijasida uning ahamiyatini baholaydi, qadriga baho beradi. Bahoda teskari munosabat, boshqa bir kishining qadriyat sifatida qaralayotgan obyekt, narsa, hodisa, ideal va boshqaga nisbatan munosabati, uni anglashning biror bir darajasi o'z ifodasini topadi. Bu jarayonda subyekt qadriyatga munosabatini baho tarzida ifodalaydi.

Qadriyatning mazmuni va ahamiyati bahoda to'la-to'kis aks etmasligi, turlicha ifodalanishi ham mumkin. Qadriyatning haqiqiy qadrini, mazmuni va ahamiyatini bahosiga qarab aniqlash qiyin bo'ladigan hollar ham uchraydi. Masalan, ba'zi narsalar (san'at asarlari, obidalar, yodgorliklar va boshqalar) qadrining nihoyatda balandligi ularga "bebaho" degan sifat berilishiga sabab bo'ladi. Aslida qadriyatning qadrini bilish, uning ahamiyatini anglab olish va baholash bir-biri bilan uzviy bog'liq jihatlarni tashkil qiladi. Qadriyatning ahamiyati anglab olinmasa, qadri to'g'ri tushunilmasa, unga to'g'ri baho berib bo'lmaydi. Aynan shu ma'noda qadriyatni baholash unga bo'lgan insoniy munosabatni ham ifodalaydi, bu esa, o'z navbatida, kishilarning talab-ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog'liqdir. Inson nimanidir baholayotganida va qadrini angelayotganida o'z ma'naviyati, bilimi, ehtiyojlari, talablari, maqsadlaridan kelib chiqadi, o'z manfaatlarini ham unutmaydi. Bu ehtiyoj, talab, maqsadlar va biror foyda olishni ko'zlash ham ma'naviy xususiyatga ega bo'lganidan, muayyan kishilarning u yoki bu qadriyat, uning qadri va ahamiyati haqidagi fikri (bahosi) muayyan darajada nisbiydir. Kimningdir yoki nimaningdir qadrini baholashda ishtirok etayotgan turli maqsad va ehtiyojga ega bo'lgan kishilar soni ortgani sari, uning haqiqiy bahosini aniqlash qiyinlashib boraveradi. Xullas, qadr tilimizda xilma-xil ma'noni anglatadi va ma'naviy qiyofamizni ko'rsatadigan sermazmun tushunchalardan biri hisoblanadi.

Qadriyat esa inson va jamiyat ma'nayatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha. "Qadriyatshunoslik (aksiologiya)" ning eng asosiy kategoriyasi. Bu kategoriya o'zida qadriyat asosining nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyati, falsafiy-aksiologik mazmuni, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi. Aksiologlar undan har qanday narsa, shu jumladan, insonning ijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalaydigan umumiy va universal kategoriya sifatida foydalanadilar. Qadriyat turli sohadlarda xilma-xil ma'noda qo'llanadi. Qadriyat so'zining turfa xil ma'noda ishlatilishi unga berilgan ta'riflarning turlicha bo'lishiga olib kelgan. Ijtimoiy fanlarning qanday sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif beradi.

Shunday qilib, qadriyat biror tarzda va shaklda zohir bo'ladigan, subyekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir.

Odamlar garchand bitta jamiyatda, bir davrda va o'xshash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi tasavvuri, qarashlari o'zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlar bilan bog'likdir. Turli xil jihatlar har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil qiladi. Ijobiylik va salbiylik, baholanishi va ahamiyatiga ko'ra bir-biriga mutlaqo zid ko'rinadigan "yaxshilik" va "yomonlik", "haqiqat" va "haqsizlik", "baxt-saodat" va "g'am-kulfat", "tadrijiylik" va "inqilobiylik", "taraqqiyot" va "tanazzul", "borliq" va "yo'qlik" kabi tushunchalar hayotning bir-biri bilan qarama-qarshi bog'langan jihatlarni ifodalaydi. Qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruratga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog'onasiga chiqadi, boshqalari xiralashgandek tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqarorlashtirishga nisbatan intilish kuchayadi. Masalan, yurtni yov bosganda - ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida - istiqloq, urush davrida - tinchlik, tutqunlikda - erkinlik, xastalik va bemorlik paytlarida - sihat-salomatlikning qadri ortadi, ularga intilish kuchayadi.

Qadriyatlarining asosiy shakllarini aniqlash borasida olimlar orasida bir xil va hamma e'tirof etgan yagona namunalar yo'q. Qadriyatlarni moddiy va ma'naviy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'lish mumkin. Qadriyat shakllari ham ularga mos ravishda tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea, hodisa, jarayonlar o'zaro uyg'unlikda, qonuniy bog'lanishda, umumiy

aloqadorlikda namoyon buladi. Bunday hollardagi taqbil jarayonida ilmiy bilishning tizimlilik usuli, alohidalik, xususiylik va umumiylik, butun va bo‘lak kategoriyalarining dialektikasiga asoslanish qo‘l keladi. Bunda qadriyat shakllari bog‘langan obyekt, jarayonlarning makon hamda zamonda zohir bo‘lishi, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar va aloqalarni o‘rganish, obyektiv asosi, subyektiv jihatdan anglanishi, umumiy, xususiy va alohida jihatlarini tahlil qilish imkoni tug‘iladi. Bu esa qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, bog‘lanish hamda ularning in‘ikosi bo‘lgan eng umumiy qadriyat tizimlariga xos xususiyatlarni o‘rganish imkonini beradi. Mustaqillikkacha qadriyatlar mavzusi keng o‘rganilmas edi. Istiqloq davrida bu masalaga alohida e‘tibor qaratilmoqda, qadriyatlar to‘g‘risidagi fan - qadriyatshunoslik respublikamizdagi ijtimoiy fanlar tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, bu yo‘nalishda tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda, ko‘plab asarlar nashr etilmoqda.

Mustaqillik ona-Vatanimizga va xalqimizga inson sifatida hayotdan bahra olib yashashi uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib, el-yurt bo‘lib, jahonda o‘z o‘rnini topishiga zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib berdi. Bularning bari imkoniyatlar darajasida qolib ketmasligi uchun yoshlarimizni har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo‘lib voyaga yetishishi uchun ota-bobolarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan tarixiy, diniy va milliy qadriyatlarimizni o‘zimiz avvalo har tomonlama o‘rganishimiz hamda boshqalarga targ‘ib va tashviq qilishda doimo oldingi safda bo‘lishimiz lozim.

Shu bois Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek, avvalo, “... milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an‘analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so‘z bilan aytganda, o‘z milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o‘ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati, uning farovonligi yo‘lida xizmat qilmog‘i darkor.”

Hozirgi paytda aksariyat rivojlangan mamlakatlar xalqlari umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan erkinlik, adolat, qonun, inson huquqlari, millatlararo hamjihatlik, diniy bag‘rikenglik kabi g‘oyalarni tarannum etuvchi mafkuralarga tayanmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslangan g‘oyalarning rivojlanib borishi insonda juda katta umid-orzular tug‘diradi. Chunki umuminsoniyat manfaatlari uchun xizmat qiluvchi bunday g‘oyalarning ro‘yobga chiqishi jahon miqyosida tinchlik va taraqqiyot, inson erkinligi, milliy va diniy totuvlikning tantana qilishiga, oxir-oqibatda insonning baxt-saodatga erishuviga olib keladi. Bu esa insoniyatning asriy orzusidir.

Milliy g‘oyaning umuminsoniy tamoyillarini quyidagilar tashkil qiladi:

- milliy mahdudlik agressiv millatchilik va shovinizmdan xoli bo‘lish;
- urush olovini yoqish, o‘zga millatlarga zulm o‘tkazishdan xoli bo‘lish, mamlakatlararo beqarorlikni vujudga keltirish vositasiga aylanmaslik;
- adolat, tenglik tinchlik bunyodkorlik va demokratiya g‘oyalarini o‘zida ifoda ettirish;
- jahon xalqlari yaratgan sivilizasiya yutuqlarini asrash va keyingi avlodga yetkazishda ma’naviy-ruhiy omil bo‘lish;
- insoniyatga xavf solayotgan global muammolarning tahdidini keng tashviqot qilish va unga qarshi kurashda jahon xalqlari birligini vujudga keltirishga xizmat qilish;
- diniy bagrikenglik g‘oyalarini o‘zida ifodalash;
- inson xaqhuquqlari, shaxs erkinligi va hur fikrlilikni himoya qilish;
- qonun ustuvorligini, millatlararo hamjihatlikni va siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va mustahkamlashga asos bo‘lish;
- har bir millatning urf-odatlarini, an‘analari va qadriyatlarini hurmat qilish, ilgor tajribalarini o‘rganish va o‘z millati erishgan yutuqlarini ularga yetkazish;
- vayronkor va turli garazli g‘oyalarga qarshi kurash va bunyodkor g‘oyalar rivojlanishining omili bo‘lish kabilardir. Ular o‘z mazmun va mohiyati jihatdan har bir milliy g‘oya uchun xos bo‘lgan umuminsoniy tamoyillardir.

Milliy g'oya nafaqat milliy qadriyatlarni o'z ichiga oladi, balki umumbashariy tamoyillarning ham o'z ichiga singdiradi. Ushbu tamoyillarni uyg'unligini ko'rsatish mamlakatimizning jahon hamjamiyatida muhim o'ringa chiqishida ahamiyatlidir.

Umuminsoniy yoki umumbashariy qadriyatlar insoniyat, xalqlar, millatlar erishgan oliy boylik bo'lib, chinakam milliy g'oyalar ham ana shu qadriyatlar tamoyiliga asoslanadi. Qadriyatlarning turlari ko'p va har birining ma'nosi juda keng.

Har qanday qadriyat inson faoliyatining mahsuli, uning ob'ektiv olamiga nisbatan bo'lgan munosabatining ifodasi, shu bilan birga inson ma'naviy kamolatining muhim omili ekanligi haqida fikr yuritishdan oldin, uning ilmiy-falsafiy ma'nosi, paydo bo'lish va rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ildizlari, shakllanishidagi shart-sharoit, imkoniyat va zaruriyatlar milliy, mintaqaviy, umumbashariy, diniy qadriyatlar singari turlari nimalardan iboratligini aniqlab olishga to'g'ri keladi.

Qadriyatlar deyilganida jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kundagi va kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti va istiqboli uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy hodisalar qadriyatlar jumlasiga kiradi. Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining zaruriy mahsulidir. Qadriyatlar muayyan bir davr sharoit va ehtiyojning mahsuli bo'lish bilan birga uning ko'zgusi hamdir.

Qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida namoyon bo'ladi, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarni o'zida aks ettiradi, o'zgarib, rivojlanib, boyib, takomillashib turadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida bo'ladigan o'zgarishlar va rivojlanishlar qadriyatlarning mazmunida o'z ifodasini topadi.

Jamiyat taraqqiyoti doimiy ravishda o'zgarib rivojlanib, yangilanib turgan sari qadriyatlarning ahamiyati oshib, ularni baholash mezonlari ham oldingidan boshqacha bo'lib turadi. Barcha zamonlarda ham inson eng oliy qadriyat hisoblanib kelingan. Hamma narsani qila oladigan oliy mavjudot bu Inson oliy hazratlaridir. Tarix ham, tarixiy taraqqiyot ham inson faoliyotidan boshqa narsa emas.

Insonning barcha davrlar va jamiyki ijtimoiy tuzumlarda eng oliy qadriyat deb baholanishi bejiz emas, albatta. Chunki, unda boshqa jonli mavjudotlardan farq qiladigan eng muhim belgilar-ong, aql-idrok, did-farosat, bilim, odob-ahloq, din, tafakkur, hulq, orzu-umid va baht-saodatga intilish, mas'uliyat tuyg'usi, imon-e'tiqod, maqsad va ehtiros, aqliy kamolot, or-nomus, ishq-muhabbat, g'urur, nafrat va boshqa ma'naviy javohirlar jamuljamdir.

Insonlar hayoti ijtimoiy munosabatlarga asoslangandir. Inson mavjudot sifatida tabiat mahsuli bo'lsa, ammo odam sifatida u faqat jamiyatda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Inson inson bilan tirik. Inson borki hayot bor. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy, taraqqiyot, o'zgarish va rivojlanishning asosida inson mehnati, uning yaratuvchilik amaliy faoliyati yotadi. Inson mehnati, aql zakovati, istedodi va ijodiyoti - bularning hammasi uning buyukligi, oliy qadriyat ekanligidan nishonadir. Dunyoda insondan qudratli aql-farosatli, oqilu dono mavjudot yo'q.

Tabiatni obod va ko'rkam, jamiyatni go'zal va farovon qilishni, aql idrok va tafakkuri bilan odamzotga kerakli bo'lgan jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarni shahar-qishloqlarni, ilm fan va madaniyat maskanlarini, temir yo'lu-tosh yo'llarini, zavodu fabrikalarni bog'u - bo'stonlarni, texnika va texnologiyalarini, mikroskopu teleskoplarni, ulkan kosmik kemalarni, xullas barcha va har qanday qadriyatlarni yaratgan va yaratib kelayotgan inson zoti oliylarining nomi dunyoda mag'rur jaranglaydi.

Insonning oliy qadriyat ekanligi, uning dastavval, o'z-o'ziga va jamiyatning insonga bo'lgan axloqiy munosabatiga aks etadi. Qadriyatlar insonlar o'rtasida o'zaro munosabatda

va shaxsning o'z xulqini tartibga solishida ijobiy rol o'ynaydi. O'z qadr-qimmatini anglash shaxsning o'z-o'zini nazorat qilishi bo'lib, uning o'z-o'ziga nisbatan talabchanligi va shunga asoslanadi.

O'z-o'zini hurmat qilish ko'p jihatdan shaxsning taqdirini belgilovchi g'oya muhim xislatdir, chunki u insonni kamsitadigan, yerga uradigan, ho'rlaydigan va shu bilan uning boshqa kishilar ko'z o'ngida o'z qadr qimmatini yo'qotishga sabab bo'ladigan qiliqlariga yo'l qo'ymaydigan to'siqqa aylanadi. Har bir inson, eng avvalo, o'z-o'zini hurmat qilishi, qadr-qimmatini, or-nomusi, shaniga dog' tushirmasligi lozim.

O'zining qadr-qimmatiga yetish, or-nomusini saqlay olish muhim insoniy fazilatdir. O'z izzat - hurmatini bilmasdan turib, ma'naviy boylikka yetishish, elda qadr-qimmat topishni tasavvur qilish qiyin. O'zini hurmat qilmaydigan kishi o'zgalarni qadrlay olmaydi. Qadr-qimmat shaxsni hurmatlashni uning huquqini e'tirof etishni ham o'z ichiga oladi. Qadr-qimmat shaxsning ijtimoiy va ma'naviy erkinligining muhim tomoni sifatida yuzaga keladi.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib kishilarning amaliy faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr - qimmatini haqida so'zlash bemanilikdir. Qadriyatlar kishilarni turli sohadagi, avvalo ishlab chiqarish mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmui bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. Barcha ahloqiy normalar, yurish-turish qoidalari singari, jamiki insoniy qadriyatlar ham jamiyat taraqqiyoti talablari asosida yuzaga kelib yangi mazmun, yangi shakl kasb etib, boyib va takomillashib boradi.

Jamiyatimiz har bir insonni e'zozlab uning turmushini yaxshilash bilimi va madaniy saviyasini o'stirish qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish uchun o'zida bor bo'lgan hamma imkoniyatlarini ishga soladi. Keyingi yillarda insonning shaxsiy haq-huquqlarini, erkinliklari va qadriyatlarini muhofaza qilish masalasida juda katta ishlar amalga oshiriladi.

Qadriyatlar moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'linadi. Moddiy qadriyatlarga kishilarning moddiy ehtiyojlarini bevosita qondiruvchi narsa (ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari, mehnat ash'yolari, moddiy ne'matlar va boshqa)lar kirsam, ma'naviy qadriyatlar - siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy musiqaviy, ilmiy, estetik, falsafiy, axloqiy va boshqa shu kabi qadriyatlardan iboratdir.

Har qanday milliy tafakkur darajasi, avvalo, nimalarga asoslangani bilan o'lchanadi. Bu asos qanchalik mukammal bo'lsa, milliy g'oya ham shunchalar boy bo'ladi. Albatta, bunda moddiy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi juda muhim rol o'ynaydi.

Odamlarning yashashi va rivojlanishi uchun moddiy noz-ne'matlar qanchalik zarur bo'lsa, ma'naviy qadriyatlar ham shu qadar muhimdir. Odob -ahloq, urf-odatlar, marosimlar shaklida namoyon bo'ladigan qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular kishilarning o'zaro munosabatlarida, yurish-turishida, axloq va odobida ko'zga tashlanadi.

Odob-axloq, urf-odatlar sohasidagi qadriyatlar xalqimizning eng qimmatli boyligidir. Qadriyatning ana shu turi insonning ichki ma'naviy ehtiyojiga aylansa, kishilar tomonidan o'zlashtirib olinib hayotga oqilona tatbiq etilsa, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

«Xalqimiz asrlar osha yashab kelgan an'analar, urf-odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi, - deydi Prezident, - umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim. U davlat fuqarolarining buyuk maqsad yo'lida ma'naviy yaqinlashuviga ko'maklashmog'i kerak».

Yaxshilik, halollik, poklik, hamkorlik, xayrihoxlik, hamdardlik, burchga sodiqlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar mavjudligini ham aytmasdan o'tib bo'lmaydi. Inson faqat o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirish bilangina tirik emas. Mehnat qilish, jamiyatda yashash, o'zidan boshqa kishilar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy,

ma'naviy aloqa va munosabatda bo'lish jarayonida u inson sifatida shakllanadi, o'sib-unadi, qobiliyat, iqtidor va iste'dodlarini namoyon qiladi. Ana shu ma'noda olganda insonga xos bo'lgan ma'naviy va ahloqiy fazilatlar ajralib insoniy qadriyatlar jumlasiga kiradi.

Estetik qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ularga birinchi navbatda barcha tabiiy va ijtimoiy go'zalliklar va ulardan zavqlanish kiradi.

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abulqosim Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy, Durbek Sa'diy va boshqa yuzlab va minglab buyuk adiblarimiz tomonidan yaratilgan nazmiy va nasriy asarlar, son-sanoqsiz badiiy adabiyot namunalari estetik qadriyat sifatida hozirgi paytda ham jamiyatimiz ma'naviy taraqqiyotida katta o'rin egallab kelmoqda. Sa'natning, badiiy adabiyotning ham o'tmishda va hozirgi paytda yaratilib, voqelik aks ettirgan barcha turlari odalarning fikr va xislariga ta'sir etib, hayotni chuqurroq o'rganishlariga yordam bermoqda. Insonning murakkab ichki dunyosini, psixologiyasini, ruhiy holatlarini, ma'naviy qiyofasini tasvirlashda san'atning hech qaysi turi badiiy adabiyotga tenglasha olmaydi. Badiiy adabiyot estetik qadriyat sifatida kishilarga hayot, jamiyat to'g'risida ong-bilim beradi, hayot hodisalari va mustaqil O'zbekiston davlati to'g'risidagi tasavvurimizni boyitadi, jamiyatimizga xos bo'lgan murakkabliklar, ziddiyatlar, qiyinchilik va muammolarni obyektiv haqiqat tarzida bilib olishimizda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyat tushunchasi hayotning o'zi kabi keng qamrovli bo'lib, u har bir xalq ming yillar davomida hayotning turli sohalari bo'yicha sayqallab to'plagan tajribalaridir. Axloqiy qadriyatlar, harbiy qadriyatlar, davlatchilik qadriyatlari - bularning hammasi bir butun holda halqning dunyoviy qiyofasini o'ziga xos tarzda belgilaydi. Darhaqiqat, O'zbekistonning kuch - qudrati manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligi, ulug' ajdod-larimizning avlodlarga o'tayotgan ma'naviy merosi-ning kuchliligida, fuqarolarimizning el-yurtga, ona-zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g'ururidir.

O'zbek xalqi uchun asrlar bo'yi diniy qadriyatlar ham muhim rol o'ynab kelgan. Diniy qadriyatlarda, birinchi navbatda islom ta'limotida jamiki odamzodni ezgulikka, haq va haqqoniyatga to'g'ri yo'lga da'vat etadigan nohaqlikka qarshi kurashishga chorlaydigan shunday bebaho falsafiy g'oyalar, nodir hikmatlar, rivoyatlar, pandu-nasihatlar, eng muhim yo'l-yo'riqlar borki, ularni bilib, chuqur o'zlashtirib olib, qat'iy amal qilgan, ularga suyanib faoliyat ko'rsatgan kishi hayotda hech qachon qoqilmaydi.

Islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatlarini nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar. Diniy qadriyatlar odamlarni ilm-fanga, ma'naviy va marifatga da'vat etganligi jihatidan ham alohida ahamiyatga ega. Buni islom dini misolida ko'rish mumkin. Islom - ilm demakdir. Uning muqaddas kitobi - «Qur'on» da 78000ga yaqin so'z bo'lsa unda «ilm» so'zi turli hollarda 765 ta marta takrorlanadi. Islom faqat shar'iy ilmlarni emas, balki barcha ilmlarni o'rganishni foydali deb hisoblagan. Qur'on Karimning oyat va suralari, payg'ambarimizning Hadislari ilmga da'vat bilan to'la. Islom ilm talab qilishni ibodat darajasiga ko'targan, hattoki ibodatdan ilmni ustun qo'ygan.

Islom sha'riy hukmida shunday ma'naviy-axloqiy tomonlar, qoidalar borki, ularni biror millat yoki davlat chagarasi bilan cheklab bo'lmaydi. Har qanday musulmon, har bir inson bajarilishi kerak bo'lgan sha'riy qoidalar sifatida o'g'rilik qilmaslik fohishabozlik, poraxo'rlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi qabih ishlar bilan shug'ullanmaslik, insofli - diyonatli bo'lishi, ota-onaning xizmatlarini qilib, ularni rozi qilish va boshqalarni eslatib o'tish mumkindir.

Din va diniy qadriyatlarning xalqparvarlik, millatsevarlik va insonparvarlik sohasidagi tarbiyaviy ahamiyati nafaqat o'tmish davrlar uchun, balki hozirgi payt va kelajak uchun ham benihoyadir.

Diniy qadriyatlarning mafkuraviy-ma'rifiy, axloqiy ahamiyati tabiatga mehr - muhabbat, tevarak - atrofni, suvni, havoni, tuproqni, hayvonotu nabotatni asrab - avaylash haqidagi islom ta'limoti g'oyalari to'la ifoda topgandir.

Sayyoramizdagi, O'zbekiston saxiy zaminidagi jamiki noz-ne'matlarning qadriga yetish barcha odamlarning insoniy burchidir. Tabiiy boyliklarni, yer-suv va daraxtlarni, hayvonot olamini avaylab asrash Qur'ondagi oyat suralariga, Payg'ambarimiz Hadislaridagi g'oyalarga to'la hamohangdir. Shuning uchun ham tabiatni e'zozlash haqidagi har bir falsafiy g'oya o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatiga ko'ra umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zligini anglagan har bir xalq, millat va davlat jamiyatning umumbashariy tamoyillarini e'tirof etishi, rivojlantirishi shart va bu tamoyillarning milliy asoslari, mohiyatini tushuntirib borish milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Mustaqil ta'lim mavzulari

- Milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat rivojining muhim sharti.
- Yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish hamda ularda atrof muhitga nisbatan ratsional yondashuv ko'nikmasini hosil qilish.

GLOSSARIY

QADRIYATLAR - jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kundagi va kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui.

MILLIY QADRIYATLAR - alohida olingan xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar, urf-odatlar, marosimlari, bayramlari va millatlarning o'zligini belgilaydigan boshqa o'ziga xos tomonlari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot, turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati, xalq o'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlar, marosimlari milliy qadriyatlarga kiradi.

UMUMINSONIY QADRIYATLAR - barcha insonlarning tarixi, merosi, istiqloli, istiqboli va manfaatlarida mavjud bo'lgan tutash, umumiy bo'lgan zaminlar va manfaatlar asosida tashkil topgan, taraqqiyotning yangi bosqichida ham barchaning manfaatiga mos keladigan ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hodisalar va boyliklar yig'indisi.

Keyslar banki

Keys 1. Jamiyat mafkurasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

Nazorat savollari:

1. Jamiyat mafkurasining davlat mafkurasidan farqlarini aniqlang.
2. Milliy g'oyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni qanday?
3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarda an'anaviylik va zamonaviylik munosabatini izohlang.
4. Qadriyatlarning tarix sinovidan o'tganligi, jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'siri, inson va xalqlarning maqsad va manfaatlariga to'g'ri kelishi, yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va jamiyat taraqqiyotida ahamiyatini tushuntiring.

Test savollari

1. Milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasining milliy hususiyatlari qanday?
 - A) Xalqimizni o'ziga xos tabiati, irodasi, orzu umidlari borligi.
 - V) Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalarini aks ettirish.
 - S) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, umuminsoniy qadriyatlar, demokratik tamoyillarga xoslanishi
 - D) *Xalqimiz hayotida qadam-qadamdan jamoa bo'lib yashash, oila, mahalla, el-yurtning muqaddasligi, sabr-bardosh, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat.
2. Mafkura nima?
 - A) Mafkura moddiylikning in'ikosi
 - V) Mafkuraning g'oya bilan aloqasi yo'q
 - S) *g'oyalar yig'indisi mafkuradir
 - D) Mafkuraning jamiyatda o'rni yo'q
3. G'oya va mafkuraning maqsadlari
 - A) *g'oya va mafkuraning maqsadlari jamiyat taraqqiyoti yo'lida odamlarni uyushtirish, safarbar qilish, rag'batlantirish, nazorat qilish, boshqarish.
 - V) g'oya va mafkura jamiyat taraqqiyotiga zid.
 - S) g'oya va mafkura ibtidoiy jamiyatda ham bor edi.
 - D) Kommunistik g'oya va mafkuraning hech qanday ijobiy tomoni yo'q
4. Tarixiy taraqqiyot, g'oyaviy va mafkuraviy jarayonlar nimalardan iborat?
 - A) Buyuk davlatchilik g'oyasi progressivdir
 - V) *Ijtimoiy taraqqiyot bunyodkor va vayronkor g'oyalar kurashi tarixidir.
 - S) Fashizm va bolshevizm g'oyalari jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.
 - D) Dunyoviy, diniy g'oyalar, millatchilik g'oyalar ijtimoiy taraqqiyotda hech qanday ahamiyatga ega emas.
5. G'oya va mafkura tushunchalarining mohiyati nimada?
 - A) g'oya, mafkura-afsona va rivoyatlardir.
 - V) g'oya moddiy kuch bo'la oladi.
 - S) g'oya va mafkura ibtidoiy jamiyatda sinflar bo'lmagan paytlarda ham bo'lgan.
 - D) *g'oya va mafkura turli guruh, sinf, qatlam va ijtimoiy ibtidoiy tabaqalar manfaatlarini ifodalab, u inson va uning tafakkurining mahsulidir

4-MAVZU. G'OYALAR XILMA-XILLIGI VA MAFKURAVIY JARAYONLARNING IJTIMOYIY TARAQQIYOTGA TA'SIRI

Reja:

1. G'oya – fikrning ijtimoiylashgan ko'rinishi. Uning turli maqsad va manfaatlar bilan bog'liqligi.
2. G'oyalar xilma-xilligi tushunchasi, ma'no-mazmuni. G'oyalar xilma-xilligini taqozo etuvchi shart-sharoit va omillar.
3. Mafkuraning turli xil ko'rinishlari.
4. Mafkuraviy jarayonlar. Mafkuraviy kurashlar. "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" (I.A.Karimov).
5. Korrupsiya – mazmuni va mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma'ruzalarida korrupsiyaning jamiyat rivojiga salbiy ta'siri masalalarining yoritilishi.

Tayanch so'zlar

G'oyalar xilma-xilligi tushunchasi, ma'no-mazmuni. G'oya – fikrning ijtimoiylashgan ko'rinishi. Uning turli maqsad va manfaatlar bilan bog'liqligi. G'oyalar xilma-xilligini taqozo etuvchi shart-sharoit va omillar. Mafkuraviy jarayonlar. Mafkuraning turli xil ko'rinishlari. Mafkuraviy kurashlar. "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" (I.A.Karimov). Korrupsiya – mazmuni va mohiyati. O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma'ruzalarida korrupsiyaning jamiyat rivojiga salbiy ta'siri masalalarining yoritilishi.

G'oya – fikrning ijtimoiylashgan ko'rinishi. Uning turli maqsad va manfaatlar bilan bog'liqligi.

"G'oya" aslida arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida - maqsad, intilish, niyat, qasd deganma'nolarni anglatsada, kishilarning kundalik ilmiy va amaliy faoliyatida esa birinchidan, obyektiv borliqni, voqelikni kishi ongida aks ettiruvchi, ayni zamonda kishining obyektiv borliqqa, voqelikka munosabatini ifodalovchi, kishilarning dunyoqarashlari asosini tashkil etuvchi, odamlarni maqsad sari yetaklovchi fikr, tushuncha, tasavvur; ikkinchidan, badiiy, siyosiy yoki ilmiy asarning mazmuni, tub mohiyatini belgilovchi asosiy fikr; uchinchidan, biror ish-harakat qilish haqidagi fikr, o'y, niyat, maqsad degan ma'nolarni anglatish uchun ishlatiladi. Biroq, g'oyani bunday kundalik sodda, oddiy tarzda tushunish uning tub moxiyatini ochib berolmaydi. Shuning uchun ham g'oya nima, u qanday paydo bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi, degan savollarga javob topish masalasi azaldan barcha aqli raso odamlarni qiziqtirib kelgan va u bugungi kunda ham shunday bo'lib qolmoqda.

Har qanday tushuncha, fikr va qarash ham g'oya bo'la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr - o'ziga xos bir qarashdir, ijtimoiy fikr esa - voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G'oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi.

Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi. Masalan, o'rta asrlarda jaholat va inkvizitsiya shaxsning orzu-intilishlari, erkinligi va tashabbuskorligi yo'lida to'siq bo'lib turgan paytda polyak olimi Nikolay Kopernik Yerning Quyosh atrofida aylanishiga doir geliotsentrizm nazariyasini olg'a surdi. Bu g'oya ham, avvalo, bir jasoratli shaxs qalbidagi intilishlar ifodasi sifatida paydo bo'lgan, keyinchalik esa butun dunyoda e'tirof etilib, ilmiy tafakkurning tarkibiy qismiga aylangan.

G'oya - mafkura - ijtimoiy ong formalaridan biri bo'lib, u har qanday jamiyatning ustqurmasida o'z ifodasini topadi. G'oya - mafkura falsafiy tushuncha bo'lib, ma'lum maqsadga qaratilgan inson aql-zakovatini ifoda etuvchi g'oyalar va qarashlar yig'indisidir. Ammo, har qanday fikr va qarash ham g'oya bo'la olmaydi. G'oya inson ongida paydo bo'lsada inson va jamiyat ruhiyatiga singib boradi. U odamning ichki dunyosiga kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, etaklovchi kuchga aylanadi.

Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g'oyalar muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, insoniyat tarixi - g'oyalar tarixidir.

Xo'sh, g'oya nima, nega unga bu qadar katta e'tibor va ahamiyat beriladi? Ma'lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlarini, maqsad-muddalari, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi. Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi.

Umuman, g'oya - bu tadqiqot maqsadini, uning yo'nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir. G'oya o'z tabiatiga ko'ra biror fikrdir, u tadqiqotchi miyasida uning amaliy va nazariy faoliyati asosida paydo bo'lib, borliqning to'g'ri yoki xato in'ikosidir.

Ma'lumki, inson o'zining aql-zakovati, iymon-e'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzotlardan farq qiladi.

Inson - ongli mavjudot. Ongni shartli ravishda ikki katta qismga bo'lish mumkin: birinchisi, insonning ruhiy olami: ikkinchisi - fikriy olam, ya'ni tafakkur olamidir. Ruhiy olam (bu sohani ruhshunoslik ilmi - psixologiya tadqiq etadi) o'z tarkibiga sezgilar, idrok, tasavvur, kechinma, his-hayajon, diqqat, xotira va boshqalarni qamrab oladi. Tafakkurning mantiqiy shakllariga tushuncha, hukm va xulosa kiradi (bularni logika, ya'ni mantiq fani o'rganadi).

Falsafaning oltin qoidalaridan biri - til va tafakkur birligidir. Tilning eng birlamchi mahsuli soʻz boʻlgani kabi, tafakkurning dastlabki shakli - tushunchadir. Tushunchalar bir yoki bir necha soʻzlar bilan ifoda-lanadi; ammo har qanday soʻz ham tushuncha boʻla olmaydi. Soʻzlar vositasida anglatilgan fikr gap deb atalishini biz boshlangʻich sinflardan oq bil-ganmiz.

Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, gʻoyalar va taʼlimotlar yaratadi. Binobarin, gʻoyalar ham inson tafakkurining mahsulidir. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar gʻoya boʻla olmaydi. Faqat eng kuchli, taʼsirchan, zalvorli fikrlargina gʻoya boʻla olishi mumkin.

Gʻoyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, bular garchi tafakkurda paydo boʻlsa-da, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. Gʻoya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari etaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan taʼsir koʻrsatgan nazariya, taʼlimot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, isteʼdod va teran tafakkur egalari mislsiz zahmat chekkanini koʻramiz. Sokrat va Platon, Konfutsiy va Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdigʻidir.

Har qanday gʻoyaning paydo boʻlilishi, shakllanishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining mavjudlik shakllariga bogʻliqdir. Gʻoya, birinchi navbatda, kishilik jamiyati tarixiy rivojlanishining mahsulidir. Kishilik jamiyatidan tashqarida gʻoya mavjud emas. Gʻoya moddiy va maʼnaviy borliqning kishilar ongidagi inʼikosi sifatida vujudga keladi, shakllanadi va rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda har bir gʻoyaning tabiatiga obyektivlik va subyektivlik xosdir.

Bunda gʻoyaning obyektivlik xususiyati birinchidan, uning vujudga kelishiga, shakllanishiga, rivojlanishiga turtki beradigan obʼyektiv reallikning, yaʼni tashqi olam - tabiat, jamiyatning, ularga tegishli boʻlgan narsa, hodisa, voqea, jarayonlarning mavjudligi; ikkinchidan, bir gʻoya va mafkuralar tizimining ikkinchi bir gʻoya va mafkuralar tizimiga bogʻliq boʻlmagan holda faoliyat olib borishi; uchinchidan, gʻoyaning biron-bir shaxs tomonidan oʻzicha xayolan oʻylab topilmaganligi; toʻrtinchidan, uning real tarixiy shaxs faoliyati bilan bogʻliqligida koʻrinadi. Bu hayotda amal qilayotgan gʻoyalarning tashqi olam, tabiat va jamiyatda sodir boʻlgan jarayonlar asosida shakllangan ijtimoiy hodisa, yaʼni ontologik tabiatga ega boʻlgan voqelik ekanligini koʻrsatadi. Bu esa oʻz navbatida gʻoyani ontologik jihatdan tushunish imkonini beradi. Demak, gʻoya ontologik jihatdan mavjud ijtimoiy borlikni oʻzida aks ettiruvchi obyektiv mazmunga ega boʻlgan maʼnaviy hayot shakllaridan biridir.

Shu sababli gʻoya gnoseologik nuqtai nazaridan "gʻoya - inson ongining tarkibiy qismi; tashqi olamning obrazli, inʼikosi va aksi; inson va hodisalarni anglash shakli; inson ongining tashqi olam va hayot hodisalariga nisbatan aks taʼsirining namoyon boʻlish shakllaridan biri", - degan maʼnoni anglatadi. Demak, gʻoyaning gnoseologik tabiatini falsafiy jihatdan anglash, uni ilmiy tushuncha sifatida taʼriflash, tavsiflash va tasniflash imkonini beradi hamda gʻoyani siyqalashtirish maqsadga muvofiq emasligini koʻrsatadi.

Gʻoyaning ontologik va gnoseologik tabiatidan kelib chiqqan holda unga quyidagicha falsafiy taʼrif berish mumkin:

Gʻoya deb inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega boʻlgan, ruhiyatga kuchli taʼsir oʻtkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikrga aytiladi.

Har qanday gʻoya dunyoni bilishning muayyan bosqichi va oʻziga xos shakli sifatida bir qator xususiyatlarga egadir. Bunda, gʻoyaning namoyon boʻlish xususiyatlari deb uning oʻziga xos, boshqalardan ajralib turadigan tomoni, oʻziga xos belgilariga aytiladi. Ularga quyidagilar kiradi:

Gʻoya eng avvalo, muayyan maqsadni ifodalaydi, odamlarni ana shu maqsadga erishish uchun chorlaydi, safarbar etadi.

G'oya hayotiy va ilmiy dalillarga asoslangan holda ish ko'radi, faoliyat olib boradi.

G'oya biron-bir ijtimoiy voqelikning in'ikosi bo'lib obyekt va subyektning o'zaro dialektik birligiga asoslanadi.

G'oya muayyan mafkura uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

G'oya nazariy va amaliy bilimlar birligiga tayanadi.

G'oya biron-bir farazni ifodalaydi.

G'oya mohiyatan ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oyalar odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlam-lariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi.

G'oyalarning ijtimoiy xarakteri deb, tarixiy makon va zamonda yashagan tarixiy shaxslar tomonidan o'rta tashlanib, muayyan ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib: elat, millat va xalqlarning ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlagan, maqsad-muddao sari yetaklagan kuchli, teran fikrlarning paydo bo'lish, shakllanish va rivojlanib borish jarayonlariga aytiladi.

Demak, g'oyalarning ijtimoiy xarakteri: a) insonning paydo bo'lishi, uning shakllanishi va rivojlanishi; b) jamiyatning kelib chiqishi, unda yuz berayotgan narsa, hodisa va jarayonlarning genezisi, qaror toptan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarning rivoji; v) jamiyatda mavjud bo'lgan turli xil ijtimoiy guruhlarning maqsad-muddaolarini ifodalashi; g) g'oyaning yetuk shaxslar tomonidan yaratilishi va uning ijtimoiy guruhdar mafkurasiga aylanish jarayonlarining tarixiy takdiri kabilar bilan ifodalanadi.

Shuni unutmaslik kerakki, har qanday g'oyaning asosida bilim yotadi. Bilimlarning g'oyaga aylanishi uchun *birinchidan*, o'rganilayotgan hodisa yoki voqea haqidagi bilimlarning aniq bo'lishi, bilimlar hodisada, voqeada, jarayonda bo'layotgan o'zgarishlarni aniq va to'la aks ettirgan bo'lishi, *ikkinchidan*, to'plangan bilimlarni amaliyogga ko'llash uchun ehtiyoj, ya'ni zaruriyatning ortib borishi, *uchinchidan*, bilimlarni ishlab chiqargan kishilarni (olimlar, shoirlar, yozuvchilarni) jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar yoki tabiiy muhitda vujudga kelgan muammolarni tezroq bartaraf etish uchun o'z oldilariga qo'ygan maqsad-vazifalari aniq rejalari puxta ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Yangi ishlab chiqilgan g'oyalar faqat moddiy vositalar yordamida emas, balki insonning ruhiy, ma'naviy energiyasi yordamida ham amalga oshishi mumkin.

Har bir narsaning o'z ibtidosi va intihosi bo'ladi. G'oyalar ham o'z «umri»ga ega. Ular ham ma'lum makonda va zamonda paydo bo'lishi, jamiyat rivojiga muayyan hissa qo'shishi, kishilarning ongi va qalbidan joy olishi, o'z umrini yashab, joziba kuchi va quvvatini yo'qotgach, tarixiy xotiraga aylanishi ham mumkin. G'oyaga ta'rif berish uchun uning mohiyatini namoyon etadigan asosiy xususiyatlarini sanab o'tish lozim bo'ladi. G'oyaning eng muhim xususiyati - insonni va jamiyatni maqsad sari etaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

G'oyalar xilma-xilligi tushunchasi, ma'no-mazmuni. G'oyalar xilma-xilligini taqozo etuvchi shart-sharoit va omillar.

Ilmiy bilishda g'oya muhim rol o'ynaydi.

- *G'oyalar tabiatiga ko'ra: a) ilmiy g'oyalar; b) badiiy g'oyalarga bo'linadi.*
- *G'oyalar xarakteriga ko'ra: a) borliqning to'g'ri, real in'ikosidan iborat g'oyalar, b) borliqning xato yoki fantastik in'ikosidan iborat g'oyalar.*
- *Shuningdek, g'oyalar: a) progressiv va b) reaksiyon g'oyalarga ham bo'linadi. Progressiv g'oyalar ilmiy bilishni rivojlantirishga xizmat qilsa, reaksiyon g'oyalar unga to'sqinlik qiladi.*

Umuman olganda, g'oyalarni namoyon bo'lish xususiyatlariga qarab quyidagi turlarga:

- ✓ *bunyodkor va vayronkor;*

- ✓ *ilmiy va xayoliy;*
- ✓ *falsafiy;*
- ✓ *dunyoviy va diniy;*
- ✓ *badiiy;*
- ✓ *ijtimoiy-siyosiy;*
- ✓ *milliy va umuminsoniy;*
- ✓ *ma'naviy va ma'rifiy;*
- ✓ *axloqiy va estetik;*
- ✓ *tarbiyaviy g'oyalar* va hokazolarga ajratamiz.

Bunyodkor g'oyalar. *Bunyodkor g'oyalar jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni tarashiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat kilishga undovchi g'oyalar bo'lib, ularga ozodlik, mustaqillik, adolat, tinchlik, tenglik, do'stlik, birdamlik, hurfikrlik, hamkorlik, xalqparvarlik, insonparvarlik va boshqalar kiradi. O'zbek xalqi milliy mafkurasining bosh va asosiy g'oyalari ham shular jumlasidandir.*

Vayronkor g'oyalar. *Vayronkor g'oyalar deb, inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalar bo'lib, ularga mustabidlik, bosqinchilik, terrorchilik, aqidaparastlik, jaholatparastlik, irqchilik, millatchilik, mahalliychilik, vatansizlik, yovuzlik g'oyalari kiradi.*

Dunyoviy g'oyalar. *Dunyoviy g'oyalar deb, har bir elat, millat, xalq, davlat va jamiyat ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chishan holda inson huquqi va erkinliklarini, demokratik qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlash asosida ularni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan fikrlar majmuiga aytiladi. U bugungi kunda demokratik taraqqiyot, hayotni erkinlashtirish, vijdon erkinligi, inson manfaatlarini ta'minlash, fikrlar rang-barangligi, mulkiy plyuralizm, ijtimoiy hamkorlik va bag'rikenglik tamoyillariga tayanadi.*

Dunyoviy g'oyalar adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik ruhini, taraqqiyot yo'lidagi oliyanob maqsad-muddalarni o'zida ifoda etib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qiladi. Ular hurfikrli, mutelik va jur'atsizlikdan holi bo'lgan, bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan, o'zining mustaqil qarashlariga ega bo'lgan kishilar jamiyatining g'oyalari.

Shuning uchun hozirda demokratik, umuminsoniy mazmundagi g'oyalar, irqi, millati va jinsidan kat'i nazar, insonlar, ko'p sonli mamlakatlar hayotiga chuqur kirib borib, ularning asosiy g'oyalarga aylanib bormokda.

Demokratiya asosida shakllantirilgan ijtimoiy bag'rikenglik va adolat ham uning tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bu g'oyalar dunyoviy davlatdagi turli millat va din vakillarining erkin faoliyati, hamjihatligi va haq-hukuqlarini kafolatlaydi.

Demak, dunyoviy g'oyalar *birinchidan*, muayyan g'oyalarni ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha bo'lsa, *ikkinchidan*, jamiyat va insonni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan sog'lom fikrlar majmui hisoblanadi. Bu g'oyalarni, o'z navbatida mazmun-mohiyatiga ko'ra, umuminsoniy, ilmiy, falsafiy kabi bir necha turlarga bo'lish mumkin.

Diniy g'oyalar. *Diniy g'oyalar deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymon-e'tiqodning negizini tashkil etuvchi da'vatlar, aqidalar, qadriyat va maqsadlar ifodalangan qarashlar majmuiga aytiladi. Ular muayyan dinning mavjudligini ta'minlab beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.*

Diniy bag'rikenglik g'oyasiga tayangan ko'plab davlatlarda xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan turli millat vakillari hamjihat bo'lib, bir osmon ostida tarixiy, madaniy, ma'naviy, ruhiy mushtaraklikda yashab, mehnat qilmokda. Bu esa, kishilarning bir zamin, bir Vatan uchun, oliyanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Hozirgi zamonda bu g'oya - ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Ilmiy g‘oyalar. *Ilmiy g‘oyalar deb, tabiiy yea ijtimoiy fonlarning tabiat, jamiyat, inson tafakkurida yuz berayotgan narsa, hodisa, jarayonlarning sir asrorlari konuniyatlarini bilish orqali qilingan ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo‘ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari (prinsiplari), ustuvor qoidalarini (postulatlarini) tashkil qiladigan ilmiy fikrlar majmuiga aytiladi.*

Ilmiy g‘oyalarni tabiat sohasida kilinadigan kashfiyotlar natijasida paydo bo‘ladigan hamda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy sohada kilinadigan kashfiyotlar tufayli shakllangan ilmiy g‘oyalarga ajratish mumkin. Masalan, Anaksimandr tomonidan ilgari surilgan fazoning cheksizligi nazariyasi; Pifagorning - teoremasi; Gippokratning — temperamentlar haqidagi nazariyasi; Demokritning — atom nazariyasi; Yevklidning - geometriyasi; Al-Xorazmiyning - algebrasi; Zigmund Freydning - tush ko‘rish nazariyasi; Maks Plankning kvant nazariyasi; Albert Eynshteynning - nisbiylik nazariyasi; Aleksandr Flemingning - penitsillinni kashf etishi; Ervin Shryodingerning - to‘lqinlar nazariyasi; Ser Djeym Chedvikning - neytronni kashf etishi; Frederik Bantingning - insulinni kashf etishi; Uilyam Shoklining - tranzistorni kashf etishi va boshqalar ilmiy g‘oyalar jumlasiga kiradi.

Tabiat hodisalarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy g‘oyalar ijtimoiy sohadagi ilmiy g‘oyalarga nisbatan turg‘un bo‘ladi. Ular yangi qilinayotgan ilmiy kashfiyotlar asosida to‘ldirilishi yoki inkor qilinishi ham mumkin.

Falsafiy g‘oyalar. *Falsafiy g‘oyalar deb tabiat, jamiyat, inson tafakkuri haqidagi ta’limotlarning asosini tashkil etadigan, olam va odam to‘grisidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardan iborat bo‘lgan, metodologik ahamiyat kasb etadigan fikrlar majmuiga aytiladi. Ular dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to‘plangan falsafiy bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma’no-mazmuni, uning baxt-saoda-ti kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi. Masalan, olamning asosida nima yotadi, degan falsafiy savolga javob berishlariga qarab monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm, materializm kabi falsafiy g‘oyalar vujudga kelgan va falsafiy ta’limot sifatida tarix sahifalaridan joy olgan.*

МОНИЗМ

•(юн. monos — бир, ягона) — оламнинг ибтидоси битталигини, бутун mavjudotning ягона мохиятга эгаллигини эътироф этувчи фалсафий ғоя, ёндашув.

ДУАЛИЗМ

•(лот. dualis - икки ёклама) - оламнинг вужудга келиши, mavjudlik қонуниятлари ҳам рухий-илохий, ҳам моддий асосга эгаллигини эътироф этувчи фалсафий ғояга асосланган таълимот.

ПЛЮРАЛИЗМ

•(лот. pluralis - кўплик) - бир-биридан мустақил бўлган ва қандайдир ягоналикка келтиришмайдиغان борлик турлари, манфаатлар, ғоялар, қарашлар ва социал институтлар кўплигини билдирувчи фалсафий ғояга асосланган дунёқараш, таълимот.

ИДЕАЛИЗМ

•(юн. idea — ғоя, тасаввур, тушунча) - олам ва одамнинг яралиши, табиат ва жамиятнинг мохияти ва ривожиди рухий, моддий бўлмаган омилларни устувор деб билувчи фалсафий ғояга асосланган йўналиш.

МАТЕРИАЛИЗМ

•(лот. materialis - моддий) — борлик, олам, табиат, жамият ва одамнинг mavjudligi, яшаш ва ривожланиш хусусиятларини талқин қилишда модда (материя) ва унинг хоссаларини устувор деб билишга асосланган фалсафий йўналиш.

1. Monizm Dunyoning vujudga kelishi, mavjuddigi va o‘zgarishi negizida qanday mohiyat, qanday asos borligini falsafiy talqin etishda monizm dualizm va plyuralizmdan fark kiladi. Monizmning tarixiy shakllari sifatida *materializm* va *idealizm* alohida o‘ringa ega.

Dunyoning ibtidosi yagona, deb tan olish bilan bir vaktida, uning mohiyatini turli oqimlar har xil tushuntiradilar. *Materializm* yo‘nalishida butun mavjudot asosida deb materiya tan olinadi. Materializm tarixida moddiy asos sanalmish materiyani sodda tushunishdan chuqur murakkab anglashgacha tasavvurlar bo‘lgan. Dastlab moddiy elementlar (tuproq, suv, havo, olov)

sifatida tasavvur etilgan materiyani, eng kichik moddiy zarra "atom" haqidagi qarashlar, so'ng massa, hajm, energiya kabi xususiyatlarga ega moddalar bilan boglab tushuntirishlar yuzaga kelgan. Olamning rang-barang hodisa va qonuniyatlarini biz idrok etadigan xossalar orqaligina tushuntirish cheklanganligi sababli, keyinroq materiyani mavhum va umumiy falsafiy talkin etish zaruriyati kelib chikdi.

Idealizm esa, barcha hodisalarning yagona ibtidosi ruh, g'oya, ong yoki tafakkur deb hisoblaydi. Barcha hodisalarning kelib chiqish sababi ham, mavjudligi ham ma'naviy-g'oyaviy asosga ega, deb tushuntiradi. Olam va odamning yaratilishi va rivojlanishida materializm moddiylikni mutlaklashtirsa, idealizm ruhiylik va ilohiylikni mutlaqlashtiradi. Bunday mutlakdashtirish bu ikki yo'nalish orasidagi bahsga, raqobat va ziddiyatga olib boradi.

2. Dualizm. Dualizm Sharqning diniy-falsafiy qarashlari doirasida keng tarqalgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto"da tiriklikning ma'no-mazmuni azaldan ikki mavjudot - Ahura Mazda va Ahriman (Anxra - Manyu) o'rtasidagi, yaxshilik, ezgulik, yoruglik bilan yomonlik, qorong'ulik, zulmat o'rtasidagi kurashdan iborat, deb qayd kilingani fikrimizning dalili bo'la oladi. Bu xildagi qarashlar Markaziy Osiyoda islom dini qaror topguniga qadar ham ustuvor bo'lib kelgan.

Markaziy Osiyo panteizmi olamning yaratuvchisi Allox, lekin tabiat rivoji o'z-o'zidan sodir bo'ladi, degan g'oyani qayd qiladi. Shuning uchun xam, Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining mutafakkirlari tabiiy bilimlarni ham, islomiy bilimlarni ham chuqur o'rganishga harakat qilganlar. Yangi zamon falsafasida R. Dekart olamning asosini ham moddiy, ham ruqiy substansiya tashkil kiladi, deb talqin qilgan. U borliqni fikrlovchi substansiya (ruh) va materiyaga bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, Dekart bu ikki substansiyaning inson uchun ahamiyati masalasini hal qiladi. Bunga ko'ra, psixologik va fiziologik hodisalar bir-biriga bog'liq emas. Dualizm terminini nemis faylasufi X.Volf (1679-1754) kiritgan.

3. Plyuralizm Falsafiy nuqtai-nazardan plyuralistik qarash turli-tuman fikrlar kurashini emas, balki ularning jamiyat ijtimoiy tashkillanishining namoyon bo'lishi, deb karaladi. Plyuralizm ijtimoiy hayotning turli-tumanligi va ana shunday turli-tumanlik orasidagi ziddiyat, raqobat, muxolifatning ijtimoiy taraqqiyot manbai ekanini bildiradi. Bunday hodisalarning demokratik tarzda, qonunlar doirasida hal kilinishi ko'zda tutiladi. Plyuralizm atamasi birinchi marta 1712 yilda X.Volf tomonidan kiritilgan edi. Falsafada plyuralizmga qarama-qarshi ma'noda monizm atamasi ishlatilib, u butun borliqning yagona asosi mavjud, deb o'rgatadi. XIX va XX asrlarda monistik qarash asosan hukmron edi. Plyuralizmning keyingi davrlarda keng tarqalishi sababi jamiyat taraqqiyotining demokratiyalashuvi bilan bog'liq, deyish mumkin. Aytish mumkinki, har bir shaxe o'ziga xosdir va takrorlanmasdir, har bir qadriyat o'ziga xos va qadriyatlarni qadrlash ham o'ziga xosdir. Qolaversa, olamning ilmiy manzarasi xam, uning turli jihatlarini ifodalovchi nazariyalar ham turli tuman, rangbarangdir.

Jamiyat to'laqonli rivojlanishi uchun unda turli fikrlovchi guruhlar, kishilar, harakatlar, partiyalarning bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi. Plyuralistik tizim samarali ishlashi uchun ko'pchilik tomonidan ma'kullangan qonunlarning nuqsonsiz ishlash mexanizmi yaratilishi kerak. Buni davlat yoki jamiyat amalga oshirishi kerak bo'ladi.

4. Idealizm. Idealizm tarixi buyuk yunon faylasufi Aflotun ta'limotidan boshlanadi. U turli xil falsafiy fikrlarni tahlil qilar ekan, o'zini idealizm namoyandasi deya ochiq tan oladi. Xuddi shu davrdan boshlab, falsafiy qarashlarda idealizm va materializm ta'limotlari paydo bo'lgan. Idealizm o'z taraqqiyotida bir qator davrlarni boshdan kechirgan. XIX asrda shakllangan marksistik falsafada ongning materiyaga, ruhning tabiatga munosabati masalasi mutlakdashtirildi va idealizm bilan materializm o'rtasida metin devor tiklandi. Ular o'rtasidagi munosabat siyosiyashtirilib, materializm ilg'or, taraqqiyparvar kuchlarning, idealizm esa qoloq, reaksion kuchlarning mafkurasi sifatida ta'riflandi.

Ijtimoiy borliq birlamchi, ijtimoiy ong esa, ikkilamchi, degan g'oya insonni jamiyatda sodir bo'layotgan siyosiy, ijtimoiy, iktisodiy, ma'naviy jarayonlarning zaif bir ishtirokchisi va kuzatuvchisi qilib ko'yadi. Holbuki, jamiyat, unda sodir bo'ladigan voqea va hodisalar inson ongli faoliyatining mahsulidir. Ijtimoiy borlik insoniy g'oyalarning moddiy

ko'rinishi bo'lsa, g'oyalarning mazmuni esa ma'naviyatdir. Shu sababdan, idealizmning asosiy xususiyati g'oyaning ahamiyatini mutlaqlashtirishda emas, balki uning mavjudligini tan olishda namoyon bo'ladi.

5. Materializm. Antik davrda kishilarning tashki olamni obyektiv mavjudligiga stixiyali ishonishi tarzida paydo bo'lgan materializm, keyinchalik ilmiy-falsafiy taraqqiyot davomida, muayyan dunyoqarash sifatida shakllandi. Materializm tarafdorlari bo'lgan faylasuflar ta'limoti asosini moddiylikning birlamchiligi va ruhiylikning ikkilamchiligi haqidagi g'oya tashkil qiladi. Materializmni ham yaxlit ta'limot deb bo'lmaydi. Tabiatni tushunishda materialist, jamiyat yoki ruhiyatni tushunishda idealist bo'lgan faylasuflar ham bor.

Holbuki, materializm va idealizm bir-birini butunlay inkor etuvchi ta'limotlar emas. Falsafada bu ikki okimning ham o'z o'rnini bor. Ular doirasida rivojlangan falsafiy tafakkur natijalari bir-birini taqozo qiladi, tabiat va jamiyatdagi moddiy va ma'naviy jarayonlarning o'ziga xosligi, birligi va bog'liqligini to'laroq bilishga imkon beradi.

Falsafiy g'oyalarning quyidagi diniy-falsafiy ta'limot shakllari mavjud:

- **Ateizm** (*yun. a — inkor, theos - xudo; xudoni, dinni inkor etish*) — *falsafiy-materisshistik ta'limot*. Ateizm dinlar voqelikni noto'g'ri aks ettiradi, deb e'tirof etadi. Ateizm har qanday din, g'ayritabiyy kuch, xudolar, ruhlar mavjudligini, ruhning abadiy-ligi va bir mavjudotdan boshqasiga o'tishi, dunyo va undagi barcha narsalarni yo'qdan bor bo'lishini inkor etadi. Masalan, Yevropa madaniyatida ateizm deganda, odatda, shaxsiy xudoni, ya'ni aql va irodaga ega hamda g'oyibona ravishda barcha moddiy va ma'naviy jarayonlarga ta'sir etuvchi g'ayritabiyy mavjudotni, boshqacha qilib aytganda, teizmni inkor etish tushuniladi.
- **Teizm** (*yun. theos — xudo*) - *olamni Xudo tomonidan yaratilganini tan olgan diniy-falsafiy ta'limot*. Xudo olamdan tashqarida turadi, olamni o'z irodasi bilan yaratgan va unda mavjud bo'lgan mutlaq shaxs deb tushunadi. Narigi dunyodagi xudoni tan olish teizmni panteizmdan, xudoning doimiy faolligini tan olish esa deizmdan farqlantirib turadi. Teizm kelib chiqishi jihatidan o'zaro yaqin bo'lgan iudaizm, xristianlik va islom dinlari uchun xosdir. "Teizm" atamasini dastlab ingliz faylasufi R.Kedvort (1617-1688) qo'llagan. Teizm masalasi bilan teosofiya shugullanadi.

Teosofiya (*yun. theos - Xudo va sophia - donishmandlik, bilish*)— *falsafiy ta'limot*. Teosofiya ta'limotiga ko'ra, barcha tirik mavjudotlar hayotining tanasini boshkarib turuvchi ilohiy jon, ruhning faoliyati bilan bogliq. Inson o'zining yuksak zakovati yordamida aslida o'zining ilohiy jon ekanini, shu jon bilan tabiati bir bo'lgan Xudoning tabiatini anglab yetish imkoniyatiga ega bo'lgan. Xudo -o'zining quvvati bilan butun borlikda mavjud bo'lgan eng kichik tirik zarraning ham, eng katta tirik mavjudotning ham ichida alohida mavjud bo'la oladigan, ayni paytda butun borliqni nazorat qilib boshqarib turadigan, cheksiz qudratga ega bo'lgan Oliy Ruxdir. Jon esa Xudo kuvvatining ajralmas bo'lagi hisoblangan ruxdir.

Insoniyat tarixida faqat insonlar jamiyatidagina mavjud bo'lgan turli diniy-falsafiy ta'limotlar zamon, makon va sharoitga mos ravishda asosan ana shu yagona ta'limot, ruh va tananing bir-biridan farq kilishini o'rganadi.

Badiiy g'oyalar. *Badiiy g'oyalar deb so'z san'atining maxsuli sifatida yaratilgan adabiyot va san'at asarlarining asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlar majmuiga aytiladi*. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot uyg'otadi. Adabiy qahramonlarni sevish, ularga ergashish hollari ham ana shu asosda ro'y beradi. Badiiy ta'svir vositalari juda katta kuchga ega. Inson va jamiyat ongini o'zgartirishda, shaxs ruhiyatiga ta'sir o'tkazishda, odamlarni harakatga keltirishda badiiy adabiyot va san'atning ahamiyati beqiyos. Buni ona haqida, ona-Vatan haqida bitilgan kuy va qo'shiqlar, roman va hikoyalar misolida ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar. *Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar deb har bir elat, millat va xalqlarning ozodlik, mustaqillik, obodlik, adolat va haqiqat kabi orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, erkin va farovon hayot tarzini tarannum etadigan fikrlar majmuiga aytiladi*. Bularga ozodlik, mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik kabi g'oyalar kiradi.

Bulardan tashkari g'oyalarni ularning sohiblari, ya'ni harakatlantiruvchi kuchlari kimlar ekanligiga karab

- ✓ sinfiy,
- ✓ milliy,
- ✓ umumxalq,
- ✓ umuminsoniy g'oyalarga ajratish mumkin.

Sinfiy g'oyalar. *Sinfiy g'oyalar deb biron-bir sinfnning jamiyat hayotida o'tgan o'rnini, uning maqsad-muddaolarini ifodalaydigan fikrlar majmuiga aytiladi.* Sinfiy g'oyalarning maqsadi, mazmuni, shakli va uni amalga oshirish yo'llari asosan muayyan sinfnning yetakchi tashkiloti bo'lmish siyosiy partiyalarning nizomlarida belgilab qo'yilgan bo'ladi.

Sinfiy g'oyalar muayyan bir xalq ommasini ma'lum tarixiy sharoitda harakatga undayotgan bir sharoitda umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan g'oya sifatida jamiyat va inson manfaatlariga zid bo'lishi ham mumkin. Sobiq SSSRda hukmron bo'lgan KPSSning sinfiy kurash g'oyasi asosida, ya'ni ishchi va kambag'al dehqonlarga dushman sinf sifatida o'ziga to'q dehqonlarni yo'q qilish maqsadida "kuloqlashtirish" siyosatini olib borganligi buning yaqqol misoli bo'ladi.

Milliy g'oyalar. *Milliy g'oya bu - millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli hisoblanadi.*

Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat takdiriga daxldor bo'lgan, qiska yoki uzoq mudqatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni aks ettiradi. Masalan, bunga o'z davrida (1941-1945 yillarda) fashistlar bosib olgan Fransiyada "qarshilik ko'rsatish" g'oyasining milliy g'oya darajasiga ko'tarilgani va Fransiyaning ozod etilishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotgani fikrimizga dalil bo'la oladi.

U yoki bu g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi millatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liqdir. Zero, ana shu ikki negizga tayangan holdagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtda erishishi lozim bo'lgan maqsad-muddolari va mo'ljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin.

Tom ma'nodagi milliy g'oya, oxir-oqibatda, ozmi-ko'pmi insoniyat taqdiriga ta'sir qiladi. Shu ma'noda, har qanday milliy g'oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo'ladi. Ammo, aniq bir millat yoki umuman insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar ham bor. Aytaylik, "Milliy yarash" g'oyasi fuqarolar urushi ketayotgan davlat uchun hayotiy mazmunga ega bo'lsa, "Manfaatli hamkorlik" g'oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir. Har bir xalq o'z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo mafkura masalasini, uning o'zagini tashkil etadigan, o'ziga xos o'q, birlashtiruvchi yadro vazifasini o'taydigan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muammosini hal qiladi.

Umumxalq g'oyalari. *Umumxalq g'oyalari deb har bir xalqning ozod va obod, erkin va farovon hayot kechirishlari, tinch-osuda yashashlari, o'zgaralar bilan teppa-teng munosabatda bo'lishlarini o'zida mujassamlashtirgan fikrlar majmuiga aytiladi.* Bularga o'zaro tenglik, ijtimoiy hamkorlik, totuvlik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat kabi g'oyalarni kiritish mumkin.

Umuminsoniy g'oyalar. *Umuminsoniy g'oyalar deb hazrati insonni buyuk mavjudot deb biladigan, uning erkin va farovon yashashi uchun shart-sharoitlar yaratib berishga, o'zaro munosabatlaridagi haq-huquqlarini himoya etishga, naslini davom ettirishga qaratilgan eng oliyanob orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydigan fikrlar majmuiga aytiladi.* Bularga insonparvarlik, qonuniylik, jamoatchilik, mehribonlik, saxovatpeshalik, o'zaro yordam, yaxshi qo'shnichilik va boshqalar kiradi.

Umumbashariy g'oyalar. *Umumbashariy g'oyalar deb insoniyatni har xil ofat va kulfatlardan saqlab qolishga qaratilgan fikrlar majmuiga aytiladi.* Bunga tinchliksevarlik, o'zaro hamkorlik, birodarlik, bag'rikenglik, optimizm va boshqalar kiradi.

Bu bilan g'oyalarni tasniflash tugamaydi, hayot o'zgarishi bilan yangi g'oyalar paydo bo'ladi, shakllanadi, rivojlanadi vaqti kelib esa boshqa g'oyalarga o'zining o'rnini bo'shatib beradi. Faqatgina, umuminsoniy va umumbashariy g'oyalar darajasiga ko'tarilganlarigina

umrboqiy bo‘lib qoladi. Bizning milliy g‘oyamiz ana shunday umuminsoniy va umumbashariy g‘oyalar jumlasiga kiradi.

Mafkuraning turli xil ko‘rinishlari.

Ma‘lumki, har qanday g‘oya u amalga oshirish usul va vositalari tizimiga ega bo‘lmasa, shunchaki aytilgan fikr tarzida qolib ketishi mumkin. Demak, har kandy g‘oya o‘zining amalga oshirish usul va vositalariga ega bo‘lgandagina u ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib boradi va o‘zligini namoyon etadi. Bu vazifani mafkura bajaradi.

"Mafkura" arabchadan o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘z bo‘lib, *"fikir yuritish", "tafakkur", "e‘tiqod va maslaklar tizimi"*²⁴ degan ma‘nolarni anglatgan holda insonlarning kundalik hayotida *jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmui*, degan ma‘nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Mafkuraning kundalik hayotda ishlatiladigan oddiy - sodda tushunchasi, uning tub falsafiy mohiyatini ochib berolmasligi, tabiiydir. Shuning uchun ham mafkurashunos faylasuf olimlar unga quyidagicha ta‘rif beradilar.

Mafkura - muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, elat, millat, xalq jamiyat, davlat ehtiyoj va manfaatlari, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma‘naviy tamoyillarini ifoda etadigan g‘oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Shuning uchun uchun ham mafkuraning jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida davlat va jamoat arbobi I.A.Karimov: *"Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar Odamlarning ming yilyaar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko‘zlagan va uning dunyodagi o‘rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lishga qodir g‘oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman"*²⁵, - degan edi.

Insoniyat tarixida turli-tuman mafkuralar bo‘lgan. Turli xalqlar va ijtimoiy kuchlarning g‘oyaviy rahnamolari, mutafakkir va arboblari, o‘zlarining manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib, mafkuraviy ta‘limot va dasturlar ishlab chiqqanlar. Mafkuralar muayyan diniy, falsafiy ta‘limot asosida yaratiladi, ma‘lum ilmiy qarash va axloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkuralar o‘z mohiyati va ta‘sir kuchiga kura jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-karshi taraflarga bo‘lib yuborishi, davlatning jahondagi obro‘ va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, xalqlarni yuksaklikka ko‘tarishi yoki tanazzulga duchor etishi mumkin.

Mafkuraning tasnifideb turli davrlarda va hozirda mavjud bo‘lgan mafkuralarning o‘ziga xos belgilari, xususiyatlari, xususan, maqsad-muddaolari, usul va vositalari, harakatlantiruvchi kuchlari va ta‘sir-okibatlariga qarab turlarga, turkumlarga ajratishga aytiladi.

Insoniyat tarixida qancha ijtimoiy-siyosiy kuch, qancha millatu elat bo‘lgan esa, shuncha xil mafkura bo‘lgan. Hozirgi davrda ham mafkuralarning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular:




Hozirgi paytda aksariyat rivojlangan mamlakatlar xalqlari umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan erkinlik, adolat, qonun, inson huquqlari, millatlararo hamjihatlik, diniy

²⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.P. -T.: "O‘zbekiston milliy enqiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -B.558.

²⁵ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin // Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan kuramiz. T.7. -T.: O‘zbekiston, 1999. -B.84, 89.

bag'rikenglik kabi g'oyalarni taranum etuvchi mafkuralarga tayanmokda. Ayni paytda o'z talab-ehtiyojlarini boshqa xalqdar hisobiga qondirishni, bosqinchilik va talonchilikni yoqllovchi tajovuzkor (ekstremistik) mafkuralar ham uchrab turadi. G'arazli maqsadlarni jozibali g'oyalar niqobiga yashirib odamlar ongi va qalbida hukmron bo'lishga intiladigan shovinizm va irqchilik, fashizm va kommunizm, diniy aqidaparastlik kabi mafkura shakllari ham bor.



Jamiyatdagi turli sinf va guruhlar (masalan, ishchilar, dehqonlar, tadbirkorlar, ziyolilar va h.k.)ning ham o'z ehtiyojlari, maqsad-muddaolari bo'lishi tabiiy. Binobarin, ularni ifoda etadigan mafkuralar ham bo'ladi. Agar biron-bir guruhning manfaatlari boshqa qatlamlar ehtiyojlariga qarama-qarshi qo'yilsa, jamiyatda nizo va ziddiyatlar kuchayadi, ijtimoiy hamkorlik tamoyillariga putur yetadi.

Milliy mafkura xalqning tub manfaatlarini ifoda etib, oliy janob maqsadlarni ko'zlasa, boshqa xalqlarni o'zaro hurmat va hamkorlikka chorlasa, millatni taraqqiyot sari yetaklaydi, uning o'z-ligini anglashiga va jahon hamjamiyatida munosib urin egallashiga olib boradi. Agar milliy mafkura faqat shu millatni ko'klarga ko'tarib, boshqa xalqlarga qarama-qarshi tursa, turli falokat, urushlarni chiqarishi bilan birga, shu millatning ham tanazzuliga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, **mafkuralarni inson va jamiyatga ta'sir qilish xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflash** mumkin:

1. Inson va jamiyatga ta'sir qilish xususiyatiga ko'ra ijobiy natija beradigan mafkuralar. Bularga kiradi:	2. Inson va jamiyatga ta'sir qilish xususiyatiga ko'ra salbiy natija beradigan mafkuralar. Bularga kiradi:
1.1.Real (amaliy) mafkuralar.	2.1.Utopik (xayoliy) mafkuralar.
1.2.Tadrijiy (evolyutsion) mafkuralar.	2.2.Inkilobiy (revolyutsion) mafkuralar.
1.3.Liberal mafkuralar.	2.3.Mustabid (totalitar) mafkuralar.
1.4.Progressiv mafkuralar.	2.4.Regressiv mafkuralar.
1.5.Bunyodkor mafkuralar.	2.5.Vayronkor mafkuralar.

Har bir narsa va hodisa mazmun va shaklga ega bo'lganidek, har qanday mafkuraning ham mazmun va shakli mavjuddir. *Mafkuraning shakli bu uning ichki va tashki tuzilishini o'zida ifodalovchi strukturasi, ya'ni mavjudlik usulidir.*

Shunga ko'ra mafkuraning quyidagi shakllari mavjud:

- ❖ anarxiya,
- ❖ monarxiya,
- ❖ totalitarizm,
- ❖ liberalizm,
- ❖ demokratiya.

Anarxizm - (yun.—beboshlik, hokimiyatsizlik) - har qanday hokimiyat va davlatni inkor etuvchi, har kim o'ziga-o'zi xo'jayin, degan qarashni asos qilib oluvchi g'oyalar asosida shakllangan ijtimoiy-siyosiy oqim. U jamiyatning umumiy manfaatlarini fuqarolarning individual, ya'ni xos manfaatlariga qarama-qarshi qo'yish, umumiy manfaatlarni hisobga olib, jamiyatni boshqaruvchi, birlashtiruvchi, tartibga soluvchi davlat hokimiyatini tan olmaslik

g'oyasiga tayanadi. Bu g'oya beboshlik va tartibsizlikka olib boradi, taraqqiyot yo'lidan adashtiradi. Shuning uchun u reaksiya, ya'ni vayronkor mohiyatga ega.

Anarxizm g'oyalari K.Shmidt (1806-1856), J.Prudon (1809-1865), M.Bakunin (1814-1876), P.Kropotkin (1842-1921) kabilar qarashlarida ilgari surilgan bo'lib, individualizm, subyektivizm, volyuntarizmni mutlaqlashtirishga asoslanadi.

Anarxistik individualizm g'oyasining xavfli tomoni shundaki, u kishilarni boshqalarning manfaatlari bilan hisoblashmaslikka, ijtimoiy qadriyatlarni mensimaslikka, fakat o'z shaxsiy manfaatini o'ylab yashashga chaqiradi. Bunday g'oya doirasida boshqalarga muayyan maqsadga erishish uchun vosita sifatida qaraladi. Anarxizm g'oyalari o'tgan asrning 20-yillarigacha Rossiyada, 30-yillarda Ispaniyada sezilarli ta'sir kuchiga ega bo'lgan hamda kommunistik va fashistik diktaturalarga turtki bergan bo'lsa, Ikkinchi jahon urushidan so'ng ba'zi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalib, diktatorlik tartibining yuzaga kelishida o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Anarxizmning buzg'unchi g'oyalari hozirda ham jahondagi turli siyosiy kuchlar, guruh va harakatlar (anarxo-sindikalistlar, anarxo-terrorchilar, anarxo-kommunistlar, yangi so'llar kabilar) uchun oziq berib kelmoqda. Ular qanday shaklda (tartibsizlik, zo'rvonlik va shu kabilar tarzida) bo'lmasin, milliy va umumbashariy qadriyatlarga yot ekanini chuqur anglagan holda, ularga qarshi kurashish har bir taraqqiyparvar va hurfikrli shaxsning fuqarolik burchidir²⁶.

Monarxiya (yunonchada "yakka hokimlik") - hokimiyat yakka hokim - davlat boshlig'ining qo'lida bo'lgan va bu hokimiyat meros kilib beriladigan davlat boshqaruvini ilgari suruvchi g'oyalar tizimidan iborat bo'lgan, vayronkor mafkura shaklidir.

Monarxiyami tarannum kiluvchi g'oyalarning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: 1) monarx davlatni shaxsiylashtiradi, tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig'i sifatida maydonga chiqadi; 2) monarx davlatni yakka o'zi boshqaradi; 3) monarx hokimiyati muqaddas deb e'lon qilinadi; 4) monarx o'z faoliyatida rasman mustaqildir; 5) hokimiyatni o'rnatish, qabul qilish (legitimlashtirish)ning alohida tartibi mavjud; 6) muddatsiz, umrbod boshqaruv; 7) monarx o'z boshqaruvining natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas. Monarxiya *mutlaq va cheklangan (yoki parlamentar)* shakllarda bo'ladi.

Totalitarizm (lot. Totalitare - butunlik, to'ralik, mukammallik, Totalis - jami, to'la) - jamiyat hayotining barcha sohalarini davlat tomonidan to'la nazorat qilish, demokratik tashkilotlarni ta'qib qilish, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni tugatish, har qanday shaxs, ijtimoiy qatlam, guruh manfaatlarini davlat manfaatlariga bo'ysundirilishini talab qiladigan siyosiy g'oyalar tizimi va ular asosida shakllanadigan davlat tuzumi. Bu g'oya tarafdorlari o'ta markazlashgan hokimiyat tizimi o'rnatilgan kuchli davlatni tashkil qilish, mamlakatni boshqarishda yakkayu yagona kuch yoki partiyaning hukmronligini ta'minlashga alohida e'tibor beradilar. Jamiyatda barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar faoliyati va omma hayoti ustidan to'la nazoratni o'rnatish, davlat ichki va tashki siyosatining asosiy yo'nalishlarini markaziy tashkilot tomonidan belgilab berilishi, davlatga rahbarlik kilishni yakka shaxs qo'lida to'plashdek g'oyalar ustuvor qiladi. Tarixdan ma'lum bo'lgan fashistik tuzumlar va sobiq Sovet Ittifoqi va uning ittifokdoshlari bunga misol bo'lishi mumkin. Totalitar boshqaruv tizimidagi davlatda jamiyatning barcha sohalarida muayyan mafkuraning yakkahokimligi mavjud bo'ladi. Mafkura yakkahokimligi bo'lgan jamiyatning esa kelajagi yo'q. Totalitar tuzum erta yoki kech - halokatga uchraydi.

Liberalizm (lot: liberalis - erkinlik) - ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo'lishini, jamiyatning evolyutsion rivojlanish yo'lini e'tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot, ijtimoiy siyosiy va mafkuraviy oqim. Liberalizm g'oyasi, o'zining ma'nomohiyatiga ko'ra, murosa falsafasi bo'lib, volyuntarizm, subyektivizm, dogmatizm, radikalizm va absolyutizmning har qanday ko'rinishlarini rad qiladi. Shaxs manfaatlarini, huquq va erkinliklarining ustuvorligi, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar va milliy ma'naviy asoslarga tayanish, g'oyalar erkinligi tamoyillarining tarixiy taraqqiyotga mos o'zgarishi, ijtimoiy-siyosiy

²⁶ Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. -T.: Akademiya, 2007. -B.88-90.

tizimda keskin ziddiyatga bormaslik - liberalizmga xos xususiyatlardir. Liberalizm uchun bir xil andozadagi, qat'iy belgilab qo'yilgan axloqiy meyor va qonun-qoidalar mavjud emas. Shuning uchun liberalizm g'oyasi jamiyat siyosiy tizimini dinamik o'zgartirishni zo'rvonliksiz amalga oshiradigan kuch va imkoniyatlarni topishga intilishi bilan xarakterlanadi. Liberalizmning asosiy tamoyili - huquqlar, imtiyozlar, imkoniyatlar tengligi sharoitida hayotning barcha sohalaridagi erkinlikni ta'minlashdir. Liberalizmdagi erkinlik raqobatlashayotgan g'oyalarning barchasiga rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi. Demak, liberalizm, *bir tomondan*, insonning huquq va erkinliklari ustuvorligiga, *ikkinchi tomondan*, jamiyatning ma'naviy-axloqiy meyor va kadriyatlariga asoslanishi bilan o'zining umuminsoniy mohiyatini namoyon qiladi.

Demokratiya - (yun. "demos" - xalq va "kratos" -hokimiyat) - xalq hokimiyati, fuqarolarning ozodligi va tengligi tamoyillarini e'lon qilishga asoslangan siyosiy tuzum shakli. Tarixiy taraqqiyot davomida demokratiya tushunchasi shaklan va mazmunan boyib borgan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etmokda. Zero, demokratiya eng rivojlangan davlatlarda ham yuqori takomil nuqtasiga, ideal darajasiga erishgani yo'q. Har bir millat va jamiyat, ayni paytda har bir davr o'z demokratiyasiga ega. Boshqacha aytganda, uni tushunish, talqin etish va amaliyotda qo'llashda o'ziga xoslik barcha davrlarga xosdir. Bu o'ziga xoslik xalqning bosib o'tgan tarixiy yo'li, milliy mentaliteta, an'analari, amaldagi ijtimoiy munosabatlarning xarakteri kabi bir kator omillar bilan belgilanadi.

Demokratiya asosida qizikish, intilish va manfaatlarni mutanosiblashtirish, muvofiqlashtirish, murosaga keltirish va kelishish siyosati yotadi. Shu ma'noda demokratiya jamiyatdagi kuchlarni birlashtirishga, mamlakat salohiyatini taraqqiyot uchun safarbar kilishga xizmat qiladi. Uning ma'no-mohiyati haqida I.A. Karimov: "Haqiqatdan ham demokratiya - faqat nazariya yoki siyosiy jarayongina bo'lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruhiyati,an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyat-lari hamdir. Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak"²⁷, - degan edi.

Mafkuraviy jarayonlar. Mafkuraviy kurashlar. "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" (I.A.Karimov).

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi davrida ro'y berayotgan mafkuraviy jarayonlar inson ongi, qalbi xilma-xil usullarda olib boriladigan g'oyaviy targ'ibot va tashviqotning asosiy obyekt hamda maqsadiga aylanganini ko'rsatmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, *"Bugungi kunda insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar Yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anlaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf — insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim"*.

"Mafkuraviy kurash" tushunchasi turli g'oyaviy qarashlar, yondashuvlar, xilma-xil maslak va maqsadlarga ega ijtimoiy subyektlar o'rtasida yuzaga keladigan, qarama-qarshilikka asoslangan munosabatni ifodalaydi. U yangi, shakllanayotgan g'oyalar bilan o'z «vazifasini» bajarib bo'lgan mafkura yoki uning qoldiqlari o'rtasidagi munosabat shaklida ham sodir bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, mafkuraviy kurash muayyan g'oyalarni singdirish yoki himoya qilish jarayonini ham anglatadi.

Mafkuraviy kurashning manbaini o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, bir-biridan farqlanuvchi turli g'oyaviy qarashlar sohiblarining manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar tashkil etadi. Demak, mafkuraviy kurash sodir bo'lishi uchun turli ijtimoiy subyektlar mavjudligining o'zi yetarli emas. Bunday kurash ularning manfaatlari bir-biridan farqlanuvchi g'oyaviy shakl kasb etgan, sodda qilib aytganda, mafkuraviy ziddiyat mavjud bo'lgandagina real xarakter kasb etadi. Shundagina mafkuraviy jarayonlar jamiyat rivojlanishini ta'minlashning zaruriy sharti sifatida o'zligini namoyon qiladi. Kishilar, ijtimoiy guruhlarining bir-biridan farqlanuvchi ehtiyoj va

²⁷ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr 60'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. -T.: O'zbekiston, 1998. -B.160.

manfaatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Mazkur holatlar biron-bir jamiyat yoki davlat yangilanayotganida, bir bosqichdan boshqasiga o'tayotganida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday holda mafkuraviy kurash quyidagicha yo'nalishlarga ega bo'lishi mumkin:

- 1) o'z umrini o'tab bo'lgan, yangi zamon talablariga javob bera olmay qolgan mafkura, g'oyalar tizimi yoki g'oyaviy-mafkuraviy tamoyillarga qarshi faoliyat;
- 2) muayyan millat, jamiyat va davlat uchun begona hamda yot bo'lgan, chetdan turib, turli maqsadlarda, xilma-xil vositalar orqali joriy etishga harakat qilinayotgan g'oya va mafkuralarga nisbatan amalga oshiriladigan harakat, chora-tadbirlar majmui;
- 3) asl maqsadlari xalq va jamiyatning umumiy manfaatlariga zid bo'lib qolgan ichki kuchlar, konservativ subyektlarga xos g'oya va mafkuraviy qarashlarga qarshi kurash;
- 4) yangi jamiyat va yangi davlat barpo etish, hayotda tub o'zgarish va islohotlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar hamda mafkuraviy tizim shakllanishi uchun olib boriladigan faoliyat va boshqalar²⁸.

Muayyan guruh, xalq, jamiyatni mafkuraviy ta'sir doirasiga tortishni asosiy maqsad qilib olgan g'oyaviy kurash tamoyillari hamda ularni turli yo'llar va usullar bilan amalga oshirishga urinishlar hamma vaqt bo'lgan. Tarixga nazar tashlasak, bu jarayon jamiyat rivojlana borishi bilan birga chuqurlashib, keng qamrovlilik kasb etib borganini ko'ramiz. Masalan, hozirgi davrda mafkuraviy kurash o'zining qator xususiyatlari bilan ajralib turishini ko'rish mumkin.

Eng avvalo, mafkuraviy kurash va o'zgalarga g'oyaviy ta'sir o'tkazish jarayoni tezkor va katta shiddat bilan kechayotganini qayd etish zarur. Bu shiddatlilik muayyan mafkuraviy qadriyatlarni yashin tezligida ommalashtirish, tarqata olish imkoniyatini yaratgan, Yer yuzining turli burchaklarida dunyoga kelayotgan g'oyalarni millionlar dunyoqarashining uzviy qismiga aylantirayotgan matbuot, radio, televideniye, Internet kabilarning taraqqiyoti tufayli sodir bo'lmoqda.

Shu bilan birga, mafkuraviy kurash jarayoni oldingidan ham keng qamrov kasb etib bormoqda. Bu jarayonga ijtimoiy hayotning barcha sohalari, aholining turli qatlamlari tortilganida yaqqol ko'rinadi. Bu jarayon shunchalik kuchliki, bugungi kunda dunyo hududining biror-bir joyini mafkuraviy ta'sirdan tashqarida tasavvur qilish qiyin.

Bunday sharoitda milliy xavfsizlikni ta'minlash, uning turli yo'llari, vositalari va usullari imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mafkuraviy jarayonlar globallashuvi sharoitida shaxs, millat, jamiyat, davlatni xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladigan g'oyaviy kurash va tajovuzlar ta'siridan himoyalash, sodda qilib aytganda, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyat ma'naviy hayotida bo'shliq paydo bo'lishining oldini olish, ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan g'oyalar tizimini shakllantirish, uni muttasil mustahkamlab borish, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, **fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish** har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da'vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Yosh avlodimizni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur.

²⁸ Q.Nazarov. G'oyalar falsafasi. T., "Akademiya" nashriyoti, 2011 yil. 174-178 betlar.

Shu ma'noda, insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek bo'lsa, loqayd qarab turolmaydi. Hech ikkilanmasdan, yoningizda turib, qo'lidan kelgancha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda yengishga harakat qiladi. Lekin birovning hayotiga, yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan qo'rqish kerak. Ulardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iymon, na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi.

Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmandan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi. Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: «Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi». Har bir inson hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday fikrlarni unib o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir. Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz – yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Bu boradagi eng muhim vazifa shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo'lgan o'z burchi va mas'uliyatini aynan ana shu asosda aniqlab olishi zarur. Bu masala haqida chuqurroq o'ylab ko'radigan bo'lsak, shu tamoyillarga tayangan jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy shakl-shamoyili, uning qiyofasi, rivojlanish yo'llari, ustuvor xususiyatlari to'g'risidagi aniq tasavvur turli fikr, bahs-munozaralar orqaligina ayon bo'lishini e'tirof etishimiz va buni o'zimizga mezon qilib olishimiz zarur.

Ayniqsa, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur²⁹.

**Korrupsiya – mazmuni va mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh.M.Mirziyoyev ma'ruzalarida korrupsiyaning jamiyat rivojiga salbiy ta'siri
masalalarining yoritilishi.**

²⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T., «Ma'naviyat», 2008, 56-59 betlar.

Korrupsiya (lotincha “sorrupcio” – poraga sotilish, aynish, tanazzul) – mansabdor shaxsning boyish maqsadida, o‘z mansabi bilan bog‘liq vakolatlarini suiiste‘mol qilishdan iborat jinoyatdir.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti korrupsiya jinoyatchiligining o‘ssishi nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘siq, balki o‘tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga bevosita tahdid tug‘diradi, deya ta’kidlagan va shu sababli, mustaqil davlatimiz mavqeini mustahkamlash maqsadida, bu illatning oldini olish bo‘yicha bir qator tavsiyalar bergan edilar. Korrupsiya jinoyati jamiyatimiz farovonligi va iqtisodiy taraqqiyotimiz kushandasidirki, unga qarshi kurashishni aslo susaytirmasligimiz lozim.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi *“Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”* mavzuidagi ma‘ruzasida ***“Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta‘minlash bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rishimiz zarur”***, deb bejiz ta’kidlamadi.

“Korrupsiya” tushunchasi qonunlar ishlab chiqish jarayoniga, qonunni qo‘llash amaliyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan ham, bu muammo na faqat milliy davlatlarni, balki xalqaro tashkilotlarni ham tashvishlantirmoqda.

Hozirgi vaqtda kriminalist olimlar o‘rtasidagi bahslarda, jinoyat, fuqarolik, ma‘muriy, mehnat, xo‘jalik huquqi sohasidagi mutaxassislarning ilmiy ishlarida, ommaviy axborot vositalarida “korrupsiya” iborasi turli ma‘nolarda qo‘llanilmoqda, bu esa korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, poraxo‘rlikning o‘ta salbiy ko‘rinishidir, deb xulosa qilish imkonini beradi. Bu so‘zni fuqarolarimiz o‘zaro muloqotda qo‘llaydilar va bu so‘z kundalik nutqda ham qulog‘imizga tez-tez chalinadigan bo‘lib qoldi. Ba’zi manbalarda esa bu atama “iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar” va “mansabdorlik jinoyatlari” kabi so‘zlar bilan bir qatorda qo‘llanadi. Respublikamizda chop etilgan huquqiy adabiyotlar va maqolalarda ham korrupsiya deyilganida, yuqori mansabdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan poraxo‘rlik nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida davlat qurilishi va huquqiy siyosatning mazmun va mohiyatini aniqlashtirish, uning maqsad va vazifalarini islohotlarning bugungi taraqqiyoti asosida shakllantirib borish, inson manfaatlarini ta‘minlashning strategik jihatdan yangi vositalar bilan bir qatorda, ham taktik xususiyatga ega bo‘lgan yangi usullarni qo‘llash, shaxs hamda jamiyat manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qilish, korrupsiyaning oldini olishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyoji vujudga kelishi bilan belgilanadi.

Albatta, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yaratila boshlangan. Chunonchi, Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 maydagi “Xususiy mulk va tadbirkorlikni korrupsiya, reket va uyushgan jinoyatchilikning boshqa turlaridan himoya qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 19 iyuldagi “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni bu boradagi dastlabki normativ-huquqiy hujjatlardandir.

Xozirgi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi va samarali huquqiy mexanizmi yaratildi. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2017 yil 3 yanvarda O‘zbekiston Respublikasining ***“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”***gi Qonuni qabul qilindi. Qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalar berilgan bo‘lib, unda korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuviga doir tushunchalarga ta’rif berilib, bular, o‘z navbatida, fuqarolarga korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning nima ekanligi va ularning salbiy illat ekanligi haqida ma’lumot beradi.

Qonunning 5-moddasida esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular: aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni

amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan quyidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar korrupsiyaviy jinoyatlar hisoblanadi: Masalan, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish, budget intizomini buzish, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, hokimiyat harakatsizligi, pora olish, pora berish; pora olish-berishda vositachilik qilish, xizmatchini pora evaziga og'dirish, tovlamachilik yo'li bilan haq berishni talab qilish, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish, yolg'on guvohlik berish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, hokimiyatni suiiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi va hokozolar.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonunning muhim ahamiyatli jihati shundaki, unda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari haqida ma'lumot berilib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishlari nazarda tutilgan.

Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari Qonunning 16, 17, 18-moddalarida o'z ifodasini topgan. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'ymaydilar.

Ushbu Qonunning yana o'ziga xosligi, Qonunning 5-bobida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligi nazarda tutilgan.

Haqiqatan ham, ushbu Qonun davlat va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi mazkur illatga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi PQ-2752-sonli «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonunni qoidalarining samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida Qaror qabul qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;
- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Yuqoridagilarga muxtasar qilib Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Farg'ona viloyatiga amalga oshirgan tashrifi chog'ida o'tkazilgan yig'ilishda soliqchilarni mas'uliyatsizligi, fidoiylik qilmasligi haqida tanqid qilib aytgan quyidagi so'zlarini keltirish mumkin: "Qani budjetning puli? Hammasi cho'ntakka ketyapti. 3 yil ham ishlamasdan, 4 qavatli uy qurasan hammang, 20 ta mashina olasan. Qayerdan bular? Oylikdan olasanmi? Sal insofli bo'l! O'g'ri bo'l, insofli bo'l".

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. 89-bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T., «Ma'naviyat», 2008.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan kuramiz. T.7. -T.: O'zbekiston, 1999.
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
5. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
6. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005, 3-30-betlar.
7. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati / Q.Nazarov, I.Ergashev va boshqalar. T., "G'afur G'ulom" NMIU, 2007.
8. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi .- T.: Akademiya, 2011.
9. Yaxshilikov J. Y., Muhammadiyev N. E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi, "Fan", 2017

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Korrupsiyaga qarshi kurashishning goyaviy va xukukiy asoslari.
2. Mafkuraviy kurashlarning kurinishlari.

Glossariy

G'OYA - arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida - maqsad, intilish, niyat, qasd deganma'nolarni anglatib, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikrdir.

MAFKURA - fikrlar majmui, g'oyalar tizimi, e'tiqod

G'OYANING TURLI KO'RINISHLARI mazmuni va namoyon bo'lish shakliga ko'ra – ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g'oyalarga bo'linadi.

MILLIY G'OYA - millatning o'tmishi, buguni, istiqboli, manfaat va maqsadini ifodalovchi ijtimoiy g'oya.

BUNYODKOR G'OYALAR - 1) Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan tushuncha; 2) Jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi g'oya.

VAYRONKOR (BUZG'UNCHI) G'OYALAR - 1) bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha;

2) insonni va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalardir.

Obyektivlik (lot. object- narsa) - inson va uning ongidan mustaqil mavjud bo'lgan reallik. Tashqi olam predmet va hodisalarini qanday bo'lsa, shunday bayon qilish.

Subyektivlik (lot. subjectus - ostida, pastda, asosida turuvchi) - faol faoliyat ko'rsatuvchi, biluvchi, ong va irodaga ega bo'lgan individ yoki ijtimoiy guruh. Obyektini "insoniylashtiruvchi" shaxs, ijtimoiy guruhlarning faol faoliyati.

Panteizm (yunoncha pan - hamma, theos - Xudo) - Xudo bilan tabiat bir-biriga tamoman mos bo'lib tushadi, ular aynan birdir, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas, degan falsafiy g'oyaga asoslangan ta'limot. Bu atamani 1705 yilda ingliz faylasufi J.Loland kiritgan.

KORRUPSIYA - (lotincha "sorrupcio" – poraga sotilish, aynish, tanazzul) – mansabdor shaxsning boyish maqsadida, o'z mansabi bilan bog'liq vakolatlarini suiiste'mol qilishdan iborat jinoyatdir.

Nazorat savollari:

1. G'oyalar xilma-xilligi tushunchasi, ma'no-mazmuni.
2. G'oya – fikrning ijtimoiylashgan ko'rinishi.
3. G'oyalar xilma-xilligini taqozo etuvchi shart-sharoit va omillar.
4. Mafkuraviy jarayonlar. Mafkuraviy kurashlar.
5. Mafkuraning turli xil ko'rinishlari.
6. "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" (I.A.Karimov).
7. Korrupsiya – mazmuni va mohiyati.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma'ruzalarida korrupsiyaning jamiyat rivojiga salbiy ta'siri masalalarining yoritilishi.

Test savollari:

- 1."G'oya" aslida arabcha so'z bo'lib, uzbek tilida qandayma'noni bildiradi?
a.obyektiv borliqni, voqelikni kishi ongida aks ettiruvchi.
*b.maqsad, intilish, niyat,qasd.
s.kishilarning dunyoqarashlari asosini tashkil etuvchi,
d. ong, shuur, tafakkur.
2. G'oyalarni namoyon bo'lish xususiyatlariga ko'ra turlariga qaysi javob muvofiq emas?
a.bunyodkor va vayronkor; ilmiy va xayoliy; falsafiy;
a.bunyodkor va vayronkor; ilmiy va xayoliy; falsafiy;
b. dunyoviy va diniy; badiiy; ijtimoiy-siyosiy; milliy va umuminsoniy;
*s. ma'naviy va ma'rifiy; axloqiy va estetik;umumbashariy va sotsial;
d. dunyoviy va diniy; ilmiy va xayoliy; falsafiy;
3. bunyodkor g'oyalar deb...
*a.jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari etaklovchi, xalkni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat kilishga undovchi goyalar.
b.har bir elat, millat, xalq, davlat va jamiyat ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda inson xukuki va erkinliklarini, demokratik qadriyatlarining ustuvorligini ta'minlash asosida ularni ezgu maqsadlar sari etaklaydigan g'oyalar.
s.tabiiy va ijtimoiy fanlarning tabiat, jamiyat, inson tafakkurida yuz berayotgan narsa, hodisa, jarayonlarning sir asrorlari konuniyatlarini bilish orqali qilingan ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan g'oyalar.
d. olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga egaligini e'tirof etuvchi falsafiy goyaga asoslangan ta'limot.
4. Monizm so'zining manosi?
*a.yun. monos — bir, yagona
b. lot.monos — bir, yagona
s. fran.mone — bir, yagona

d. ingliz.monis— bir, yagona.

5. Idealizm bu?

a. bir-biridan mustakil boʻlgan va qandaydir yagonalikka keltirmaydigan borliq turlari haqida qarash.

*b. barcha hodisalarning yagona ibtidosi ruh, gʻoya, ong yoki tafakkur deb hisoblaydigan qarash.

s. olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga egaligini eʼtirof etuvchi falsafiy goyaga asoslangan taʼlimot.

d. barcha hodisalarning yagona ibtidosi xudo deb hisoblaydigan qarash.

6. ...-borliq, olam, tabiat, jamiyat va odamning mavjudligi, yashash va rivojlanish xususiyatlarini talqin qilishda modda va uning xossalarini ustuvor deb bilishga asoslangan falsafiy yoʻnalish.

a. idealizm.

*b. materializm.

s. plyuralizm.

d. . panteizm

7. Olamni xudo tomonidan yaratilganini tan olgan diniy-falsafiy taʼlimot bu

a. teosofiya.

*b. teizm.

s. ateizm.

d. panteizm.

8. Ikkinchi jahon urushidan soʻng baʼzi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalib, diktatorlik tartibining yuzaga kelishida oʻz taʼsirini koʻrsatgan gʻoya?

a. monarxizm gʻoyasi.

*b. anarxizm gʻoyasi.

s. totalitarizm gʻoyasi.

d. liberalizm gʻoyasi.

9. Lotinchada - butunlik, toʻlalik, mukammallik, manosini bildiruvchi soʻzni toping?

a. monarxiya.

b. anarxiya.

*s. totalitar.

d. liberal.

10.– ijtimoiy xayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor boʻlishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yoʻlini eʼtirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot, ijtimoiy siyosiy va mafkuraviy oqim.

a. monarxiya.

b. demokratiya.

*s. liberalizm.

d. totalitarizm.

5-MAVZU. MILLIY G‘OYA - O‘ZBEKISTON DEMOKRATIK TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI.

Reja:

1. Demokratiya va milliy g‘oya. Demokratik prinsiplarning milliy g‘oya maqsadlari bilan o‘zaro bog‘liqligi.
2. Demokratiyaning Sharqona va G‘arbona talkini.
3. Mafkuralar xilma-xilligi muhim demokratik prinsip. Uning inson qadr-qimmati, manfaatlari, fikr erkinligi bilan bog‘liqligi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Davlat xokimiyati idoralarining xalq uchun ishlashi - demokratik taraqqiyot talabi ekanligi haqidagi fikrlari.

Tayanch so‘zlar

Demokratiya va milliy g‘oya. Demokratiyaning Sharqona va G‘arbona talkini. Demokratik prinsiplarning milliy g‘oya maqsadlari bilan o‘zaro bog‘liqligi. Mafkuralar xilma-xilligi muhim demokratik prinsip. Uning inson qadr-qimmati, manfaatlari, fikr erkinligi bilan bog‘liqligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Davlat xokimiyati idoralarining xalq uchun ishlashi - demokratik taraqqiyot talabi ekanligi haqidagi fikrlari.

«Demokratiya, — deb ta’kidlaydi I.A.Karimov, — jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog‘i kerak. Bu esa bir zunda bo‘ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo‘la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko‘rish va demokratiya tamoyillarini o‘zlashtirishdan iborat ancha uzok, muddatli jarayondir»³⁰.

I.A. Karimov

Demokratiya va milliy g‘oya. Demokratik prinsiplarning milliy g‘oya maqsadlari bilan o‘zaro bog‘liqligi.

Istiqlol, demokratiya va taraqqiyot — o‘zaro bog‘liq tushunchalar. Chunki agar milliy mustaqillik bo‘lmasa, erkinlik ham, erkin rivojlanish ham bo‘lmaydi. Shaxs erkinligi millat erkinligidan ayri tushuncha emaye. Shu bois O‘zbekiston o‘tgan asr boshlarida istiqlolni qo‘lga kiritganda bir-biri bilan bog‘liq 2 vazifa kun tartibida turardi: biri — mustaqillikni mustahkamlash bo‘lsa, ikkinchisi — bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish.

Hozirgi paytda O‘zbekistonda bu ikki jarayon muvaffaqiyat bilan davom etmoqda va mamlakatimiz tobora iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar safiga kirib bormoqda. Yana shu narsa ham aniq bo‘ldiki, iqtisodiy taraqqiyot ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy yuksalish bilan uzviy aloqada kechishi shart ekan. Boshqacha aytganda, iqtisodiy taraqqiyot osmondan tushadigan mo‘jiza emas, balki uni O‘zbekiston xalqining o‘zi amalga oshiradi. YA’ni, xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasi, bilim va malakasi, salohiyati, umummadaniy darajasi qanchalik baland bo‘lsa, iqtisodiy taraqqiyot ham shuncha tezlashib, "Erkin, farovon hayotni ta’minlashga shart-sharoit yaratiladi"³¹. Aholining har bir qatlami, har bir fuqaro buni yaxshi anglab yetib, shunga qarab faoliyat olib borishi lozim bo‘ladi. Ammo bu jabhada muammolarimiz ko‘p. Zero, demokratiya — erkin yashash va erkin faoliyat olib borish, fikr bildirish, o‘z irodasini ifodalash, haq-huquqlaridan bemalol foydalanish va jamiyat ishlariga faol qatnashishni anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bunga to‘la kafolat beradi va har bir fuqaroning huquqini himoya qiladi. Biroq ayni vaqtda, demokratiya yuksak ma’naviyat egasi bo‘lish, mas’uliyat va

³⁰ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. — T.: «O‘zbekiston», 1998. — 160-bet

³¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. 8-jild. — T.: "O‘zbekiston", 2000. — 19-bet.

jamiyat oldidagi burchni his qilishni talab etadi. Qonun, huquq imkoniyatlar bersa, axloq, burch, o'zgaralar manfaati bilan hisoblashish, insoniylik udumlari, vijdon esa mas'uliyat yuklaydi, har bir individual shaxs manfaati bilan jamiyat manfaati chambarchas bog'liq ekanini har soatda bizga bildirib turadi. Shu bois huquq va burch, erkinlik va mas'uliyat hamma vaqt birga, uzviy aloqada amal kiladigan tushunchalardir. O'zaro raqobat, aqlu zakovat kurashi va tadbirkorlik, ishbilarmonlik xislatlari ham shu zaminda adolat o'zaniga tushadi, kishining kishi tomonidan nohaq ezilishi, zo'ravonlik qilinshiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekistonning mustaqil mamlakat sifatidagi mavjudligi uning milliy davlatchiligi taraqqiyoti bilan birgalikda olib qaralgandagina mazmun-mohiyatga ega bo'ladi. Tarixiy tajribalar aynan o'tish davrida davlatning islohotchilik roli benihoya katta bo'lishini tasdiqlamoqda. Shu ma'noda mustaqil O'zbekiston davlatini xalqimizning irodasi va ruhini ifodalaydigan, uning birligini ta'minlashdagi o'rni beqiyosdir.

Davlatni shunchaki ma'muriy instrument, boshkaruv apparati, deb talqin etish yetarli emas. Bu ta'rif demokratiya sharoitida ham milliy birlik va xalqning ma'naviy yaxlitligi, demak, uyushib, jipslashib, rivojlanish yo'lga chiqishiga xalaqit beradi. Qolaversa, taraqqiyot ham, demokratiya ham o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Mamlakat xavfsizligini, osoyishtaligini ta'minlash, siyosiy manfaatlar to'qnashuvida dadil turib, milliy manfaatni himoya qilish davlat zimmasidadir.

Demokratiya sharoitida, albatta davlat va uning tarkibiy qismi bo'lgan hokimiyatga munosabat o'zgaradi. Chunki hokimiyat jamiyat nazorati ostida bo'ladi. Saylash va saylanish mexanizmining amal qilishi, davlat rahbarlarining hisob berib turishi, matbuot erkinligi, jamoat tashkilotlarining faolligi _ bularning hammasi davlatning mutlaq g'oyalarga berilishiga yo'l qo'ymaydi. YA'ni, shaxs, jamiyat va davlat o'zaro yaqinlashib boradi, bir-biriga hisob berish kuchayadi. Natijada shaxs va davlat manfaatlari uyg'unlashib boradi.

Ana shunday sharoitda milliy g'oya qanday ahamiyatga ega bo'ladi, u demokratik qadriyatlarning xalq ongiga singishi va joriylanishiga to'sqinlik qiladimi yoki davlatning ilohiylashuviga sabab bo'ladimi?

Bunga faqat "yo'q" deb javob berish mumkin.

Birinchidan, milliy g'oya — bu har bir shaxs va butun jamiyatga tegishli g'oyadir. Milliy g'oya fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslanadi; milliy g'oya — jamiyat mafkurasi, davlat mafkurasi emas;

Ikkinchidan, milliy g'oya negizida vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'usi yotadi. Demak, milliy g'oya va milliy taraqqiyot, yurt rivoji aloqador. Shu nuqtai nazardan ham birinchi Prezidentimizning "Ozod, va obod Vatan, zrkin va. farovon hayot qurish — pirovard maqsadimiz" degan hikmatli so'zida ma'no ko'p. Bu jumlada mustaqillikning abadiyligi, demokratik erkinliklar, Vatan ravnaqi, har bir fuqaro hayotining farovonlashuvi ko'zda tutiladi.

Uchinchidan, milliy g'oya hech narsani, jumladan davlatni ham, alohida shaxslarni ham ilohiylashtirishni nazarda tutmaydi, balki xalqning eng ezgu his-tuyg'ulari, intilishlarini ifodalab, bunyodkorlik ishlariga rag'batlantiradi.

To'rtinchidan, milliy g'oya allaqanday totalitar xususiyatga ega mafkura emaye, u biron bir shaxs ishlab chiqqan va zo'rlab jamiyatga tiqishtirayotgan yoki tepadan tushirilgan "yagona g'oya" ham emas. U xalqning o'z tafakkuri mevasi bo'lib, milliy-ma'naviy negizga tayanadi.

Beshinchidan, milliy g'oya umumbashariy fikrlar, ilmiy yutuqlarni jamlab singdirinshi ham ko'zda tutadi. Yevropa mutafakkirlaridan biri K.Gelvetsiy yozishicha, "Vatanga muhabbat butun dunyoga muhabbat bilan muvofiq keladi. Ilmu ma'rifat nuridan bahramand bo'lgan har bir xalq bu bilan o'z qo'shnilariga zarar yetkazmaydi. Aksincha, davlatlar qanchalik ma'rifatli bo'lsalar, ular o'zaro g'oyalar, bilimlar almashishga moyil bo'ladilar va oqibatda shu tufayli butun dunyo aqli ortib boraveradi". Shu bois milliy g'oya mamlakatni yakkalab qo'yadi, taraqqiyotni susaytiradi, deguvchilar xato qiladi.

Shunday qilib, milliy g'oya — milliy rivojlanish lokomotivi. Bunda davlatchilik g'oyasi, davlat va uning rahbariga hurmat, milliy davlat salohiyati bilan faxrlanish ham muhim o'rin tutadi. *"Bu — mening xalqim, bu — mening "Vatanim", deb faxrlangan odam "Bu — mening davlatim"*

deya faxrlana olishi ham kerak. Davlat bir organizm sifatida o'zini takomillashtirib, demokratik jamiyatni tashkil etuvchi kuch sifatida har doim millat ravnaqiga rahnamo bo'lib turadi. O'zbekistonning istiqbol davridagi rivojlanishi, o'ziga xos taraqqiyot yo'li buni isbotlab turibdi.

Demak, milliy rivojlanish omillari quyidagilardan iborat:

1. Milliy g'oyaga asoslangan bunyodkorlik, fidoyilik va vatanparvarlik.
2. Milliy-ma'naviy yuksalish va ilmiy salohiyat, madaniy darajaning balandligi.
3. Milliy yakdillik, siyosiy barqarorlik.
4. Mustahkam milliy davlatchilik asoslarining mavjudligi.
5. Milliy o'zlikni anglashning yuksak darajada bo'lishi va boshkalar.

Milliy g'oya demokratiya va milliy davlatchilikning negizlarini tashkil etadi. Xo'sh, buning eng ustuvor yo'nalish hisoblanmish "mamlakat siyosiy, iqtisodiy, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish" vazifasi bilan qanday aloqasi bor? Aytish mumkinki, bevosita aloqasi bor. Chunki siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish degan gap jamoat tizimlarini, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish demakdir. Buni kim amalga oshiradi? Albatta, fuqarolarning o'zi. Shunday ekan, fuqarolar o'z haq-huquqini tanimasdan, faollashmasdan, siyosiy ongi oshmasdan, chinakamiga vatanparvar, fidoyi bo'lmasdan bu vazifalarni ado eta olmaydi. Bu ulkan vazifani bajarish uchun har bir fuqaro fuqarolik burchini anglagan, kurashchan va faol bo'lishi lozim.

Erkin fuqaro va ozod shaxs quyidagi to'rt jihatni, ya'ni:

- 1) haq-huquqini taniydigan va buning uchun kurashadigan;
- 2) o'z kuchi va imkoniyatlarini ishga solib uning samarasini ko'radigan;
- 3) atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildira oladigan;
- 4) shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'un holda ko'rib, faoliyat yuritadigan bo'lishi lozim.

Shunday qilib, milliy g'oya hayotiy va istiqbolli g'oyadir. U taraqqiyotga va mamlakat fuqarolarini chinakam hamjihatlikka, ma'rifatga olib boradigan insonparvar va taraqqiyparvar g'oyadir.

Demokratiyaning Sharqona va G'arbona talkini.

O'zbekiston o'z jo'g'rofiy joylashuviga ko'ra, qadimdan Sharq va G'arb tamaddunlari muloqotga kirishadigan, keng miqyosdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy-mafkuraviy aloqalar amalga oshiriladigan hudud sifatida ajralib turadi. Milliy davlatchiligimizning shakllanish va rivojlanish bosqichlariga nazar tashlasak, bir tomondan, bu jarayonga tashqaridan turib g'oyaviy-mafkuraviy ta'sir ko'rsatishga urinishlar, shu orqali ushbu muhim strategii hududda o'z manfaatlarini himoya qilishga intilishlar barcha davrlarda bo'lganiga, ikkinchi tomondan, milliy davlatchiligimizga xos xususiyatlar doimo mentalitetimizga yot bo'lgan zararli g'oyalar bilan kurashib kelganiga guvoh bo'lamiz.

Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida dunyoda keskin g'oyaviy kurashlar va turli mafkuralar to'qnashuvi, demokratiya yoki turli diniy ta'limotlar shiorlari bilan niqoblangan yovuz g'oyalarni singdirishga intilish kuchayib bormoqda. *"Ishonchim komilki, — deb ta'kidlagan edi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida — demokratiyani va turli "ochiq jamiyat modellari"ni eksport qilib bo'lmaganidek, davlat qurilishining universal loyhasini ham tashqaridan import qilish yoki tiqishtirish mumkin emas. Aslida, hammaga birdek ma'qul bo'ladigan bunaqa modelning o'zi umuman yo'q. Lo'nda qilib aytganda, biz tadrijiy, ya'ni evolyutsion izchillik xususiyatlariga ega bo'lgan islohot va o'zgarishlar tarafdorimiz. Faqat bu yangilanishlar ijtimoiy munosabatlar va turmush tarzining o'zgarishi, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirilishi darkor"*³².

³² Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. — T.: «O'zbekiston», 2005, 181-184-betlar.

Darhaqiqat, O‘zbekistonda hozirgi taraqqiyot bosqichida G‘arb mamlakatlari va xalqlariga xos bo‘lgan «sof g‘arbova demokratiya» modellari ham, ayrim musulmon mamlakatlarida keng yoyilgan «sof islom davlati» yoki «sof islom demokratiyasi» modellari ham, ularni eksport qilishga urinishlar ham zararlidir. Biz o‘z milliy taraqqiyot modelimizni barpo etish orqaligina milliy xususiyatlarimizga, azaliy shakllangan urf-odat va qadriyatlarimizga, xalqimiz turmush tarziga yot bo‘lgan turli «demokratiya modellari»ga qarshi samarali kurasha olamiz. Buning uchun jamiyatni modernizatsiya qilish, amalga oshirilayotgan tub islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimizning turmush farovonligini uzluksiz oshirib borish yo‘lidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirishga katta e‘tibor berilmoqda. *"Shu sababli, — deb ta’kidlagan edi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov — agar biz o‘zimiz zamin yaratib ko‘ymasak, ijtimoiy jarayonlarga tashqaridan turib aralashuv hech qanday samara bermaydi. Bugungi kunda "demokratiyani olg‘a siljitish" deb atalayotgan muayyan texnologiyalarning shakllangani — bu endi boshqa gap, misol uchun, hozir xuddi Iroqda bo‘layotganidek. YA’ni, ma’lum bir mamlakatda, aytaylik, "demokratiya taqchilligi" mavjud, ushbu mamlakat xalqiga ana shu taqchillikdan xalos bo‘lishga yordam berish kerak deb hisoblanadi. Buning uchun katta mablag‘lar ajratilib, tegishli kuchlar yo‘naltiriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad — to‘ntarish uyushtirish va ana shunday "taqchillik"ni vujudga keltirgan va avj oldirgan rahbariyatni yo‘qotishdan iborat. Mana shunday xolatlarda "baxmal o‘zgarish"lar texnologiyalari ishga tushadi: avvalgi hokimiyat nisbatan tinch yo‘l bilan, qurbonlarsiz ketishi, uning o‘rnini boshqa, mazkur texnologiyalar manfaatlariga javob beradigan kuchlar egallashi ko‘zda tutiladi"*³³.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston teran milliy davlatchilik negizlariga ega, ularni chuqur o‘rganib, yoshlarda milliy davlatchilik, qadriyatlarga, xalqimizning boy madaniy merosiga, nisbatan muhabbat tuyg‘ulari kamol toptirib borilsa, soxta demokratiya modellarining "eksporta" bilan bog‘liq xavf-xatarning oldi olinadi.

Bugungi kunda ilmiylikka da’vo qilayotgan ana shunday yondashuvlardan biri demokratiya tranziti yoki ilmiy ibora bilan aytganda, tranzitologiya konsepsiyasidir. Uning mohiyati ayrim davlatlarning nodemokratik holatdan demokratik tuzumga o‘tishini asoslab beradigan g‘oya va qarashlarda namoyon bo‘ladi. Tranzitologiya nazariyotchilari jamiyat hayotining barcha sohalarini liberallashtirish va demokratlashtirish, turli siyosiy partiya va harakatlarning raqobatlashuviga asoslangan erkin saylovlarni joriy etish tamoyillarining ustuvorligini ta’kidlagani holda, muayyan mamlakatning tarixiy o‘tmishi, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot darajasi, xalqining milliy qadriyat, urf-odat va an‘analari, kishilar mentaliteti, dunyoqarashi va siyosiy madaniyatini umuman e‘tiborga olmaydi yoki ularni ikkinchi darajali omil deya baholaydi. Vaholanki, ular zamonamizning eng rivojlangan davlatlarida bugungi demokratik tuzum va qadriyatlar asrlar davomida shakllanib kelganini (masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi mamlakatlar demokratik taraqqiyot borasida uch-to‘rt asrlik tajribaga ega), bu jarayon keskin ziddiyatlar, bahs-munozaralar va kurashlar orqali kechganini, demokratiya unsurlari bosqichma-bosqich joriy etilganini unutmagan ko‘rinadi. Masalan, AQShda XIX asrning 30-yillarigacha, ya’ni mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilinganidan qariyb 50 yildan keyin ham ayollar, hindular va qora tanli kishilar fuqarolik hamda siyosiy huquqlarga ega bo‘lmagan.

E‘tiborli jihati shundaki, neoliberal va demokratik tranzit konsepsiyalari rivojlangan mamlakatlarning o‘zida ming bir chig‘iridan o‘tkazilib, o‘ta ehtiyotkorlik bilan tatbiq etilsa, boshqa, ayniqsa, endigina demokratik taraqqiyot yo‘liga kirgan davlatlarda shart-sharoit yetilgan-yetilmaganidan qat’i nazar, demokratiyaning g‘arbova andozalarini joriy etish qat’iy talab etiladi. Masalaning aynan shu jihatiga to‘xtalib, davlat va jamoat arbobi Islom Karimov bunday degan edi: *"Biz boshqa davlatlarning rivojlanish jarayonida to‘plangan va respublika sharoitida tatbiq qilsa bo‘ladigan barcha ijobiy tajribalardan foydalanish imkoniyatini istisno qilmaymiz. Ayni chog‘da, biron bir andozadan, hatto u muayyan mamlakatda ijobiy natijalarga olib kelgan bo‘lsa ham ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirish mutlaqo nomaqbuldir. Shunisi aniq-ravshanki, muayyan*

³³ Karimov I A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-jild. — T.:«O‘zbekiston», 2005, 136-bet.

vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, ular o'sha mamlakatga xos bo'lgan alohida sharoitdagina ijobiy samara berishi mumkin. Aksincha, jozibador bo'lingiga qaramay, aslida begona, yot andozalar sun'iy ravishda tiqishtirilgan joyda iqtisodiy islohotlar muqarrar ravishda barbod bo'laveradi"³⁴.

Albatta, yurtimizda demokratiyaning fundamental tamoyillarini, rivojlangan mamlakatlarning bu borada erishgan yutuqlarini inkor etadigan birorta odam bo'lmas kerak. Bu o'rinda so'z faqat har bir mamlakat va xalqqa xos xususiyatlar, milliy qadriyat va an'analarning demokratiya unsurlari bilan qay tarzda uyg'unlashuvi hamda ularning amaliyotga tatbiq etish bosqichlari xususida bormoqda. Qolaversa, Uinston Cherchil bundan qariyb olmiş yil muqaddam "*Demokratiya ham kamchiliklardan holi emas, ammo insoniyat undan mukammalroq tuzumni hali o'ylab topmagan*" deganida masalaning aynan shu jihatini ham nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. Shu bois O'zbekistonda islohotlarning dastlabki bosqichlaridanoq, yurtimizning o'ziga xos tarixi, geostrategik o'rni, tabiiy-madaniy zaxiralari, xalqimizning boy ilmiy, falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy merosi, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligiga tayangan holda demokratiya tamoyillari bosqichma-bosqich izchil joriy etilmoqda hamda bu borada muayyan yutuqlarga ham erishilmoqda.

Shu o'rinda bu xulosaning jahondagi ko'plab taniqli olimlar va davlat arboblarning qarashlari bilan uyg'unligiga e'tibor qaratmoqchimiz. Masalan, amerikalik taniqli siyosatshunos va davlat arbobi Zigmund Bzejnskiy bu boradagi shoshma-shosharlikning salbiy oqibatlari haqida to'xtalib, bunday degan edi: "*Islom tarixi va madaniy qadriyatlariga bepisandlik bilan yondashib, demokratiyani majburan kiritishga urinish, oxir-oqibat uning tamoman inkor etilishiga sabab bo'ladi va aksincha, tashqi tazyiqdan holi bo'lgan, tabiiy taraqqiyot natijasi o'laroq, bosqichma-bosqich shakllantirilgan demokratiya siyosiy madaniyati islom jamiyati tomonidan qabul qilinadi va o'zlashtiriladi*"³⁵.

Umuman olganda, milliy g'oya, erkin fuqaro va demokratiya — yuqori darajada rivojlangan kishilar jamiyati, insoniyat erishgan buyuk ne'mat, ko'pchilikka ma'qul yashash tarzidir. Ammo uning amalga eshishi barcha mamlakatlarda bir xil emas. Har bir mamlakat demokratiyaning umumiy qadriyat va tamoyillarini o'z milliy qadriyatlari zaminida, o'z xalqining uzoq tarixi davomida shakllangan an'analari bilan qo'shib qabul qilganini bilamiz. Masalan, AQSH yoki Angliya, Fransiya (boshqa Yevropa mamlakatlari ham) demokratik davlatlar bo'lsalar-da, lekin xar biri o'z milliy ruhi, an'analari ham saqlagan. Shu kabi Yaponiya, Koreya, Malayziya kabi mamlakatlarda ham demokratik tuzum milliy va diniy-e'tiqodiy udumlar negizida amal qilmoqda. Shubhasiz, bizda ham ana shunday bo'lishi uchun intilmokdamiz.

XXI asr har jihatdan murosas va kelishuvlar asri bo'ladi. Dinlar, mazhablar, ta'limotlar orasida murosasozlik yuzaga kelishi, inson baxti uchun xizmat qiladigan narsalar eng muhim qadriyat deb qabul qilinishi lozim. O'zlikni anglash barobarida uning o'ziga xos xususiyatini saqlash va takomillashtirish ham muhim o'ringa ega bo'ladi. Ma'naviy qadriyatlarni tiklash orqali, o'zbek xalqi o'z ajdodlari kim, dunyo xaritasida qanday mavqega ega ekanini bilib olmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Biz hech kimdan kam emasmiz va hech kimdan kam bo'lmaymiz" deganda ikki jihatni nazarda tutadi:

1. Jahon madaniyatiga hissa qo'shgan, tariximiz ana shu milliy g'urur, qobiliyat, intilish negizida jipslashib, bir maqsad sari harakat qilishga zamin bo'lmoqda.
2. Endigi vazifa — ana shu zaminga imkoniyatni ishga solish, ya'ni o'qib-o'rganib, bilim-malaka hosil qilib, dunyo maydoniga dadil kirib borish hamda o'z o'rnini egallab olishdan iboratdir.

Ammo ana shu yo'lda o'zlikni yo'qotmaslik, o'z milliy tafakkuri, an'analari, ajoyib xususiyatlarini saqlab qolish lozim. Bu esa ancha mushkul vazifa. Chunki taraqqiy etgan

³⁴ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.: «O'zbekiston», 1998.— 87—88-betlar.

³⁵ Бжежинский З. Выбор: мировое господство или глобальное лидерство. — М.: Международные отношения, 2004, с. 279-280.

mamlakatlarning hammasi ham bizni quchoq ochib qarshi olayotgani yo‘q. Ular har bir holatda ham o‘z milliy manfaatidan kelib chiqib munosabatda bo‘ladi. Hatto *demokratiyani "eksport" qilishdan* ham manfaatdor ayrim kuchlar bor. Chunki bu ularga mamlakat boyliklarini o‘zlashtirish, arzon ishchi kuchidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Demokratiyani yagona, yevropacha turmush tarzi mezonlari bilan baholamoqchi bo‘ladi.

Ana shuning uchun ham milliy tarbiya masalasi hozir dolzarb bo‘lib turibdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi aynan shu maqsad uchun qabul qilindi. Farzandlarimiz yangicha yashashga tayyor bo‘lishi va eng muhimi, O‘zbekistonning gullab-yashnashiga hissa qo‘shishi kerak. Zamonaviy bilim, zamonaviy malaka, zamonaviy qobiliyat egalari bo‘lib yetishsin. Milliy g‘oyaning bosh maqsadi ham shu.

Lekin bu yerda gap faqat ta‘lim-tarbiya tizimi haqida borayotgash: yo‘q. Bu yerda gap umuman jamiyat tizimi, yaxlit olganda, O‘zbekiston xalqini yuksaltirish ustida bormoqsa. Ochig‘i, milliy o‘zlikni saqlash hozir muhimroq bo‘lib qoldi.

Bu nima degani? Biz milliy qadriyatlarni tiklash bilan chegaralanmasdan, ular yetilib kelayotgan avlod tomonidan qanchalik qabul qilinmoqda, sevilmoqda, davom ettirilmoqda, degan savollar ustida ham bosh qotirishimiz lozim. Zero, eng katta xavf ham ilg‘or mamlakatlar mafkurasidagi *individualizm* ta‘siriga tushib o‘zlikni yo‘qotishdir.

Mana shuning uchun ham milliy g‘oya ruhidagi keng miqyosdagi tarbiya benihoya muhim va biz uchun hayot-mamot masalasidir. Bunda axloqiy va xuquqiy tarbiya birga rivojlantirilishi, milliy o‘z-o‘zini tahlil va tanqid ham muayyan o‘rin egallashi lozim. Chunki millat o‘zini o‘zi ma‘nan tozalab, poklab borishi kerak.

Lekin ayrim kishilar hamon sustkashlik, boqimandaliqdan to‘la qutulgani yo‘q. Ko‘pgina hollarda tadbirkorlikni faqat olib-sotarlik darajasida anglash sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, dunyo bozorini egallaydigan mahsulot ishlab chiqarishi bilan e‘tibor qozonish, servis xizmat sohalari yuqori darajada bo‘lishiga erishilgani yo‘q. Buning sabablaridan biri ichki, ongli intizom shakllanmagan, har bir odam vaqtdan foydalanishi, o‘zgalar vaqtini band etmasdan, har bir narsa belgilangandek, aniq va to‘g‘ri bajarish shart ekanligini his etmayotganligidir. Eski odat bo‘lib qolgan beparvoligimiz, mas‘uliyatsizligimiz ko‘p narsani boy berishimizga sabab bo‘lmoqda. Aybni boshqalarga to‘nkash, mas‘uliyatni o‘z bo‘yniga olmaslik kasalidan qutulganimiz yo‘q. Hali ham isrofgarchilik bor, tejamkorlikni o‘rganganimiz yo‘q.

Shu bois keng ma‘noda tafakkurimizni, hayot tarzimizni qayta qurishimiz, hushyor, oqilu fozil kishilar kabi yuqori darajali mehnat, faoliyat va turmush intizomiga erishishimiz lozim. Qachongacha rahbar ko‘rsatma yoki do‘q-po‘pisa qilsa ishlaymiz? Nega har bir odam tashabbuskor emas? Nega kimdir biz uchun o‘ylasin, biz uchun fikr qilsin, hukm chiqarsin degan kayfiyatda yuramiz?

Ma‘lumki, sobiq sho‘rolar davrida sharq xalqlariga, jumladan, bizga nisbatan Marksning «Osiyocha ishlab chiqarish uslubi» deb atalgan nazariyasiga tayanib ish ko‘riladi degan qarash hukmron edi. Bu nazariyaning mohiyati Sharqda hokimiyatni boshqarish azaldan despotizmga, ya‘ni zo‘ravonlikka asoslanadi, degan fikrdan iborat edi. Yevropatsentristik qarashlar (Gegel), Yevropani jo‘g‘rofiy jihatdan ustun qo‘yish (Monteskye), kapitalizmning tarixan aynan Yevropada paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi tasavvurlarning (Maks Veber) barchasi osiyocha turmush tarzi uchun demokratiya mutlaqo yot narsa, degan bepisand fikrga asoslanish oqibati edi. Bugungi kunda Sharqning ham o‘ziga xos davlatchilik an‘analari, boshkaruv tizimi, idora usullari, hokimiyat tarmoqlari bo‘lgani, bu borada u g‘arbdan sira kam emasligi barchata ayon bo‘lib qoldi.

Xususan, sharqona demokratiyaning qator ustuvor jihatlari mavjud. Bu — g‘oyaviy-falsafiy asosda shakllangan insonparvarlikdir. Masalan, bizning Forobiy, Amir Temur, Nizomulmulk, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimizning siyosiy qarashlari negizida turli davrlarda o‘ziga xos siyosiy madaniyat shakllangan. Sharq siyosiy falsafasining muhim jihatlari biri — «meyor» tushunchasiga katta ahamiyat berilishidir. Aslida demokratiya — meyorga asoslangan siyosiy madaniyatdir. Bu meyor huquq va burch, erkinlik va tenglik o‘rtasida bo‘lgan muvozanatni ham anglatadi.

Sharqda odamlarning hokimiyat va siyosiy munosabatlarga bo'lgan munosabati azaldan o'ziga xos xususiyat kasb etgan. Bu Sharqdagi siyosiy munosabatlarning nozik jihatlari bilan izohlanadi. Saylov tizimi, davlatchilik, siyosiy harakatlar, jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalari — bularning barchasi Sharqda o'z xususiyatlariga ega. Avvalo, bu xususiyatlar hokimiyatga bo'lgan an'anaviy ishonch va ba'zan esa paternalizm (hokimiyatning mehnatkashlar manfaatiga qisman yon berishi) qonuniyati bilan ifodalanadi. Tarixan Sharq mamlakatlarida siyosiy qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish mas'ul kishilar orqali, lekin bunda xalqning manfaatlari albatta hisobga olingan holda amalga oshirilgan. Ular xalqning «ishtirokida», ya'ni turli miting, inqiloblar orqali erishilgan, ammo uning manfaatlarini hisobga olmagan holda qabul qilingan qarorlardan ko'ra ko'proq samara bergan. Shu tufayli Sharq mamlakatlarida aksariyat hukmdorlar mudom «Xalq nima der ekan?», «Mendan qanday nom qolar ekan?» degan mas'uliyat bilan siyosat olib borgan.

Sharqda siyosiy jarayon ishtirokchilari, ayniqsa, siyosiy yetakchilarning o'ziga xos maqomi bor. Siyosiy rahbar nafaqat o'ziga tegishli alohida imtiyozlarga, balki alohida mas'uliyatga ham ega. U nafaqat o'z huquqlari, balki majburiyatlari bo'yicha ham asosiy og'irlikni o'z zimmasiga olgan. Shu ma'noda Sharq xalqlari hayotida adolat bosh mezonga aylanganki, odil va dono shoh, hukmdor g'oyasi «Avesto»dan hozirgi kungacha orzu bo'lib kelgan. Shuning uchun Amir Temur faoliyatida «Kuch — adolatda» degan qoida ustuvor bo'lgan. Shu tariqa Sharq mutafakkirlari davlatni, avvalo, jamiyat taraqqiyotidagi ikki muhim omil — ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy adolat mezonlarini amalga oshirish quroli deb tushungan. Shuni ham alohida ta'kidlash zarurki, Sharqda qonunchilik va meyoriy tizimlar ham ana shu maqsadlarga xizmat qilgan. Bunday an'ana Sohibqiron Amir Temur davridayoq butun dunyo meyoriy tizimiga va konstitutsiyachiligiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur «Tuzuklar»i buning yaqqol dalili.

Yana bir masalaga alohida e'tibor berish zarur. Sharq xalqlari hayotida jamoatchilik fikri azaldan yuqori maqom va martabaga ega bo'lib kelgan. Ko'pgina an'anaviy ijtimoiy institutlar, xususan, mahalla va boshqa o'zini o'zi idora qilish tashkilotlari asosan jamoatchilik fikriga tayangan. Shundan kelib chiqqan holda, ijtimoiy salmoqli fikrlarni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish ham an'anaviy yig'ilish joylarida — mahalla guzarlari, choyxonalar, karvonsaroylar, to'y-ma'rakalar, tantanalar, hasharlar, hatto mehmondorchilikda ham amalga oshgan. Shu bilan birga jamoatchilik fikri har doim davlat qarorlari qabul qilishning muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Hukmdorlar o'z faoliyatining jamoat fikri tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga erishishga uringan, qaror qabul qilishdan oldin uni jamoatchilik rizosidan o'tkazishga e'tibor berilgan.

Xullas, shularning barchasidan kelib chiqadigan bo'lsak, Sharq xalqlariga, xususan, bizning mamlakatimiz aholisida azaldan o'ziga xos demokratik an'analar mavjud bo'lgan. O'z mentaliteti, mohiyatiga ko'ra, umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan o'ta xayrixohligi tufayli xalqimiz zamonaviy demokratik qadriyatlarni ham tez o'zlashtirib olishi shubhasiz. Bu, albatta, xalqimizning tarixiy-ijtimoiy an'analaridagi demokratik g'oyalar, tajribalar, xususan, jamoa demokratiyasi namunalari bilan ham bog'liq.

Umuman, demokratiya qadimdan dunyoning turli mintaqalarida turlicha yo'nalishda rivojlanib borgan. Uning muhim bir shakli esa aynan sharqona demokratiyadir.

Shu ma'noda turlicha modellarda namoyon bo'ladi. Buni o'z davrining ilg'or mutafakkirlari ham teran anglaganlar, ular demokratiya uchun zarur bo'lgan shart-sharoit, ya'ni mustaqil milliy taraqqiyot zaruratini alohida ta'kidlaganlar. Xususan, Zaki Validiy To'g'on bu haqda shunday deb yozgan edi: *«Demokratiyaning birdan-bir, yagona retsepti yo'q. Uning maqsadi millatlarga va jamiyatlarga o'z ixtiyorlariga muvofik, hayot kechirish imkoniyatini berishdadir. Demokratiya turli millatda turlicha bo'lishi mumkin. Lekin uning asosiy bir sharti bor: millat va jamiyat orasidagi mas'uliyatga sheriklashib, shunga muvofik, ravishda ish qonunlariga bo'ysunish kerak bo'ladi. Davlat ishida mas'uliyat hissining umumiyligi xalqning madaniy kamolotiga bog'liq tarbiya va odat masalasi hamdup»*.

Bugungi sharqona demokratiyada qadr, oqibat, andisha, kattalarga hurmat, ona zaminni ardoqlash borasida o'ziga xoslik yaqqol namoyon bo'ladi. Bular esa milliy g'oya amal qilishida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mafkuralar xilma-xilligi muhim demokratik prinsip. Uning inson qadr-qimmatini, manfaatlarini, fikr erkinligi bilan bog'liqligi.

Milliy g'oyaning mustaqillik yillarida ishlab chiqilgan tamoyillari bir-biri bilan uzviy aloqadordir. Ular umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi talablariga to'la-to'kis mos keladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamiyat hayotining, xususan, mafkuraviy jarayonlarning ham huquqiy meyorlari aniq belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 12-moddasida «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas» deyilgan.

Istiqlol tufayli demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekiston jamiyat hayotida plyuralizmni qaror toptirish yo'lidan bordi. Siyosiy plyuralizmni qaror toptirish jamiyatda turli g'oyalar, qarashlar, mafkuralar, konsepsiyalarning hamda ularni ilgari surgan siyosiy kuchlar, partiyalar va boshqa institutlarning erkin raqobati muhitining yaratilishiga zamin bo'lib xizmat qilardi. Bu esa, o'z navbatida, kishilarning turfa xil manfaatlarini qondirish, samarali siyosiy qarorlar qabul qilish, mavjud nuqtai nazarlarni yanada boyitish, jamiyat hayotini yangilash imkonini berar edi.

Biroq siyosiy plyuralizm tamoyili amal qilishida qonun doirasidan chiqmaslik, o'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan hurmat va bag'rikenglikni qaror toptirish talab etiladi. Bu jihatdan siyosiy plyuralizm jamiyatda demokratiyaning yetukligi darajasi ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi. Zero, plyuralizm tafovutlarni inkor etmagan holda siyosiy jarayonning barcha ishtirokchilari tomonidan qabul qilinadigan umumiy tamoyillar va qoidalar bo'lishini hamda ularga itoat etishni shartlab qo'yadi. Ayniqsa, fikrlar xilma-xilligi va ko'ppartiyaviylik qaror topgan muhitda muloqot odobiga amal qilish, o'zgacha fikrlaydiganlar mulohazalariga hurmat bilan qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, davlat-jamiyat siyosiy tizimining o'zagi, mamlakat barqarorligi va izchil taraqqiyoti uchun mas'ul bo'lgan siyosiy institutdir. Shu ma'noda u jamiyatning o'z milliy g'oyalari atrofida mustaxkam jipslashuvi, fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligi asosida hayotda mafkuraviy jarayonlarning muvofiqlashuvidek manfaatdor. Bosh islohotchi sifatida davlat ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, kelajak hayot manfaatlaridan kelib chiqib, jamiyatda milliy g'oyalarni keng yoyish borasida faoliyat olib boradi.

Buni xorij tajribasida ham ko'rishimiz mumkin. Bu mamlakatlarda yuzaki qaraganda g'oyaga, mafkuraga u qadar katta e'tibor berilmaydigandek tuyuladi. Masalan, AQShni olaylik. Bu yerda har bir inson ongiga «Sen — amerikaliksan, ozod insonsan, sening erkinligingga daxl qilishga hech kimning haqqi yo'q» degan tushuncha bolalikdan singdirib boriladi. Shuning uchun ham bu mamlakat fuqarosi, dunyoning qay burchida bo'lmasin, «Men — amerikalikman» deb g'ururlanib yuradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida va mamlakatimiz qonunlarida fuqarolarimizning huquqlari to'la kafolatlangan. Bu huquqiy asosga tayangan holda g'ayriinsoniy qarashlarning hayotimizga ta'siridan mutlaqo xalos bo'lish, millatning kuch-qudratini zaiflashtiruvchi ayrim ma'naviy nuqsonlarga barham berish jarayoni izchil amalga oshirilishi kerak. Bu esa demokratiya mohiyatini tom ma'noda anglab yetishni, hokimiyat organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar tizimi va madaniyatini yuqori saviyaga ko'tarishni talab etadi.

Fikrlar rang-barangligini qaror toptirish — demokratik jamiyat barpo etishning asosiy shartidir. Demokratiya davlat va jamiyat kurilishi, uni idora etishning eng maqbul shakli sifatida har bir fuqaroga o'z qarashlarini, fikrini erkin ifoda etish uchun sharoit yaratadi. Bu esa insonning mamlakat siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy hayotidagi ishtirokini, qonunlarni ishlab chiqishda, uni hayotga joriy etishdagi faolligini ta'minlaydi. Milliy g'oyaning ushbu tamoyili olamdagi turli-tumanlik bilan insoniyat dunyosidagi xilma-xillikning, odamlar fikrlashi, orzu-umidlari, g'oya va

maqsadlari sohasidagi rang-baranglikning uyg'unligini ifodalaydi. Fikrlar rang-barangligi milliy g'oyaga jon bag'ishlaydi, uning takomillashishiga yordam beradi. Ana shu asosda bu mafkura xilma-xil fikrlar bilan boyib boradi, turli g'oyalarni o'ziga doimiy singdirish imkoniga ega bo'ladi.

Bu tamoyil O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylashi, kelajak avlodlarga yetkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. Har bir millatning tili, qadriyatlari, urf-odatlarini, an'analarini hurmat qilishni ta'minlash milliy g'oyaning amal qilishida umuminsoniy andozalar namoyon bo'lishi uchun asos yaratadi.

Shaxs erkinligini ta'minlashda siyosiy va huquqiy institutlarning demokratik asosdagi tizimini shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga bunda xususiy tadbirkorlik faoliyati, bozor munosabatlari jarayonida shaxsning ijtimoiy faolligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, O'zbekiston Konstitutsiyasida inson erkinligi o'zining to'g'ri, maqbul talqinini topgan, ya'ni unda erkinlik boshqalarga zarar keltirmaydigan faoliyat sifatida baholangan. Zero, jamiyat va davlat, ijtimoiy tuzum va siyosiy institutlar o'rtasidagi munosabat individ, ijtimoiy birliklar va guruhlar o'rtasidagi munosabatlarga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, ularning barchasi milliy g'oya tamoyillari asosida uyg'unlashtirishni talab etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda hokimiyat va boshqaruv idoralari faoliyati samaradorligi oshirilmogsa, jamoat tashkilotlarining yangi qiyofasi shakllanmogda, ta'bir joiz bo'lsa, siyosiy tizim modernizatsiyasi yuz bermoqda. Bu jarayonga milliy g'oya tamoyillarini uzviy tarzda singdirib borish va ularni demokratik institutlar faoliyatining tarkibiy qismiga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayotini erkinlashtirish milliy g'oyani xalqimiz qalbi va ongiga singdirishning muhim shartidir. Milliy g'oya siyosiy voqelikni uyg'unlashtirib, turli shaxslar, ijtimoiy guruhlar ehtiyojlarini mutanosiblashtiradi, ularni mavjud imkoniyatlar asosida bir-biri bilan yaqinlashtiradi va shu ma'noda, demokratik qadriyatlarning nufuzini oshiradi. Kishilar ongini mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, mahdudlik kabi ijtimoiy illatlar asoratidan poklash, yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish, mafkuraviy kurashda to'g'ri yo'l tanlash va jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish milliy g'oyaning xalqimizning qalbi va ongiga teran singdirilishi bilan bog'liq. Milliy g'oyani amalga oshirish «kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari» konsepsiyasiga asoslanadi va undan kelib chiqib, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishda manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Milliy mafkura shaxs erkinligi g'oyasiga tayanadi. O'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni paytda, shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan insongina milliy g'oya tamoyillarini to'g'ri baholay oladi. Erkinlashtirish jarayonida inson haq-huquqini ta'minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga rioya etib yashash jamiyatimiz hayotining asosiy mezoniga aylanib bormogda. Jamiyatda loqaydlik, beparvolik, boqimandalik, poraxo'rlik kabi illatlarning payini qirqish, odamlar qalbida yuksak ishonch va e'tiqodni qaror toptirish, axloqan pok, ma'naviy boy, ijtimoiy faol, jismonan baquvvat avlodni voyaga yetkazish, ularda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odamiylik kabi olijanob fazilatlarni tarbiyalash milliy g'oya ta'sirchanligini oshiribgina qolmay, demokratik jamiyat barpo etish borasidagi intilishlarimiz samaradorligini ham oshiradi.

Shu o'rinda erkinlik kategoriyasining ijobiy va salbiy jihatlarga ega ekanini ham ta'kidlash zarur. Uning ijobiy jihati shaxsning o'z manfaatlariga muvofiq ravishda harakat qilish imkoniyatini ifodalaydi. Bunda shaxs biror-bir moddiy va ma'naviy ne'matga intilib, shu yo'lda zarur harakatlar qilishi mumkinki, bu xatti-harakatlar boshqalarning intilish va manfaatlariga zid kelmasligi kerak. Chunki adolat chegarasi, erkinliklar meyori aynan shu asosda shakllanadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. — T.: «O'zbekiston», 1998. — 160-bet

2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. 8-jild. — T.: "O'zbekiston", 2000. — 19-bet.
3. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. — T.: «O'zbekiston», 2005, 181-184-betlar.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.: «O'zbekiston», 1998.— 87—88-betlar.
5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent — "O'zbekiston" -2016.488 B.
6. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent — "O'zbekiston" -2016.488 B.
7. Mirziyoyev III.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — T.: O'zbekiston, 2017.
8. Mirziyoyev III.M. Tanqidii tahlil kat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017.
9. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005, 3-30-betlar.
10. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati / Q.Nazarov, I.Ergashev va boshqalar. T., "G'afur G'ulom" NMIU, 2007.
11. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi .- T.: Akademiya, 2011.
12. Yaxshilikov J. Y., Muhammadiyev N. E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi, "Fan", 2017
13. Bzejinskiy 3. Vibor: mirovoye gosподstvo ili globalnoye liderstvo. — M.: Mejdunarodniye otnosheniya, 2004, s. 279-280.

Mustaqil ta'lim mavzusi

O'zbekistonda demokratik jarayonlar va milliy mafkura.

Glossariy

DEMOKRATIYA (yun. *demos* – xalq va *kratos* – hokimiyat) – 1) fuqarolar erkinligi va tengligi tamoyili asosida Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan xalq hokimiyatining shakli; 2) amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan erkin, adolatli jamiyat va davlatni anglatuvchi siyosiy tushuncha.

DEMOKRATIK INSTITUTLAR – jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror toptirishga xizmat qiladigan tashkilot va tuzilmalar majmui. Tarixiy jihatdan ularni shartli ravishda demokratik mazmunga ega bo'lgan an'anaviy ijtimoiy - siyosiy in-tlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV) hamda faqat demokratik jamiyat sharoitida faoliyat yuritadigan maxsus in-tlarga, mas., inson huquqlariga amal qilinishini ta'minlovchi turli nodavlat tuzilmalarga ajratish mumkin.

DEMOKRATIK TAMOYILLAR – huquqiy demokratik jamiyat asosini belgilaydigan demokratik qonun-qoidalar majmui. Bugungi kunda ularsiz demokratiyani tasavvur qilib bo'lmaydi. Barcha fuqarolarning qonun oldidagi tengligi va xalqning hokimiyat manbai bo'lib xizmat qilishi D.t. asosini, o'zagini tashkil etadi.

DEMOKRATIYA EKSPORTI – 1) jahondagi ayrim qudratli davlatlar yoki bo'lmasa davlatlar guruhi tomonidan suveren davlatlarning o'z taraqqiyot modelini o'zi tanlash huquqiga, qolaversa, demokratiyaning ma'no-mazmuni, pirovard maqsadlariga zid ravishda uning "hammabop uslubi"ni kuch ishlatish yo'li bilan boshqa jamiyatlarga tiqishtirish amaliyotini anglatadi; 2) yosh mustaqil davlatlarda demokratiya tanqisligini ro'kach qilib, bu mam-tlardagi demokratlashtirish jarayonlarini sun'iy ravishda jadallashtirishga urinayotgan ayrim kuchlar va siyosiy doiralarning xatti-harakatlarini ifoda etuvchi tushuncha.

INDIVIDUALIZM (lot. *individuum* — bo'linmas) — insonning shaxsiy hayoti jamoaga bog'liq bo'lmagan, faqat uning o'ziga tegishli alohida bir hodisa deb qaraydigan, jamiyat manfaatlaridan inson huquqlarini mutlaq ustun qo'yadigan fal-y-axloqiy ta'limot. I.ning naz-y talqini negizida har qaysi shaxsning yagona beqiyos ekanini, uning huquqlarini mutlaqlashtirish yotadi.

PATERNALIZM (lot. *paternus* — otaga taalluqli) — 1) dastlab Italiyada paydo boʻlgan, kattaning kichikka, qarindoshning qarindoshga, ustozning shogirdga, yaqinlarga nisbatan gʻamxoʻrligi asosida faoliyat yuritishni ifodalagan atama; 2) ijtimoiy munosabatlarga kirishayotgan tomonlar oʻrtasidagi mavjud ishlab chiqarish munosabatlarini uygʻunlashtirish va barqarorlashtirishga maʼnaviy omil taʼsirini ifodalaydigan tushuncha.

PLYURALIZM (lot. *pluralus* – koʻplik, koʻp xillik, koʻp sonlik) — monizmga butunlay zid boʻlgan fal-y taʼlimot. P. atamasi birinchi boʻlib nemis faylasufi X.Volf tomonidan 1712 yili ilmiy muomalaga kiritilgan. P. ijtimoiy -siyosiy hayotda turli ijtimoiy guruhlar va ular manfaatlarini himoya etuvchi siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalar, diniy va b. tashkilotlar erkinligini, oʻzaro raqobatni ifodalaydi; hozirgi zamon reformizmining asosiy gʻoyalariidan biri.

Nazorat savollari:

1. Demokratiya va milliy gʻoya.
2. Demokratik prinsiplarning milliy gʻoya maqsadlari bilan oʻzaro bogʻliqligi.
3. Demokratiyaning Sharqona va Gʻarbona talkini.
4. Mafkuralar xilma-xilligi muhim demokratik prinsip.
5. Plyuralizmning inson qadr-qimmatini, manfaatlarini, fikr erkinligi bilan bogʻliqligi.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Davlat xokimiyati idoralarining xalq uchun ishlashi - demokratik taraqqiyot talabi ekanligi haqidagi fikrlari.

Test savollari:

1. Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?

- A. Dunyoviy, demokratik, huquqiy.
- V. Mustaqil, dunyoviy, demokratik.
- S. Milliy, mustaqil, demokratik.
- D. *Mustaqil, huquqiy, demokratik.*

2. Bizning bosh strategik maqsadimiz qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- A. Bozor iqtisodiyotiga oʻtish, mustaqil davlat qurish.
- V. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich oʻtish, huquqiy, demokratik davlat qurish
- S. Mustaqil, dunyoviy va huquqiy demokratik davlat qurish.
- D. *Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, huquqiy, demokratik jamiyat barpo etish.*

3. Prezident I. A. Karimovning “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” asarida belgilab berilgan taraqqiyotning ustuvor yoʻnalishlari nechta?

- A. 10 ta. V. 8 ta. C. 7 ta. D. 6 ta.

4. I.A.Karimov fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilari deb nimalarni eʼtiborga olish toʻgʻrisida taʼkidladi?

- A. Koʻp partiyaviylik, markazlashgan davlatchilik, tenglik;
- B. *Qonun ustuvorligi, shaxs kamoloti uchun shart-sharoit, inson erkinligi uchun ijtimoiy makon;*
- C. Milliy manfaatning ustuvorligi, sinfiy tabaqalanishning zarurligi, umuminsoniy manfaatlarining ustuvorligini eʼtirof etish;
- D. koʻppartiyaviylik va milliy gʻoya.

5. «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» konsepsiyasining moxiyatini aniqlang.

- *A) Davlatchilik rivojlangan sari, u uzining funksiyalarini, maxalliy oʻzini-oʻzi boshqarish organlariga berib borishi.
- V) Maxalalarning nufuzi va mavqeyining oshishi, ularga koʻproq xuquqlar berishi.
- S) Partiyalar xuquqining oshishi.
- D) Davlatning boshqaruvchilik rolini oshirish.

6. Islohot-islohot uchun emas, avvalo uchun xizmat qilishi kerak.

- A. Vatan B. Mustaqillik
- *C. Inson D. Dunyo

6-MAVZU. O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHNING HARAKATLAR STRATEGIYASI - MILLIY TARAQQIYOT ASOSI

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning mazmun va mohiyati.
2. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish.
3. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish.
4. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish.
5. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.
6. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat.

Tayanch so‘zlar

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha “Harakatlar strategiyasi”ning mazmun va mohiyati. Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor yunalishlarni milliy va umuminsoniy negiziga asoslanishi, ularni milliy g‘oyaning asosiy tamoyillari bilan mushtarakligi.

Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari: Venn diagrammasi, T-jadval, baliq skeleti, ma‘ruza, savol-javob, klaster, blits-so‘rov.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning mazmun va mohiyati.

Har bir davrning o‘z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va hayotiy tamoyillari bo‘ladi. Har bir zamonning o‘z zayli, qarashlari, munosabatlari, tafakkur tarzi bo‘ladi. Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, 2017 yil O‘zbekistonning tarixiy taraqqiyot va rivojlanishida butunlay yangi bosqichni boshlab berdi. Bu bevosita zamon bilan hamnafas, hozirgi sivilizatsiya talablariga javob beradigan, bugungi kun milliy va dunyoviy ehtiyojlarini nazarda tutgan, jahon davlatchiligi ilg‘or tajribalari bilan milliy xususiyatlarimiz, qadriyatlarimiz, davlatchilik usul va uslublari bilan uyg‘unlashib ketgan, sintezlashgan kuchli va qudratli siyosiy tafakkur bilan bog‘liq. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” ayni ana shu zamonaviy tafakkurni mamlakatni modernizatsiya qilish, jamiyatni rivojlantirish, boshqaruvni erkinlashtirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bilan birga xalqaro maydonda O‘zbekistonning o‘z so‘zi, qat‘iy xulosasi, umumsayyoraviy masalalarni hal qilishda, ichki va tashqi siyosatda o‘zgarmas, izchil pozitsiyaning mavjudligi bilan alohida ajralib turadi.

O‘zbekistonda mustaqillikka erishgach yangi tarixiy sharoitlarda, yangi davlatchilikka asos solindi. Huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati vujudga keltirildi. Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma‘naviy sohada tub burilishlar yasaldi. Tashqi siyosatda O‘zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli subyektiga aylandi va o‘zining qat‘iyatli siyosiy pozitsiyasini namoyon etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi **“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”**gi Farmoni qabul qilindi. Bu Farmon har tomonlama taraqqiyotning muhim asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Harakatlar strategiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog‘ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, Farmonda mamlakatni rivojlantirishning **beshta ustuvor yo‘nalishlari** belgilangandi. Mazkur yo‘nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo‘limlardan iborat:

I. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish:

- 1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;
- 1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;
- 1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish;

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish:

- 2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish;
- 2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;
- 2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish;
- 2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish;
- 2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash;
- 2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

III. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish:

- 3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish;
- 3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish;
- 3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;
- 3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish;
- 3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish;

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish:

- 4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish;
- 4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;
- 4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;
- 4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish;
- 4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

- 5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar;
- 5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlanib boriladi.

Davlat va jamiyat qurilishi tizimining takomillashtirish.

Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishi "**Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish**" deb nomlanadi. Ushbu yo'nalishda quyidagi strategik vazifalar belgilandi:

1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish.
2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish.
3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.

Mustaqillik yillarida Konstitutsiya va qonunlarga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari, Senatning va Qonunchilik palatasining alohida vakolatlari qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatining mustaqil va demokratik tamoyillar asosida kechishini ta'minlay oladigan darajada belgilandi. Mamlakatimizda Parlament islohotlarini yanada chuqurlashtirish natijasida ikki palatali parlament tashkil etildi, O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi hokimiyati huquqiy davlat talablariga javob beradigan darajada faoliyat yurita boshladi. Harakatlar strategiyasida «davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish»ga doyr strategik vazifa qo'yildi. Shu maqsadda, Harakatlar dasturida Oliy Majlisning hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga asosan boshqa hokimiyat tarmoqlari bilan muvozanatni va o'zaro bir-birini tiyib turishni ta'minlash, uning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish maqsadida «**Parlament nazorati to'g'risida**»³⁶**gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida**»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihagini ishlab chiqildi, loyihada Oliy Majlis Konunchilik palatasining deputati va Senat a'zosi tomonidan parlament nazorati vakli sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini o'rganib, tahlil qilish hamda uning natijalari bo'yicha tegishli choralar ko'rish, Oliy Majlisning tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili (biznes ombudsman)ni parlament nazorati subyekti sifatida belgilandi ³⁷. Harakatlar strategiyasida Prezident Sh.M. Mirziyoyev ilgari surgan - «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» prinsipini ijtimoiy-siyosiy hayotda amalga oshirishga doir dasturiy maqsadlar ham mujassamlashgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning joylarda ishlarning holatini o'rganish va xalq bilan muloqot qilish maqsadida hududlardan saylangan deputat va senatorlar har oyda 10-12 kun davomida bir tumanda bo'ladi.

Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishi bo'yicha mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishi tizimini yanada takomillashtirish maqsadida yana bir qator qonun va qonunosti hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish belgilangan:

1.«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili (biznes ombudsman) to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihagini ishlab chiqish;

2.«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihagini ishlab chiqish;

3. Aholining senatorlar va deputatlar bilan o'zaro munosabatlarini, Oliy Majlisning xalq bilan muloqotini takomillashtirish maqsadida «Elektron parlament» tizimini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilishga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihagini tayyorlash;

4.Siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarining mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazorat qilinishidagi huquq va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihagini ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasi mamlakat hayotida fuqarolik jamiyati institutlariningrolini oshirishga qaratilgan muhim qoida bilan to'ldirildi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan ham amalga oshirilishi haqidagi norma bilan to'ldirildi. Shundan kelib chiqqan holda Harakatlar strategiyasida ham fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki davlat tomonidan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalasining strategik vazifa sifatida ilgari surilishi jamoatchilik boshkaruvi tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

³⁶ 2016 yil 11 apreldan O'zbekiston Respublikasining «Parlament nazorati to'g'risida»gi Qonuni kuchga kirgan.

³⁷ O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 13 iyundagi O'RQ-436-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2017 y., 24-son

Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish demokratik davlat barpo etishning muhim shartidir.

Fuqarolik jamiyati institutlaridan biri fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi hisoblangan mahalladir. Yurtimizda azal-azaldan mahalla tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashda uning o'rni va ahamiyati beqiyos.

Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig'inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo'lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda. Amalga oshirilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida mahalla noyob, dunyoda o'xshashi bo'lmagan tuzilmaga aylandi.

2017-yilning 8 oyi davomida Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishi asosida zamonaviy talablarni inobatga olgan holda, 16 ta vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning tuzilmasi, vazifa va funksiyalari qayta ko'rib chiqildi, 20 ta davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar qayta tashkil etildi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish.

Harakatlar strategiyasining ikkinchi ustuvor yo'nalishi "**Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish**" deb nomlanadi. Bundan ming yil muqaddam ulug' bobomiz Abu Nasr Forobiy: "*Qonunlari kuchli davlat qudratli bo'ladi. Qonunlari mukammal shahar mukammal shahardir*", - degan edi. Darhaqiqat, haqiqiy erkinlik, erkin va ozod faoliyat amaldagi qonunlar doirasidagi faoliyatdir. Boshqacha qilib aytganda, haqiqiy demokratiya - qonunlar diktaturasi. Ana shundagina qonun ustuvorligiga erishiladi va barchaning qonun oldida tengligi ta'minlanadi. Har qanday davlatning mustahkamligi, uning adolatli va qat'iyatli siyosati, ijtimoiy adolatni, haqiqatni, fuqarolar haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar asosida qo'riladi. Ayni qonun doirasidagi erkinlik, qonun doirasidagi erkin faoliyat ishlab chiqarish madaniyatini ham, turmush turzi ma'naviy meyorlarini ham davlat boshqaruvi tamoyillarini ham qadriyatga aylantiradi.

Harakatlar strategiyasi qabul qilinguniga qadar, uning muhokamasi davrida va qabul qilinganidan so'ng sud-huquq tizimi bilan bog'liq bo'lgan bir qator hujjatlar qabul qilindi.

Dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktabrda "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon;

2016 yil 20 sentabrda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun;

2017 yil 9 yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun;

2017 yil 21 fevralda "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon;

2017 yil 29 martda "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi Qonun;

2017 yil 29 martda "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun;

2017 yil 6 aprelda "O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi Qonun (80, 81, 83, 93, 107, 110, 111, 112);

2017 yil 12 aprelda "O'zbekiston Respublikasi sudyalari oliy kengashi to'g'risida"gi Qonun;

2017 yil 12 aprelda «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunlar qabul qilindi.

Ushbu hujjatlarga asosan bu yo'nalishda qator islohatlar amalga oshirildi. Inson himoyachisi hisoblangan sud organlarining chinakam mustaqilligini ta'minlovchi dastlabki qo'yilgan qadam sudyalarni **almashtirib bo'lmaslik prinsipining** mustahkamlanishi bo'ldi.

Sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddatini, so'ng muddatsiz davrini belgilashga oid normalar kiritildi. Sudlarning mustaqilligiga bag'ishlangan

Yevropada nufuzli hujjat sanaluvchi Sudyalarning mustaqilligi, samaradorligi va roli to'g'risidagi 12-Tavsiyalarga asosan, sudyalar mustaqilligining muhim tamoyillaridan biri, bu ularni **almashtirib bo'lmalik prinsipidir**. Mazkur hujjat mazmuniga ko'ra, sudya pensiyaga chiqqunga qadar vakolat muddati kafolotlangan bo'lishi nazarda tutilgan. Sudyani lavozimiga doimiy tayinlash, faqat u intizomiy yoki jinoiy javobgarlikka tortilganda yoxud o'z sudyalik vazifalarini bajara olmay qolganda tugatilishi mumkin. Muddatidan oldin pensiyaga chiqish faqat sudyaning iltimosiga yoki tibbiy asoslarga ko'ra yo'l qo'yilishi belgilandi.

Oliy sudning sudyalari uchun sudyalik lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi 70 yoshni, boshqa sudlarning sudyalari uchun 65 yoshni tashkil etadi.

Ushbu kiritilgan normalar sudyalar mustaqilligini kafolotlash, mamlakatimizda professional sudyalar korpusini shakllantirish, sud tizimini yetuk va malakali, odil sudlov sohasida katta tajribaga ega bo'lgan, qo'li va dili toza sudyalar bilan to'ldirishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda, sud hokimiyatining boshqa hokimiyat organlari ta'siridan xalos bo'lishiga xizmat qiladi.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi sudyalar oliy kengashining roli ham katta ahamiyatga ega bo'lishi nazarda tutilmoqda. Oliy sudlov standartlariga doir o'z tavsiyalari bilan mashhur Venetsiya komissiyasi sudyalarni tayinlaydigan organ ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mustaqil bo'lishi zarurligini e'tirof etadi. Shu maqsadda, hokimiyatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, siyosiy qarashlardan xoli va boshqa tashqi ta'sirlardan himoyalangan organ sifatida Sudyalar Oliy Kengashi shakllantirildi. Kengash jami **yigirma bir nafar** kishidan iborat tarkibda:

sudyalar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar;

fuqarolik jamiyati institutlari vakillari;

huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan shakllantirilishi lozimligi mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti uchchala davlat hokimiyati organlariga nisbatan masofa saqlagani bois (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 89-moddasi) Kengash tarkibini shakllantirishda muayyan vakolatlarga ega. Qonunchilikka ko'ra Kengash raisi Prezident tavsiyasi va Senat tasdig'i asosida shakllantirilishi belgilandi.

Navbatdagi o'zgartirish va qo'shimchalardan biri sud hokimiyatining ikki oliy organi – Oliy sud va Oliy xo'jalik sudining sud tizimini boshqarishdagi vazifalarini takrorlanishiga barham beruvchi normadir. Uning mazmuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy ish yurituvchi sohasida sud hokimiyatining yagona organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini tashkil qilish mustahkamlandi. Mazkur norma ikki sud o'rtasidagi huquqiy ishlarning taalluqliligi borasidagi tortishuv va ziddiyatlarga chek qo'yadi. Tegishli qonun hujjatlarini amaliyotda qo'llash yuzasidan **yagona sud amaliyotini** ta'minlanishiga zamin yaratib, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolotlarini kuchaytiradi.

Kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning navbatdagisi ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni, shuningdek, ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, tuman (shahar) ma'muriy sudlari tashkil etilishiga doir bo'lgan normadir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 110-moddada ma'muriy sud ishlarini yuritishga doir bo'lgan masalani o'z mazmunida mustahkamlagan edi. Biroq ularning tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabat biroz oqsayotgan edi. Ma'muriy sudlarni tuzish masalasini jadallashtirishgan yana bir omil – jinoyat qonuni normalarini liberallashtirish siyosati bo'lib hisoblanadi.

Qonunchilikda o'z ifodasini topgan o'zgartirish va qo'shimchalardan yana biri bu – tumanlararo iqtisodiy sudlarning tashkil etilishidir. Fuqarolar o'rtasidagi iqtisodiy, fuqaroviy, ma'muriy va boshqa huquqiy nizolar xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqilar edi. Biroq ushbu toifadagi nizolar asosan viloyat xo'jalik sudlarida birinchi va apellyatsiya bosqichlarida ko'rilishi nazarda tutilgan edi. Xo'jalik sudlarining faqatgina viloyat darajasida mavjudligi, ularning alohida

tumanlardan uzoq masofada ekanligi tumanlararo iqtisodiy sudlarni tashkil etish zaruratini keltirib chiqardi.

Navbatdagi o'zgartirish va qo'shimcha mamlakatimizda "Xabeas korpus" instituti qo'llanishini yanada kengaytirish doirasida kiritilgan bo'lib, bu – prokurorlarning pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va ekskumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini o'tkazishga sanksiya berish bo'yicha vakolatlarining sudlarga o'tkazilishi nazarda tutilganligidadir.

"Harakatlar strategiyasi" dan kelib chiqib, shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalardan biri, bu jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartilishidir. Shu bilan bir qatorda, qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi extiyot choralari qo'llashning, shuningdek, dastlabki tergovning eng ko'p muddati 1 yildan 7 oyga qisqartilishi, qamoqqa olish va uy qamog'i choralari qo'llanilayotgan shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan.

Inson huquq va erkinliklarini ustivor ekanligini tasdiqlovchi yana bir norma qo'shimcha tergovning bekor qilinishi bo'lib hisoblanadi. Bu qoida konstitutsiyaviy norma – aybsizlik prezumpsiyasining mantiqiy rivojlanishi bo'lib, tortishuv va taraflar tengligi, haqiqatni anglash prinsiplari real ta'minlanishiga kafolat beradi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari institutining ishonchli kafolat etuvchi munosabatlardan yana biri, bu – mediatsiya – yarashtirish institutini takomillashtirishdir. Jismoniy va yuridik shaxslarga o'zaro nizolarni suddan tashqarida, muqobil hal etish imkonining berilishi, avvalambor, fuqarolarga nizolarni qisqa muddatlarda yechilishini, shuningdek, ortiqcha mablag'larning sarflanishiga chek qo'yilishini, turli ovoragarchiliklarni oldini olinishi kabi imkoniyatlarni beradi. Bu vaziyatdan kutiladigan natija esa, taraflar orasidagi o'zaro hurmat va ishbilarmonlik munosabatlarini saqlanib qolinishi bo'lib hisoblanadi.

Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish masalalariga oid munosabatlar qaysi yangi normalar bilan boyitildi?

2017 yil 9 yanvarda "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi, ma'muriy qamoqni o'tash tartibi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ma'muriy qamoq Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 29-moddasiga muvofiq 3 sutkadan 15 sutkagacha bo'lgan muddatga, favqulodda holat rejimi sharoitlarida esa 30 sutkagacha muddatga qo'llanishi nazarda tutilgan.

Ma'muriy qamoqqa olish ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 21 ta moddasida ko'zda tutilgan. Biroq, shu paytga qadar qonunda ma'muriy qamoq ko'rinishidagi jazoni o'taydigan joylar va ularning huquqiy mavqei belgilanmagan edi. Qonun qabul qilingach, ma'muriy qamoqni o'tash tartibi bilan bog'liq barcha munosabatlar huquqiy jihatdan tartibga solindi.

2017-yilning 19 yanvarida "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qaroriga asosan yuridik xizmat nufuzi oshirildi va yangi vazifalar bilan to'ldirildi.

Xususan, yuridik xizmatga jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta'sir etadigan davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari yuzasidan xulosalar berish;

Rahbariyatga faoliyatida qonun ustivorligi va qonuniyligni ta'minlash ahvoli yuzasidan hisobot taqdim etish;

Nizolar vujudga kelganda ularni sudgacha hal qilish choralari ko'rish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakati yoki harakatsizligi yuzasidan berilgan shikoyatlarning majburiy tartibda yuridik xizmatlar tomonidan ham ko'rib chiqilishini belgilovchi va boshqa masalalarda ular mas'uliyatini oshirishga qaratilgan yangi funksiyalar yuklandi.

Yuridik xizmat xodimlarini lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish masalalarini majburiy tartibda adliya organlari bilan kelishish hamda adliya organlariga yuridik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik talablarini buzgan davlat organlari va tashkilotlari

rahbarlari, shuningdek, yuridik xizmat xodimlariga nisbatan intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish huquqini beruvchi tartiblarning joriy etilishi har bir rahbarning mas'uliyatini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda sud tizimining mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning daxlsiz huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish, odil sudlovning amaldagi mustaqilligiga erishish amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning "Islohot – inson uchun!" degan hayotiy shiorning amaldagi ifodasidir. Binobarin, ana shu tub yangilanishlar jamiyatimizda qonun ustivorligini ta'minlash bilan birga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli tarzda himoyalashga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish.

Ma'lumki, iqtisodiy islohotlar jamiyat taraqqiyotining muxim omili. Harakatlar strategiyasida ushbu masalaga alohida e'tibor berilib, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish *uchinchi ustuvor yo'nalish* etib belgilandi. Jumladan, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish. Chunonchi, O'zbekiston o'tgan 26 yil mobaynida uzoq yillardan buyon yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmini 8 % dan tushirmayapti. U dunyoning eng tez rivojlanayotgan davlatlarining birinchi beshtaligi tarkibida turibdi. Ana shu tarixiy yutuqni yanada rivojlantirish va iqtisodiy qudratli davlat maqomini saqlab qolish Harakatlar strategiyasining asosiy mazmunidir.

Tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga ishlab chiqarilayotgan milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, jahon bozorida mavqei va salmog'ini oshirish choralari ko'rishni ilgari suradi. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va uni jadal rivojlantirish, bevosita dehqonchilikni boshqarishning yangi usul va uslublarini yangilashni, bu boradagi jahon tajribasini o'zlashtirishni, amaliyotda joriy etishni taqozo etadi. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, hususiy mulk huquqini himoya qilish, uning ustuvor mavqeini yanada oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish masalasi alohida o'rin tutadi.

Har bir fuqaroning yaratuvchilik, bunyodkorlik qobiliyatini va yashab turgan joyidagi tabiiy sharoitni hisobga olib, tadbirkorlikning yangi shakl va usullarini joriy etishni taqozo etmoqda. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish, Harakatlar strategiyasidan kelib chiqadigan muhim vazifadir. Bunda har bir viloyat, tuman va shaharning tabiiy-geografik imkoniyatlari, yer va suv sharoiti, aholining turmush tarzi, ehtiyojlari, ijtimoiy muammolari va psixologiyasidan kelib chiqib, dehqonchilik, chorvachilik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ularga mos shakllarni, usullarini joriy etish zarur. Ana shunda har bir fuqaro o'z qobiliyati, dunyoqarashi va turmush ehtiyojidan kelib chiqib, o'z yaratuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada butun mamlakat aholisi orasida yalpi safarbarlik, yaratuvchilik ruhiyati kuchayadi.

Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagi vazifalarni tashkil etadi:

1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:

xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, solik ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investisiya va kreditlardan samarali foydalanish.

2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

ishlab chikarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

- tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

- paxta va boshqali don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

- fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chikarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, Tayyorlash, saqlash, sotish, kurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqei yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat xam boy va kuchli bo'ladi», degan tamoyilni amalga oshirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga karam tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish jamiyat barqarorligi va davlat qudratini belgilaydigan muhim ma'naviy-ma'rifiy va ruhiy omillardan biri hisoblanadi. Jumladan, aholi bandligi qandaydir ish yoki hunar bilan shug'ullanish darajasi konkret fuqaroning kundalik real daromadlari bilan uyg'unlashib ketgan ijtimoiy muammodir. Bu Harakatlar strategiyasida asosiy masala sifatida **to'rtinchi ustuvor yo'nalish** sifatida belgilangan. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligani oshirish jamiyat taraqqiyotida alohida mavqe kasb etadi. Ushbu masalaning naqadar dolzarbligi va real hayotiy haqiqatga asoslanganligani nazarda tutib, Prezident Sh.Mirziyoyev arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish hamda ularni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish g'oyasini ilgari surmoqda.

Bu bevosita mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan nogironlar, pensionerlar, yosh bolalar, yosh bolali onalarni himoya qilish, qishloq joylarida, olis shahar va tumanlarda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ularni zamonaviy asbob-uskunalar hamda malakali tibbiy xodimlar bilan ta'minlashni dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Kam ta'minlangan oilalarga alohida e'tibor berish, ular turmush sharoitini yanada yaxshilash choralari har tomonlama ko'rish zarur bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda 2016 yilda siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalar bilan bir qatorda, ijtimoiy sohada xam chuqur sifat o'zarishlari ro'y berdi. Istiqloq yillarida respublikamizda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar hajmi 5 barobar ko'paytirildi. Har yili davlat budjetining qariyb 60 foizi sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xo'jalik, aholini ijtimoiy himoya qilish sohalaridagi vazifalar ijrosiga yo'naltirilmoqda. Jamiyat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasi bo'lib, uning rivoji siyosiy-huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalariga bevosita ta'sir etadi hamda ijtimoiy sohalar meyoriy mohiyatini belgilab beradi.

Harakatlar strategiyasining «Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarida turadi. Maktabgacha ta'lim sifatini yuksaltirish - barkamol avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'lim-tarbiya sohasini yanada isloh etish va tanqidiy baholash, uni takomillashtirish masalasi ham alohida e'tibor qarattidi.

Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi va uning asosida dastur ishlab chiqildi.

Bugungi kunda ta'lim davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlat budjetidan ta'limga ajratilgan mablag'lar budjet xarajatlar qismining 33,7 foizi darajasida rejalashtirilib ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz YAIM tarkibida 10-12 foizni tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasida qurilish, kapital rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. O'quv maskanlarining zamonaviy o'quv laboratoriya, mebel jihozlari bilan ta'minlangani ta'lim sifati va mazmuniga yuksak e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni - 60 ta, OTM filiallari - 11 ta, xorijiy davlatlar oliy ta'lim muassasalarining filiallari - 7 tani tashkil etadi.

Bugungi kunda oliy ukuv yurtlarimizda 260 ming nafardan ziyod talaba hayotning uzi talab etayotgan 850 dan ortiq yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha bilim olishmokda. Birgina 2016 yilning o'zida oliy ta'lim tizimi rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan 10 dan ortiq meyeri-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti

va Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish, oliy ta'lim tizimini xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlashga karatilgan kator farmon va qarorlarning qabul qilinishi yoshlarimizning jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim standartlariga to'la mos kelgan bilimlarni egallashlariga, ularning ijodiy va intellektual salohiyatlarini oshirishga xizmat qilmokda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Bu farmonga muvofiq ilmiy darajalarni berish masalasi qayta ko'rib chiqildi.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalasi Harakatlar strategiyasida **«Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish»** deb nomlangan alohida bandeda aks ettirildi va ijtimoiy sohani rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlaridan birining tarkibida o'z ifodasini topdi.

Ma'lumki, 2016 yilning 14 sentabrida O'zbekiston Respublikasining 33 moddadan iborat «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi URQ-406-son Qonuni qabul qilindi. Qonunlarni qabul qilish masalaning bir jihati bo'lsa, ularni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish uning boshqa bir jihatidir. Shu o'rinda «yoshlarga oid davlat siyosati» tushunchasi nimani anglatishini bilib olishimiz lozim. *Yoshlarga oid davlat siyosati* deganda, davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni 6-moddasining 1-qismida *«yoshlarga oid davlat siyosati davlat dasturlari, xududiy va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin»*, deb belgilab qo'yilgan. O'sha moddaning ikkinchi qismida *«Davlat dasturlari, xududiy va boshqa dasturlar yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yosh futsarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chitsarishni ta'minlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratish, jamiyat hayotida ularning o'rni va faolligini oshirish, sog'lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalash maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi»*, deyiladi.

Shu o'rinda «yoshlar» tushunchasining yuridik mazmuniga to'xtalib o'taylik. Xo'sh, yoshlar deganda qonun hujjatlari kimni nazarda tutadi? «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq, *«yoshlar (yosh fuqarolar) - o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar»*dir. *Yosh oila* deganda, er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila tushuniladi. *Yosh mutaxassis* deganda, oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini bitirgan, ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha uch yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga uch yildan ko'p bo'lmagan o'ttiz yoshdan oshmagan xodim tushuniladi. *Yoshlar tadbirkorligi* deganda esa, yuridik shaxe tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek, ta'sischilari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

«Yoshlarga oid davlat yeiyosati to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Ana shunday yo'nalishlardan biri sifatida yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish vazifasi belgilangan.

Qonunning 9-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar tizimiga ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saklash muassasalari, madaniyat va sport ishlari bo'yicha organlar, mehnat organlari, prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, adliya organlari, mudofaa ishlari bo'yicha organlar kirishi bilan bir qatorda, bu borada boshqa organlar va muassasalar ham qonun hujjatlariga muvofiq ishtirok etishi mumkinligi belgilab berilgan.

O'zbekiston Prezidentining xalqimiz o'rtasida, ayniqsa yoshlar orasida kitobxonlik an'anasini yanada jonlantirish, kitob mutolaasiga keng e'tibor qaratish bo'yicha amalga oshirayotgan sa'y-harakatlari diqkatga sazovordir. Ana shu yo'lda 2017 yilning sentabr oyida *o'quvchi yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash* maqsadida ta'lim muassasalarida «Men sevib o'qigan kitob» va «Eng yaxshi kitobxon» tanlovlari tashkil etildi. Bunday tadbirlar vositasida o'quvchi

yoshlar turli yot g'oya va mafkuralardan himoya qilinadi, ularning mafkuraviy immuniteti mustahkamlanadi hamda jamiyatda yuksak ma'naviyatni qaror toptirishga hissa qo'shiladi.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga, yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yo'naltirilgan uch bosqichli sport musobaqalari («Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada») yo'lga qo'yilgan. Mana shunday tadbirlardan Jizzax viloyatida 2017 yilning may oyida «Barkamol avlod» sport musobaqalari o'tkazildi.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat.

Har qanday mamlakatda jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligini ta'minlashda eng avvalo, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mazkur holatlar yurtimizda o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Ayniqsa, ko'p millatli mamlakatimizda tinchlik, xotirjamlik va barqarorlikni ta'minlanishi o'z navbatida osuda hayotni hukm surishiga zamin yaratadi. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik milliy mafkuramizning asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadi. O'tmishdan ma'lumki, yurtimizda azaldan zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik hamda islom dini vakillari o'zaro inoq va tinch – totuvlikda istiqomat qilishgan.

Xususan, yurtimizdagi madaniyat markazlari hisoblangan ko'plab shaharlarda masjid, cherkov, sinagoglar faoliyat ko'rsatgan. O'z navbatida, ushbu muqaddas maskanlarda turli dinga mansub millat va elatlar o'zlarining diniy marosimlarini emin-erkin ado etishi milliy xavfsizlikni ta'minlashga zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligini e'lon qilgach, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlash orqali tinchlik va barqaror taraqqiyot asoslarini mustahkamlashda barcha din vakillari orasida diniy asosda mojarolar bo'lmaganligiga tarix guvohdir.

Mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlarning ijobiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi qabul qilingan farmoni muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur farmonga muvofiq 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritish" deb nomlangan beshinchi yo'nalish doirasida davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon – atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash strategik vazifa sifatida belgilanganligini aytib o'tish lozim.

Ayniqsa, mazkur yo'nalish doirasida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish, kiberoxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohada davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilgan edi.

Aynan, mazkur omillar yurtimizda jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligini ta'minlashda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik holatini ijobiy ko'rinishda ekanligini namoyon etadi. Bu borada, fikr yuritganda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: **“Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”** -, deya bejiz ta'kidlamagan edi.

Mazkur holat, o'z navbatida O'zbekistonda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik inoqlik va birdamlikning nodir timsoli sifatida namoyon bo'lib, barcha din vakillariga nisbatan bag'rikenglikning ijobiy namunasi ekanligidan dalolat beradi. Binobarin, dunyodagi mavjud dinlar o'z mohiyatiga ko'ra, o'zida ezgulik, tinchlik, yaxshilik, do'stlik hamda bunyodkor g'oyalarni

mujassam etadi. Ayniqsa, din insonlarni halollik va poklikka, mehr-shafqat, birodarlik va bag‘rikenglikka da‘vat etadi.

Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar o‘zaro inoq, totuvlikda yashab kelmoqda. Respublika ko‘p konfessiyali mamlakatdir, hozirda O‘zbekistonda 16 ta konfessiyaga mansub 2 ming 243ta diniy tashkilotlar rasman faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘z navbatida, mazkur konfessiyalarning o‘z faoliyatini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, yurtimizda ko‘plab millat va elatlar madaniy markazlarining erkin faoliyat olib borayotganligi fikrimizning tasdig‘idir. O‘zbekistonda vijdon erkinligi, har kimning xohlagan diniga e‘tiqod qilishi yoki qilmaslik huquqi to‘liq ta‘minlangan va qonuniy kafolatlangan. Mazkur holat, ko‘p millatli, ko‘p konfessiyali bo‘lgan mamlakatda o‘ziga xos yondashuv bo‘lib, shu ma‘noda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda O‘zbekiston o‘ziga xos boy tajriba ortirganligini ta‘kidlash o‘rinlidir.

Ta‘kidlash joizki, mustaqillik yillarida ijtimoiy hayotning barcha sohalari qatori O‘zbekistonning diniy-madaniy hayotida ham ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan qisqa davr mobaynida ko‘plab masjid, cherkov, sinagoga va ibodatxonalar qurildi va qayta ta‘mirlandi. Ayniqsa, shular qatoriga Toshkent, Samarqand, Navoiy shaharlaridagi pravoslav cherkovlari, Toshkentdagi katolik kostyoli, Samarqanddagi arman apostol cherkovi, Toshkentdagi Buddha ibodatxonasini aytib o‘tish lozim.

Mazkur ijobiy ishlar samarasi Respublikada barcha din vakillari uchun diniy bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, mamlakat fuqarolari o‘rtasidagi o‘zaro birdamlik, totuvlik va inoqlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash va mustahkamlash, mamlakat milliy g‘oyasi – “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish” ning muhim tarkibiy qismi va shartidir.

O‘z navbatida, davlat turli dinlarga e‘tiqod qiluvchi va ularga e‘tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e‘tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi, diniy va o‘zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi.

Ayniqsa, mazkur holat O‘zbekistonda barcha dinlararo munosabatlarda bag‘rikenglikning ta‘minlanishi, avvalo, dinlararo ziddiyatlarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etib, turli din vakillarida o‘zaro hamkorlik, birdamlik va hamjihatlikning shakllanishiga zamin yaratadi. Mazkur omil yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma‘naviyat rivojiga bevosita xizmat qiladi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasida diniy maqsadlarni o‘zida namoyon etuvchi siyosiy partiya va jamoat harakati, shuningdek, respublikadan tashqarida tuzilgan diniy partiyalarning filiallari va bo‘limlarini tuzishga va ularning faoliyat yuritishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Binobarin, diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishlari shart.

O‘z navbatida, dindan davlatga va konstitutsiyaga qarshi targ‘ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg‘otish, axloqiy me‘yorlarni va fuqaroviy totuvlikni buzishda, bo‘xton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi o‘ydirmalarni tarqatishda, aholi o‘rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko‘maklashadigan, shuningdek, har xil g‘arazli maqsadlarni ko‘zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi. Bu haqda Islom Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” deb nomlangan asarida dinning jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida to‘xtalar ekan: *“Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma‘naviy qadriyatlaridan, tarixiy va madaniy merosidan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon dinning davlat hokimiyati uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaymiz. Chunki, bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz”,* deb ta‘kidlagan edi. Binobarin, O‘zbekistonda barcha din vakillari uchun diniy bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, avvalo, mamlakatimiz fuqarolari o‘rtasidagi o‘zaro birdamlik, totuvlik va

inoqlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xususan, 2014 yil 12 noyabrda Toshkent islom universitetida Toshkent islom universiteti, Din ishlari bo'yicha qo'mita, YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida **"Konfessiyalararo muloqot va diniy bag'rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi"** mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada qatnashgan Germaniyalik mutaxassis, falsafa va tarix fanlari doktori Gert-Ryudiger Vegmarsxauzning fikrlari diqqatga molikdir. Nemis olimi, jumladan: "ushbu konferensiya mavzusi ham juda dolzarb mavzuga bag'ishlanganligi bilan meni e'tiborimni o'ziga tortdi. Chunki, dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlar, qonli to'qnashuvlarning asosiy sabablaridan biri – turli dinlarga e'tiqod qiluvchi insonlarning diniy dunyoqarashlardagi ziddiyatlaridan kelib chiqmoqda. Shunday ekan, boshqa dunyo xalqlari ham xuddi O'zbekiston aholisidek bag'rikeng bo'lsalar, bunday mojarolarning yechimi hal bo'lar edi.

Mamlakatingizda din borasida olib borilayotgan siyosat juda to'g'ri deb o'ylayman va O'zbekistonning tinchlik yo'lidagi intilishlarini doimo qo'llab-quvvatlab kelaman",-deya ta'kidlashi yurtimizda bu borada olib borayotgan ishlarning yuksak e'trofdan ekanligini anglatadi. Mitropolit Vikentiy o'zining Mustaqillik bayrami munosabati bilan yo'llagan tabriknomasida O'zbekistonda hukm surayotgan diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik mamlakatda tinchlik va barqarorlikning asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlar ekan: "O'zbekistonda ma'naviy tarbiya masalasiga katta e'tibor qaratib kelinayotganligini diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, shubhasiz, O'zbekiston Respublikasidagi tinchlik va barqarorlik omili bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, u jamiyatda dinning o'rni o'sib borayotganini, turli dinlarga birday e'tibor qaratilayotgani ularning ma'naviy tarbiya ishida faol ishtirok etishiga yo'l ochib berayotganini qayd qilib o'tdi". Aynan, yuqorida zikr etib o'tilgan fikrlar mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo hamkorlik borasida olib borayotgan ishlar dunyo miqyosida ijobiy e'tirof etilayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Bugungi kunda yurtimizda davlatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan oqilona hukumat siyosatining ijobiy samarasi milliy va diniy bag'rikenglikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yurtimizda bugungi kunda barcha diniy konfessiya vakillari o'zining diniy an'analari va udumlari, marosimlarini bemalol ado etayotganligi fikrimizning tasdig'idir. O'z navbatida ushbu ijobiy fikrlar mazkur konferensiyada qatnashgan Vatikan davlatining Rossiyadagi Favqulodda va Muxtor elchisi, arxiepiskop I.Yurkovich mamlakatimizda konfessiyalararo muloqot va diniy bag'rikenglik borasida O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan siyosatidan ijobiy taasurol uyg'otganligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Bu haqda I.Yurkovich: "O'zbekistonda diniy tashkilotlarga ko'rsatilayotgan e'zoz, ularning jamiyat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissalarini o'z ko'zimiz bilan shohid bo'ldik. Ana shunday hamohanglik natijasidagina, ya'ni davlat va diniy tashkilotlar ikki tomonlama bir birini qo'llab-quvvatlashlari natijasidagina farovonlikka erishish mumkin bo'ladi. Bu harakatni esa O'zbekiston misolida ko'rish mumkin",- deya o'zining ijobiy fikrlarini aytib o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev: **"Yanada ogoh va sergak bo'lish, eng asosiy boyligimiz bo'lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko'p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir. Biz faqat shu yo'l bilan bugungi kunning barcha tahdid va xavf-xatarlariga samarali qarshi turishimiz, jamiyatimizda turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi qat'iy immunitet yaratishimiz, o'zimiz tanlagan demokratik taraqqiyot yo'lida yanada salmoqli natijalarga erishishimiz mumkin"**. Zero, yurtimizda bag'rikenglik tamoyillari asosida mustahkam qaror topgan osuda hayot va do'stona muhit mamlakatimizda jamiyat xavfsizligi va mamlakat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, dunyodagi har qanday suveren davlat jahon hamjamiyatiga o'zining tashqi siyosiy qarashlari, umumsayyoraviy muammolarga munosabatlari hamda azaliy munozara va muzokaralar obyekti bo'lgan urush va tinchlik masalalariga yondashuvlari bilan kirib boradi. Bu borada O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq aniq siyosiy pozitsiyasini va tashqi siyosat borasidagi konsepsiyasini bayon etdi. Jumladan, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi O'zbekistonning tashqi siyosatini qonuniy asosda kafolatlab berdi. Uning 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatida davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoida va normalariga asoslanishi belgilab qo'yildi. Davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida turli ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi, zarur bo'lganda ulardan ajralib chiqishi mumkinligi Asosiy qonunda belgilab berildi.

O'zbekiston bugungi kunda o'z Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida o'tgan 25 yilda to'plangan tarixiy tajribalarga tayangan holda, uni yanada boyitish, takomillashtirish, rivojlantirish yo'lidan bormokda. Harakatlar strategiyasida tashqi siyosat sohasida quyidagi vazifalar belgilandi:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofidagi xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;
- O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish .

O'zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan takdirda ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, keyingi davrda O'zbekistonning tashqi siyosatida muhim voqealar yuz berdi. Jumladan, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenta Almazbek Atambayev 2016 yil 24 dekabr kuni amaliy tashrif bilan Samarqandga keldi. Har ikki davlat rahbarlari azaliy qardoshlik tuyg'ulari asosida shakllangan yaqin qo'shnichilik tuyg'ularini ifoda etishdi.. Har ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, savdo va madaniy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga kelishib olindi.

2016 yil 16 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi tashqi ishlari vaziri o'rinbosari Alan Dunkanni qabul qildi. O'zbekiston Buyuk Britaniyani jahon siyosati va iqtisodiyotida muhim o'rin tutadigan davlat bilan siyosiy, iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni izchil davom ettirish, xalqaro maydonda, jumladan, mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo'yicha hamkorlikni yanada mustahkamlashga kelishib olindi.

2017 yil 19 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev jahon banki vitse-prezidenti Siril Myullerni, 1 fevral kuni esa Amerika-O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemmni qabul qildi. Shu yilning 15 fevral kuni Iqtisodiy Hamkorlik bo'yicha Rossiya Hukumatlararo komissiyasining navbatdagi majlisida ishtirok uchun mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi hukumati raisining o'rinbosari Dmitriy Kozakni qabul qildi. 2017 yil 6-7 mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining chet davlatga birinchi davlat tashrifini amalga oshirdi — Turkmaniston Respublikasi Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov taklifiga binoan ushbu mamlakatda bo'ldi. Mazkur tashrif juda samarali bo'ldi hamda O'zbekiston-Turkmaniston o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga, strategik sheriklik darajasiga ko'tardi. Bularning barchasi O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan mustahkam aloqada bo'lib kelayotganidan, turli mamlakatlar bilan har tomonlama manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirib borayotganidan dalolat beradi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning davlatlararo va mintaqaviy masalalarni hal qilishda yaqin qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish borasidagi sa'y-harakatlari O'zbekiston davlatining tashqi siyosatidagi muhim tamoyil sifatida ko'zga tashlanayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi, hech shubhasiz, O'zbekiston tashqi siyosatining yangi davrini boshlab beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Harakatlar Strategiyasi - bu *birinchidan*, hayot talablaridan kelib chiqqan holda tuzilgan, maqsad va vazifalari aniq ko'rsatilgan; *ikkinchidan*, bajarilishi qat'iy reja asosida tuzilgan, mas'ullari belgilangan; *uchinchidan*, bajarilishi moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlangan; *to'rtinchidan*, butun ma'no-mazmuni o'zbek xalqining ehtiyoj va manfaatlarini to'la qondirishga qaratilgan; *beshinchidan*, adolatparvarlik tamoyilidan kelib chiqqan holda vatanparvarlik g'oyalari ruhi bilan sug'orilgan jahonda kamdan-kam uchraydigan milliy ahamiyatga molik bo'lgan dasturdir. Uni bajarish esa yaxshi yashashga intilayotgan barcha odamlarning vazifasidir. Zero, erkin va ijodiy, tashabbus va tadbirkorlik bilan qilingan samarali mehnat-mazkur Harakatlar strategiyasining ruhiy kuch-quvvati; joni; g'oyaviy-mafkuraviy irodasidir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.
2. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.
3. Mirziyoyev III.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev III.M. Tanqidii tahlil kat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O‘zbekiston, 2017.
5. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Rsspublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish buyicha ilmiy uslubiy risola.T.: “Ma'naviyat”, 2017.
6. Yaxshilikov J. Y., Muhammadiyev N. E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi, “Fan”, 2017

Mustaqil ta'lim mavzusi

- Harakatlar strategiyasining asosiy yo‘nalishlari, maqsadi va mohiyati.
- Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor yunalishlarni milliy va umuminsoniy negiziga asoslanishi, ularni milliy g'oyaning asosiy tamoyillari bilan mushtarakligi.

Test savollari:

- 1.“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni loyihasi nechanchi yilda tasdiqlandi?
A) 2016 yil 12 noyabr
B) 2016 yil 10 noyabr
C) 2016 yil 8 dekabr
***D) 2017 yil 7 fevral**
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi nechta ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab oladi?
***A) 5ta**
B) 6 ta
B) 7 ta
D) 4 ta
- 3.Harakatlar strategiyasiga qanday masalalar kiritilgan?
***A)ijtimoiy-siyosiy, sosial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari**
B) ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini rivojlantirish masalalari
C)mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari
D) barcha javoblar to‘g‘ri
- 4.Harakatlar strategiyasining maqsadi?
A) ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlarini, huquq va erkinliklari so‘zda emas, amalda tamlanishi hamda axborot, so‘z yoxud saylov erkinligiga erishishda yangi huquqiy mexanizmlarni yaratish

B) yoshlar huquqiy islohotlarning mazmun va mohiyatini anglash hamda idrok etish orqali davlat hokimiyati yoki boshqaruvi jarayonida qatnashish vositasida o'z huquqiy imkoniyatlaridan real foydalana olishini yaratish

*C) olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini taminlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizasiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish

D) sud-huquq tizimini isloh etish jarayonidagi yaratilayotgan huquqiy mexanizmlarning mohiyatini tushunish

5. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiyaga kim rahbarlik qiladi.

*A) O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

B) O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri A.Aripov

C) O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri birinchi o'rinbosari A. Ramatov

D) O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri o'rinbosari R.Azimov

6. Harakatlar strategiyasini Birinchi yo'nalishda nechta band qamrab olinadi?

A) 4 ta

*B) 3 ta

C) 5 ta

D) 6 ta

7. Harakatlar strategiyasini Birinchi yo'nalishning maqsadi?

*A) demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya qilishda parlament hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish

B) sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash

C) makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish suratlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizasiya qilish va jadal rivojlantirish

D) barcha javoblar to'g'ri

8. Harakatlar strategiyasini Birinchi yo'nalish bandlari to'g'ri keltirilgan qatorni toping?

A) Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish

*B) Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.

C) Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.

D) Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

9. Harakatlar strategiyasini Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish yo'nalishining birinchi bandida qanday vazifalar qamrab olingan?

A) davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

*B) jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish.

C) davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish.

D) Mamuriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyasiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini tasis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish.

10. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish yoʻnalishining ikkinchi bandida qanday vazifalar qamrab olingan?

*A) davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning oʻzaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish

B) jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish.

C) davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish.

D) Mamuriy sudlarni, xoʻjalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyasiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini tasis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish.

11. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishga oid masalalar Harakatlar strategiyasining qaysi yoʻnalishida belgilangan?

*A) birinchi

B) ikkinchi

C) beshinchi

D) toʻrtinchi

12. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishda qanday vazifalar qamrab olingan?

A) “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish

B) davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish

C) ijtimoiy sohani rivojlantirishga yoʻnaltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish

*D) nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, shuningdek mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish

13. 2017-2021 yillarda Oʻzbekistonda rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasining ikkinchi yoʻnalishi qanday nomlanadi?

A) Axborot sohasini isloh qilish, axborot va soʻz erkinligini taminlash

B) iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish

*C) qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish

D) ijtimoiy sohani rivojlantirish

14. Harakatlar strategiyasining Qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish yoʻnalishi qanday masalalarni nazarda tutadi?

A) davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga oʻtkazib borishni nazarda tutadi

*B) qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini taminlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi.

C) ijtimoiy sohani rivojlantirish, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishni nazarda tutadi

D) ijtimoiy sohani rivojlantirishga yoʻnaltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish

15. Harakatlar strategiyasining Qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish yoʻnalishi nechta banddan iborat?

A) 4 ta

B) 5 ta

*C) 6 ta

D) 3 ta

16. “Xabeas korpus” institutini qoʻllash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirishga oid masala qaysi yoʻnalishda qamrab olingan?

A) uchinchi

*B) ikkinchi

C) toʻrtinchi

D) beshinchi

17. Harakatlar strategiyasining Oliy sud kengashini tuzish, professional sudyalar korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalari qaysi yo'nalishda qamrab olingan?

A) Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

B) Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

*C) Qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari

D) Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni taminlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari

18. Harakatlar strategiyasining Qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarining ikkinchi bandi nomini aniqlang?

A) Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini taminlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish

B) Mamuriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish

C) Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish

*D) Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini taminlash

7-MAVZU. GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT MAKONI VA G'OYAVIY MAFKURAVIY KURASHLAR.

Reja:

1. Globallashuv, axborot makoni, axborotlashgan jamiyat tushunchalarining mazmun-mohiyati.
2. Axborot va ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta'siri, axborot xurujlari.
3. Globallashuv davrida yoshlarni ma'naviy tahdidlar, "ommaviy madaniyat"dan himoyalash masalalari.
4. Diniy fundamentalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi va boshqa yot mafkuralardan himoyalashning shart-sharoitlari va omillari.
5. Yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda OAV.

Tayanch so'zlar

Globallashuv, axborot makoni, axborotlashgan jamiyat tushunchalarining mazmun-mohiyati. Axborot va ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta'siri. Globallashuv davrida yoshlarni ma'naviy tahdidlar, axborot xurujlari, "ommaviy madaniyat", diniy fundamentalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi va boshqa yot mafkuralardan himoyalashning shart-sharoitlari va omillari. Yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda OAV.

Globallashuv, axborot makoni, axborotlashgan jamiyat tushunchalarining mazmun-mohiyati.

Globallashuv tushunchasining mazmun-mohiyati. Globallashuv masalasini bugungi kunda barcha mamlakatlardagi olimlar, siyosatchilar, jurnalistlar va tadbirkorlar muhokama qilmoqdalar. Ularning barchasi mazkur fenomenni dunyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy hayotining o'ziga xos bo'lgan zamonaviy holati, ularda kechayotgan ichki va tashqi jarayon hamda ularning umumplanetar tarzda rivojlanish tendensiyasi sifatida talqin etmoqdalar. Umuman olganda "globallashuv" tushunchasi *fransuzcha global - umumiy va lotincha globus - shar* so'zlaridan olingan bo'lib, birinchidan, Yer yuziga oid, butun Yer sharini qamrab oluvchi; ikkinchidan esa umumbashariy, keng miqyosdagi; jahonshumul, jahon ahamiyatiga molik, degan ma'nolarni anglatadi. «Globallashuv» atamasi 1981-1983 yillarda amerikalik sotsiolog Dj.Maklin, amerikalik tadqiqotchi T.Levitt, inglizlik olim R.Robertsonlar tomonidan yozilgan maqola va kitoblarda ishlatilgan³⁸. Bugungi kunda globallashuvni obyektiv jarayon sifatida olimlar turlicha ta'riflaydilar. Masalan, Q.Nazarov tomonidan yozilgan "Falsafa asoslari" nomli kitobida globallashuv tushunchasiga olimlar tomonidan berilgan: "globallashuv:

- insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashishi natijasida sodir bo'layotgan jarayonlarning olamshumul ahamiyat kasb etishi;

- jahon iqtisodiyotining sarmoya, ishchi kuchi va kashfiyotli oqimining kengayishi, shuningdek, mamlakatlarning jahon miqyosidagi iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan birgalikdagi harakatlari tufayli davom etayotgan integratsiyasi;

- tashkilotlarning xalqaro miqyosda kengayishga va xalqaro maydonda tobora kattaroq o'rin egallashga qaratilgan strategiyasi;

- tovarlar, xizmatlar, mehnat, texnologiya va kapitalning xalqaro maydonda harakatlanishi;

- savdo, investitsiya, moliya-iqtisod, madaniyat va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda hukumatlar, tashkilotlar va xalqlarning o'z mamlakatlari chegaralaridan chiqib, hamkorlikka intilishi;

- inson kapitali, moliyaviy va intellektual kapitalning dunyoning eng katta iqtisodiy nuqtalariga intilishi;

³⁸ Буянов В.С. Сущность глобализации // Глобализация Учебник -М.: Изд-во РАГС, 2008. -С.17-18.

- iqtisodiy faoliyat uchun mamlakatning jo'g'rofiy joylashishi omili ahamiyatining o'zgarib borish jarayoni"³⁹, - degan ta'riflar keltirilgan.

Ularning barchasini umumlashtiradigan bo'lsak, globallashtirish falsafiy ma'noda - bu jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huqukiy, ma'naviy-madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, yangicha sifatiy birlashuvi natijasida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning tez sur'atlar bilan bir mamlakat doirasidan chiqib, umumplanetar miqyosga ega bo'lishidir.

Globallashtirish jarayonlarining manbai deb, ularning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'ladigan omillarga aytiladi.

Bunday asos-omillar jumlasiga: birinchidan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuz berayotgan tub sifatiy o'zgarishlar; ikkinchidan, davlatlarning investitsiya sohasida olib borayotgan yangicha siyosati; uchinchidan, innovatsion ta'limning qamrovlilik darajasining o'sib borishi; to'rtinchidan, jahonda dunyoviy tartibning o'zgarishi natijasida mavjud borliqqa nisbatan yangicha dunyoqarashning vujudga kelishi va shu kabilar kiradi.

Globallashtirishning umume'tirof etilgan kuyidagi asosiy belgilari mavjud: a) xalqaro savdoning kengayishi va erkinlashishi; b) xalqaro kapital aylanmasi va uning yo'lidagi to'siqlarning bartaraf etilishi; v) elektron kommunikatsiya inqilobi natijasida moliyaviy munosabatlarda sodir bo'lgan chuqur o'zgarishlar; g) transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlarning tashkil topishi va boshqalar.

Jahon miqyosidagi bunday umumiy taraqqiyot: birinchidan, odamlar dunyoqarashi o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlar rivoji odamzot hayotiga ta'sirni kuchaytiradi; ikkinchidan, davlatlar va xalqlar o'rtasida birlashishga intilishni kuchaytirishda, ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an'analar va ma'naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ham ko'rsatib berdi.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. XX asrning oxiri - XXI asrning boshlarida dunyo xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotda, shuningdek, tabiatda yuz berayotgan global o'zgarishlar bugungi jamiyatni "Axborotlashgan jamiyat" deb atashga asos bo'lmokda. Xo'sh axborotlashgan jamiyat nima? Bu savolga o'zbek tilida nashr etilgan adabiyotlarda: "Axborotlashgan jamiyat - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborotni ishlab chikarish, unga "ishlov berish", saklash va jamiyat a'zolariga yetkazish bilan bog'liq bo'ladigan jamiyat"⁴⁰, "axborotlashgan jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishda mehnat qiluvchilarning, fan va madaniyat vakillarining axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo'lmish, dunyoviy bilimlar majmuini shakllantirish, yaratish, saklash, qayta ishlash va xalqaro bozorda sotishni amalga oshirish bilan mashg'ul bo'lgan jamiyatdir", "Axborotlashgan jamiyat - ko'pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saklash, qayta ishlash va sotishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan jamiyatdir"⁴¹, - degan ta'riflar berilgan.

Axborotlashgan jamiyatni ijtimoiy fenomen tarzda tushuntirib berish masalalari D.Bell, A.To'ffler, M. Kastels, U.Rostou, P.Draker, J.Gelbreyt, F.Uebster, I.Masuda kabi olimlarning asarlarida mufassal bayon kilingan.

«Axborotlashgan jamiyat» atamasi dastlab Yaponiyada vujudga kelgan. Yapon faylasuf olimi Y.Xayashi 1969 yilda Yaponiya hukumatiga "Yaponiya axborotlashgan jamiyat bardamligi siyosatiga chizgilar", 1971 yili "Axborotlashgan jamiyat rejasi" kabi tadqiqotlarni takdim etdi. 1971 yildan boshlab mazkur tushuncha ilmiy jamoatchilik tomonidan keng ko'llanila boshladi. Demak, axborotlashgan jamiyat tushunchasini birinchi bo'lib fanga Tokio texnologik universitetining professori Y.Xayashi kiritgan. Uning fikricha, moddiy mahsulot emas, axborotlashuv mahsuloti jamiyatning shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch qismdan tarkib topadi: mediatizatsiya (lot.mediatius - vositachi) - axborot to'plash, saqlash va tarqatish vositalarini

³⁹ Nazarov Q. Falsafa asoslari. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. -B.676-677.

⁴⁰ Falsafa: ensiklopedik lug'at. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. B.32.

⁴¹ S.G'ulomov, S.Shermuhamedov, B. Begalov. Axborotlashgan jamiyatning mujassamlanishi. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi", 1999., yanvar-fevral. -B.7.

takomillashtirish jarayoni; kompyuterlashtirish - axborot izlash va unga ishlov berish vositalarini takomillashtirish jarayoni; intellektualizatsiya - axborot yaratish va uni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, shu jumladan, sun'iy intellektdan foydalanish jarayoni. Umuman olganda, jamiyatni axborotlashtirishni zamonaviy axborot-texnika vositalari yordamida ijtimoiy tuzilma va jarayonlarni takomillashtirish deb talqin qilish lozim. Axborotlashtirish ijtimoiy intellektualizatsiya jarayonlari bilan uyg'un holda bo'lishi kerak. Zotan, bu shaxs va u yashayotgan axborot muhitining ijodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi⁴².

Axborotlashgan jamiyat oldingi jamiyatlardan moddiy omillar bilan emas, balki ma'naviy omillar - bilim va axborot birinchi o'rinda turishi bilan tubdan farq qiladi. Axborot va bilim olish, ularga ishlov berish hamda ularni saqlash va yetkazish jarayonida jamiyat a'zolarining aksariyati band bo'ladi. Axborotlashgan jamiyatda axborot tayyorlash moddiy ishlab chiqarishni siqib chiqarmaydi, balki uning negizida shakllanib, bu soha rivojiga turtki bo'ladi⁴³.

2006 yilning BMT Bosh Assambleyasi Butun jahon axborot jamiyati yili deb e'lon qilinishi ham hozirgi kunda jamiyat axborotlashuvining ahamiyati ortib borayotganligidan dalolat beradi. Hozirgi davrda dunyodagi barcha davlatlarning axborotlashgan jamiyat tomon intilishi kuzatilmokda.

Globalashuv tufayli odamlar bir lahzada o'zini qiziktiradigan axborotni darhol olish, unta egalik qilish imkoniyatiga ega. Ushbu jarayon mazmuni to'g'risida I.A.Karimov: "Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgaridek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo karab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas"⁴⁴, - degan edi.

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, axborot arabcha "xabar" so'zidan olingan bo'lib, "darak", "ma'lumot", "ovoza", degan ma'nolarni anglatadi⁴⁵. Shu tariqa bugungi kunda axborot deganda biror kimsa, narsa yoki hodisa haqida darak, ma'lumot berish, bildirish, uni muayyan vositalar orqali yetkazish yoki ovoza qilish tushuniladi.

AKTni rivojlantirish va uning natijalaridan mamlakat hayotining barcha sohalarida unumli foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyun kuni «Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni e'lon kilindi. Bundan ko'zlangan maqsad - mamlakatimizda AKT uchun xalqaro standartlarga muvofiq dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahalliy ishlab chikaruvchilar tomonidan sifatli va raqobatdosh dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish, AKT mahsulotlari eksportini kengaytirish, maxalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishni tashkil etishdan iboratdir.

Axborot va ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta'siri, axborot xurujlari.

Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqloq g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish,

⁴² Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общества, культура. -М.: Изд-во «ВШЭ», 2000. -С.502.

⁴³ Falsafa: ensiklopedik lug'at. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. - B.33-34.

⁴⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. -B.112.

⁴⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. 4.J. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.-B.370.

ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va o'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini kursatadigan shunday bir gap bor "har qanday puch g'oya, uydirma haftasiga uch martadan turt yil davomida takrorlansa - "haqiqat" tayyor buladi, odamlar unga chippachin ishonadilar".

Oxirgi paytlarda informatsion hurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning uzgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol - axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u daydi o'q singari insonni jismonan yo'q qila olmasa-da, uning qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni uz manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va demaq insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Aslida, axborot maqcadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informatsion hurujlar uyushtirish uchun u qadap ko'p mehnat, u qadap ko'p harakat, u qadap ko'p harajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya otishmalar va qon tukishlarni keltirib chiqarmasa-da, milliy uzlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi.

Zamonaviy OAV, televideniye, kompyuter, Internet, uyali telefon va boshqa vositalar, insonlar, ayniqsa, yoshlarning milliyligi, tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirib yubormoqda. Taraqiy qilgan mamlakatlarning mazkur vositalar yordamida jahon xalqlari ongi, dunyoqarashi va turmush tarzini bir qolipga solish hamda unga o'zlari shakllantirayotgan «ommaviy madaniyat»ni singdirishi bosh strategik siyosatga aylantirayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda⁴⁶.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda 2 milliard ortiqroq kishi u yoki bu darajada undan foydalanishi ham mazkur fikrlarning to'g'riligini tasdiqlaydi.

50 millionlik auditoriyaga erishib, ommalashish uchun radioga 38 yil, televideniye ga 13 yil, kabel televideniye ga 10 yil kerak bo'lgani holda, bu bosqichni internet 5 yilda bosib o'tdi⁴⁷. Internet odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'laminin keskin darajada o'sishiga olib keldi. Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi.

Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganini quyidagi raqamlardan bilib olish mumkin: 2000 yildan 2012 yil oxiriga qadar dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 9,6 barobarga oshib, 2,4 milliard kishiga etdi, mobil aloqa abonentlari soni esa 13,4 barobarga oshib, 6,7 milliardni tashkil etdi. Internetdan foydalanuvchilarning 44,8 % (1,1 mlrd. kishi) Osiyo, 21,6 % (519 mln. kishi) Yevropa, 11,4 % (274 mln. kishi) Shimoliy Amerika qit'alariga to'g'ri keladi. Jahon veb-auditoriyasining 45 %ini 25 yoshgacha bo'lgan shaxslar tashkil etadi. Mazkur o'smirlarning 68 % har kuni kimgadir SMS-xabar jo'natadi, 51 % ijtimoiy tarmoqlarga kiradi, 30 % elektron pochtdan foydalanadi. Ayni vaqtda virtual olamda 600 mln.ga yaqin internet saytlar mavjud bo'lib, har oyda o'rtacha 201,4 trln. videorolik ko'rib chiqiladi, har kuni 144 mlrd. elektron maktub jo'natiladi⁴⁸.

Hozirgi kunda mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni 10 milliondan oshdi. 26 mingga yaqin "uz" domenidagi veb-saytlar faoliyat olib bormoqda. 200 dan ortiq veb-sayt ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatga olingan. Internetning ta'sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko'tarilayotgan masalalarning dolzarbligi hamda tahliliylik darajasi va mavjud muammolarning samarali echimlarini taklif etishiga ko'p darajada bog'liq.

⁴⁶ Otamurodov S. Globallashuv va milliy – ma'naviy xavfsizlik. T., "O'zbekiston", 2015, 266 bet

⁴⁷ Umarova N. Globallashuv sharoitida axborot hurujlariga qarshi kurash. - T.: Akademiya, 2005, 25-26 b.

⁴⁸ <http://uz.infocom.uz>

Ana shunday vaziyatda I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, shuni unutmaslik kerakki, "bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin"⁴⁹.

Unda o'z-o'zini o'ldirishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 mingdan, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlarning mavjudligi ham buning isboti bo'la oladi. Mutaxassislar o'tkazgan maxsus tadqiqotlar mavjud saytlarning taxminan 12 foizi pornografik xarakterga egaligini ko'rsatadi. Mavjud maxsus dasturlar internet tarmog'idagi pornografiyaning faqat 90 foizinigina filtrlaydi, ya'ni komyuterdan foydalanuvchining ixtiyorida tashqarida ekranda paydo bo'lishi yo'lga to'siq qo'ya oladi. Demak, qanchalik harakat qilinmasin pornografik mazmunga ega saytlar internetdan foydalanuvchilarning xohish-istagidan qat'i nazar, ularning diqqatini torta oladi. Jumladan, tadqiqotlarda 42 foiz bolalar va o'smirlar onlayn pornografiya ta'siriga tushishi qayd qilinadi.

Shuningdek, mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, internet orqali tarqatiladigan komyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga etishish uchun shunday zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o'yinlarda ana shu zo'ravonlik va yovuzlikning o'zi bosh maqsad hisoblanadi⁵⁰.

Internet rivoji, u berayotgan imkoniyatlar o'ziga xos qaramlikni ham keltirib chiqarmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan foydalanuvchilarning taxminan 10 foizi unga mustahkam bog'lanib qolgan.

BMT Bosh assambleyasi 2006 yil 8 sentabrda qabul qilingan "BMTning global aksilterror strategiyasi"da yangi uslublar qatorida bioterrorizm hamda internetdan terror maqsadida foydalanishning oldini olish choralarini kuchaytirish alohida qayd etilgan. 2007 yil noyabrda AQSH Davlat departamenti "Tashqi raqamli aloqalar guruhi" nomli maxsus axborot dasturini joriy qilgan. Dastur maqsadi – arab, fors, urdu va boshqa tillardagi internet saytlari, chat va bloglarda AQSH siyosati haqidagi dezinformatsiya (noto'g'ri ma'lumotlar)ga qarshi kurash hisoblanadi. Dasturga ko'ra, zarur hollarda, departament xodimlari internet orqali rasman muloqotga kirishi va savollarga javob berishi, aniq hujjatlar asosida ma'lumot keltirishi ko'zda tutilgan. So'nggi yillarda terroristik tashkilotlar g'oyalarini targ'iblash qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga oshgan. Xususan, 10 yil avval bunday saytlar soni 20 ta bo'lsa, bugungi kunda dunyoda terroristlar foydalanigan 7000 dan ortiq internet saytlari mavjud bo'lib, ularga xizmat ko'rsatuvchi portallar soni ortib bormoqda. Bunday internet saytlar to'satdan paydo bo'ladi, vaqt o'tgach yo'qoladi, mazmunini o'zgartirmagan holda, tez-tez nomlanishi va domenini o'zgartirib turadi.

- Internet quyidagilar bilan terroristlar uchun qulay hisoblanadi:
- Internetga kirishning osonligi;
- Foydalanuvchilar sonining ko'pligi;
- Aloqaning anonimligi;
- Tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklangani;
- Axborotlar qisqa muddatda keng makonda tez tarqalishi;
- Faoliyat sarf-xarajatlarining bir necha barobar kamligi.

Terroristlar internetdan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- Targ'ibot va tashviqot maqsadida ma'lumot tarqatish;
- Yangi a'zolari yollash (verbovka);
- A'zolik va xayriya badallarini yig'ish hamda ulardan foydalanish;
- Tarmoq va shahobchalar tashkil etish;
- Terroristlarni o'qitish, ko'rsatmalar berish;

⁴⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat". 2008. 13 bet.

⁵⁰QahharovaI. Globallashuv global ma'naviyatning g'oyaviy asosi.T.: Tafakkur, 2009, 26 b.

➤ Razvedka va ma'lumot qidirish;

Yangi terroristik harakatlarni rejalashtirish va boshqarish.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher "Ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun kislorod vazifasini utaydi", degan. Bu gapning mag'zini chaqan odam "ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan", degan xulosaga keladi. Bir qarashda bu fikr mantiqsizday tuyuladi. Chuqurroq uylab kursak-chi? Aslida, terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan uldirish orqali millionlarda qo'pqyv va daqshat uyg'otishga intiladilar. Demaq ularning maqcadlari - uldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari uzlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik qo'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga "xizmat" qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlariga haqidagi vaqimali axborotlari insonlardagi qurquvni, daqshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi aksiltarg'ibotni uyushtirish zarurati tug'iladi.

Globalashuv davrida yoshlarni ma'naviy tahdidlar, "ommaviy madaniyat"dan himoyalash masalalari.

"Tahdid" arabcha "do'q qilish, qo'rqitish", degan so'zdan olingan bo'lib, kundalik hayotda "birovni qo'rqitish, unga do'q, po'pisa qilish hamda biror falokatning, qo'rqinchli voqeaning sodir bo'lish xavfi"⁵¹, degan ma'nolarni anglatish uchun ishlatiladi. Falsafiy ma'noda "Tahdid - inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo'naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan havf-xatar shakli, muayyan barqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni ifodalovchi tushuncha"⁵², bo'lsa, jamiyatning rivojlanishiga ta'siri, ya'ni tor ma'noda esa tahdid deb, makon va zamonda mavjud bo'lgan real jamiyatning ijtimoiy tuzilmalarini zaiflashtirishga, qolaversa, yemirishga qaratilgan shaxsiy, mahalliy, xududiy, mintaqaviy omillarning qo'rkutish, do'q, po'pisa qilishdan iborat bo'lgan xatti-harakatlariga aytiladi.

Tahdidlarning xususiyati va taraqqiyot sohalariga o'tkazadigan ta'sir darajasiga qarab, inson, shaxs, fuqaro, millat, davlat, jamiyat, mintaq, global, ichki va tashqi, katta va kichik, shuningdek, iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ekologik, demografik, mafkuraviy, harbiy, tabiiy-iqlimiy, makon nuqtai nazaridan esa uzoq va yaqin va boshqa shakllarga ajratish mumkin. Ammo ular qanday shaklda yuzaga kelishidan qat'i nazar, o'zining mohiyat-mazmuniga ko'ra jamiyat taraqqiyotiga qarshi qaratilgan kuch hisoblanadi.

I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" nomli asarida ma'naviy-mafkuraviy tahdid tushunchalariga to'xtalar ekan: "*Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim*", deb o'ylayman.

Agarki, masalaga amaliy ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj - bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlarga, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo'ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo'lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglatadi.

"Ommaviy madaniyat" tushunchasi.

"Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. YA'ni kommunistik mafkura va ahloq normalaridan voz kechilgandan so'ng, jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va ahloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak".

⁵¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. J.4. T-SH. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -B.41.

⁵² Ma'naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug'at. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. -B.546-547.

Islom Karimov

Jamiyat hayotining barcha sohalari globallashib borar ekan, u albatta madaniyat sohasida birinchilar qatorida o'zini namoyon qiladi. Shunday hodisalardan biri "ommaviy madaniyat" hisoblanadi.

Ommaviy madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlana boshlashi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. "Ommaviy madaniyat" an'anaviy madaniyatning ma'lum yo'nalishi sifatida emas, balki madaniyatdagi sifat o'zgarishi, hayot taqozasi asosida yuz berdi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya (radio, kino, televideniye, ko'p nusxali gazetalar, suratli jurnallar, internet) vositalarining keskin rivoji va tarqatilishi bunga sabab bo'ldi. Ma'naviy boyliklarni industrial tijorat ishlab chiqarish va tarqatish, madaniyatni demokratlashtirish, aholi bilim darajasi o'sishi bilan birga uning ma'naviy ehtiyojlarida pasayish jarayoni kuzatila boshladi.

Tadqiqotchilar ommaviy madaniyatning dastlabki shakli XIX asrning 30-yillarida adabiyotda paydo bo'lgan va ommalashib ketgan sarguzasht janrini ko'rsatishadi. Asr oxirida haftalik ommaviy axborot vositalari ana shunday asarlarni tinimsiz chop eta boshladilar. Vaqt o'tishi bilan ushbu jarayonga "Yurak matbuoti" yoki "Qalb industriyasi" deb nom berdilar. Asr oxirida Amerika Qo'shma Shtatlarida ommaviy madaniyatning komiks shakli paydo bo'la boshladi. Bu janr boshda faqat bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, bora-bora kattalar hayotining ham ajralmas qismiga aylandi. Aniqrog'i, "Ommaviy madaniyat"ning keskin rivoji XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Shu vaqtdan boshlab u keng qamrov va xujumkorlik bilan tarqala boshladi.

An'anaviy madaniyatda bo'lganidek, ommaviy madaniyatning ham universal xarakteristikasi hamon mavjud emas. Buni shunday tushuntirish mumkin. Gap shundaki, "Ommaviy madaniyat" ilmiy-falsafiy kategoriya sifatida o'ziga yakdil uchta tushunchani qamraydi. Birinchidan, "madaniyat" – alohida xarakterdagi mahsulot. Ikkinchidan, "ommaviylik" – mahsulotni tarqatish meyor. Uchinchidan, "madaniyat" – ma'naviy boylik.

"Ommaviy madaniyat" nima? Bu savolga har bir xalq o'zining manfaatlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda javob beradilar. Umuman olganda "ommaviy madaniyat" bizning qadriyatlarimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan madaniyatlar qatoriga kiradi. Bu xususda Prezidentimiz *SH.M.Mirziyoyev: "Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-karshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshka ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani - ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi"*⁵³, - degan edi. Shu nuqtai nazardan qaraganda biz uchun ommaviy madaniyat - bu bir guruh boylikka o'ch odamlar tomonidan zamonaviy axborot-texnologiyalarining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda axloqiy buzuvchilik, zo'rovonlik, o'z manfaatini o'zgalar manfaatidan ustun qo'yish, "men "ni ulug'lash kabilarni aks ettiruvchi har xil o'ta sayoz madaniyat asarlarini moddiy va ma'naviy hayot maydonlariga tashlab, ko'ngilocharlik bahonasida tijoratga asoslangan iste'molchilikni yo'lga qo'yib xalqlarni o'z milliy qadriyatlariga asoslangan madaniyatidan judo qilish evaziga katta daromad topishga qaratilgan aksilmadaniyatdir.

«Ommaviy madaniyat»ning belgilari: axloqiy buzuvchilik, zo'rovonlik, individualizm, egotsentrizm va boshqalar kiradi.

Axloqiy buzuvchilik. Bu eng tuban insoniy faoliyat bo'lib, u asta-sekin «erkin muxabbat»dan «bir jinsli insonlar o'rtasida nikoh tuzish»gacha bo'lgan bosqichlarga ko'tariladi. U yoshlarni ma'naviy jihatdan aynitib, minglab yillardan buyon ardoqlanib kelayotgan muqaddas muhabbat an'anasi o'rniga zinakorlikni taqdim qiladi.

Zo'rovonlik. Bu illat mazmunini insonning inson, millatning millat, davlatning davlat ustidan o'z hukmronligini o'tkazish tashkil qiladi. Zo'rovonlik shaxs hukuqini paymol qilib, uning ongida hayvoniylik his-tuyg'ularini va xususiyatlarini tarkib toptiradi.

⁵³ Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar-ezgu maqsadimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil/1 iyul.

Individualizm. Bu g'oyaga ko'ra shaxs o'z manfaatlarini o'zgalar manfaatlaridan ustun qo'yadi. Individualizm jamoaviylikning jiddiy ko'rinishi bo'lib, u shaxsni jamiyatdan ayro yashashga, qo'ni-ko'shnichilik, mahalla-ko'ychilik va jamoaviylikka qarshi ruhda voyaga yetkazadi. Bu illatga muhtalo bo'lgan kishi o'z manfaatlarini o'zgalarnikidan ustun qo'yadi, faqat o'zi uchun yashash odatini o'zlashtiradi.

Egotsentrizm. Bu g'oya inson «men»ligini ustuvor qo'yishdan iboratdir. Unga ko'ra, inson har bir narsaga o'zining «men»lik nuqtai nazaridan qaraydi. Buning eng tashvishli jihati shundaki, unday odam o'zini doimo haq deb biladi, o'zgalarga nisbatan bepisand qarash, o'z xatti-harakatlarini mutlaqo to'g'ri deb bilish egotsentrizmning eng asosiy belgisidir.

Madomiki, ushbu madaniyat milliy qadriyatlarimiz ildiziga bolta urayotgan ekan, unga qarshi kurashishimiz zarurdir. Bu esa quyidagi chora-tadbirlarni ko'llashni taqozo etadi:

- Kontrabanda yo'li bilan yurtimizga kirib kelayotgan shahvoniy filmlar, turli pornografiyalar vositasida axloqiy buzuvchi targ'ib qiluvchi mahsulotlarni mamlakat ichkarisiga kiritmaslik. Pinhona ish yuritayotgan fohishaxonalarning faoliyatiga chek ko'yish tadbirlarini kuchaytirish.
- Qudratli davlatlarning qudratsiz davlatlar ustidan zo'ravonligini madh qiluvchi har qanday mahsulotlarni (kiyim kechaklar, videofilmlar va shunga o'xshash narsalar)ning kirib kelishiga, ayniqsa ularni yoshlarning ma'naviy iste'mol qilishlariga yo'l ko'yimaslik ishlarini uzluksiz tarzda tashkil etish.
- Inson o'zi uchun emas, o'zini o'zi ulug'lab emas, balki jamiyat manfaati, yurt tinchligi, uning ozodligi va obodligi, shu yurtda erkin va farovon hayot kechirish uchun yashashligini g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan ta'minlashni yo'lga qo'yish ishlarini izchil davom ettirish kabilar tashkil etadi.

XX asrning 80-yillar ikkinchi yarmida sobiq sho'rolar mamlakatida boshlangan istiqloлга intilish harakatlari sho'rolar davridagi mudroqlikka chek qo'ydi. Kommunistik senzura hamma vaqt yoqtirmay tanqid qilib kelgan "ommaviy madaniyat" ommaviy axborot vositasida hayotimizga faol kirib keldi hamda aholi o'rtasida yashindek yoyila bordi. Bunga katta yoshdagilarning ma'lum darajada qarshilik ko'rsatgani, qabul qilolmagani, an'anaviy madaniy qadriyatlar ular ongu-shuuriga ancha chuqur o'rnatilgan ko'zga tashlanib turdi. Lekin yoshlarning katta qismi, ayniqsa, talaba yoshlar sho'ro davri madaniy qadriyatlariga tanqidiy ko'z bilan qaradilar. Yangi zamon "ommaviy madaniyat" mahsulotlarining kutilgan xaridoriga aylandilar. Ular uchun bu mahsulotlarning o'zimizniki yoki xorijniki ekanligi unchalik ham ahamiyatli emas edi va hamon shu jarayon davom etmoqda. "Jahon to'ri" deb nom olgan internet tizimi orqali "ommaviy madaniyat" mahsulotlari hech qanday to'siqsiz mamlakatimizga kirib kelmoqda va ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng tarqalmoqda.

Ma'lumki, o'smirlar, yoshlar, talabalar yangilikka intiluvchan, tengqurlariga havasmand, modaparast, xorij standartlarini oson qabul qilishga ruju qo'ygan bo'ladi. Ulardagi ana shu ijtimoiy-psixologik holat kirib kelayotgan shubhali qadriyatlarga tanqidiy yondashuvni cheklab qo'yimoqda. Maqbul yoki nomaqbulligi haqida muayyan fikr-mulohazasi bo'lmagan yoshlar hayotimizga, milliy mintalitetimizga mos kelmaydigan mafkuraviy mahsulotlarni matbuot orqali qabul qilishga oshiqmoqda. "Ommaviy madaniyat" tashqi ko'rinishi, oson o'zlashtirilishi bilan ularni qiziqirtirmoqda. Turfa g'oya va ramzlar zamonaviy modalar ommaviy madaniyat mahsulotlari yoshlardan chuqur fikr-mulohaza yuritishni talab etmaydi, har xil hayot tashvishlaridan, turmush muammolaridan "xalos" etadi, jasadni va ruhni dam oldirish, ularni o'qishga, bilim olishga emas, balki o'ynab-quvna, "yashab olish"ga chaqiradi. Aslida "ommaviy madaniyat"ning, uni tarqatayotganlarning ham asl maqsadlari shundan iborat. Mamlakatimiz aholisining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etishini va "ommaviy madaniyat" mualliflari aynan ana shu auditoriyani nazarda tutayotganini e'tiborga olsak, vazifalarimiz mas'uliyati aniq ayon bo'ladi.

Yoshlarning badiiy ehtiyojlarini qondirish, ular o'rtasida "ommaviy madaniyat" mahsulotlarining tarqalmasligi uchun muayyan ishlar amalga oshirilayotir, albatta ularning

san'atga, adabiyotga va boshqa ma'naviy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganib borish hozir izchil olib borilmoqda.

“Ommaviy madaniyat”ning hayotimizga bostirib kelishida dastlab ommaviy axborot vositalari asosiy rolni o'ynadi. Bugunga kelib esa, reklama uning ajralmas yo'ldoshiga aylanib qoldi. Bozor qonuniyatlari “ommaviy madaniyat” mahsulotlarini keng tarqatishdan manfaatdor bo'lib maydonga chiqmoqda. Zamonaviy audio-videotexnikalar, ovoz yozish va kuchaytirgich asboblarning yuzlab turlari “ommaviy madaniyat” mahsulotlari reklamasi bilan kun ko'rmoqdalar. U sanoat asosiga ko'chirilgach, o'rtacha, bo'sh “ommaviy madaniyat” mahsulotlarini ko'paytirish va sotish bo'yicha qudratli tizim yaratildi. Istagan do'kondan dunyoning har qanday xonanda yoki sozandasi ijro etgan qo'shiq, klip audiovideotasmasini topish mumkin. San'atga, “ommaviy madaniyat”ga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'ladigan, yengil-yelpi ijod bilan elga tanilgan san'atkorlar armiyasi paydo bo'ldi. O'zlari shoir, o'zlari kompozitor bo'lgan, musiqiy maxsus bilimi bo'lmagan juda ko'plab guruhlar paydo bo'ldi va ular o'z mahsulotlarini istagancha reklama qilmoqdalar. Yoshlar esa ana shunday siyqasi chiqqan, lekin ma'lum ma'noda “o'z auditoriyasini topgan”, “san'atkor”lar armiyasi bilan yuzma-yuz turibdilar. Reklama – yaratuvchi kuch emas, balki u ommaviy psixologiyani aks ettiruvchidir.

Ba'zan kliplarda chiroyli qizlar va yigitlar nima deyotganligini o'zlari ham tushunishmaydi. Kuchli musiqa sadosi ostida nimalardir deyishadi, mashinalarga o'tirib qayerlargadir borishadi. “Ommaviy madaniyat” mahsuli bo'lgan bunday “asarlar” millat mentalitetini pasaytirishga xizmat qilayotgani sir emas. Reklama nima deydi? Birorta shirin ichimlikni iste'mol qilib cheksiz rohat va farog'at olish mumkin. Biror narsaga erishish uchun jon kuydirish, ter to'kib, mehnat qilish shart emas, ichimlikni sotib olish kerak va uni iste'mol qilish kerak. Yoki yozib olingan fonogrammaga mos qilib, labni qimirlatib turaverish kerak, tamom vassalom. Endi o'sib, jamiyatga kirib kelayotgan yoshlarga, o'smirlarga ham OAVlar shunday ta'lim bermoqdalar va u qay bir darajada o'z xaridorini topmoqda hamda ongiga ta'sir etmoqda. Demak, “ommaviy madaniyat”ning ana shunday siyqalanib, jo'nlashib borishi hammamizni ogohlikka chorlashi lozim.

“Ommaviy madaniyat” o'z g'irdobiga yoshlarni tartib olmasdan oldin, ularni milliy urf-odatlar, tarixiy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya ishlarni jadallashtirishimiz lozim.

Diniy fundamentalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi va boshqa yot mafkuralardan himoyalashning shart-sharoitlari va omillari.

Diniy fundamentalizm — biror ta'limot aqidalarining, ilohiy kitoblardagi tushunchalarning dastlabki, sof holatini saqlab qolishni astoydil himoya qiladigan, ularni majoziy ma'noda talqin etishni rad qiladigan ijtimoiy, mafkuraviy, diniy qarashlar majmuini anglatuvchi tushuncha. Fanda bu atama ilk bor Bekon, R.Dekart va J.Lokk singari faylasuflar asarlarida qo'llangan. Keyingi vaqtda jahon matbuotida mutaassib islom jangarilarini fundamentalistlar deb atash odat tusiga kirdi. Ammo diniy fundamentalizm hamma dinlarda mavjud bo'lib, ular yagona umumiy xususiyani o'zida mujassam etadi. So'nggi paytlarda ayrim mintaqalarda islom fundamentalizmining kuchayishi kuzatilmoqda. Bu atama Qur'on va hadisni ko'r-ko'rona talqin etadigan, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni keng targ'ib qiladigan, diniy-konservativ ruhdagi yo'nalishga nisbatan ishlatiladi. Islom fundamentalizmi turli-tuman yo'nalish va kayfiyatdagi guruhlarni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilar siyosiy jabhada, inqilobiy va hatto terroristik usullar bilan qonuniy hokimiyatga qarshi kurashda o'zini namoyon etsa, boshqalari targ'ibot-tashviqot ishlari, diniy ta'lim, turli jamoat tashkilotlari, maktab, universitet, OAVga kirib borish, ayniqsa, foydalanish oson bo'lgan audio-video kassetalarni tarqatish bilan shug'ullanadi. Islom fundamentalizmi uchun umumiy maqsad — go'yoki dinsiz yoki «sof islomdan chekingan» davlat rahbarlariga suiqasd qilish va islomda «shirk»ka (butparastlikka) barham berishdan iborat. Transport va kommunikatsiya vositalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan, xalqaro aloqalar tobora erkinlashayotgan hozirgi davrda islom fundamentalizmi vakillari o'z harakatlarini butun dunyo bo'ylab yoyishga intilmoqda. Keyingi vaqtda ro'y berayotgan terrorchilik harakatlari bu

hodisaning naqadar xavfli ekani va unga qarshi birlashgan holda kurashish lozimligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda islom xalifaligini tiklab, yangi musulmon imperiyasini tashkil qilish uchun mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlari bilan faol shug'ullanib, amaliy xatti-harakatlarni sodir etayotgan islomiy ko'rinishdagi «Vahhobiylik», «Tablig'chilar», «Islom uyg'onish partiyasi», «Islom lashkarlari», «Adolat», «Iroq va Shom islom davlati» kabi buzg'unchiliklar bilan shug'ullanuvchi oqimlar kiradi.

Ekstremizm (lot. yextremus — ashaddiy) — siyosatda ashaddiy qarash va choralarga moyillik. Ekstremizmni vujudga keltiradigan omillar ko'p va xilma-xil. Ular orasida bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish davrida yuz beradigan ijtimoiy tuzilmalarning buzilishi, aholi katta guruhlarining qashshoqlashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy tanglik kabi omillarni ko'rsatish mumkin. Bu omillar aholi turmush sharoitlarining yomonlashuviga olib keladi. Davlat hokimiyatining zaiflashuvi, davlat organlarining obro'sizlanishi, ijro intizomining pasayib ketishi, qadriyatlar tizimining yemirilishi, aksilijtimoiy kayfiyat va harakatlarning kuchayib borishi ham ekstremizmni vujudga keltiradigan sabablardan hisoblanadi. Ekstremizm aholining siyosiy va ijtimoiy kayfiyatidan mavjud ijtimoiy tuzilmalarni vayron qilish maqsadida foydalanadi. Ekstremistik tashkilotlar Konstitutsiya va boshqa qonuniy hujjatlarga zid tarzda faoliyat yuritadi. Shu ma'noda, ekstremizm — huquqiy nigilizmning bir ko'rinishi hisoblanadi. XX a.ning 80-90-yillarida siyosiy ekstremizmning namoyon bo'lish ko'lami kengaydi. Bu davrda odamlarni garovga olish, siyosiy qotilliklar, siyosiy partiyalar a'zolariga qurolli hujumlar uyushtirish, anarxistik, shovinistik va neofashist guruhlarining faollashuvi kuzatildi. Ekstremizm siyosiy, psixologik, maishiy va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Siyosiy ekstremizmning ashaddiy ko'rinishi — terrorizmdir. Ekstremistlar odamlarga qiyinchiliklarni tezda bartaraf qilish, tartibni kafolatlash, ijtimoiy ta'minotni yaxshilash singari va'dalar beradi. Siyosiy ekstremizm “so'l” va “o'ng” ko'rinishlarga ega. So'l ekstremistlar marksizm-leninizm, so'l radikalizm, anarxizm va shu kabi mafkuralar bayrog'i ostida harakat qiladi. So'l ekstremizmga misol tariqasida Italiyadagi “Qizil brigadalar”, Kampuchiyadagi polpotchilar, Rossiya Federatsiyasidagi ekstremizm Limonov boshchilik qilayotgan natsional-bolsheviklar singari oqimlarni keltirish mumkin. O'ng ekstremistlar aksilkommunizm, avtoritarizm, millatchilik va shovinizm ruhida harakat qiladi. O'ng ekstremistlar qator xalqaro tashkilotlar — Yevropa ishchi partiyasi, Yevropa o'ng kuchlari, Qora Internatsional, Fransiyadagi “Milliy front” kabilarga birlashgan. O'ng va so'l ekstremistlar olib borayotgan faoliyat vakillik demokratiyasi manfaatlariga ziddir. Shuning uchun ham G'arb siyosatshunosligida “Yagona ekstremizm”, “Ikki ekstremizm” va “Uch ekstremizm” konsepsiyalari mavjud. “Yagona ekstremizm” konsepsiyasi kommunistik va fashistik diktaturalarning mavjudligidan kelib chiqadi. «Uch ekstremizm» konsepsiyasiga ko'ra, fashizm — sentristlar ekstremizmi, kommunizm — so'llar ekstremizmi, gollizm esa — o'nglar ekstremizmidir. Portugaliyadagi Salazar rejimi o'nglar rejimi hisoblanadi. Diniy asoslarda vujudga kelgan ekstremistik guruh va oqimlar G'arbda ham, Sharqda ham mavjud. O'rta Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekistonda “Hizb ut-tahrir”, «Akromiylar», «Nurchilar» singari diniy-ekstremistik oqimlar vakillari qonunga zid holda faoliyat olib borishga urinmoqda.

Terorizm (lot. terror — qo'rquv, dahshat) — yuksak ma'naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo'lida kuch ishlatib, odamlarni garovga olish, o'ldirish, ijtimoiy obyektlarni portlatish, xalqni qo'rquv va vahimaga solishga asoslangan zo'ravonlik usulini anglatuvchi tushunchadir. Qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorizmga xosdir. U siyosiy, iqtisodiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy va individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ta'qib, zo'ravonlik, qo'poruvchilik va qotillik terrorizmning har qanday ko'rinishi uchun umumiy xususiyat bo'lib, bularning barchasi insonparvarlik g'oyalari, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. Shuning uchun terrorizm qanday niqob ostida amalga oshirilmasin, mohiyatan, insoniyatga, taraqqiyotga, ezgulikka qarshi jinoyatdir. Terrorizmga hozirgi kunda aniq, hamma uchun tushunarli va mukammal ta'rif berish oson emas. Chunki u o'ta murakkab fenomendir. Bundan tashqari, terrorchi kuchlarga bo'lgan turlicha munosabat unga aniq ta'rif berishni ham qiyinlashtirmoqda. Terror usullaridan konservativ, inqilobiy, diniy, millatchi

ruhdagi kuchlar ham foydalanishi mumkin, lekin ularning asosiy mohiyati va maqsad-muddolari siyosiy tusga egadir. Terorizmning umumiy jihatlari va asosiy ko'rinishlarini o'rganishda, avvalambor, uning ta'rifini, nisbiy bo'lsa ham, aniqlashtirib olish kerak. Terorizm muayyan guruhning ruxsat etilmagan holatda ongli ravishda kuch ishlatishidir. Bunda terrorchilar aniq maqsadni ko'zlaydi va o'zini to'la haq deb biladi. Bundan shu narsa aniq bo'ladi, terrorchilardagi mavjud kuch maqsadni amalga oshirishda ijtimoiy -siyosiy muhit bilan bevosita aloqadorlikda bo'ladi. Sh.u. biron-bir sababga asoslangan yovuz maqsad terorizmga olib boradi. Terorizm ko'p holatlarda keng miqyosdagi harbiy kuchlar bilan aloqador bo'ladi va bunday misollar tarixda bir necha bor kuzatilgan. Bundan tashqari, u ba'zi davlatlarning o'zi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ikki xil shaklda kuch ishlatiladi: jazo berish organlari yoki harbiy kuchlar tomonidan. Bunda terror siyosiy maqsadlarni amalga oshirish yoki aniq bir rejimni joriy qilish uchun amalga oshiriladi. «Terorizm» tushunchasi hamisha terroristik harakatning tez sur'atda amalga oshirilishini bildiradi. Bunday hodisa siyosiy, etnik, diniy va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. G'oyaviy terorizm siyosiy yetakchilar tomonidan yaratiladi. Bunga rasmiy tor doiradagi istisno qilingan ichki sabablar ko'rsatiladi. Etnik terorizm subyekti g'oyaviy bo'lmasdan, jamiyatning milliy va etnik jihatlari bilan uzviy bog'liqdir. Diniy terorizm muayyan bir diniy sekta yoki guruh ta'limotining jamiyatda mutlaqlashtirilishi oqibatida paydo bo'ladi. Bunda ushbu g'oya tarafdorlari boshqalar fikri va g'oyalarini keskin tanqid ostiga olib, rad etadi va g'oyaviy-mafkuraviy parokandalikni keltirib chiqaradi. Diniy terorizmning xatarli jihati u qo'llaydigan amaliy choralarda ko'rinadi. Chunki diniy terorizm tarafdorlari aksariyat hollarda qo'lida qurol va ba'zan harbiy guruhlariga tayanib harakat qiladi. Bugungi kunda yadroviy, biologik, bakteriologik qurollarning terrorchilar qo'lga tushib qolishi ehtimoli eng katta xavfdir. Hozirgi tahlikali zamonda kishilar boshiga mislsiz kulfat solayotgan va ularning hayoti, farzandlari, mol-mulkiga tahdid qilayotgan jinoiy terorizm kundan-kunga kuchayib bormoqda va jahon hamjamiyatida jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Iqt-y manfaatlarni ko'zlaydigan va moddiy boyliklarni o'zlashtirishni maqsad qilib olgan bu terorizm korrupsiya kabi katta jinoiy tizim bilan uzviy bog'lanib ketgan. Unda raqiblari yoki ularning yaqinlarini o'ldirish, o'g'irlab ketish, zo'ravonlik, tajovuz bilan qo'rqitib, o'z hukmini o'tkazishga urinish, mol-mulkini o'zlashtirib olish yo'llaridan foydalaniladi. Buning yana bir tomoni — ba'zan bu terror siyosiy, etnik, ba'zan esa diniy xarakter kasb etmoqda. Mana shunday vaziyatda terrorchilarning maqsadi hokimiyatni egallashga ham qaratilib, piramidasimon xarakterga ega bo'lib bormoqda. Individual terorizmning subyekti, boshqa terorizm harakatlaridan farqli o'laroq, jamoa emas, yagona shaxsdir. Individual terror ham o'ta xavfli kuch hisoblanadi, negaki u jamiyatning boshqa a'zolariga ta'sir qilishi va buning oqibatida terrorning ommaviy turlarini keltirib chiqarishi mumkin. U o'z g'oyalarini singdirish orqali boshqalarni ham jamiyatga qarshi qo'yishi mumkin. Keyingi yillarda hatto ommaviy axborot sohasida ham terorizm elementlaridan foydalanilmoqda. Muayyan mafkuraviy poligonlar tarqatayotgan axborotlardagi yovuz va zararli g'oyalar oqimi, teleekranlar orqali uzluksiz namoyish etilayotgan jangari filmlar, bolalarga mo'ljallangan, buzg'unchi g'oyalar asosida yaratilgan o'yinlar, kompyuter tarmoqlari dasturlarini ishdan chiqaradigan viruslar tarqatish shular jumlasidandir. O'zining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo'lga kiritishni ko'zlaydigan kuchlarning zo'ravonligi va qo'poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo'ladi. Siyosiy terorizm nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba'zi tajovuzkor ruhdagi rasmiy reaktion siyosiy doiralar va kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo'llanishi ham mumkin. Chorizm imperiyasining kolonial va shovinistik siyosati, sovet imperiyasining g'oyaviy qatag'onlari xalqimizga qarshi o'ziga xos terror edi. Bugungi kunda ham mustaqil riv-sh yo'lidan borayotgan mam-timizga nisbatan g'araz niyat bilan qarovchi yovuz kuchlar terorizm yo'li bilan taraqqiyot yo'limizdan chalg'itishga, bizni yana qaramlik va asoratga solishga urinmoqda. Ular vatanfurush xoinlardan ham, terorizmni kasb qilib olgan, buyurtma bo'yicha qo'poruvchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanadigan yollanma xalqaro terrorchi, jinoyatchi guruhlardan ham foydalanmoqda. Bugun jahon hamjamiyati bu balo-qazolarning yechimini topish ustida bosh qotirmoqda. Islom Karimov bu borada shunday degan edi: “Men madaniyat va ma'rifat dunyoni jaholat va vahshiylikdan, diniy va milliy ekstremizmdan, etnik qarama-qarshilik, mintaqaviy mojaro va urushlardan saqlay

olishiga ishonaman". Terorizmga qarshi kurash hozirgi davrda muhim vazifa, tinchlik va barqarorlikni saqlash omiliga aylandi.

Bugungi kunda odam savdosi inson, uning sha'ni, qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan, insoniyat sivilizatsiyasiga ochiqdan-ochiq to'siq bo'layotgan, jamiyat taraqqiyoti va davlat rivojiga jiddiy xavf tug'dirayotgan, o'z domiga asosan ayollar va yoshlarni tortayotgan, hudud va chegara tanlamayotgan transmilliy uyushgan jinoyatchilikning xavfli ko'rinishlaridan biriga aylandi.

Afsus bilan ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ayrim shaxslar jinoyat sodir etish yo'liga kirib, fuqarolarimizni turli aldov va firibgarlik yo'li bilan tuzog'iga ilintirib, ulardan o'zlarining g'ayriqonuniy manfaatlari yo'lida foydalanib, ko'pgina oilalarning boshiga so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan kulfatlar keltirib odam savdosi bilan shug'ullanmoqdalar. Buning oqibatida ko'pgina fuqarolarimiz odam savdosi jinoyatining qurboniga aylanmoqda. Eng xavfli shundaki, odam savdosi o'zining girdobiga asosan yoshlarni va ayollarni tortayotganligi bilan barchada katta tashvish va xavotir uyg'otmoqda.

Mamlakatimizda odam savdosi, shaxsning erki va huquqlarini poymol etish, zo'ravonlik, fohishabozlik qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilgan bo'lsada, keyingi paytlarda sodda fuqarolarni chet elga ishga olib borish niqobi ostida ularni chuv tushurayotgan firibgarlar uchrab turibdi. Ular turli yo'llar bilan fuqarolarni yollash, xorijiy davlatlarga olib borib, ulardan shahvoniy va boshqa maqsadlarda foydalanishni tashkil qilmoqdalar.

Ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda chet elga borishni xohlovchilarning asosiy qismi noqonuniy yo'llar bilan davlatimiz hududidan chiqib ketishni o'zlariga afzal ko'rishmoqda. Natijada turli qiyinchilik va muammolarga duch kelish birga odam savdosining qurboniga aylanishmoqda. Achinarli tomoni shundaki, umrida mahallasidan tashqariga chiqmagan odamlar kimlarningdir aldovi, yolg'oniga uchib, bor budini sotib, katta pul bilan chet elga ketib, sog'lig'i yuqolishiga, surunkali kasalliklarga chalinish yoki bir umrga nogiron bo'lishiga sabab bo'ladigan tazyiq, zo'ravonlik va qiyinchiliklarga duchor bo'lishmoqda. Ma'lumki, buning asosiy sabablaridan biri, u yerdagi mahalliy tilni va qonunlarni bilmaslik, eng muhimi, noqonuniy ravishda kelganligi va huquqiy himoyasiz bo'lganligi uchun qul sifatida ularga munosabatda bo'lishmoqda va qul sifatida ishlatishmoqda. Bir so'z bilan aytganda, ayrim yurtdoshlarimiz soddaliklari tufayli odam savdogarlarining «qopqoni»ga tushib qolganliklarini juda kech anglab yetmoqdalar.

Shuni ta'kidlash joizki, odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar transmilliy, ya'ni hudud va chegara tanlamayotgan jinoyatlarning eng xavflisiga aylanmoqda. Buning oqibatida, odam savdosi jinoyatlari jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Mamlakatimizning asosiy qonuni – Konstitutsiyaning 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizligi davlat tomonidan ta'minlanadi. Zero, davlatning bosh vazifalaridan biri inson haqida g'amxo'rlik qilishdir.

Odam savdosidan jabrlanuvchilarni ekspluatatsiya qilishning asosiy ko'rinishlari quyidagilar:

- shahvoniy xizmatlar
- ishlab chiqarish fabrika va korxonalarida mehnat
- qishloq xo'jaligida mehnat
- uy-ro'zg'or ishlari mehnati
- majburiy donorlik
- majburiy tilamchilik
- majburiy nikoh
- reproduktiv vazifalar ekspluatatsiyasi (sun'iy onalik, majburiy bola tug'ish va boshqalar).

Bu borada 2008 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasi Parlamenti tomonidan "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida" Qonunning qabul qilinishi, 2008 yil 8 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Odam savdosiga qarshi kurash samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PK-911-sonli qarorning imzolanishi O'zbekistonda bunday transmilliy jinoyatga qarshi kurash borasida huquqni muhofaza qilish organlariga, xususan ichki ishlar idoralari zimmasiga juda katta mas'uliyat yukladi.

Yuqoridagi fikrdan, kelib chiqqan holda xavfsizligimizga tahdid solayotgan transmilliy jinoyatlar terrorizm, odam savdosi va boshqa jinoyatlarga qarshi murosasiz kurashishimiz, doimo ogoh va hushyor bo'lishimiz lozim. Ana shundagina odam savdosi jinoyati yurtimiz bo'ylab quloq yoza olmaydi va xalqimiz bundan jabr ko'rmaydi.

Yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda OAV.

Globalashuv, axborot sohasi liberallashtayotgan bir paytda, uzoq-yaqin mamlakatlardagi turli hil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar (120 ga yaqin davlat axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib bormoqda)o'zlarining g'arazli manfaatlari yo'lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan, ayniqsa, Internet tarmog'idan foydalanib, axborot erkinligini suiste'mol qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidlarini kursatish orqali, hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg'itish, yoshlarning ongi va qalbini egallash yo'lidagi intilishlari kuchaytirayotgani hech kimga sir emasdir.

Shunday ekan, nosog'lom axborot oqimi va ta'siridan yoshlarni himoyalash uchun qanday huquqiy mexanizmlar mavjud, degan o'rinli savol to'g'iladi?

Milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud bo'lib, xususan, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risidagi Qonunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday hatti-harakatlar man etilishi", Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonunda "Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda fil'mlarni namoyish etish taqiqlanishi" belgilab berilgan bo'lsada, bugungi axborot makonidagi tendensiyalar, axborot ekspansiyasi, agressiv axborotlarning kuchayishi milliy qonunchiligimizni va ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarimizni yanada kuchaytirishni taqozo etadi desak mubolag'a bo'lmas.

Zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalari bizni global axborot makoni bilan bog'lab, axborotni olish va tarqatish geografiasini kengaytirib, dunyo mamlakatlari va xalqlarini yaqinlashtirdi. Bu ijobiy holat, albatta. Biroq, axborot makonida taxdidlar bor ekan, milliy axborot makonimizga chegara quyib bo'lmasligini nazarda tutib, kelajagimiz vorislarini uylab, vayronkorlik va buzg'unchilik mazmunidagi axborot oqimini cheklashimiz, yosh avlodning ma'naviy olamining daxlsizligini asrashimiz kunning dolzarb vazifalaridan biri desak, mubolag'a bo'lmas.

Inson o'zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun nima qilishi zarur? Buning uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, har bir inson hech bo'lmaganda "Bu axborotni kim uzatayapti?", "Nima uchun uzatayapti?" va "Qanday maqsadda uzatayapti?" degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak bo'ladi. Ana shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste'moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarga nisbatan o'ziga xos qalqon rolini o'taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Axborot iste'moli ijtimoiy, aniqrog'i, ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisadir. Axborot iste'molining xizmatlar iste'molining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday xizmatni iste'mol qilishdan avval uning sifati, narxi, foydasi, qulayligi va boshqa shu kabi xususiyatlariga e'tibor beriladi. Bu jarayonda, iste'mol qilinayotgan xizmatning talab-taklif xususiyatlari ham inobatga olinadi. Masalan, taklifi kamayib ktegan xizmatlarning iste'mol darajasi yuqori bo'lib, ularga talab kuchayadi. Mazkur xususiyatlar axborot iste'moli jarayoniga ham xosdir.

Biroq ma'anviy ne'mat bo'lgan axborotni iste'mol qilish o'ziga xos tomonlari bilan ham ajralib turishini ta'kidlash joiz. Xususan, axborot konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonidan iste'mol qilinadi-ki, mazkur darajalarda iste'mol jarayonlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, biron shaxs uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumot, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga ham ega. Chunonchi, g'arbda o'ta ommabop bo'lgan axborotlar. Sharq xalqlari tomonidan kam iste'mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir tarixiy davrda katta qiziqish bilan kutib olingan ma'lumotlar, vaqt o'tishi bilan odatiy holga aylanishi va ijtimoiy hayotda bu tarzda in'ikos etmasligi mumkin.

Axborot iste'moli, kim tomonidan iste'mol qilinishidan qat'i nazar, qabul qilish, tushunish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bosqichlarda amalga oshadi.

Bugungi kunda, axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni taqozo etmoqda-ki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

Axborot iste'moli madaniyati globallashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan, Internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi dunyoda axborot muhim ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy omil hisoblanadi. Dunyo bo'yicha xabar tarqatuvchi ommaviy axborot vositalariga ega bo'lgan davlatlar yer yuzida kechayotgan siyosiy voqealarni o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda talqin qiladi va boshqalarga yetkazadi. Tarqatilayotgan xabarlar asl haqiqatdan yiroq bo'lganligi tufayli ko'pgina mamlakatlar va xalqlar tajovuzkor davlatlarning ta'siriga tushib qolmoqda. Bu esa adolatsiz urushlarning davom etishiga olib kelmoqda. Ana shu holatni nazarda tutgan holda axborot va ommaviy axborot vositalari omilini tahlil etishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, huquqiy fuqarolik jamiyatida eng muhim demokratik institutlardan biri – ommaviy axborot vositalari sanaladi. Rivojlangan demokratik tizimda "To'rtinchi hokimiyat" deb e'tirof etilgan ommaviy axborot vositalari ikki muhim vazifani ado etadi:

- birinchidan, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy islohotlarni targ'ib va tahlil etadi;

- ikkinchidan, jamiyatdagi turli qatlam fikrini ifodalash barobarida ijtimoiy fikrni shakllantiradi va yo'naltiradi. Demak, mamlakatdagi ijobiy o'zgarishlar, iqtisodiy yuksalishlar Ommaviy axborot vositalarining mavqei va darajasini belgilaydi. O'z o'rnida axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyatini ta'minlamay turib demokratik o'zgarishlarga erishib bo'lmaydi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq 9-sessiyasida jamiyatimiz oldidagi muhim strategik vazifalar, davlat siyosatining ustuvor yo'nalish hamda tamoyillarini ko'rsatib, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdagi muhim ustuvor yo'nalish sifatida so'z va matbuot erkinligini ta'minlash ekanini shunday tahlil etadi: "Jamiyatimizni yanada rivojlantirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi to'rtinchi va o'ylaymanki, eng muhim ustuvor yo'nalish – bu inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilishdir, desak har tomonlama to'g'ri bo'ladi".⁵⁴

Ommaviy axborot hukumat va xalq o'rtasida vositachi sifatida siyosiy partiyalar, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan ijtimoiy muvozanatni saqlaydi. Ommaviy axborot vositalari davlatning siyosatini, muayyan masalalar bo'yicha, nuqtai nazarini, shu yo'ldagi Farmon, qaror va qonunlarni xalqqa yetkazadi. O'z navbatida xalq davlatning ichki va tashqi siyosatidan boxabar bo'ladi, uni tahlil etib, o'ziga yarasha xulosa chiqarishga intiladi, noqonuniy hatti-harakatlarning oldini olishga harakat qiladi. Demak, ommaviy axborot vositalarining mavjudligi bois jamiyatda xalq hokimiyati va inson huquqlari ta'minlanadi.

Shu tariqa, *axborot xavfsizligini ta'minlash — bu, g'animlarimiz tomonidan mamlakatimizga nisbatan qilinayotgan axborot xurujlarining oldini olish xamda ularga nisbatan milliy axborot vositalarimiz orqali qarshi qaqqshatqich zarba berish demakdir.*

⁵⁴ Каримов И. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг иккинчи чақирик тўққизинчи сессиясидаги маърузасидан.

Zero, axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi mamlakat mustaqilligi va davlat suverenitetini mustahkamlash vositasi ekan, uning ahamiyatini birinchi navbatda yoshlar orasida tushuntirish, amaliyotda qo'llash sirlarini o'rgatish borasida mutassadilar quyidagi ishlarni bajarmoqlari shart. Bular quyidagilar:

- internet tarmog'idan maktabda va uyda foydalanish qoidalari ro'yhatini tuzish va unga rioya qilishni talab etish;
- internet tarmog'iga ulanadigan kompyuterning umumiy xonada bo'lishini ta'minlash;
- yoshlar bilan ularning internetdagi do'stlari haqida suhbat qilish, ular kim ekanligi haqida doimiy ma'lumotga ega bo'lish;
- kerak bo'lmagan kontentga blok qo'ying;
- yoshlarni elektron pochta shaxsiy, ya'ni xususiy ma'lumotlarni kiritmaslikka, noma'lum xatlarga javob yozmaslikka o'rgatish;
- internetdan kelishi mumkin bo'lgan dag'dag'a yoki ko'rqitish haqida ma'lumot berib borishga o'rgatish;
- foydalanadigan saytlar haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- tarmoqlarda bezorilik qilmaslik yoki boshqa insonlarni qo'rqitish uchun ishlatmaslik lozim ekanligini tushuntirib borish kabilardan iborat.

Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

1. Axborot xavfsizligiga taalluqli pedagogik shartlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, ya'ni kompyuter xonalarida xavfsizlik hududini tashkil etish; kompyuter xonalarining ishlash tartibini tasdiqlash; Internet bilan ishlashda o'quvchilarga axborot xavfsizligi va uni amalga oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatish.
2. Fuqarolarga axborot xavfsizligi hamda tahdidlar haqida tushuntirish ishlarini olib borish va uni bartaraf etishni ta'minlash uchun ta'lim-tarbiya jarayonini axborot madaniyati, etika, insonparvarlik g'oyalariga yo'naltirish.
3. Internet axborot resurslaridan olinayotgan ta'limga taalluqli ma'lumotlarni filtrlar orqali olish, Internetga qo'shilgan kompyuterlarda filtr dasturlari o'rnatilgan bo'lishi shart. Ana shu ishlar bajarilsa, mamlakatimizda axborot xavfsizligi ta'minlanadi.

Xulosa kilib aytganda, I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Xavfsiz dunyo—umuman, butun insoniyat uchun ham, huquqlari uchun kurashda oz-muncha nayzasi sinmagan har bir inson uchun ham oliy maqsaddir "

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. — T.: «O'zbekiston»,2008
2. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar-ezgu maqsadimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil/1 iyul.
3. Abdumalikov A. Fuqarolik jamiyatida shaxe informatsion madaniyatini shakllantirish: monografiya. -T.: Fan, 2016. -B.60.
4. Nazarov Q. Falsafa asoslari. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. - B.676-677.
5. S.G'ulomov, S.SHermammedov, B. Begalov. Axborotlashgan jamiyatning mujassamlanishi. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi", 1999., yanvar-fevral. -B.7.
6. Otamurodov S. Globallashuv va milliy – ma'naviy xavfsizlik. T.,"O'zbekiston", 2015, 266 bet
7. UmarovaN. Globallashuv sharoitida axborot hurujlariga qarshi kurash. - T.: Akademiya, 2005, 25-26 b.
8. QahharovaI. Globallashuv global ma'naviyatning g'oyaviy asosi.T.: Tafakkur, 2009, 26 b.
9. Falsafa: ensiklopedik lug'at. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. B.32.

10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.4. T-SH. -T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -B.41.
11. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug‘at. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. -B.546-547.
12. Buyanov B.C. Sushnost globalizatsii // Globalizatsiya Uchebnik -M.: Izd-vo RAGS, 2008. -S.17-18.
13. Kastels M. Informatsionnaya epoxa: Ekonomika, obshestva, kultura. -M.: Izd-vo «VSHE», 2000. -S.502.
14. Kalmikov A.A., Koxanova L.A. Internet-jurnalistika. M.: YUNITI–DANA, 2005, c. 122-125
15. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g‘oyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005, 3-30-betlar.
16. Milliy g‘oya va rahbar mas’uliyati / Q.Nazarov, I.Ergashev va boshqalar. T., “G‘afur G‘ulom” NMIU, 2007.
17. Nazarov Q. G‘oyalar falsafasi .- T.: Akademiya, 2011.
18. Yaxshilikov J. Y., Muhammadiyev N. E. Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi, “Fan”, 2017

Mustaqil ta’lim mavzusi

- Globalashuv va mafkuraviy jarayonlar
- Axborot tizimlarida ichki va tashqi tahdidlar.
- Axborot makonidagi o‘zgarishlar, axborot sohasini isloh qilish.

Glossariy

Axborot - arabcha xabar so‘zidan olingan bo‘lib, ish, voqea-hodisalar haqida tushuncha beruvchi xabar, ma’lumot degan ma’nomlarni anglatadi

Globalashuv - fransuzcha global - umumiy va lotincha globus - shar so‘zlaridan olingan bo‘lib, birinchidan, Yer yuziga oid, butun Yer sharini qamrab oluvchi; ikkinchidan esa umumbashariy, keng miqyosdagi; jahonshumul, jahon ahamiyatiga molik, degan ma’nomlarni anglatadi.

Diniy fundamentalizm — biror ta’limot aqidalarining, ilohiy kitoblardagi tushunchalarning dastlabki, sof holatini saqlab qolishni astoydil himoya qiladigan, ularni majoziy ma’nodan talqin etishni rad qiladigan ijtimoiy, mafkuraviy, diniy qarashlar majmuini anglatuvchi tushuncha.

Kommunikatsiya - lotincha communication, communicare - «umumiy qilmoq, bog‘lamoq fikr almashuv, aloka degan ma’nomlarni anglatadi

Texnologiya - yunoncha techne - mahorat, san’at + logos - ta’limot, ya’ni «biron-bir narsani yaratishda ko‘llaniladigan mahorat haqidagi ta’limot», degan ma’noni anglatadi.

Tendensiya - nemischa Tendens; lotincha tendere - yo‘nalmoq, intilmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, taraqqiyot yo‘nalishiidir.

Tahdid - arabcha "do‘q qilish, qo‘rqitish", degan so‘zdan olingan bo‘lib, kundalik hayotda "birovni qo‘rqitish, unga do‘q, po‘pisa qilish hamda biror falokatning, qo‘rqinchli voqeaning sodir bo‘lish xavfi", degan ma’nomlarni anglatish uchun ishlatiladi. Falsafiy ma’nodan Inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo‘naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan havf-xatar shakli, muayyan barqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni ifodalovchi tushunchadir

Terorizm (lot. terror — qo‘rquv, dahshat) — yuksak ma’naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo‘lida kuch ishlatib, odamlarni garovga olish, o‘ldirish, ijtimoiy obyektlarni portlatish, xalqni qo‘rquv va vahimaga solishga asoslangan zo‘ravonlik usulini anglatuvchi tushunchadir.

Ekstremizm (lot. yextremus — ashaddiy) — siyosatda ashaddiy qarash va choralarga moyillik. Ekstremizmni vujudga keltiradigan omillar ko‘p va xilma-xil. Ular orasida bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tish davrida yuz beradigan ijtimoiy tuzilmalarning buzilishi, aholi katta guruhlarining qashshoqlashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy tanglik kabi omillarni ko‘rsatish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Globallashuv mazmun-mohiyati.
2. Axborot makoni, axborotlashgan jamiyat tushunchalarining mazmun-mohiyati.
3. Axborot va ommaviy axborot vositalarining inson va jamiyat hayotidagi ta'siri.
4. Globallashuv davrida yoshlarni ma'naviy tahdidlar
5. Axborot xurujlari, "ommaviy madaniyat"
6. Diniy fundamentalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi va boshka yot mafkuralardan himoyalashning shart-sharoitlari va omillari.
7. Yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda OAV.

Test savollari:

1. "Axborot urushi" tushunchasining asoschisi kim?
A. Tomos Ron.
B. Reyter
C. Frans Press
D. M. Techcher
2. Qaysi davlat radiostansiyaning o'zbek tilidagi bo'limi bor?
A. AQSH.
B. Fransiya.
C. Germaniya.
D. Angliya.
3. Halqaro miqyosida eng ko'p ma'lumot tarqatadigan OAV lari qaysi?
A. ITAR – TASS, CNN, BBC
B. Frans Press, CNN
C. Yevronyus, Reyter, Amerika ovozi,
D. AVS, CNN, BBC
4. Televideniyaning ta'sirchanligi hususiyatlari?
A. Tasvir, ovoz, mantiqiy va obrazli fikrlash.
B. Mantiqiy va obrazli fikrlash.
C. Jonli ovoz, tasvir.
D. Reklama, ovoz, tasvir.
5. Internet dastlab kimlar uchun kashf qilindi?
A. Kutubxonalar uchun.
B. Harbiylar uchun.
C. Jurnalistlar uchun.
D. Fiziklar uchun.
6. Qanday insonlar axborot xurujiga tobe bo'lmaydi?
A. Milliy g'ururi bor insonlar
B. O'z fikriga ega insonlar
C. Ertangi kunini o'ylaydigan insonlar
D. Axborot iste'moli madaniyati shakllangan insonlar
7. Tezligi, aniqligi yoki ishonarliligi, ma'lum maqsadga qaratilganligi, o'z ta'sir doirasiga egaligi, ma'naviy, siyosiy, huquqiy va iqtisodiy asosga ega kabi xususiyatlarni ifadolovchi atama bu - ...
A. Axborotning asosiy xususiyatlari
B. Axborotning asosiy maqsadi
C. Axborotning asosiy vazifasi
D. AVS javoblar to'g'ri.
8. Axborot tahdidlarning eng havflisi bu...
A. Davlat siyosatiga to'sqinlik qilayotgani
B. Shaxs ongini buzayotganligi
C. Jamiyat ongini buzayotganligi

D. Ommani o'ziga ergashtirayotganli

8-MAVZU. MILLIY G‘OYAGA DAXLDORLIK HISSI - BARQAROR TARAQQIYOT OMILI

Reja:

1. Milliy g‘oyaga Daxldorlik hissi tushunchasi, mazmun-mohiyati
2. Milliy g‘oyaga Daxldorlik hissi barqaror taraqqiyotning muhim omili sifatida.
3. Yuksak ma‘naviyat va Milliy g‘oyaga Daxldorlik hissi - mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojlanishining muhim sharti
4. Yoshlarni vatanparvarlik va milliy g‘oyaga Daxldorlik hissi ruhida tarbiyalashda ma‘naviyatning o‘rni. Ma‘naviy tahdidlarning oldini olish.
5. Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlarini ta‘minlashda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik g‘oyasining ahamiyati.

Tayanch so‘zlar.

Daxldorlik hissi - ijtimoiy birlik, tinchlik, barqarorlik, vatanparvarlikning muhim omili. Milliy g‘oyaga daxldorlik hissini shakllantirishda oila, mahalla, ta‘lim muassasalari, jamoat tashkilotlarining o‘rni. Ma‘naviyat, yuksak ma‘naviyat, ma‘naviy tiklanish va yuksalish, ma‘naviyatni shakllantiruvchi mezonlar, globallashuv, ma‘naviy tahdidlar, fuqarolik jamiyatini rivojlanishida inson omili, fuqarolik jamiyati negizlari, milliy ma‘naviy meros va qadriyatlar, demokratik umuminsoniy prinsiplar. Milliy g‘oyaga ishonch va e‘tiqodni shakllantirishda nazariya va amaliyot birligi. Milliy g‘oyaning birlashtiruvchi, totuvlik va hamjihatlikni ta‘minlovchi omil sifatida har bir fuqaro g‘oyasiga aylanishi. Milliy g‘oya barqaror taraqqiyot omili. Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Barqaror taraqqiyotning bashariyatga dahldorligi.

Milliy g‘oyaga Daxldorlik hissi tushunchasi, mazmun-mohiyati

Har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma‘naviy qarashlari o‘z-o‘zidan, bo‘sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo‘ladi. Mustaqillik tufayli jamiyatimiz ma‘naviy negizlariga alohida e‘tibor qaratildi. Sobiq sovet davlatining ma‘naviyatga nisbatan pisandsizlik bilan qarash siyosatiga barham berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning —Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch asari ma‘naviyat va fuqarolik jamiyatini o‘zaro bog‘liqligini tushunishda muhim ahamiyatga ega. —O‘tgan davr mobaynida eski tuzumdan og‘ir meros bo‘lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko‘hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo‘lida xalqimizning ma‘naviy yuksalishini o‘z oldimizga qo‘ygan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelganini va bugun ham e‘tiborimiz markazida turganini ta‘kidlash lozim⁵⁵.

—Ma‘naviyat tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta‘riflari mavjud. O‘zidajuda chuqur va keng qamrovli ma‘no-mazmunni mujassam etganbu tushunchaga har qaysi ma‘rifatli inson o‘zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e‘tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan xoldaturlicha ta‘rif va tavsiflar berishi tabiiy. Shuning uchun ham bu masala bo‘yichailmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotlarda bir-biridan farq qiladigan fikrmulohazalarni uchratganda bundan taajjublanmasdan, ularni har qaysi muallifning o‘ziga xos dunyoqarashi, mushohada tarzi ifodasi sifatida qabul qilish o‘rinlidir. Prezidentimiz I.Karimov o‘zining —Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch nomli asarida ma‘naviyatga quyidagichata‘rif beradi: —Ma‘naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir⁵⁶. Daxldorlik hissi esa

⁵⁵ I.Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: —Ma‘naviyatl, 2008, - 6-7 b.

⁵⁶ I.Karimov. Yuksak ma‘naviyat 19 b.

fuqarolarning tug‘ilgan joyi, ona Vatani, mustaqillikni anglash, uni asrab-avaylash, himoya qilish, uni yanada rivojlantirishga chorlaydigan, shart-sharoit, omillar majmuidir.

Men, o‘zbekistonlik, O‘zbekiston fuqarosi deb bilgan har bir kishi shu tuyg‘u bilan yashashi, intilishi, faoliyatda bo‘lishi zarur.

Daxldorlik hissi:

- 1) Insonga atrofdagi odamlarga nisbatan Daxldorlik;
- 2) Oilaga Daxldorlik;
- 3) Maxallaga Daxldorlik;
- 4) Millatga Daxldorlik;
- 5) Mamlakatga, Vatanga Daxldorlikni his etish bilan bog‘liq holatlardir.

Insonning ma‘naviy olamining yuksalishiva Daxldorlik xissi fuqarolik jamiyati qurish vazifalarini amalga oshirish bilan uzviy bog‘liq. Fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtiroki ularning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, imon-e‘tiqodini butun qilishda yorqin namoyon bo‘ladi. Insonning jamiyat hayotiga munosabati, qonunlarni hurmat qilishi, adolat tamoyillariga amal qilishi, insonni qadrlashi, ularning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb bilishi, halol va pok yashashi ularning yuksak ma‘naviy dunyosi va Daxldorlik hissining amaliy ifodasi ekanligini hisobga olish lozim. Fuqarolik jamiyati qurilishi shu ma‘noda insonning yuksak ma‘naviy hamda Daxldorlik hissi fazilatlarini bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rish mumkin. Fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makondir. U fuqarolarning davlat va jamiyat munosabatlarida aniq namoyon bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati – fuqarolarnintegishli fuqarolik jamiyati institutlari orqali davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta‘minlangan jamiyatdir. U tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi va amalga oshiriladi. Fuqarolik jamiyati shu ma‘noda demokratik jamiyat qurishning muhim shartidir. Jamiyatning ma‘naviyati va Daxldorlik hissiquancha yuksalib borsa, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish imkoniyatlari shuncha oshib boradi. —Yuksak ma‘naviyat tushunchasi jamiyatning ma‘naviy taraqqiyot darajasini belgilaydigan o‘ziga xos mezon hisoblanadi. U jamiyatdagi har bir insonning ruhiy olami, ichki dunyosi, imon-e‘tiqodi va qarashlarining mezon sifatida jamiyat hayotining o‘ziga xos fazilatlarini namoyon etadi. Yuksak ma‘naviyat jamiyatning milliy ma‘naviy merosi va qadriyatlari hamda ilm-fan rivoji, demokratik jamiyat qurish tajribasi, yutuqlari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyati qurilishi ma‘naviyatni anglash va Daxldorlik hissi, uni shakllantiruvchi mezonlar bilan bog‘liq. Fuqarolik jamiyati qurilishi har bir xalqning milliy-ma‘naviy merosi va qadriyatlari bilan bog‘liq o‘ziga xos milliy xususiyatlarga tayanadi hamda dunyo xalqlarining erishgan yutuqlarini xisobga oladi. Ma‘naviyat insonning qon-qoni, suyaksuyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba‘zida achchiq, ba‘zida quvonchli saboqlaribilan qatra-qatra bo‘lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnatqilish, dunyoning tengsizne‘mat va go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish ma‘naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Jahon xalqlari tajribasi, ularningbosib o‘tgan murakkab rivojlanish yo‘llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o‘z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar quyib yashashi uchunetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, o‘sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma‘naviy yuksalish va Daxldorlik hissini anglash uchun yangi imkoniyatlar tug‘iladi.

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma‘naviyat –insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma‘naviyatsiz xech qachon odamiylik va mehr oqibat, baxt va saodat bo‘lmasligini yaqqol tasdiqlaydi. Yer zida qancha inson, qancha taqdir bo‘lsa, har birining o‘z ma‘naviy olami bor. Ma‘naviyatni tushunish, anglashuchun avvalinsonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o‘zligini, insoniy qadr-qimmatinianglab yetgan har qanday odam bu haqda o‘ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin. Milliy ma‘naviyatni yuksaltirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda ma‘naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta‘sir o‘tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur taxlil qilib, ularning fuqarolik jamiyatida qanday o‘rin tutishini yaxshi anglab olish maqsadga muvofiq.

Prezidentimiz I.Karimov har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmasligini ta'kidlab, bu borada ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Milliy g'oyaga Daxldorlik hissi barqaror taraqqiyotning muhim omili sifatida.

Ma'naviyat va Daxldorlik hissiinson va jamiyat hayotida, uning yangilanish hamda demokratik fuqarolik jamiyati maqsad va vazifalarini amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mustaqillik O'zbekiston jamiyati yangilanishida yangi davrni boshlab berdi. Jamiyat rivojlanishini bir tomonlama tushunishya'ni moddiy omilni mutloqlashtirishga barham berildi. Jamiyat hayotida —ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi (I.Karimov) nuqtai nazardan yondoshish o'ziga xos qonuniyatdir. Bu moddiy ehtiyojlariniinsonning ruhiy olamiga qaramaqarshi qo'yishlarga barham berdi.

Jamiyat rivojida ma'naviy va moddiy omillarning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Bu fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy asoslarini, bozor iqtisodi qonunlarini to'g'ri tushunishga imkoniyat beradi. Chunki hamma narsa davlat mulki bo'lgan eski tuzumda xususiy mulkka ega bo'lish, tadbirkorlik va kichik biznes bilan shug'ullanish bizga begona bo'lgan tushunchalar sifatida baholangan edi. Bugungi kunda esa xususiy mulk tushunchasiga nisbatan munosabat qanday o'zgarib, hayotimizdan qanchalar chuqur joy olib bormoqda.

Ma'naviyat insonni ulg'ayish va kuch quvvat manbaidir. Bu insonning ruhiy poklanish va qalban ulg'ayishi bilan bog'liq. Hayotda har xil odamlar uchraydi. Ularning ma'nan halol, pok yashaydigan odamlarga hamda aksincha ma'nan zaif, halol va pok yashamaydigan odamlar ham mavjud. Ammo ma'naviyatni barqarorligi ham ana shunday halol-pok niyatli insonlarning borligi tufaylidir. Fuqarolik jamiyatini qurish va rivojlantirish ezgu maqsad. Ufuqarolarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtiroki bilan uzviy bog'liq. Fuqarolik jamiyati ana shunday odamlarning yuksak ma'naviyati, Daxldorlik hissiga, oliy maqsadlariga tayanadi.

Bunday odamlar o'zlarining ezgu g'oya va amallari bilan fuqarolik jamiyati institutlarida faol ishtirok etadi. Bu institutlar: 1) NNT, 2) jamoat birlashmalari; 3) turli xil jamg'armalar; 4) mahalla; 5) oila; 6) OAV; 7) turli xil ijtimoiy harakatlar va b. Fuqarolik jamiyati institutlari manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashadi, unga xizmat qiladi. Bu bilan bog'liq turli xil qonunlarning ijrosini ta'minlaydi.

Bunga yuksak ma'naviyat, ta'lim-tarbiya va chuqur Daxldorlik hissi orqali erishish mumkin. Ilm-fan, adabiyot, san'at, xalqimizning boy ma'naviy merosi, qadriyatlarini o'rganish va hurmatqilishorqali fuqarolik jamiyati milliy-ma'naviy va umuminsoniy negizlarining o'zaro mushtarak xolda rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu ma'naviyat va Daxldorlik hissini shakllantirishda oilaning o'rni beqiyosdir. Oila esa fuqarolik jamiyatining muhim bo'g'inidir.

Shu bilan birga, Daxldorlik hissini oshirishga ta'sir ko'rsatadigan omillar:

- 1) Yuksak ma'naviyat;
- 2) Ma'naviy salohiyat;
- 3) Ilm-fanga muhabbat;
- 4) Kasb-hunarni sevish;
- 5) Hozirgi zamon axborot texnologiyalar yutuqlarini bilish;
- 6) Milliy o'zlikni anglash;
- 7) Milliy-ma'naviy merosni hurmat qilish, unga ishonch va e'tiqod;
- 8) Umuminsoniy demokratik qadriyatlarni e'tirof etish, unga munosabat;
- 9) Qonunni hurmat qilish va unga amal qilish tuyg'usi;
- 10) Milliy g'oyaga bo'lgan ishonch va e'tiqodni mustahkam bo'lishi Daxldorlik hislatini oshiruvchi omillardir.

Mustaqillik yillarida —Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari konsepsiyasi amalga oshirildi. Kuchli fuqarolik jamiyati: 1) inson manfaatlarining ustuvorligiga; 2) insonlarning yuksak ma'naviyatiga; 3) qonun ustuvorligiga; 4) davlatning bosh islohotchilik roliga; 5) siyosiy plyuralizmga; 6) mafkuraviy plyuralizmga; 7) fikrlar xilma-xilligiga; 8) demokratik saylov

prinsiplariga va boshqalarga asoslanadi. Bu fuqarolardan yuksak mas'uliyat, Daxldorlik hissi, demokratik ong va tafakkur talab etadi.

Ma'naviyat doimiy va uzluksiz ravishda ish olib borishni taqozo etadi. Bunda inson qalbiga yo'l topa olish uning muhim talabi va mezonidir. Bunda ta'lim-tarbiya, matbuot, televedeniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atining inson ongi va qalbiga ta'siri mavjud. Ular fuqarolarda yuksak ma'naviy tuyg'ularni hamda Daxldorlik hissini shakllantiradi va rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularni fuqarolik jamiyatini qurish maqsadlariga chorlaydi, birlashtiradi va safarbar etadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning —Agar biz

O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasidaboqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak kabi fikrlari fikrimizning yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuning uchun ham yuksak ma'naviyatli odam jasoratli bo'ladi. Eng buyuk jasorat — ma'naviy jasoratdir (I.Karimov). Yuksak ma'naviyatli insonni yengib bo'lmaydi, u yengilmas kuchga ega. Insonning buyuk jasorati ona yurtimiz baxtu iqboli, buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilishi eng oliy saodat deb biladi.

Jamiyatda qonuniylik, qonun ustuvorligini to'liq ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri — bu odamlarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni shu ruhda kamol toptirish, fuqarolarning qonunni puxta bilishi, yuksak huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lishidan iborat.

Demokratik rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlar qatoriga ko'tarilish muhim maqsadlardan biridir. YA'ni, demokratiya yo'lga kirish avvalo aholining ongu saviyasini o'zgartirishni, totalitar, zo'ravonlik tizimidan meros bo'lib qolgan qoldiqlar va qoliplardan voz kechishni so'zda emas, kundalik hayotda ta'minlashni talab qiladi. Bu esa albatta bir kunlik oson ish emas — bunga vaqt kerak, yangi hayotni o'z yurtida qurmoqchi bo'lgan har qaysi inson shunga astoydil intilishi zarur.

Avvalo bu maqsad uning ongu tafakkurida mustahkam o'rin topishi zarur.

Yuksak ma'naviyat va Milliy g'oyaga Daxldorlik hissi - mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojlanishining muhim sharti

Milliy g'oya va Daxldorlik hissi fuqarolik jamiyati rivoji bilan uzviy bog'liq. Milliy g'oyaning asosiy g'oyalari, bosh maqsadi fuqarolik jamiyati rivojlanishida o'zining aniq ifodasini topadi. Milliy g'oya jamiyat mafkurasi sifatida O'zbekiston jamiyati hayoti bilan bog'liq. U o'zining milliy va umuminsoniy negizlari bilan umumbashariy ma'no va mazmun kasb etadi.

—Milliy g'oya — ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlari yig'indisidir. Shunday ekan, milliy g'oya va Daxldorlik hissi bilan fuqarolik jamiyati rivoji maqsadlari o'zaro mushtarak. Milliy g'oya O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojiga xizmat qiladi. Fuqarolarni ana shu maqsad atrofida o'zaro hamjihat bo'lib, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga safarbar etadi.

Milliy g'oya jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy hayotida o'zining ifodasini topadi hamda muayyan o'zgarishlarni, maqsadlarni amalga oshirishga muhim omil sifatida ta'sir ko'rsatadi. Bu, birinchidan, milliy g'oya O'zbekistonning asosiy maqsadlarini ifoda etadi. U fuqarolarni fuqarolik jamiyati rivoji vazifalarini amalga oshirishga undovchi, Daxldorlik hissini rivojlantiruvchi ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, —milliy g'oya tushunchasi ma'no-mazmuni bilan fuqarolik jamiyati rivojlanishi maqsadlarini o'zida ioda etadi. U bilan mushtarakdir.

Uchinchidan, —fuqarolik jamiyati tushunchasi kengma'no va mazmunga ega bo'lib, turli mamlakatlarda turdicha talqin eti kelingan. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi maqsadlari umuminsoniy tamoyillarga hamda milliy-madaniy merosimizga tayangan xolda amalga oshirilishi milliy g'oyada o'zining ifodasini topgan.

To'rtinchidan, mustaqillik tufayli O'zbekiston o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanladi. Ayni paytda dunyoda e'tirof etilgan demokratik tamoyillarga tayangan xolda fuqarolik jamiyati rivoji vazifalarini amalga oshiradi.

Fuqarolik jamiyati rivojlanishidagi umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etish ham, milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish ham har bir xalqning, mamlakatning milliy g'oyasi orqali amalga oshadi. Shu ma'noda, insonlar, xalqlar va jamiyatlarning maqsadlari milliy g'oya sifatida muhim ahamiyat kasbetadi. Chunki jamiyat g'oyasiz yashay olmaydi. G'oya xalqning orzulari, uning rivojlanish maqsadini ko'rsatib turadi.

Fuqarolik jamiyati milliy g'oyaning milliy va umuminsoniy negizlarga tayanishida chuqur falsafiy ma'no bor. Bu bir tomondan, xalqimizning milliy ruhiyati, xohish-irodasi, tarixiy-ma'naviy qadriyatlari, an'alariga tayanib, uni yanada boyitib borishini anglatadi; ikkinchidan, umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi va undan oziqlanishini bildiradi. Bu fuqarolik jamiyati rivojlanishining, erkin demokratik jamiyatning ustuvor maqsadlarini har bir vatandoshimiz tomonidan aniq idrok etilishida, fuqarolik jamiyatining milliy g'oyaviy negizlarini hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy asoslarini nimalardan iborat ekanligini ko'rsatib beradi.

Milliy g'oyaning maqsadi mamlakatimizda yashaydigan barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat'iy nazar, munosib hayot sharoitiga ega bo'lish, kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun ham milliy g'oyaning bosh g'oyasi — Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish maqsadi fuqarolik jamiyati rivoji bilan o'zaro mushtarak. Unda O'zbekiston har bir fuqarosining maqsad va manfaatlari mujassamlashgan. Buning fuqarolar tomonidan aniq idrok etib olinishi ularni mamlakat oldida turgan fuqarolik jamiyati rivoji maqsadlariga yo'naltirishda safarbar etuvchilik quvvatiga ega.

Bunda o'ziga xos quyidagi qonuniyat mujassamlashadi: milliy g'oya keng jamoatchilikning ishonch va e'tiqodiga aylanib, ular o'zlarining amaliy faoliyatlarida unga tayanib, yashash ko'nikmalariga qancha mustahkam bog'langan bo'lsalar, mamlakat shunchalik kuchli, fuqarolik jamiyatining ma'naviy asosi esa mustahkam bo'ladi. Chunki shunda milliy g'oyaning: fuqarolik jamiyati, erkin, demokratik jamiyat qurish maqsadlariga ishonch o'lganlik darajasi va Daxldorlik hissiy uqori ekanligini bildiradi; bu ishonch asosida jamoatchilikda mamlakat oldida turgan umumiy maqsad yo'lida shuncha mustahkam birlashgan bo'ladi;

Fuqarolarning uyushganlik holati qancha yuqori bo'lsa, ularning fuqarolik jamiyati rivoji bilan bog'liq maqsadlarni anglashi uni amalga oshirishda o'zlarining ichki salohiyatlarini safarbar etish, uni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga yo'naltirishga xohishistagi shuncha yuqori bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati davlat va jamiyat qurilishida fuqarolarning faol ishtiroki, fuqarolik institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamoatchilik birlashmalarining jamiyat oldida turgan maqsadlarni amalga oshirishida faolligi va mas'uliyatli ishtiroki bilan uzviy bog'liq va ustuvorlik kasb etadi. Demak fuqarolik institutlarining rivojlanishi fuqarolar faolligi, siyosiy ong va madaniyat yuqori bo'lgan holda, ya'ni ularning jamiyatning bugungi va ertangi kuni uchun qayg'urishi, mamlakat miqyosida anglash bor joyda u ko'proq ildiz otib boradi, ayrim salbiy qusurlarimizning ham barham topib borishiga undaydi. Fuqarolarning o'zaro jipsligi, ularning insoniy o'zligini anglashiga ham bog'liq. Ana shu faoliyat orqali har bir kishining Vatan ravnaqini o'ylash, unga o'z xissasini qo'shish, mustaqillikni asrab-avaylash va mustahkamlash ma'naviyati namoyon bo'ladi.

Yoshlarni vatanparvarlik va milliy g'oyaga Daxldorlik hissi ruhida tarbiyalashda ma'naviyatning o'ri. Ma'naviy tahdidlarning oldini olish.

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarimizni ona Vatanga fidoiy, mard, jasur, sadoqatli, milliy g'oyaga Daxldorlik hissi ruhida tarbiyalashda ma'naviyatning o'ri va roli tobora oshib bormoqda. Ayniqsa, millatning to'laqonligi millat maqomiga yetishi uchun milliy tilning, madaniyat, urf-odat, an'alar, qadriyatlardagi o'ziga xosligini, ya'ni, milliy o'zligini anglashda ma'naviyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga kelib, yurtimizda yashovchi aholining barcha qatlamlari orasida xususan yoshlarimiz o'rtasida aniq masadga qaratilgan ma'naviy – ma'rifiy

ishlarni targ'ibot va tashviqot qilishga Davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratlayotgani bejiz emas, albatta.

Ayniqsa, bu borada Vatanimizni kelajakdagi istiqbolini belgilovchi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilinganligi ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda fikr yuritganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: "Oldimizda turgan ana shu ulkan vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qildik"⁵⁷, — deya alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Harakatlar strategiyasida eng avvalo, davlat boshqaruvi organlarining quyi bo'g'inlari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularning xalq bilan muloqot qilishini ta'minlash, bu borada samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yildi. Bu esa, o'z navbatida fuqarolarimizni xususan, yosh avlodni ona Vatanga fidoiy va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi bo'yicha ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida amalga oshirialyotgan strategik maqsadalar sifatida e'tirof etilayotgan ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish eng avvalo, Yurt ravnaqi va Vatan taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, 2017 yil 28 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risidagi qarori"⁵⁸ga muvofiq, quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratish belgilandi. Jumladan:

— dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish;

— jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

— milliy g'oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish;

— targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

— ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni muntazam yo'lga qo'yish;

— yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

— mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

— xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya an'analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zero, bugungi kunda globallashtirish jarayonlarining shiddatli tus olishi dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlarni tobora kuchayotganligini namoyon

⁵⁷ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <http://uza.uz/oz/politics/uzbekiston>

⁵⁸ Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ma'rifat. 2017 yil. 29 iyul. Shanba № 60(9021)

etmoqda. Dunyoda sodir etilayotgan bunday murakkab va tahlikali vaziyatni keskin tus olishi har qanday xalq, millat, jamiyat va davlat hayotida muntazam sezgir, xushyor hamda oqox bo'lish borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bugungi global miqyosdagi tahlikali vaziyatlarni kuchayotganligi har qanday xalq va millatning madaniyati hamda ma'naviyatiga raxna solish orqali ma'naviyatini izdan chiqarishga zamin yaratmoqda.

Mamlakatimizda demokratik jamiyat, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish ma'naviy hayotdagi muhim o'zgarishlar va yangilanishlar bilan bog'liq xolda kechadi. Bunga globallashuv davri ham o'zining bevosita va bilvosita ta'sirini ko'rsatmoqda. Ma'lumki globallashuv so'zi — global so'zidan olingan bo'lib, yer shari ma'nosini bildiradi. Global o'zgarishlar, obyektiv jarayoni, u ijtimoiy hayotning barcha sohalariga o'zining ta'sirini o'tkazmoqda.

U ijobiy va salbiy jihatlariga ega. Ma'lumki, u insonlar ma'naviy hayot sharoiti, imkoniyatlarini yanada oshirish bilan birga, ayni paytda ma'naviyatga tahdid soluvchi ayrim salbiy oqibatlarga ham olib kelmoqda. Bu global yutuqlardan qanday maqsadda va kim tomonidan qanday maqsadda foydalanishi bilan bevosita bog'liq. Daxldorlik hissi fuqarolikni anglash, fuqarolik mas'uliyati, insonlarni inson sifatida qadrlash, uning hayotiga, sha'ni, qadr-qimmatini, daxlsizligini hurmat qilish tuyg'ulari bilan mujassam holda amalda namoyon bo'lishini hisobga olsak, Daxldorlik xissiga salbiy ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni qo'shish mumkin:

O'zbo'larchilik; ommaviy madaniyat; beparvolik; loqaydlik; sotqinlik; xudbinlik; mahalliychilik; urug'-aymog'chilik; korrupsiya; qonunni hurmat qilmaslik; vatansizlik.

Ana shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllashini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etadi.

Globalashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak — bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaq va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Shu ma'noda, globallashuv — bu avvalo hayot suratlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir .

Global o'zgarishlardan ma'naviy hayotda nosog'lom maqsadlarda foydalanishga urinish, ma'naviy tahdidlarga, axborot xurujlarini ortishiga, — ommaviy madaniyat va mafkuraviy kurashlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Dunyoda ayrim xalqlarning madaniyatidan, milliy o'zligidan begonalashtirish orqali ularning kelajagidan mahrum etishga urinilmoqda. Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'isundirmoqchi, uning boyligini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi.

Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

Bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to'ldirishga harakat qiladi .

Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim .

Tarixdan ma'lumki, gegemon davlatlar bir xalqni o'ziga tobe qilish uchun eng avvalo uni o'zligi, tarixi, madaniyati va ma'naviyatidan judo qilishga alohida e'tibor qaratishgan. Zero, ma'naviy jihatdan zabt etilgan har qanday xalqni madaniy-ma'naviy taraqqiyotini bo'g'ib qo'yish

istilochi, bosqinchi mamlakatlarning mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahkamlashning azaliy, tarix sinovidan o'tgan an'anaviy usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, dunyo miqyosida xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda.

Bu haqda fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Ana shunday o'ta murakkab va qaltis sharoitda qanday yo'l tutish, qanday qilib tinchlik va osoyishtalikni saqlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin, degan savol barchamizni jiddiy o'ylantirishi zarur"⁵⁹, – deya bejiz ta'kidlamagan. Binobarin, bugungi kunda yoshlarimizni milliy Vatanparvalik ruhida tarbiyalashda tariximizning ajralmas qismi ma'naviy merosimizni o'rganish, yosh avlodni ushbu madaniy boyligimiz qadr-qimmatini, beqiyos ahamiyati, ularning nafaqat millatimiz va jahon hamjamiyati tomonidan e'zozlanishini yoshlar ongiga singdirish orqali ularni haqiqiy Yurti himoyachisi sifatida Vatanga daxldorlik hissi bilan yashashga da'vat etadi.

Axborot xurujlari milliy ma'naviyatimiz negizlariga qarshi qaratilganligi bilan xarakterlidir. Yolg'on va soxta axborotlarni tarqatish orqali fuqarolar ongini manipulyatsiya qilish yo'li bilan ularni milliy ma'naviy merosi va qadriyatlariga nisbatan qarashlarini o'zgartirishga xarakat qilib, mamlakatni ichidan zaiflashtirishga va beqarorlik keltirib chiqarishga urinishlar bo'layotganligini ta'kidlash lozim. Bundan tashqari mafkura soxosida ham kurashlar davom etmoqda. Turli xil g'oya va qarashlar o'rtasida kurash hamon saqlanib qolmoqda. Bunda —g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr bilan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish orqali yovuz va tajavuzkor g'oyalarning oldini olish mumkin. Yoshlarda buning uchun mustaqil fikr va qarashlarni shakllantirishga alohida e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki fikri bor bo'lsa, u fikr bilan fikrni, g'oya bilan g'oyani farqiga bora oladi. Mafkuraviy kurashlarning kuchayishi yot va zararli g'oyalarning kirib kelishi fuqarolik jamiyati maqsadlariga va negizlariga to'g'ri kelmaydi. Yot va zararli g'oyalar milliy-ma'naviy qadriyatlarga ham uume'tirof etilgan demokratik qadriyatlarga ham zid. U fuqarolarning huquq va erkinliklarini, insonni oliy qadriyat sifatida e'tirof etish maqsadlariga mutlaqo zid. Bu fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi kabi maqsadlarni amalga oshirish bunday yovuz g'oyalarni oldini olishni taqozo etadi. Hozirgi dunyoda —ommaviy madaniyat ko'rinishidagi turli xil zararli g'oyalar va axloqsizlik ko'rinishlarini axloq deb hisoblashga bo'lgan urinishlar umume'tirof etilgan axloqiy normalarga, xulq-atvor prinsiplariga zidligi bilan hamfuqarolik jamiyati maqsadlariga, ozod va erkin shaxs ma'naviyatiga to'g'ri kelmaydi. Globallashuv davridagi bunday soxta va bir tomonlama mafkuraviy hurujlar va axborot ko'rinishlarini tarqatishga urinish ma'naviyatimizga tahdid ekanligini hisobga olish lozim. Bunday zararli g'oyalarga nisbatan befarq qarab bo'lmaydi. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, —barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'iilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha — qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi .

Globallashuv davrida ma'naviy tahdidlarning oldini olish mamlakatimizda belgilangan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadlariga to'g'ri keladi. Bunda fuqarolarning yuksak ma'naviyatini shakllantirish orqali ularning milliy-ma'naviy qadriyatlariga, tarixiy merosimizga, demokratik qadriyatlarga bo'lgan ishonch va e'tiqodini mustahkamlash orqali zararli g'oyalarning oldini olish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuksak ma'naviyat va Daxldorlik hissi ma'naviyatni inson va jamiyat hayotida, fuqarolik jamiyati qurilishi maqsad va vazifalarini tushinishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Yuksak ma'naviyat va fuqarolik jamiyatining o'zaro bog'liqligini quyidagi yo'nalishlar orqali ko'rish mumkin:

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 15 iyunda Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. Adolat 2017 yil. № 24. B.1-2-3

- 1) Ma'naviyat insonga xos xususiyat, ma'naviyatni tushunish uchun insonni bilish zarur;
- 2) Insonning ma'naviyat darajasi uning Daxldorlik hissini belgilaydi. Insonning ma'naviyati hamda Daxldorlik hissi qancha yuqori bo'lsa, uning fuqarolik jamiyati mas'uliyatini, maqsad va vazifalarini tushunishi hamda ishtiroki shuncha yuqori bo'ladi;
- 3) Inson ma'naviyatli va Daxldorlik hissi yuqori bo'lsa, milliyma'naviy meros va qadriyatlarni hurmat qiladi, unga sodiq bo'ladi. Bu fuqarolik jamiyati uchun muhim negizdir;
- 4) Insonning qonunlarni hurmat qilishi, amal qilib, uning ijrosini ta'minlashi ham yuksak ma'naviyat hamda Daxldorlik hissimezonidir;
- 5) Milliy g'oya maqsadlari bilan fuqarolik jamiyati maqsadlari mushtarak;
- 6) Yuksak ma'naviyatli shaxs ozod va erkin shaxs ma'naviyatidir. Ozod va erkin shaxs esa fuqarolik jamiyatining faol ishtirokchidir, bunyodkordir;
- 7) Ma'naviy tahdidlar – insonning o'zligiga, ma'naviyatiga tahdididir. Shuning uchun ham insonni uning har qanday ko'rinishidan himoya qilish fuqarolik jamiyati rivojlanishining ustuvor maqsadlariga to'g'ri keladi. Daxldorlik hissining yuqori bo'lishi insonlarga xos muhim fazilatdir.

Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlarini ta'minlashda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyasining ahamiyati.

Mamalakatimizda xam millatlararo totuvlikni ta'minlash orkali tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlab borish g'oyasi davlatimiz birinchi raxbarlarining doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev keyinchalik barcha nutq va ma'ruzalarida tinchlikni ta'minlash, millatlar va dinlararo totuvlik muhitini ko'llab-quvvatlash, din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi ayovsiz kurash masalalarini asosiy tamoyil sifatida olg'a surib kelmoqda.

«Bag'rikenglik» tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi. Lotincha «tolerare», ya'ni «chidamoq», «sabr qilmoq» ma'nosini anglatgan «tolerantlik» so'zi, asosan biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'i nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Xususan, ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi ma'no kasb etib, «chidamlilik», «bardoshlilik», «toqatlilik», «o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish», «muruvvatlilik», «himmatlilik», «kechirimlilik», «mehribonlik», «hamdardlik» kabi ma'nolarga ega.

Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan bag'rikenglik borasida 1995 yil 16 noyabrda BMT tizimida Fan, ta'lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YUNESKO) bosh konferensiyasining 28-sessiyasida «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi» qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'i nazar, bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo'yilgan.

1998 yil 6 noyabrda Toshkentda o'tkazilgan YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasida «Tinchlik madaniyati va YUNESKONing a'zo davlatlaridagi faoliyati» deklaratsiyasi qabul qilindi. YUNESKONing «Tinchlik madaniyati» konsepsiyasi BMT tomonidan ma'qullanib, 2000 yil «Xalqaro tinchlik madaniyati yili», 2001 yil esa «Xalqaro madaniyatlararo muloqot yili» deb e'lon qilindi.

O'zbekiston diyorida qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonma-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq boshqa joydan ko'chib kelib, o'rmanib kolgan emas. Bu zamin - ota-bobolarimiz yashab o'tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin - Sharq va G'arbning, Shimol va Janubning, qadim o'tmish va buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko'hna o'choklaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an'analar shakllangan. Qadimgi yunon

faylasufi Geraklit bu yurtni «falsafiy tafakkur beshigi», deb bejiz ta'riflamagan. Shuni ta'kidlash joizki, bizning sivilizatsiyamiz o'ziga xos bag'rikenglik tafakkur uslubiga tayanadi.

Uch ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyjanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng nafaqat mamlakatga nom bergan o'zbek xalki, balki shu muqaddas zaminda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining ham millat sifatida saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, ko'pmillatli diyorumizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash va yanada mustahkamlashning muhim omili bo'lgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub aholining ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish uchun Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 1992 yil 13 yanvarda Respublika Boinalmilal madaniyat markazi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari, shuningdek, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish, milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va o'ziga xos an'ana, urf-odat va rasm-rusumlarni tiklash hamda rivojlantirishda ularga ko'maklashish deb belgilandi.

2017 iilda Respublika Boinalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligi nishonlandi. Mamlakatimizda milliy- madaniy markazlarni soni 140 dan ziyod bo'lib, ular yurtimizning jamoat tashkilotlari qatorida samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Millatlararo munosabatlar yo'nalishidagi yana bir dolzarb masalalardan biri — aholining milliy tarkibiga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilishdir. Bu borada respublikamizda bugungi kunga kelib, 10 mingga yaqin maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 845 ta maktabda rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 ta maktabda tojik tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda qirg'iz tilida, 7 ta maktabda koreys tilida ta'lim berish yo'lga qo'yilganini ta'kidlash kerak. Bular orasida ikki yoki uch tilda o'quv mashg'ulotlari olib borilayotgan maktablar ham bor. Xalq ta'limi vazirligiga qarashli pedagogika institutlarida o'zbek tilidan tashqari rus, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq, qoraqalpog' tillarida ham mashg'ulotlar olib boriladigan maktablar uchun mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Respublikamizdagi ommaviy axborot vositalarining faoliyati ham aholi milliy tarkibining rang-barang ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmokda. O'zbekistonda 8 tilda, ya'ni o'zbek, qoraqalpog', rus, qozoq, tojik, turkman, ingliz, koreys tillarida gazeta va jurnallar chop etilmoqda.

O'zbekiston televideniyesi orqali qator xorijiy tillardagi ko'rsatuvlarning muntazam ravishda namoyish qilinishi va maxsus radio eshittirishlarning turli tillarda efirga uzatilayotgani ham diqqatga sazovor. Bugungi kunda, 12 (o'zbek, qoraqalpog', qozoq, qirg'iz, tojik, ozarbayjon, rus, tatar, boshqird, koreys, uyg'ur) tillarida teleradio eshittirishlar efirga chiqmoqda. Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonning millatlararo siyosati insoniylikka, demokratiyaga qarshi bo'lgan siyosatning har qanday ko'rinishlarini to'liq va mutlaq rad etishga asoslangan.

Ko'rinib turganidek, millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish borasida O'zbekiston o'ziga xos tajriba orttirdi. Bunda faqat milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan qurilgan bu siyosat:

- ko'p millatlilikni yaratuvchilik qudratiga ega bo'lgan omil sifatida tan olish;
- fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan kat'i nazar, tengligini ta'minlash;
- milliy mansubligidan qat'i nazar, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi teng huquqli ishtirokini kafolatlash;
- milliy til, urf-odat va an'analar hurmat kilinishini ta'minlash va. ularning rivojlanishi uchun kulay shart-sharoit yaratish;
- ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanishini ta'minlash;

- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan milliy, irqiy, diniy adovat va nizoni targ'ib qiluvchi faoliyatga yo'l qo'ymaslik;
- millatlar va elatlar huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga doir xalqaro qoidalar ustuvorligini tan olish kabi tamoyillarga tayangan holda izchil amalga oshirilmoqda.

Shuni unutmash kerakki, qayerda millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g'oyasini amalga oshirishga g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siq - tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g'oya tuzog'iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina fashizm g'oyasi XX asrda insoniyat boshiga avvalgi barcha asrlardagidan ko'ra ko'proq kulfat, ofat-balolar yog'dirib, oxir-oqibatda o'zi ham halokatga uchradi. Lekin hanuzgacha fashizm, shovinizm, irqchilik g'oyalari tiriltirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik g'oyasiga qarshi «salib yurishi» uyushtirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni hushyor torttirishi lozim.

Bag'rikenglikning muhim yo'nalishlaridan biri «diniy bag'rikenglik»dir. Turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud farqlardan qat'i nazar, ularning yonma-yon, o'zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarashni anglatadigan mazkur tushuncha, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkin bo'lgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e'tirof etishini nazarda tutadi. «Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»da kildanganidek, «Bag'rikenglik bo'lmasa, tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi».

Asrlar mobaynida o'lkamizning shaharu kishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko'rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o'z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat'i nazar, insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi tuyg'ular yurtimiz aholisining qon-koniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil qiladi.

Ma'lumki, har bir dinning o'ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba'zan bir-biriga mutanosib bo'lsa, ba'zan zid ham kelishi mumkin, Diniy bag'rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini oladi, turli e'tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo'la olishi uchun xizmat qiladi.

Qadim zamonlardan o'lkamizda zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi dinlar mavjud bo'lgan. Eng qadamiy va keng tarqalgan dinlardan biri bo'lmish zardushtiylikning vatani ham bizning yurtimizdir. Chunki, u qadimgi Xorazmda shakllanib, rivoj topgan.

Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda buddizm ham muhim o'rin tutgan. Hattoki, Buxoro shahrining nomi ham «Vaxara» - buddaviylar ibodatxonasi nomidan kelib chiqqan, degan fikrlar bor.

Markaziy Osiyoga islom dinining yoyilishi arafasida bu yerga Eron orqali Suriyadan kirib kelgan nestorian yo'nalishidagi nasroniylik dini muhim mavqeni egallagan. VI asr boshlarida Samarqandda nestorian yepiskopi, VIII asrda esa mitropoli xizmat qilgan. Shuningdek, qadimda hozirgi Toshkent va Xorazm viloyatlari hududlarida nasroniy diniga mansub aholi ham yashagan.

VIII asrda Markaziy Osiyoga arablar bilan birga islom dini ham kirib keldi. Aholining bu dinni qabul qilishi asta-sekinlik bilan, bir tekis bo'lmagan holda yuz berdi. Aholining bir qismi o'zlarining qadimgi dinlariga e'tiqod qilishda davom etdi. Bu vaqtda islom va mahalliy dinlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishuvi yuz berdi. Movarounnahr xalklarining islom diniga zid kelmaydigan ma'rifiy-axloqiy g'oyalari, huqukiy meyor va urf-odatlar to'la saqlanib qoldi hamda islom ta'limoti asosida yanada sayqallandi. Bu holat Movarounnahrda islomning o'ziga xos xususiyatlar kasb etishiga sabab bo'ldi. Bu ham yurtimizda uzoq yillar davomida shakllangan diniy bag'rikenglik samarasi edi.

O'lkada tinchlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlashda islom ta'limotidagi o'zga din vakillari bilan o'zaro murosa yo'lini tutish, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish va hamjihatlikda yashashga chorlovchi tamoyillar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, islom ta'limotidagi dinni qabul qilish yoki qabul qilmaslik qalbga bog'liq, insonning to'liq ixtiyoridagi amal deb qaralishi mintaqada diniy bag'rikenglik muhiti barqaror bo'lishi uchun asosiy omillardan bo'ldi.

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarida ham diniy bag'rikenglik bilan bog'liq qadriyatlar targ'ib qilingan g'oyalarni uchratamiz. Jumladan, Shayx Ahmad Yassaviy ham o'z hikmatlarida o'zga din vakillariga yaxshi munosabatda bo'lishni uqtirgan:

Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor,

Ko'ngli qottig' dilozordan xudo bezor.

Yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarimizning bu kabi o'gitlari uzoq yillar davomida xalqimizni bag'rikeng bo'lishga, turli din va elatlar bilan tinch-totuvlikda hayot kechirishga chorlab kelgan.

Hozirgi kunda ham yurtimizda istiqomat qilayotgan turli din vakillari uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi, ayniqsa, diniy bag'rikenglikka doir qoidalarining qonuniy asoslarda mustahkamlanishi tahsinga sazovordir.

Eng avvalo, Konstitutsiyamizning 31-moddasida mustahkamlangan «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi» degan qoida diniy bag'rikenglik uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilmokda. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z dini va e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini tan olmog'i lozim. Bir kishining din borasidagi qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning 18-moddasida ham «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart» degan norma asosida turli diniy e'tiqodagi insonlarning dini va e'tiqodidan qati nazar, qonun oldida teng ekani e'tirof etilgan.

Konstitutsiyamizning 61-moddasida esa, yurtimizda faoliyat olib boruvchi diniy tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilgani haqidagi qoida mustahkamlangan. Unda aytilishicha, «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi». Bu qoidaning mohiyati shundaki, O'zbekistonda har qanday din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan va barcha diniy konfessiyalar qonun oldida barobardir. Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni ko'llab-quvvatlaydi hamda ular o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi.

O'zbekistonda e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashda qonunchilik ham takomillashib bordi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun 1991 yilda qabul qilingan bo'lib, 1993 yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo'lib keldi. So'nggi yillar davomida mazkur qonunni davr talablari asosida tubdan o'zgartirish zarur bo'lib qoldi va 1998 yilning 1 may oyida O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Vijdon erkinligi haqidagi qonun dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanish mumkinligini ta'minlaydi. Mazkur meyor 1966 yil 16 dekabrda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 18-moddasiga muvofiqdir.

Xalqaro hukukiy hujjatlarda ham e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglik xalqaro huquq himoyasida ekani ta'kidlanadi. Jumladan, 1948 yili qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 18-moddasida «Har bir inson fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligi xukuqiga egadir», deb ta'kidlangan. 1966 yili qabul qilingan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»da ham «Biror odam ham o'z ixtiyori bilan o'z dini va e'tiqodiga ega bo'lish yoki ularni qabul qilish erkini kamsitadigan majburiy xatti-harakatlarga duchor bo'lmasligi kerak», deb ko'rsatilgan. Bu esa, diniy bag'rikenglikning nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huqukiy normalar muhofazasida ekanidan dalolat beradi.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi huquqiy meyorlarning qonunchilikka kiritilishi diyorimizda rasmiy faoliyat olib borayotgan barcha din vakillariga katta imkoniyatlar yaratib berdi. Jumladan, mustaqillikkacha yurtimizda bir necha cherkov va sinagogalar faoliyat olib borgan bo'lsa, qonuniy asoslar mustahkamlangach, dunyoning turli mintaqalarida diniy

ibodatlarini amalga oshiruvchi yevangellyuteran jamoasi, rim-katolik cherkovi, «yettinchi kun adventistlari» diniy tashkiloti, bahoiylar, yahudiylar diniy jamoalari kabi konfessiyalar rasmiy faoliyat yurita boshladi.

Hukumatimiz tomonidan turli diniy tashkilotlarning o'z faoliyatlarini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan, markaziy televideniye orqali O'zbekiston musulmonlari idorasi ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlarni berib borishi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi mashhur allomalarning tavalludiga bag'ishlangan anjumanlarning keng ko'lamda nishonlanishi kabi tadbirlarni aytib o'tish o'rindidir. Ayniqsa, haj ibodatini to'la-to'kis va hamjihat holda ado etish uchun barcha sharoitlar yaratilgani tahsinga sazovor.

O'z navbatida, pravoslavlar uchun Isroil, Gretsiya va Rossiya, katoliklar uchun Isroil va Italiya, armanlar uchun Isroil va Armaniston, yahudiylar va bahoiylar uchun Isroil, krishnachilar uchun Hindiston va buddaviylar uchun Koreyada joylashgan muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilinmoqda.

Bundan tashqari, Prezidentimiz farmoniga ko'ra, 1903 yilda qurilgan «Svyataya Bogoroditsa» ibodatxonasining Arman apostol cherkoviga topshirilgani, o'z vaqtida faoliyati to'xtatib qo'yilgan Yevangel-lyuteran cherkovi Kirxasining respublikamizda istiqomat qiluvchi nemislarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida «Vidergeburt» nemis madaniyat markaziga foydalanish uchun qaytarib berilgani va 1996 yilning dekabrda ushbu konfessiyaning yurtimizda faoliyat boshlaganining 100 yilligi keng nishonlanishi ham yuqoridagi fikrimiz isboti bo'la oladi.

Shuningdek, xristianlarning «Rojdestvo», «Pasxa», yahudiylarning Rosh-Ashona (Yangi yil), Yom-Kipur (Gunoxlardan poklanish bayrami), Pesax (Pasxa), buddaviylar-ning Sagaalga (yangi yil), Donchod-xural (Buddaning tug'ilgan kuni) kabi bayramlari-ni nishonlash uchun yurtimizda yashovchi shu din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Shuningdek, 2001 yil sentabrda Toshkentda o'tgan Osiyo - Tinch okeani mintaqasi YUNESKO «Bag'rikenglik tarmog'i»ning ikkinchi yig'ilishida bag'rikenglik tamoyillari o'zbek xalqining urfodatlarini bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlandi.

Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESKO) tomonidan Toshkentning islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi munosabati bilan 2007 yil 14-15 avgustda Toshkent va Samarkand shaharlarida «O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi» mavzuida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada ham mamlakatimizning jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo'lidagi yutuqlari yana bir bor e'tirof etildi. Shuningdek, 2014 yilning 15-16 may kunlari Samarkand shahrida «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarishshg tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati» mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Bugungi kunda xam mamlakatimiz boy tarixiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosni o'rganish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va targ'ib etish, islomning ma'rifiy g'oyalarini yoyish hamda diniy bag'rikenglikni qaror toptirish va mustahkamlashda butun dunyoga o'rnak bo'lmokda.

Bag'rikenglikning ziddi «mutaassiblik»dir. Umumiy ma'noda «mutaassiblik» - bu bir g'oyaning to'g'riligiga qattiq ishonish va undan o'zgaralarini keskin rad etishni anglatadi. Mazkur fenomenning xavfli jihati shundaki, u borgan sari kuchayib ksenofobiya, ekstremizm va hatto terrorizmga aylanadi.

Terrorizm butun dunyoda tinchlikni ta'minlash yo'lidagi asosiy g'ov, to'siqdir. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro miqyosda o'zini ochiq namoyon etayotgan xatarli voqeliklardan biri, turli shiorlar bilan niqoblangan terrorizm mintaqalar va mamlakatlar hayotiga birdek tahdid solmoqda. Keng ko'lam va xilma-xil ko'rinishlar kasb etayotgan ushbu illatga qarshi kurash butun dunyo uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyo bo'yicha 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bir yil mobaynida butun Yer yuzida sodir etilgan teraktlar va ularning oqibatida halok bo'lganlarning soni bir necha o'n mingni tashkil etishi terrorizmning tinchlik va xotirjamlikni izdan chiqarishga qaratilgan asosiy tahdidlardan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Ayni paytda zamonaviy terrorizmning, bir tomondan, tobora shafqatsiz, g'ayriinsoniy mohiyat, ikkinchi tomondan, aqlga sig'dirish qiyin bo'lgan jo'g'rofiy ko'lam kasb etib borayotganini alohida ta'kidlash lozim. Hozirgi vaqtda har kuni dunyoning u yoki bu burchagida kimlardir qo'rquvga

solish orqali muayyan maqsadlarga erishishni ko'zlagan qo'poruvchilik harakatlari amalga oshirilmoqda. Afsuski, ularning soni muntazam oshib bormoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy mutaassib oqimlar faoliyati XX asrning 80-yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar sa'y-harakatlari bilan shakllana boshladi. Mintaqada xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobidan jangari sifatida foydalaniladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug'ullanadigan guruhlar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgan 90-yillarning boshlarida esa, bu guruhlar faollashib ketdi. Mintaqada «Hizbut-tahrir», «Turkiston islom harakati», «Akromiyalar», «Nurchilar» kabi guruhlarning faoliyati kuzatildi.

Islom asoslarini buzib talqin qilish, ilmsiz, tashqi ta'sirga beriluvchan aholini o'z talqinidagi diniy goyalar bilan zaharlash, o'zlariga qo'shilmagan kishilarga, davlatlarga va tuzumlarga nisbatan zo'rvonlik, buzg'unchilik, qotillik bilan munosabatda bo'lishni halol deb hisoblash kabi xususiyatlar yuqorida zikr etilgan tashkilotlarning barchasiga xosdir. Afsuski, so'nggi yillarda mazkur guruhlar faoliyati natijasida dunyo bo'ylab har yili 30 mingdan ortiq tinch fuqaro halok bo'lmoqda. Unlab million aholi o'z uylarini tashlab ketib, dunyoning turli mamlakatlarida sarson-u sargardon bo'lishga majbur qolmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, bir milliondan ortiq yosh bolalar ochlikdan o'lish xavfi ostidadir. Ularning aksariyati terrorchilik avj olgan, buzg'unchi guruhlar tomonidan egallab turilgan hududlarga to'g'ri keladi. Bugungi kunda Iroq, Suriya, Nigeriya, Afg'oniston, Yaman, Liviya hanuz dunyoning eng xatarli nuqtalari hisoblanadi. Tahlilchilarning fikricha, hech qaysi davlat o'zining terrorchilar xurujidan holi ekaniga 100 foiz kafolat bera olmaydi. Jumladan, 2015 yilda dunyoning 96 mamlakati, u yoki bu darajada terrorchilikdan aziyat chekkan. Mana shunday sharoitda ekstremizm va terrorizm xavfini to'g'ri anglab yetish, ularga qarshi amaliy choralar ko'rish - davr talabidir. Shunday ekan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, «...yanada ogoh va sergak bo'lish, eng asosiy boyligimiz bo'lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko'p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir».

Nazorat savollari:

1. Yuksak ma'naviyat tushunchasi, ma'no –mazmuni.
2. Yuksak ma'naviyatning daxldorlik hissi bilan bog'likligi.
3. Yuksak ma'naviyat va insonlarning daxldorlik xissi.
4. Daxldorlik xissiga ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy omillar.
5. Daxldorlik xissini anglash –fazilat ekanligi.

Mustaqil ta'lim mavuzusi

Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.

Test savollari:

1. Ma'naviyat nima?

- A. Insonni ruhan poklaydigan, qalbini uyg'otadigan kuch
- B. Odamning ichki dunyosi
- C. Odamning irodasini baquvvat, imyon e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch
- D. *Barcha javoblar to'g'ri

2. Insonning ma'naviy darajasining eng yuqori darajasi aniqlang

- A. *Yuksak ma'naviyatlilik
- B. O'rtacha ma'naviyat
- C. Quyi ma'naviyat
- D. Past ma'naviyat

3. Daxldorlik hissini belgilovchi omillar to'g'ri berilgan qatorni toping.

- A. Insonga atrofdagi odamlarga, oilaga, maxallaga daxldorlik
- B. Millatga daxldorlik; oilaga, qonunlarga daxldorlik;

C. Insonga, ishiga, o'zligiga daxldorlik;

D. *barcha javoblar to'g'ri.

4. Yuksak ma'naviyatning kuchi nimada?

A. *Yengilmas kuch ekanligida

B. Milliy meros bilan bog'liqligida

C. Vijdonni uyg'oqligida

D. Iymonni butunligida

5. Yuksak ma'naviyat va fuqarolik jamiyatining bog'liqligi nimada?

A. Inson fuqarolik jamiyatining muhim omili

B. Insonning ma'naviy darajasi fuqarolik jamiyatiga ta'sir ko'rsatadi

C. Yuksak ma'naviyatli inson jamiyat oldida turgan maqsadlarga befarq emas

D. *barcha javoblar to'g'ri

6. Fuqarolik jamiyati rivojida ma'naviy va moddiy hayot munosabati qanday bo'lishi zarur?

A. Moddiy hayot ustun;

B. Ma'naviy hayot ustun;

C. *ma'naviy va moddiy hayot uyg'un

D. Barcha javoblar to'g'ri

7. Ma'naviyatga tahdid fuqarolik jamiyatiga ham tahdid ekanligi nimada?

A. Insonni o'zligidan begonalashtiradi

B. Insonni jamiyat hayotiga nisbatan loqaydlikka, befarqlikka undaydi;

C. Insonni ruhan zaiflashtiradi

D. *barcha javoblar to'g'ri

8. Daxldorlik hissiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlang.

A. O'zbo'larchilik; ommaviy madaniyat; beparvolik; vatansizlik;

B. loqaydlik; sotqinlik; xudbinlik; mahalliychilik;

C. urug'-aymog'chilik; korrupsiya; qonunni hurmat qilmaslik;

D. *barcha javoblar to'g'ri

9-MAVZU: MILLIY G‘OYA TARG‘IBOTINING INNOVATSION TEKNOLOGIYALARI

Reja:

1. Milliy g‘oya targ‘ibotini amalga oshirishning institutsional asoslari. “Mafkuraviy tarbiya” tushunchasi, uning mazmuni va namoyon bo‘lish shakllari.
2. Milliy g‘oya targ‘ibotida axborot kommunikatsiya tizimi va innovatsion texnologiyalar.
3. Ta’lim tarbiya tizimida milliy g‘oyani rivojlantirish imkoniyatlari.
4. Ta’lim-tarbiya tizimida adabiyot, san’at, ommaviy axborot vositalari, ma’naviy-madaniy va ma’rifiy muassasalar faoliyatlarini muvofiqlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.
5. Milliy g‘oyani rivojlantirishda ommaviy va siyosiy tashkilotlar, oila, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlarning rolini oshirishning ahamiyati.
6. Xalq bilan muloqot. Xalq qabulxonalari va virtual markazlar.

Tayanch so‘zlar

Milliy g‘oya targ‘ibotida innovatsion texnologiyalar tushunchasi. Milliy g‘oya targ‘ibotini amalga oshirishning institutsional asoslari. Ta’lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat, madaniy-ma’rifiy muassasalar, adabiyot va san’at, din, jismoniy tarbiya va sport, urf-odatlar, marosim va bayramlar, oila, mahalla, mehnat jamoalari, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari va OAV. Milliy g‘oya targ‘ibotida axborot kommunikatsiya tizimi va innovatsion texnologiyalar. Xalq bilan muloqot. Xalq qabulxonalari va virtual markazlar.

“Mafkuraviy tarbiya” tushunchasi, uning mazmuni va namoyon bo‘lish shakllari. Mafkuraviy tarbiya tizimi, uning subyekti va obyekti. Har qanday davrda mustaqillikka erishgan va uni mustahkamlash yo‘lidan borayotgan mamlakatda shakllanayotgan yangi g‘oyalar tizimining mazmun-mohiyatini aholi, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga singdirish zarurati saqlanib qoladi. Mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarni mafkuraviy tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat, milliy qadriyat va an’analarga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu asosda shakllangan zamonaviy fikrlash va yangicha tafakkur aynan mus-taqillik g‘oyasi ruhida sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e’tiqod mahsuli bo‘lib hisoblanadi.

Xar qanday g‘oyani aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishda shu sohada olib boriladigan targ‘ibot va tashviqot, ta’lim-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, eng rivojlangan mamlakatlarda ham aholining 15%-20%ga yaqin qismi ta’lim tizimi bilan qamrab olingan. O‘z-o‘zidan bu tizim doirasida yoshlarga g‘oya va mafkura sohasidagi bilimlar ham singdiriladi. To‘g‘ri, dunyo mamlakatlarida aholini ta’lim tizimi bilan qam-rab olish darajasi bir xil emas. Ammo, bu mazkur tizimning g‘oya va mafkura tarbiyasida muhim o‘rin egallashi to‘g‘risidagi xulosani yo‘qqa chiqarmaydi. Muayyan mamlakatda ta’lim tizimi aholining kanchasini qamrab olgan bo‘lmasin, qolgan qismi orasida ham ma’rifiy faoliyat, targ‘ibot va tashviqot olib borish zarurati saqlanib qolaveradi.

Mafkuraviy tarbiya - inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyo-qarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan jarayon.

Jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o‘z manfaat va maqsad-intilishlarini ifoda etuvchi g‘oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruhlarni ham shu g‘oyalar ta’siriga tortishga, o‘z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qiladi. g‘oyalar adolatli va haqqoniy bo‘lib, ko‘pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta’sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo‘lsa, g‘oyaviy tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

Jamiyat, xalq hali o‘z manfaatlarini anglab yetmagan, o‘z mafkura-sini shakllantirib, maqsadlar sari safarbar bo‘lmagan hollarda begona va zararli g‘oyalar ta’siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g‘oyaviy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, sog‘lom mafkura tamoyillarini aholi qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O'zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi - xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-istaklari, maqsadlarini, Milliy istiqlol mafkurasini ning mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir.

Mafkuraviy tarbiya jamiyatda, avvalambor, oila, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, litsey, kollejlari, oliy o'quv yurtlari, om-maviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi uzluksiz faoliyatini taqozo qiladi. Uzluksiz ta'lim tizimi mafkuraviy tarbiyani olib boruvchi asosiy bo'g'indir, zero mafkuraviy maqsadlarni yoshlar ongiga singdirish vazifasi asosan ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi mafkuraviy tarbiyadir. "Mafkuraviy tarbiya" tushunchasi xalq, jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh ongi va tafakkuri tizimida shu yo'nalishdagi dunyoqarashni, falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan mafkura asosida maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra, mafkuraviy tarbiyadir. Chunki oilani olamizmi, bolalar bog'chasini, mahalla, maktab, litsey, kollej, universitet yoki akademiyaning olamizmi - hammasida beriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari talaba va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol top-tirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu jarayon bolaning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o'ziga xosliklar, axloq tamoyillari, ma'naviyat to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Muayyan xalq, jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh, siyosiy partiya yoki harakat mafkurasini boshqa bir ijtimoiy subyektga majburan singdirish bu boradagi maqbul bo'lmagan usul hisoblanadi. Chunki mafkura - muayyan ijtimoiy subyekt (yoki subyektlar)ga xos mavjud ehtiyojlar, tilak, orzu-umidlar hamda man-faatlar asosida o'sha subyektning qarashlari, tasavvurlari dunyosi hamda g'oyalarning mahsuli sifatida yaratiladi. Unda boshqalar manfaatlarini ifodalanganligi ham mumkin.

Shunday ekan, o'zgalar manfaatini ko'zlovchi mafkurani boshqa bir xalq ongiga zo'rlab singdirish noto'g'ri. Muayyan mamlakat xalqining o'z g'oyasi va mafkuraviy qarashlari bor, bu qarashlar tizimi o'sha mamlakat vakilini yurti bilan faxrlanish, uning kelajagi uchun qayg'urish, bu yo'lda tinimsiz izlanish va mehnat qilishga undashi tabiiy. Lekin bu qarashlarga suyangan va ularni chuqur tahlil qilib o'rgangan holda biz ham faqat shunday qilsak bo'lar ekan, biz ham shu faqat yo'ldan boraylik, deb bo'lmaydi. Chunki har bir jamiyat rivojining o'ziga xos qonuniyatlari mavjudki, o'sha jamiyat a'zolari o'zlarining tub maqsad va manfaatlarini ular asosida shakllantiradi. Mafkuraviy tarbiya ana shu jarayonga xizmat qiladi, aslida uning tarkibiy qismi va uzviy bo'lagi hisoblanadi.

Xar qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi - jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, umuman, aholida pirovard natijada jamiyat rivojiga turtki beruvchi g'oyalarning ongli ravishda o'zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta'minlashdan iborat. Shu ma'noda, milliy istiqlol mafkurasini O'zbekistonda yashab, umr kechirayotgan har bir fuqaro ongi va shuuriga milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi hamda kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi sog'lom g'oyalar, fikrlarni singdirish va bu xalq tafakkuri tarzida o'z ifodasini topishiga erishish lozim. Bu jihat mamlakatimizdagi mafkuraviy tarbiyaning bosh xususiyatlaridan biri, zamonaviy tafakkur va mustaqillik dunyoqarashini shakllantirishning asosidir.

Muayyan g'oya asosida shakllangan dunyoqarash - u haqdagi tar-tibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va idrok majmui bo'lib, u shaxsni hayotda va jamiyatda munosib o'rin egallashga undaydi. Dunyoqarashning shakllanishi, e'tiqodning mustahkamlanishi uchun yoshlik va o'spirinlik yillari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu davr nafaqat dunyoqarash shakllanishi uchun, balki agar ma'lum bir qarashlar tizimi mavjud bo'lsa, ularni o'zgartirish uchun ham qulay. Shu bois ko'plab mafkuraviy ta'sirlar, asosan, yoshlarga, ularning qalbi va ongiga qaratilgan bo'lishi tabiiy.

"Mafkuraviy tarbiya vositalari" tushunchasi inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzini muayyan yo'nalishga soladigan, o'zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma'naviy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, mafkuraviy omillar, g'oyalar va qarashlarga tayanadigan ta'sir obyektlari majmuini ifodalaydi.

Uning mazmun-mohiyati Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengil-mas kuch" kitobida chuqur va har tomonlama asoslab berilgan. Mazkur asarga tayangan holda mafkuraviy tarbiya mezonlarini shartli ravishda bir necha guruhga bo'lish mumkin:

birinchi guruh — millat, xalq, davlatchilik, madaniyat, me'moriy yodgorliklar va boshqalarni qamrab oluvchi tarixni, ming yillar davomida rivojlanib kelayotgan agrar madaniy an'analarni, geografik shart-sharoitga aloqador tarixiy munosabatlarni va boshqalarni ifodalovchi moddiy meros;

ikkinchi guruh — xalqimizga xos bir necha ming yillik diniy e'tiqod, ta'lim-tarbiya, shuningdek, barcha ilm-fan sohalari va ular rivojida muhim o'rin tutgan mutafakkirlar va ularning asarlari, xalq ijodini qamrab oluvchi madaniy meros;

uchinchi guruh — xalqimizga xos an'analar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar, turmush tarzi bilan bog'liq boshqa madaniy omillar;

to'rtinchi guruh xalq qadriyatlari, tafakkur tarzi, xalqqa xos mafkuraviy xususiyatlar, ruhiyat va o'zaro ijtimoiy munosabatlar;

beshinchi guruh — hozirgi jamiyatimizda bevosita amaliy faoliyat yuritayotgan, inson tarbiyasida katta ta'sirga ega, umuman, mafkuraviy dunyoqarash shakllanishida bosh rol o'ynaydigan ta'lim-tarbiya maskanlari, OAV, kutubxona, teatr, san'at saroylari va shu kabi boshqa mafkuraviy ta'lim vositalarini o'z ichiga oladi.

Mafkuraviy tarbiya masalasi har bir davr va jamiyatga xos bo'lib, bunda davlat va jamiyat oldida ma'suliyatni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olish maqsadi ham yotadi. Har qaysi xalq yoki millatni uning tarixi, o'ziga xos urf-odatlari va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillar sifatida xizmat qiladi. Masalan, shu zamindan yetishib chiqqan buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyat-ning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bogliq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari katta.

Mafkuraviy tarbiyada xalq ogzaki ijodi muhim o'rin tutib, u millatimizning o'zligini namoyon etadigan, uni avlodlardan avlodlarga o'tkazib, tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqarib, o'zligini doimo saqlab kelayotgan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlarini o'zida ifoda etadi. Shu o'rinda mafkuraviy tarbiya mezonlaridan biri bo'lgan muqaddas dinimizning ahamiyati beqiyos-dir. Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ular-ni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, mafkuraviy tarbiya mezonlari shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafak-kir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl il-miy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim. Jamiyat esa o'z zaminining mutafakkirlari, dini va kashfiyotlari, ma'rifat, ilmu fan, madaniyat kabi sohalardan bularning barchasini o'zida uy-g'unlashtirgan xalqimizning g'oyaviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishda, uni namuna qilib ko'rsatishda foydalanadi. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chu-qur o'rganish, uning ma'nomazmunini avlodlarga yetkazish masalasi barcha, birinchi galda, ziyolilar, butun jamoatchilik uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Har qaysi millatning o'ziga xos mafkurasini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy

tushuncha va tasavvurlari, birinchi galda, oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan mafkuraviy mezon va qarashlar — yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan Ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chukur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning goyaviy asosini tashkil etadi.

Mafkuraviy tarbiya mezonlari haqida so'z ketganda, mahallaning o'rni va ta'siri xususida to'xtalish zarur. Ma'lumki, o'zbek mahallalari azaldan chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlar-ning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o'zini o'zi boshqaruv tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. «Mahalla — ham ota, ham ona» degan hikmatli nakl ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilinadi. Har qaysi xonadon, butun el-yurt-dagi mafkuraviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo'lgan kishi, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini, avvalo, mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Mafkuraviy tarbiya mezonlaridan yana biri ilmu ma'rifat, ta'lim-tarbiya bo'lib, ularga inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi sifatida qaralgan. Kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rish zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ishi ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lib qoladi. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Mafkuraviy tarbiyani targ'ib qilish uslublari. Milliy istiqlolimiz rivojining hozirgi bosqichi ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy ishlar ta'sirchanligini oshirish, ommani buyuk maqsadlar yo'lida safarbar etish, uyushtirish uchun asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratishni taqozo etmoqda:

1) Milliy g'oya va milliy mafkuraga oid targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish va uning qamrovini kengaytirish;

2) Garchi achchiq bo'lsada, haqiqatni aytishdan cho'chimaslik.

3) Soxtakorlikdan qochish.

4) Hayotdagi qiyinchilik, muammolarni ochiq-oydin bayon etish.

5) Ommani ruhlantirish, ishonch-ye'tiqodni mustahkamlash.

6) Birinchi Prezidentimiz atrofiga yanada mustahkamroq jipslashishga da'vat etish, ziyoli, ma'rifatshi, mafkura ishi bilan shug'ullanuvchi barcha targ'ibot-tashviqotshilarning birinchi darajali vazifasidir.

7) Maqsadimiz ma'rifatli jamiyat barpo etishdan iborat, bu jamiyatda qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning mas'ulligi, adolat, Vatan, xalq manfaati ulug' sanalishini inobatga olish.

8) Xalq hukmdorlarga emas, hukmdorlar halqqa xizmat qilishi - asosiy qoida.

9) Pirovard maqsadimiz adolatli jamiyat barpo etish.

10) Birovning haqiga xiyonat qilmaslik, diyonatlilik, iymonlilik, halollik mezonini ulug'lash.

11) Ma'rifiy-targ'ibot ishlarining shaklan va mazmunan turi: ma'ruza, suhbat va bahs-munozaralar, seminarlar, konferentsiyalar o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi.

12) Mafkuraning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, ta'sirchan, tushunarli tarzda yetkazish uchun odamlar qalbiga yo'l topa oladigan fidoyi inson, ziyolilarga tayanish.

Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkurani targ'ib qilishda quyidagi tarbiyaviy tamoyil, uslub (metodlar)larga e'tibor berish kerak:

- 1) Tushuntirishda va bayon etishda oddiylik va loʻndalik.
- 2) Talab va taklifni doimiy nazorat ostiga olish.
- 3) Ongga taʼsir koʻrsatishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish.
- 4) Ziyolilar mavqeyini oshirish, ularga eʼtibor va imkoniyat yaratish.
- 5) Turli bilimlarni egallashga boʻlgan ishtiyoqni qoʻllab-quvvatlash.
- 6) Ommaviy-axborot vositalarida xalq ruhiyatiga yaqinlashtirilgan yangi mafkuraviy materiallarni koʻpaytirish, doimiy «aks taʼsir» tamoyiliga amal qilish.
- 7) Televideniye va radio zamonaviy ish usullari va shakllarini egallashi uchun rasmiy xabarlarnigina emas, balki xalqaro mezonlarga muvofiq matbuot sahifalarida va televideniya chuqur tahliliy materiallar, jiddiy siyosiy, iqtisodiy, xalqaro sharhlar, bahs-munozaralar koʻrinishida boʻlishi lozim.

Demak, Milliy istiqlol gʻoyasini yoshlar ongiga singdirishning asosiy sohalarini: «Oila - bogʻcha - maktab - litsey - kollej - oliy oʻquv yurtlari - mahalla - jamiyat» tizimlari tashkil etadi.

Milliy istiqlol gʻoyasi va milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishning asosiy yoʻnalishlari esa quyidagilardan iborat:

1. Taʼlim va tarbiya.
2. Fan va ilmiy muassasalar.
3. Madaniyat va madaniy-maʼrifiy muassasalar.
4. Adabiyot va sanʼat.
5. Din.
6. Jismoniy tarbiya va sport.
7. Harbiy vatanparvarlik.
8. Urf-odat, marosim va bayramlar.
9. Oila.
10. Mahalla.
11. Mehnat jamoalari.
12. Siyosiy partiyalar.
13. Nodavlat tashkilotlar.

Taʼlim tarbiya tizimida milliy gʻoyani rivojlantirish imkoniyatlari. Taʼlim muassasalari Oʻzbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasi, oʻzbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolari, milliy istiqlol gʻoyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yoʻnalishlariga xizmat qiladi. Bu borada jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, taʼlim-tarbiya, targʻibot-tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Bunda Kadrlar tay-yorlash milliy dasturi asosida oʻquvchi-talabalar ongida milliy gʻoya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish, taʼlim muassasalarida bolalar va talabalar yoshiga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasi-ni singdirishda differensial pedagogik-psixologik dasturlar yaratish, oʻquv dasturlari, darslik va qoʻllanmalarda milliy istiqlol mafkurasi gʻoyalarini teran aks ettirish, maktab, litsei, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiya-ni bugungi kun talablari darajasiga koʻtarish, pedagog kadrlar-ning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega yoʻnalishlardir.

Taʼlim-tarbiyaning har bir bosqichi, oʻz navbatida, milliy gʻoyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning oʻziga xos omil-larini nazarda tutadi.

Maktabgacha taʼlim muassasalari. Bu oʻrinda har bir ota-ona-ning oʻz farzandining maktabgacha tarbiyasi uning keyingi taraqqiyot davrida qanchalik ahamiyat kasb etishi, bu davr uzluksiz taʼlim va tarbiyaning muhim bosqichi ekanini anglab yetishiga erishish zarur. Bunda oilaning maktabgacha taʼlim muassasalari tizimiga izchil uygʻunlashuviga erishishni nazarda tutish kerak Bu davrdagi barcha maktabgacha taʼlim-tarbiya muassasalari bolalardagi umumiy savodxonlik va maktabdagi taʼlim-tarbiyaga tayyorlash jarayonining muhim va zaruriy bosqichi sifatida qaralishi lozim.

Bevosita taʼlim beruvchi muassasalar (maktablar, litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy oʻquv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy oʻchoqlaridir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan

mafkuraviy ta'lim jarayonida, barcha o'quv qo'llanmalari va darsliklar, qo'shimcha adabiyotlarda quyidagi omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Shu bilan birga, Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish; ona tilimizga muhabbat uyg'otish, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va e'zozlash, ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash, oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'rsatish, mahallaning demokratiya darsxonasi va o'z-o'zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanini uqtirish, din va dunyoviy bilimlarning o'zaro qarama-qarshi emasligini anglatish, ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlovchi dalillar kel-tirish, siyosiy va huquqiy madaniyat sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'paytirish bu boardagi zarur bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmay-di. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish ti-zimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta e'tibor qaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi. Uni amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish kun tartibidagi eng muhim va jiddiy masalaga aylangan edi. Hozirgi kunda istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirda ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlar misolida ma'naviyat-ning yuksalishini kuzatish mumkin va tabiiyki, bunday sharoit-da goyaviy tarbiya mezonlari ham davrga muvofiqlashib boradi.

Ta'lim-tarbiya tizimida adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari, ma'naviy-madaniy va ma'rifiy muassasalar faoliyatlarini muvofiqlashtirishning ustuvor yo'nalishlari. XXI asr - innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta'lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o'z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim samaradorligi o'quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan holda yangi o'qitish uslublari, shakllari ta'lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Navqiron avlod davr ruhida ma'naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib bormas ekan, bizning o'z oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurli istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga yetkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir.

Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo'lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik – ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy-ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda o'tmish allomalari, mutafakkirlarining ma'naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g'oyat beqiyosdir.

Zamonaviy informatsion vaziyat talablarini hisobga olgan holda aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2006 yili maxsus qaror qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yangi axborot markazlarini barpo etish, mamlakatdagi kutubxonalar tarmog'ini tubdan takomillashtirish edi.

Mazkur qarorda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda ko'p sonli umumta'lim maktablari huzurida axborot-resurs markazlari tuzish ko'zda tutildi.

Axborot-resurs markazlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta'lim olishi va mustaqil ravishda talim olishiga ko'maklashish;
- milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lishini ta'minlash, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishi uchun imkoniyat yaratib berish;
- yangi axborot texnologiyalari (ma'lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko'rsatish;
- madaniy, ta'lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va hokozolar.

Adabiyot va san'at. Bu sohada ijod ahlining g'oyaviy-badiiy salohiyatini komil inson tarbiyasiga yo'naltirish ustuvor yo'nalish bo'lishi darkor.

Ijodkorlarni murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqeligini, olijanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san'at asarlarini yaratishga har tomonlama rag'batlantirish. yoshlarga ibrat bo'ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini barpo etish.

Milliy g'oyani tarannum etishga, istiqloq mafkurasiga zid g'oyalarning zararli mohiyatini ochib berishga ayniqsa e'tiborni kuchaytirish zarur. Hayot va ijoddagi mahdudlik hamda fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, tanqid va tahlillar orqali mafkura muhitining sog'lom bo'lishiga erishish.

Din. Eng nozik va murakkab bo'lgan bu sohada, avvalo, din ma'naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri ekanini, barcha zamonlarda milliy g'oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg'un rivojlanishini nazarda tutish lozim. Din o'z mohiyatiga ko'ra, poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ular orqali milliy istiqloq mafkurasining g'oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas dinimiz sog'lom va mo'tadil munosabatni shakllantirish - bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir⁶⁰.

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, Mustaqillik, Navro'z, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi yangi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur. Bugungi kunda urf-odat va an'analарimizning jamiyatni birlashtiruvchi xususiyatlaridan yanada to'liqroq foydalanish lozim.

Milliy an'analarni o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda to'y-marakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor.

Ma'naviy-ma'rifiy muassasalar. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Jamiyat taraqqiyotining asosi, - degan edi, - uni muqarrar halokatdan qut-qarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir»⁶¹. «Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir».

Qadrlar tayyorlash milliy dasturida «Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar»ga alohida e'tibor berilgan. yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi⁶². Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga

⁶⁰ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: «O'zbekiston», 2000, 62-69-betlar.

⁶¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T.: «O'zbekiston», 1999, 135, 146-betlar.

⁶² Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: «SHarq», 1997, 55- bet.

olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar.

Shu ma'noda, bunday xavf-xatarlarga qarshi asosiy qurol sifatida yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatshilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir».

1999 yil 3 sentabrda tuzilgan «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengishini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Prezident Farmonida kengashning asosiy maqsadi ham - «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasiga tayangan holda o'zbek xalqining ongini va qalbini mustabid o'tmish asoratlaridan forig' etish, barkamol avlod, komil insonni kamol toptirishdan iborat qilib qo'yildi. «Biz barcha mamlakatlarda bo'lganidek, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish tarafdorimiz», - degan edi Yurtboshimiz. (Karimov I.A. Asarlar. 8 - tom, 24 - bet).

Demak, madaniyat va madaniy - ma'rifiy muassasalar mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarishini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Bu dargohlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, milliy istiqloq mafkurasining mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlamga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash ayniqsa muhim.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar yoshlarni haqiqiy san'at, chinakam badiiy go'zallik ruhida tarbiyalash maskanlari bo'lmog'i lozim.

Madaniyat va san'at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarning yetakchi o'rinni egallab olishga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Turmushimizni ommaviy axborot vositalarisiz, xususan radio, televideniye, gazeta, jurnallarsiz tasavvur qilish qiyin. Odamlarni butun dunyoda ro'y berayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan, yurtimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan xabardor qilish, hozirgi kunning dolzarb muammolari bo'yicha jamoatchilik fikrini bilish va shakllantirish, ma'naviy-mafkuraviy o'zgarishlarni, ma'rifatni yetkazish matbuot xodimlarining muhim burchi hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, milliy g'oyani shakllantirishda, uning asosiy xususiyatlari, tamoyillarini xalkimizga atroflicha tushuntirishda va milliy istiqloq g'oyasini, uning asl mohiyatini yoritish va ularni yoshlarga yetkazishda matbuotning o'rni juda kattadir.

Milliy g'oyani rivojlantirishda ommaviy va siyosiy tashkilotlar, oila, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlarning rolini oshirishning ahamiyati.

Mamlakatimiz istiqboli, birinchi navbatda, yoshlar zamonaviy fan asoslarini, eng yangi texnika va texnologiyani, milliy va umuminsoniy ma'naviyat qadriyatlarini qanchalik chuqur egallashiga bog'liq.

Bu fikrlar oiladagi tarbiya masalasiga ham oiddir. Ota-onalar farzandlarining maktabda, oliy o'quv yurtlarida olayotgan bilimlariga, kasb tanlash madaniyati, ehtiyoji shakllanishiga befarq qarashlari mumkin emas. yosh avlodni bugungi kun imkoniyatlarigagina emas, balki ertangi kun ehtiyojlariga tayanib tarbiyalamoq zarur. Umuman tarbiyada ertangi kunni o'ylash, ko'ra bilish ustivor ahamiyatga ega.

Bolalar doim biror foydali ish bilan band bo'lishini ta'minlash ham katta ahamiyatga ega. Biror ish bilan band bo'lishga o'rgangan yoshlar mehnatsevar bo'ladilar, ularda juda yoshligidanoq ma'lum mehnat malakalari shakllanadi. Bo'sh vaqtlarida, ular o'zlari sevgan ish bilan shug'ullanishga o'rganib qoladilar. Bunday bolalarning jinoyat qilishga yoki nojo'ya ishlar bilan shug'ullanishga vaqti ham bo'lmaydi.

Odobli, mehnatsevar, sabr-toqatli farzandlar Ota-ona qoldirgan boylikka boylik qo'shadi, halol mehnati bilan jamiyatda o'z o'rnini, qadr-qimmatini topadi. Ota-onadan meros bo'lib qolgan axloq va odob esa bir umr tugamaydigan eng katta boylikdir. O'zbek xalqi maqolida aytilganidek,

meros yo'li bilan orttirilgan moddiy boylik yomon, akadan qolgan boylik undan ham yomonroq, xotindan qolgan boylik esa bularning hammasidan ham yomonroqdir. yoshlar o'z mehnati, peshona teri bilan topgan boylikni ko'proq qadrlaydilar.

Ota-onalar bilishi, amal qilishi lozim yana bir muhim masala farzandlariga berayotgan tarbiya davr ruhiga, zamon imkoniyati va ehtiyojlariga, davlat belgilagan rejalar tizimiga qay darajada mos kelishini yaxshi tasavvur etishdir. Ota-onaning ko'zi oldida shirin farzandlari bilan bir qatorda, ularning jamiyat, millat taraqqiyoti, davr ehtiyojlari va imkoniyati bilan uzviy bog'langan kelajagi ham turmog'i kerak.

Ota-onalar farzand tarbiyasida asrlar davomida shakllangan an'analarga, bu boradagi umuminsoniy qadriyatlarga tayanganida, davr ruhi va ehtiyojlarini e'tiborga olganida yaxshi natijalarga erishadilar. Bu ishning samarasi ko'proq tarbiyaning maqsadi va usullariga bog'liq bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni, yo'nalishi, usullari esa o'zgarib, yangilanib, takomillashib turadi. Bunga har bir konkret tarixiy davrning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, mafkuraviy, ehtiyojlari ham ta'sir etadi.

Shu bois aqlan yetuk, ruhan tetik va sog'lom, erkin va tanqidiy fikrlovchi, ayni paytda, ijtimoiy mas'uliyatni to'g'ri his etadigan, muayyan kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash O'zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning tarkibiy qismiga, asosiy shart-sharoitiga va maqsadiga aylandi⁶³.

Shu o'rinda ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq yana bir masalaga ham e'tibor berish kerak. Milliy axloqiy qadriyatlarning, milliy tarbiya usullarining ahamiyatini kamsitmagan holda shuni ham aytish mumkinki, har qanday sharoitda ham tarbiya sof milliy mezonlar doirasida qolib ketishi millat ma'naviy kamoloti imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida belgilanadi. Bu fikr mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari yo'nalishlarini belgilash uchun ham katta ahamiyatga ega. Milliy tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishdir. Olimat ul Banotning milliy tarbiya an'analari haqida quyidagi fikrlarida ham chuqur ma'no bor. U shunday deb yozgan edi: «Ota-onalar qo'lida bolalar aziz omonatlardir. Shuning uchun ham ularni go'zal tarbiya etmoq yaxshi xulqlarga o'rgatmoq va ko'rkam odatlarni tushuntirmoq lozim.

Tarbiya bilan bir bolani oltin etmoqlik mumkin, tuproq qilmoq ham mumkin⁶⁴. Tarbiyalangan kishilar din amri bilan yashaydilar, ularning tili bilan dili, so'zi bilan ishi bir bo'ladi. Bunday fazilatlarni shakllantirish birinchi navbatda oilada Ota-onaga hamda qolaversa tarbiyachilarga bog'liqdir. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tilgan hozirgi sharoitda oila va undagi Ota-onaning farzand tarbiyasida mas'uliyati yanada oshdi, deb aytishga to'la asosimiz bor.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda oila - haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibratini, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

“Har bir inson uchun, - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov, - Vatan tushunchasi, avvalo oiladan boshlanadi. Shu bois, oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga milliy manfaat nuqtainazaridan yondoshmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz»⁶⁵. Yurtboshimizning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratib: “Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir”⁶⁶, deydi.

Binobarin, jamiyat faqat o'z shaxsiy manfaatini ko'zlaydigan odamlar yig'indisidan iborat emas. Umumiy manfaatlarni teran anglash, kishilarning jamiyat bo'lib uyushishlariga, ijtimoiy

⁶³ O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat. T.: «Ijod dunyosi» nashriyoti, 2002. –B. 20.

⁶⁴ E.Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. -T.:Universitet, 1998, -B. 120.

⁶⁵ Karimov I. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. --T.:O'zbekiston, 2000. –B. 23.

⁶⁶ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008. –B. 52.

talab va normalarni e'tirof etib, ularga amal qilishlariga sabab bo'ladi. Bu ayniqsa, hozirgi o'tish davrida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ana shu sababdan ham jamiyat a'zolarini umumiy maqsad va manfaatlar yo'lida birlashtirish mafkuraning asosiy vazifalaridan biridir. O'zining Vatan deb atalmish ulug' bir oilasiga mansubligini his etish tuyg'usi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki muttasil va izchil mafkuraviy tarbiya samarasi o'laroq, yuzaga keladi⁶⁷. Oiladagi totuvlik, ahillik, mehr-shafqat hislatlari uluksiz ravishda turli shakllarda olib boriladigan axloqiy tarbiyaning g'oyat xilmaxil qatlamlarini umumiy manfaatlar atrofida jipslashtirish, odamlar o'rtasida hamjihatlik totuvlik, o'zaro yordam xislatlarini shakllantirish ham izchil mafkuraviy tarbiya vositasida amalga oshiriladi.

Davlat, nodavlat tashkilotlarning o'rni. «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish» g'oyasini bugun amalga oshirish ma'lim ma'noda mafkuraviy ishlarimizning qat'iy tizimi doirasiga bog'liq. Shuningdek, o'qitish texnologiyasi, darslik, ijtimoiy fan salohiyatiga, ularni amalga oshirish omillariga bog'liq.

Siyosiy partiyalar - o'z faoliyati bilan fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilmaxilligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g'oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda har bir partiya o'z dasturiy qarash va maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega. Har bir partiyaning o'z dasturiy g'oyalari hayotga tatbiq etish jarayonida milliy istiqloq mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi siyosiy hayotning bosh mezonidir. Chunki xalq manfaatlar, istiqloq g'oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat'iy nazar, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat tashkilotlar mafkuraviy jarayonlarda ham faol ishtirok etishi lozim.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi bu boradagi amaliy ishlarni muvofiqlashtirib borishi, Inson huquqlari milliy markazi, Ma'rifatparvarlar jamiyati, Oila ilmiy markazi, Faylasuflar milliy jamiyati, O'zbekiston Faylasuflari jamiyati, Ijtimoiy fikr markazi kabi tashkilotlar o'z faoliyatini milliy istiqloq mafkurasini bilan uyg'un holda tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasini joriy etishga moddiy, texnikaviy va ma'rifiy jihatdan ko'mak beradigan «Sog'lom avlod», «Kamolot», «Umid», «Ulug'bek», «Oltin meros», «Amir Temur», «Imom Buxoriy», «Ustoz», «Mahalla», «Iste'dod» jamg'armalari va boshqa jamoat tashkilotlari imkoniyatlaridan foydalanishga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Demak, milliy istiqloq g'oyasini yoshlar ongiga singdirish sohalari va yo'nalishlari xilmaxil bo'lib, ulardan samarali va to'g'ri, o'rinli foydalanishni talab etadi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur va muhimdir. Mafkura bo'lmasa xalq, millat, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Mafkura jamiyat, xalq va millatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotiga maqsad va yo'nalish beradi. Milliy g'oya, milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda:

1) Nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ularning imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur.

2) Mustaqillikni mustahkamlab, ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jadallashtirish, yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirib, yagona maqsad yo'lida safarbar etishni taqozo etadi. Ayniqsa fuqarolarni kamol toptirishga yo'naltirilgan va tuzilgan ma'naviyat va ma'rifat Respublika Kengashi targ'ibot-tashviqot ishlarini uluksiz olib borishni davr taqozo etmoqda.

3) Maktablar, litseylar, kollej va oliy o'quv yurtlarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutassaddi mutaxassislar lavozimlarini joriy etib, ular hayotini yanada faollashtirish lozim.

4) Oila, mahalla, umumiy o'rta, umumiy maxsus, kasb-hunar ta'limi, maktabdan tashqari muassasalar, oliy ta'lim tizimida bolalar, o'smirlar, talaba yoshlar ongini yuksaltirish, ularni ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qiladigan turli xil tashkilot va to'garaklar tuzish, ongni fikrlashga o'rgatish, ularning tafakkurida bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

⁶⁷ Milliy istiqloq g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. -T.:«Ijod dunyosi» nashriyot uyi, 2002. -B. 9.

Xalq bilan muloqot. Xalq qabulxonalari va virtual markazlar.

Ijtimoiy munosabatlar, aslida, odamning siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariyoqim vakillari o'zlaricha o'rganishlari ma'lum. Masalan, interksionizm vakillari uni shaxslararo o'zaro ta'sirning turlichamoyon bo'lishi shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari odamlarning bir-birlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o'zaro almashinuvija-rayoni sifatida tasavvur qiladilar. Shunga o'xshash hozirda turli-tuman yondashuvlar mavjud, lekin ularning barchasini birlashtiradigan yagona g'oya - bu odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir va aloqa jarayonlarining mexanizmlarini aniqlash va ushbu jarayonni boshqarish usullarining taktika va strategiyasini ishlab chiqishdir.

Muloqot - *bu, kishilarning o'zaro bevosita yoki bilvosita uchrashi-shi, ko'rishishi, qabul qilishi orqali o'rnatiladigan munosabatlari natijasida axborotlar almashadigan, olingan ma'lumotlar bo'yicha tegishli xulosalar chiqarishga asos bo'ladigan ko'p qirrali jarayondir.*

Aholi bilan bo'ladigan muloqotni quyidagi turlarga: 1) bevosita; 2) bilvosita; 3) rolli; 4) mazmunli; 5) rasmiy; 6) norasmiy ajratish mumkin. Bunda:

Bevosita muloqot «yuzma-yuz» suhbat bo'lib, uning har bir ishtirokchisi idrok qiladi, aloqa qiladi va hamma mavjud vositalarni keng qo'llaydi.

Bilvosita muloqot ham aloqa vositasi bo'lib, unda shaxslar, aloqa vositalari va mexanizmlar ishtirok etadi (masalan: telegraf, telefon orqali gaplashish).

Rolli muloqot bu odamlar tomonidan ijtimoiy rollar orqali amalga oshiriladi. Masalan, tergovchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi muloqot rollidir.

Mazmunli muloqot bu individning boshqa shaxsga o'z holati, kay-fiyati, xohishini mimika, harakat, imo-ishora orqali bildirishidir.

Rasmiy muloqot yuridik kuchga ega bo'lib, davlat va jamiyat manfaatini ko'zlagan hamda qayd etiladigan muloqot turidir. Masalan, tergov jarayonidagi so'roq qilish.

Norasmiy muloqot bu shaxslararo o'zaro muloqot jarayonida o'zi-ni qiziqtirgan u yoki bu ma'lumotga ega bo'lish hisoblanadi.

Muloqot quyida vazifalarni: 1) aloqa o'rnatish - suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash; 2) informatsiya - suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikrlar varejalarni almashish; 3) faoliyatgaun-dash~ suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish; 4) koordinatsiyey - suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishdaharakatlarnimuvofiklashtirish; 5) tushunishni ta'minlash - suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish; 6) motivlashtirish - suhbatdoshda muayyan xisssiyotlarni uyg'otish hamda ularni o'zgartirish; 7) munosabat o'rnatish - munosabatlar ti-zimidagi shaxsiy o'rnini, mavqeni aniqlash; 8) ta'sir ko'rsatish -suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlari va yo'l-yo'riq, ko'rsatma, dasturlarini o'zgartirish va sh.k. bajaradi.

Muloqot tushunchasiga berilgan ta'riflar, ularning turlari va bajaradigan vazifalari shuni ko'rsatadiki, bundagi eng asosiy masala har bir insonning dilidagi yashashdan maqsadi nima ekanligini, buning uchun qanday ishlarni bajarish istagi borligini, kelgusidagi orzu-havaslarini bilish, shunga qarab ularning og'irini yengil qilish uchun shart-sha-roitlar yaratib berishdan iboratdir.

Mamlakatimiz fuqarolariga tegishli bo'lgan barcha hukuk va majburiyatlar Asosiy qonunimizda batafsil ko'rsatilgan. Zero, shunday ekan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: *“Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad — inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib ko'ymoqda. Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa avealo odamlar bilan, xalq bilan mulokrt qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiymuammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak. Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo'ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish bizning faoliyatimizda, afsuski, oxirgi o'ringa tushib qoldi. Hozirgi vaqtda odamlar davlat idoralaridan nimani istayapti?”* degan holda, ushbu savolga javob topish uchun mamlakatimizning barcha olis va yaqin joylarida yashovchi aholining barcha qatlamlari bilan

o‘zaro muloqotda bo‘ldilar.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning muntazam ravishda bevosita xalq bilan olib borgan muloqotlari natijasida quyidagilar:

uy-joylarning yetishmasligi, borlarining ham ta‘mir-talab bo‘lib qolganligi;

gaz, elektr energiyasi, o‘tin ta‘minotidagi uzilishlar, qishda uy-larni isitish tizimining tobora izdan chiqib borayotganligi;

kommunal, transport va savdo xizmatining past darajada tash-kil etilganligi;

- ichki yo‘llarning qarovsiz holatga kelib kolganligi;

dori-darmonlarning haddan tashqari qimmatligi, ularning xufyona yo‘llar bilan sotilishi;

bemorlarga tez yordam ko‘rsatish tizimining tobora yomonlashib borayotganligi;

shifoxonalarda malakali tibbiy yordam olish uchun sharoitning yo‘qligi, ayrim davolash muassasalarida tamagirlikning avjiga chiqqanligi;

maktabgacha ta‘lim, o‘rta maktablarda bolalar va o‘quvchilarning ta‘lim-tarbiya olishlari uchun yetarlicha sharoitlar yaratilmaganligi, o‘qituvchi mutaxassislarning yetishmasligi, ularning boshqa ishlarga jalb kdpinishi;

kasb-xunar kollejlari va akademik litseylarda o‘quvchilar davomadining pastligi, o‘qigash sifatining zamon talablariga javob bermasligi, ayrim ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-axlokiy muxitning yomonligi;

oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifatining zamon talablaridan orqada qolib ketayotganligi, professor-o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligining past darajada ekanligi, o‘quv dasturlarining amaliyot bilan yetarlicha bog‘lanmaganligi, o‘qishga qabul qilish jarayonida adolat prinsiplarining buzilayotganligi, ya‘ni «bunker», «rektorat» degan ro‘yxatlar asosida qobiliyatsiz kim-salarning o‘qishga kirayotganligi;

mutasaddi rahbarlar tomonidan ishni tashkil etish va o‘z vaqtida bajarish uchun byurokratik to‘siqlar qo‘yilayotganligi;

rahbarlar tomonidan konunga zid bo‘lgan ko‘plab idoraviy yo‘riqnomalarning chiqarilayotganligi;

bank kreditlari ajratishda tanish-bilishchilik asosida tama-girlik bilan katta pul mablag‘larining o‘zlashtirilayotganligi;

tadbirkorlik bo‘yicha noqonuniy tekshirishlarning avj olayot-ganligi;

huquq-tartibot idoralarining jabrdiydalar arzig quloq solmayotganligi, ularning o‘zlari mavjud qonunlarni oyoq-osti qilayotganliklari;

ishsizlik, ishlayotganlarning ish haqini, ayniqsa, pensionerlarning pensiya pullarini o‘z vaktida ololmayotganligi, bu borada ay-rim bank xodimlarining “turli xil o‘yinlar”ni o‘ynayotganliklari;

yutuqlardan esankirash, madhiyabozlik, ayrim rahbarlardan “xudo yasash” kabi odamlarni ma‘naviy inqirozga olib keluvchi holatlarning mavjudligi va boshqa shu kabi salbiy holatlarning mavjudligi ayon bo‘lib qoldi.

Buning yana bir tasdigini 2016 yil 25 sentabr kuni internet tarmogida ish boshlagan bosh vazirning so‘ngra Prezidentning virtual elektron qabulxonasiga mamlakatimiz fukarolaridan kelib tushgan 1 mln. dan ortiq murojatlarida ko‘rish mumkin. Ularning 93% o‘z yechimini topgan bo‘lib, qolganlari ko‘rib chikilmokda.

Bu xususda Sh.M.Mirziyoyev: “Ochiq aytishim kerak, bu murojaatlar tahlilidan ko‘p narsa ayon bo‘ldi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, ular hayotimizda mavjud bo‘lgan o‘tkir muammolarga ko‘zimizni ochib berdi.

Mana, odamlar nimalar haqida murojaat qilmokda. Avvalo, ular turli sohalardagi byurokratik to‘siqlarni olib tashlash, qonunga zid bo‘lgan ko‘plab idoraviy yo‘riqnomalarni bekor qilish, stavkasi optimal bo‘lgan bank kreditlari ajratish, tadbirkorlik bo‘yicha noqonuniy tekshirishlarga barham berish haqida, hukuq-tartibot idoralarining faoliyati haqida murojaat qilmoqda.

Shu bilan birga, aholimizdan uy-joy kurilishi, kommunal, transport va savdo xizmati, energiya ta‘minotini, yo‘llarning holatini yaxshilash bo‘yicha ham ko‘plab murojaatlar kelib

tushmokda. Ko'rib turibsizki, bu talablarning barchasi konuniy va adolatli. Bu borada ortiqcha izohning hojati yo'q.

Lekin shu o'rinda bir savol tugiladi: mana shu murojaatlarda ko'tarilgan hayotiy muammolarni joylardagi hokimlik va idora-lar, tegishli mutasaddilar o'z vaqtida hal etishi zarur emasmi? Holbuki, bu masalada alohida qonun, ya'ni "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun (2014 yil 3 dekabr) qabul qilingan. Lekin, ming, afsuski, bu qonunning ijrosini nazorat qilish o'z holiga tashlab qo'yilgan.

Shu sababli ana shu qonun talablarini bajarmayotgan rahbar va mansabdor shaxslarni nafaqat ma'muriy, balki jinoiy javobgarlikka tortish zarur, deb hisoblayman.

Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni avvalo barcha bo'g'indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur. Shu munosabat bilan tadbir-korlik faoliyati va xususiy mulkni himoya qilish yuzasidan qabul qilingan barcha huquqiy hujjat talablariga so'zsiz amal qilishni ta'minlash shart. Nega deganda, xalq boy bo'lsa, davlat ham albatta boy va qudratli bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xaps bilan muloqot va inson manfaatlari tushunchalariga o'zaro shunchalik boglanib ketganki, ularni bir-biridan aslo ajratib bo'lmaydi", - degan edi.

Yuqorida keltirilgan dalillarning barchasi xalq bilan muloqot qilish orqali bilib olingan narsalarning barchasi jamiyat hayotini aks ettiruvchi kuzgi hisoblanadi. Demak, ana shu kuzguda aks ettirilgan narsalarni aql orqali idrok qilish va uning yechimini akd tarozi-si orqali topish hayotiy zarurat bo'lib, unga quloq solmaslik, ana shu kuzguni sindirib qo'yishga olib kelishi mumkin.

1.3. Xalq bilan muloqot olib borish metodikasi. Xalq bilan muloqot qilish shunchalik uchrashuvdan, hol-ahvol so'rashuvdan iborat bo'lmasdan, ilmiy-amaliy asosda olib borini taqozo etadi. Buning uchun esa muloqot qilish qonun-qoidalarini, ayniqsa, metodikasini yaxshi bilish kerak bo'ladi. Shu sababli, xalq bilan muloqot olib borishda, ular bilan quyidagi aloqa o'rnatish metodikasidan foydalanish maqsadga muvofikdir:

1. Uzaro bir-birini tushunish.
 2. Umumiy yoki moye keladigan qiziqishlarni topish.
 3. Muloqot uchun taklif etiladigan sifat va qabul qilinadigan prinsiplarni bilish.
 4. Muloqot uchun xavfli bo'lgan sifatlarni aniqlash.
 5. Individual ta'sir etish va suhbatdoshga moslashish.
 6. Umumiy qoidalarni yaratish va o'zaro harakat qilish.
- Muloqot jarayonida xodimning barcha kasbiy sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimning mantiqiy fikrlashiga, voqeani o'tmishdagi vaziyat bilan bog'lashiga, o'zaro solishtirish va qiyoslash, obyekt va sharoitni mukam-mal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

Xalq bilan muloqot olib borishni tashkil etishda muloqotning quyidagi: kommunikativ, interaktiv, persektiv tomonlari borligiga e'tibor karatish kerak bo'ladi.

1. Xalq bilan muloqot olib borishning kommunikativ tomoni — bu ma'lumotlar almashinuv jarayoni bo'lib, birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o'y-xayollar, his-tuyg'u va kechinmalar bilan o'rtokdashadilar. Bunda o'y-fikrlar, his-tuyg'u va kechinmalarni axborot sifatida, kommunikatsiyani esa axborot almashinuvi sifatida talqin etish mumkin. Ammo shuni e'tiborga olish kerakki, insonlarga ro kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuidan iborat emas. Chunki muloqot jarayonida axborot nafakat uzatiladi, balki shakllantiriladi, anikdashtiriladi, rivojlantiriladi. Demak, inson muloqotini shuncha-ki axborot almashinuidan iborat jarayon deb xisoblash mumkin emas. Zero, birinchidan, muloqot jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga shunchaki harakatlanmaydi, balki faol almashiniladi (kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-biriga axborot yuborayotganda bir-birining motivlari, maqsadlari, yo'l-yo'riqparini taxdil qiladilar); ikkinchidan, muloqot jarayonida axborot almasha turib kishilar belgilar tizimi orqali bir-biriga ta'sir etishi mumkin (insonlararo axborot almashinuida, albatta, suhbatdosh xulq-atvoriga muayyan ta'sir o'tkaziladi); uchinchidan, muloqot jarayonida

kommunikator (axborotni yuborayotgan odam) va retsipiyent (axborotni kabul qilayotgan odam) bir xil kodlashtirish hamda dekodlashtirish tizimiga ega bo'lishi kerak (yagona tizimni qabul qilishgina kommunikativ jarayon ishtirokchilari-ga bir-birini tushunish imkonini beradi); to'rtinchidan, muloqot jarayo-nida fakat insonlararo kommunikatsiyaga xos to'siqpar vujudga kelishi mumkin (to'siqlar nafaqat belgilar tizimidagi farkdar, balki ijtimoiy-siyosiy, diniy, kasbiy farkdar yoki umumiy dunyoqarash, olamni his etishdagi farqlar tufayli vujudga kelishi mumkin).

Kommunikatordan chiqayotgan axborot ikki xil bo'lishi mumkin: 1. Undovchi axborot buyruq, maslahat, iltimos va hokazolarda namoyon bo'ladi. Undan ko'zlangan maqsad retsipiyentni biror harakatga rag'batlantirishdan iborat. Rag'batlantirish uch xil bo'lishi mumkin: a) faollashtirish (biror harakatni qilishga undash); b) interdiksiyalash (biror harakatni qilishdan to'xtatish); v) destabillashtirish (bi-ror harakatdagi muvozanatni buzish).

Konstatatsiyalovchi axborot ma'lumot tarzida ifodalanadi. Bu turdagi axborot turli ta'limiy tizimlardan o'rin olgan bo'lib, xulq-atvorni o'zgartirish uchun bevosita ta'sir ko'rsatmaydi (lekin bilvosita ta'sir ko'rsatish maqsadi ham bo'ladi).

Kommunikativ jarayonning kuyidagi besh unsur: a) kim (axborot kim tomonidan uzatilmokda); b) nima (qanday axborot uzatilmoqda); v) qanday (axborot kandy yo'l bilan uzatilmokda); g) kimga (axborot kimga yo'naltirilmoqda); d) qanchalik samarali (axborot qanchalik samarador uzatildi) tashkil topgan bo'ladi.

2. Xalq bilan muloqot olib borishning interaktiv tomoni — birgalikdagi faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda muloqot ishtirokchilarining bir-biriga ta'sir o'tkazishi tushuniladi. Kommunikatsiya orqali odamlar birgalikdagi faoliyatni tashkil etadilar. Umumiy faoliyatda ishtirok etar ekan odamlar, albatta, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'zaro ta'sir birgalikdagi faoliyatning tashkil etilishi sifatida tushuniladi.

Birgalikdagi faoliyatning uch xil modeli mavjud:

har bir ishtirokchi boshqalardan mustaqil ravishda ishning o'ziga tegishli qismini bajarishi (masalan, shanbalikdagi ish) umumiy vazifaning bosqichma-bosqich har bir ishtirokchi tomonidan bajarilishi (masalan, konveyerdagi ish);

har bir ishtirokchi boshkalar bilan birgalikda bir vaktning o'zida umumiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi (masalan, futbol jamoasidagi ish).

Odatda muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sirning ikki xil turi ajratiladi:

1) kooperatsiyaga asoslangan o'zaro ta'sir - kommunikativ jarayon ishtirokchilarining umumiy maqsadi va o'z kuchlarini birlashtirishdan iborat.

Kooperatsiyaning bir necha turi farqlanadi:

a) avtomatik (instinktiv-biologik darajada mavjud bo'ladi);

b) an'anaviy (tarkib topgan ijtimoiy meyorlar bilan, an'ana va urf-odatlar bilan taqozolangan bo'ladi);

v) spontan (do'stlik, muhabbat va shu kabi munosabatlar bilan taqozolangan bo'ladi);

g) direktiv (majburiy hamkorlik hukm suruvchi joylarda mavjud bo'lishi);

d) shartnomaviy (rasmiy kelishuvlar bilan taqozolangan bo'ladi). Kooperatsiya — birgalikdagi faoliyatning zaruriy elementidir.

2) Raqobatga asoslangan o'zaro ta'sir kommunikativ jarayon ishtirokchilarining shaxsiy yoki guruhiy maqsadlarga erishish uchun o'zaro kurash sharoitida bir-biriga ta'sir ko'rsatishidan iborat.

Bunday o'zaro ta'sirda tomonlarning shaxsiy faolligi odatda yuqori bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, u kooperatsiya bilan ma'lum darajada bog'likdir. Chunki raqobat davomida ham muayyan qoidalar o'rnatilishi talab etiladi. Aks hollarda o'zaro kurash urushga aylanib ketishi mumkin. Raqobatning eng yorqin shakli nizodir.

3. Xalq bilan muloqot olib borishning perseptiv tomoni - kishilarning bir-birini idrok etish jarayoni bo'lib, insonning inson tomonidan idrok etilishi «ijtimoiy persepsiya» deyiladi.

Ijtimoiy perseptiv jarayonlarda individ quyidagilarni idrok etishi mumkin: 1) o'z guruhiga mansub individni; 2) boshqa guruhga mansub individni; 3) o'zining guruhini; 4) o'zga guruhni.

Ijtimoiy perseptiv jarayonlarda guruh kuyidagilarni idrok etishi mumkin: 1) o'z individini;

2) o'zga guruh individini; 3) o'zini; 4) o'zga guruhni,

Muloqot jarayonida bir-birini idrok etayotgan odamlar bir-birini tushunishga harakat qiladilar. Buning uchun quyidagi mexanizmlar ishga solinadi:

a) identifikatsiya-insonning o'zini xayolan suhbatdoshi o'rniga ko'yishi orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilish;

b) empatiya - insonning o'zini xayolan suhbatdoshi o'rniga ko'yishi orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi;

v) refleksiya - insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi;

g) steriotipizatsiya - insonning suhbatdoshini tushunishga intilishi yo'lida muayyan shablonlardan foydalanishi.

1.4. Xalq bilan muloqot - mamlakatning strategik istiqbolini belgilash vositasi. Har bir katta va kichik mutasaddi rahbar uchun xalq bilan muloqot qilish shunchalik salom-alik, tani-shish, eshitishdan iborat bo'lmasdan, balki muloqot chog'ida ko'tarilgan masalani joyida hal etishdan iborat bo'lmog'i darkor. Buning isbotini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan amaliy ishlar misolida ko'rish mumkin.

Xalq bilan muloqot qilish orqali, xalqning dilidagi orzu-istaklarini amalga oshirish uchun qisqa muddat ichida quyidagi ishlar bajarilmokda.

1.Uzbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha 2017—2021 yil-larga muljallangan Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va u aniq dasturlar asosida amalga oshirilmokda.

2.Xalqning zamonaviy qulayliklarga ega bo'lgan uy-joylarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun mamlakatimizning barcha hududlarida arzon uy-joy qurilishlari boshlab yuborildi.

3.Aholining eng katta boyligi, uning salomatligini saqlash bo'yicha sog'liqni saqlash tizimi tubdan isloh qilinmokda.

4.Mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirish borasida katta in-vestitsion loyihalar asosida bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmokda.

5.Mamlakatda ishsizlikni tugatish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hech qanday byurokratik to'sikdarsiz tashkil etish har tomonlama kafolatlandi va ularga yetarlicha kreditlar berish yo'lga qo'yildi.

6.Aholining tomorqa xo'jaligidan o'zini-o'zi boqishi uchun unum-li foydalanishi bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmokda.

7.Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi.

8.Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha hukuqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi o'zgartilmoqda. Ayniqsa, adolatli sudlovni yo'lga qo'yish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmokda.

9.Fuqaroligi bo'lmaganlarni O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilish masalasi o'z yechimini topmokda.

10.Yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalash ishiga yongicha yondashuv konsepsiyasi yaratilib,uni amalga oshirish ishlari davlat siyosati darajasida olib borilmokda.

Mantiqan olib qaraganda xalq bilan muloqot qilish natijasida, ularning ishonchini oqlash uchun qilinayotgan barcha ishlar mamlakatimizning kelgusidagi istiqbollari belgilashning strategik vositasi hisoblanadi.

Ushbu taktik va strategik ahamiyatga molik bo'lgan narsalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda qabul qilgan "Jismoniy va yuridik shaxslarning muroja-atlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doyr chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoniga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq kabulxonasi –O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshkarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari (bundan buyon - Xalq qabulxonalari) — Qorakalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek, har bir tuman va shaharda (tumanga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari);

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (bundan buyon - Virtual

qabulxona) tuzilishi alohida ahamiyat kasb etmokda.

Tashkil etilgan Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy man-faatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi gLaoliyatini ta'minlash;

- fuqarolarning Uzbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, Uzbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, hukuqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga va xo'jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy hukuqlarining so'zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qat'iy amal qilgan holda, to'liq, xolis va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini tashkil etish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishliligi bo'yicha davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko'rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish;

- jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillari-ning kabullarini davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari ishtirokida, shu jumladan, videokonferensaloqa orqali o'tkazish;

- Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushayotgan murojaatlarning qayd etilishi, umumlashtirilishi, tizimlashtirilishi va ko'rib chiqilishi ustidan nazorat qilinishi bo'yicha yagona elektron axborot tizimini joriy etish va yuritish yo'li bilan murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish.

Adabiyotlar.

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq, 1997.
2. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T.: «O'zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: «O'zbekiston», 2000.
5. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.:O'zbekiston, 2000.
6. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yyengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.
7. Boboyev H., G'ofurov Z., Islomov Z., Milliy istiqloq mafkurasi va taraqqiyot. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2001.
8. Boboyev X. va boshqalar. Milliy istiqloq mafkurasi va taraqqiyot. -T.:Yangi asr avlodi, 2001.
9. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. -T.: 2000.
10. Karimova V.M. Yoshlarni milliy g'oyani va milliy mafkurani shakllantirish omillari va shartlari. Ta'lim va tarbiya. 2000, № 1-2.
11. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. -T.:Universitet, 1998.
12. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «Sharq», 1997.
13. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat. T.: «Ijod dunyosi» nashriyoti, 2002.
14. G'oya va mafkura. –T. , 2002 yil, «Ijod dunyosi» nashriyoti.
15. Muloqot jurnali, 1999 yil. № 4. 21-bet.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. G'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlariga kompleks sistemali yondashish tamoyillari.

2. Milliy g'oyani inson ongi va qalbiga singdirishning yangi pedagogik-didaktik texnologiyasini takomillashtirish vazifalari.
3. Ijtimoiy institutlarning an'anaviy, individual, jamoaviy mafkuraviy funksiyalari.
4. G'oya haqidagi tasavvurlarning intellektual faollik darajalari, unda siyosiy voqelikning mantiqiy izchil va asosli manzarasini yaratish mo'ljallari.
5. Milliy g'oyani ommaga transformatsiya qilishda kadrlar korpusini shakllantirishning zaruriyati.

GLOSSARIY

MADANIYAT VA MA'NAVIYAT O'CHOQLARI - mad-y maskanlar, teatr, kino, muzey, kutubxona, san'at saroyi, mad-t va istirohat bog'lari, ma'-yat va ma'rifat markazi, bolalar va o'smirlar ijod markazlari, OAV, nashriyotlar, ta'lim maskanlari majmuini anglatadigan tushuncha.

MAFKURAVIY TARBIYA - inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyo-qarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon.

MAFKURAVIY MARKAZLAR - muayyan g'oyani ilgari suruvchi, targ'ibot va tashviqotning turli usul, vositalari orqali odamlar ongi, ruhiyatiga ta'sir etuvchi kishilar uyushmasi, tashkilot yoki muassasalardir.

MAFKURAVIY TA'SIR – mafkuraviy jarayonning eng muhim strukturaviy komponentlaridan biridir. M.t. ikki asosiy – to'g'ri, bevosita va o'zaro aloqadorlikka asoslangan bilvosita shakllar yordamida amalga oshiriladi. M.t. samaradorligi uning obyekt va subyektiga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, M.t. samaradorligi M.t. o'tkazilishi lozim bo'lgan kishilarning (obyekt) ma'lumot darajasi, mad-y saviyasiga bog'liq bo'lsa, o'z navbatida M.t. o'tkazayotgan idoralar, tarbiyaviy muassasalar, targ'ibot va tashviqotchilar (subyekt) amalga oshirayotgan mafkuraviy tadbirlar mazmuni va shakliga, mafkura xodimlarining professional mahoratiga, ularning insoniy fazilatlarini, xislatlariga bog'liq bo'ladi.

MAFKURAVIY TIZIM — mafkuraviy ishlarni boshqarish, jamiyatning turli ijtimoiy in-tlari: oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahalla kengashlari, jamoat tashkilotlari, mad-y-ma'r-y uyushmalar tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, ularni yagona maqsad tomon yo'naltirish omillari (ish vaqti va ishdan keyingi bo'sh vaqt) va vositalari (fan, adabiyot, san'at, matbuot, radio, TV, kino, muzey va h.k.), uslublari (tushuntirish, ishonitirish, majbur qilish) va usullarining (alohida, jamoaviy, ommaviy) yaxlit bir butun uyushmasi.

MAFKURAVIY QUROLLAR — fuqarolar ongiga singdirish omillari (ish vaqti, bo'sh vaqt) va vositalari (fan, adabiyot, san'at matbuot, radio, TV, kino, muzey, targ'ibot va tashviqot muassasalari va h.k.), uslublari (tushuntirish, ishonitirish, majbur qilish) va usullari (alohida, jamoaviy, ommaviy) majmuasi.

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR – keng ommani ma'naviy va ma'r-y jihatdan tarbiyalash, ularning umumiy ma'naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi tushuncha.

NODAVLAT VA JAMOAT TASHKILOTLARI — davlatga qarashli bo'lmagan, ammo ma'lum qonunlar yoki meyoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar.

Nazorat savollari

1. "Mafkuraviy tarbiya" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Inson tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qaysilar?
3. Milliy g'oyani rivojlantirishda g'oyaviy va mafkuraviy tarbiyaning ahamiyatini tushuntirib bering?
4. Milliy g'oyani rivojlantirishda qaysi tashkilotlar muhim rol o'ynaydi?

5. Milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda soha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj haqida qanday fikrdasiz?
6. Yurtimizda milliy g'oyani rivojlantirishda qanday kotsepsiyalarga tayanish mumkin?
7. Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishning qanday yo'nalishlarini bilasiz?
8. Milliy g'oyani rivojlantirishda oila va mahallaning roli qanday?

Test topshiriqlari

1. Mafkuraviy tarbiyani tashkil etishdagi shaxsiy omillarga nimalar kiradi?
 - A. Bilim, tajriba, malaka, mahorat va ishonтира olish qobiliyati.
 - V. Nutqning ta'sirchanligi, ritorika asoslarini egallaganlik.
 - S. Dalil – isbotlarni o'rinli ishlatish, axborotlarning mazmun – mohiyatini hamda asosiy maqsadini yaxshi bilish, tinglovchi qalbiga yo'l topa bilish.
 - D. Insonparvarlik xislatlarini kamol toptirish
2. Inson qalbi va ongi uchun kurashning hozirgi kunda kuchayib borayotganligiga sabab nimada?
 - A. O'z tovarlari va texnologiyalarini boshqa mamlakatlar bozorlarida sotishni kengaytirishga intilish.
 - V. O'z ma'naviy qadriyatlarini boshqa mamlakatlar aholisi ongiga singdirish uchun intilish.
 - S. Siyosiy maqsadlarni harbiy, tajovuzkorlik usullari bilan hal qilish.
 - D. Millatchilik va milliy biqiqlik.
3. O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarishning an'anaviy shakli qanday?
 - A. Mehnat javoalari. V. Nodavlat tashkilotlar. S. Mahalla. D. Oila.
4. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari.
 - A. shaxs, fan, ko'ppartiyaviylik va milliy g'oya. V. davlat va jamiyat, shaxs, fan;
 - S. fan, ishlab chiqarish va shaxs; D. shaxs, fan, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim va ishlab chiqarish;
5. Talabalarda milliy mafkurani shakllantirish usullarini ko'rsating.
 - A. Ilmiy, maqsadga yo'naltirilganlik, keng qamrovlilik
 - V. Ishonchlilik, asoslanganlik, tarixiy-mantiqiy izchillik
 - S. Uzliksizlik, yangi pedagogik texnologiyalar, ko'rgazmalilik
 - D. Ta'lim tarbiya, targ'ibot-tashviqot
6. Ma'naviyat qachon qudratli kuchga aylanadi ?
 - A. qayerda moddiy boylik bo'lsa
 - *B. qayerda hushyorlik va jonkuyarlik bo'lsa
 - C. qayerda texnika bo'lsa
 - D. Barcha javoblar to'g'ri
7. Prezident I.A.Karimovning ta'limni isloh qilish haqidagi nutqi qanday nomlanadi?
 - A. "Barkamol avlod buyuk kelajagimiz kafolati"
 - V. "Haqiqiy iste'dodlarni tarbiyalaylik"
 - S. "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"
 - D. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"
8. "Tarbiya biz uchun yo-hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo-saodat-yo falokat masalasidir" Ushbu jumla muallifi kim?
 - A. Abdulla qodiriy
 - *B. Abdulla Avloniy
 - C. Mahmud Zamaxshariy
 - D. Alisher Navoiy
9. «G'oyaga qarshi – g'oya, fikrga qarshi – fikr, jaxolatga qarshi nima bilan kurashish mumkin?
 - A) Adolat
 - V) Siyosat
 - S) Kuch-kudrat
 - D) *Ma'rifat

10. «G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan bahsga kirishish mumkin»-degan fikrni Prezident I.A. Karimov qachon va qayerda ta‘kidlab o‘tgan?
- A) «Ma‘naviyat va ma‘rifat» Respublika jamoatchilik Markazi rahbariyati hamda boshqaruvi a‘zolari bilan uchrushuvida so‘zlagan nutqida (1996 yil 4 sentabr)
- V) «Ozodlik» radiosining o‘zbek sho‘basi xodimlari bilan suhbatida (Praga, 1997 yil 15 yanvar)
- S) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyada so‘zlagan nutqida 1997 yil 29 avgust
- D) «Tafakkur» jurnali bosh muxarririning savollariga bergan javoblarida 1998 yil

IZOHLI LUG‘AT - GLOSSARIY

Mafkura – fikrlar majmui, g‘oyalar tizimi, e‘tiqod.

Milliy g‘oya - millatning o‘tmishi, buguni, istiqboli, manfaat va maqsadini ifodalovchi ijtimoiy g‘oya.

G‘oya - muayyan fikr, maqsad sari yetaklovchi kuch.

Manfaat – individ yoki ijtimoiy guruh faoliyatini, xulqini belgilaydigan asosiy omil.

G‘oyaviy tarbiya – Jamiyatdagi mavjud g‘oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishdir. G‘oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

G‘oyaning turli ko‘rinishlari – Mazmuni va namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra – ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g‘oyalarga bo‘linadi.

Bunyodkor g‘oyalar – 1) Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan tushuncha; 2) Jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilishga undovchi g‘oya.

Vayronkor (buzg‘unchi) g‘oyalar – 1) bunyodkor g‘oyalarga zid bo‘lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g‘oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha; 2) insonni va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g‘arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g‘oyalardir.

Milliy istiqlol g‘oyasi – Milliy istiqlol g‘oyasi O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o‘zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol mafkurasi – Milliy istiqlol mafkurasi har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas‘uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma‘naviy mezondir.

Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy g‘oyalari – Vatan ravnaqini ta‘minlash va yuksaltirish; Yurt tinchligini ta‘minlash va asrash; Xalq farovonligini ta‘minlash; Komil insonni tarbiyalash; Ijtimoiy hamkorlikni ta‘minlash; Millatlararo totuvlikni ta‘minlash; Dinlararo bag‘rikenglik (tolerantlik);

Milliy istiqlol g‘oyasining bosh g‘oyasi – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir.

Shovinizm – millatchilikning o‘ziga xos shakli, boshqa millatlarni mensimaslik va o‘z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti

Millatchilik – o‘z millatining manfaatlarini boshqa millatlar haq-huquqlaridan yuqori qo‘yib hal etishga intiluvchi siyosiy oqim

Davlat – butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga tayanadigan, barcha uchun qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo‘lgan siyosiy tashkiloti

Modernizm – dindagi zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanishni yoqlab chiquvchi oqim

Traditsionalizm – an‘anaviylik. Diniy aqidalarni va konsepsiyalarni fan-texnika va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga qarab qayta ko‘rib chiqishni rad etuvchi oqim

Fundamentalizm – ma‘lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish

Mafkuraviy immunitet – lotincha Immunitatis so‘zidan olingan bo‘lib –biror narsadan ozod etish ma‘nosini anglatadi. Shaxs, ijtimoiy gurux, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta‘sirlerden ximoyalashga xizmat qiluvchi tizim

Barqarorlik – tinchlik, osoyishtalik

Vatan ravnaqi – har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo‘lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g‘oyadir

Yurt tinchligi – mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti. Tinchlik –insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir

Xalq farovonligi – har bir shaxs va oila farovonligi insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashib ketadi

Komil inson – insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g‘oyalarga munosabati

Ijtimoiy xamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruxlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi.

Millatlararo totuvlik – muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishi

Diniy bag‘rikenglik – xilma-xil diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi

Ichki taxdidlar – o‘z Vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g‘oya, xatti-harakatlardir.

Tashqi taxdidlar – tashqi tahdidlar asosan g‘oyaviy bo‘shliq tufayli sodir bo‘ladi.

Ekstremizm – O‘z maqsadi yo‘lida har qanday keskin tadbir-choralar ko‘rishga tarafdorlik.

Hizbut-taxrir – reaksiyon ruxdagi diniy-siyosiy tashkilot bo‘lib, arab tilidan “Ozodlik partiyasi” degan ma‘noni bildiradi

Mulk – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarish va kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda ifodalanadi. Mulkning ijtimoiy va xususiy shakllari mavjud.

Bozor iqtisodiyoti – iqtisodiy aloqalarning yig‘indisi bo‘lib o‘z qonunlariga ega, ya‘ni: erkin raqobat, ehtiyoj va ishlab chiqarish, talab va takliflarning miqdori va tarkibini bir-biriga muvofiqlashtirish, xususiy mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, mulkka egalik, xo‘jalik yuritish ishlariga faqat iqtisodiy usullar bilan ta‘sir ko‘rsatish, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish kabi iqtisodiy qonunlarga bo‘ysunadi. Bozor iqtisodi xalqning ijodi va mehnat imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, tadbirkorlik va ishbilarmonlik uchun keng yo‘l ochadi.

Mentalitet – (lotincha «mens» - aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma‘naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati.

Demokratiya – xalq hokimiyati.

Yangi jamiyat – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat.

An‘ana – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma‘naviy faoliyat shakllarining, kishilar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o‘tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

Urf-odat – kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko‘nikmalar.

Mustaqillik – 1) Tazyiqdan, nazoratdan xoli bo‘lish, erkinlik; 2) iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy tobe bo‘lmaslik. O‘zbek tilida Mustaqillik atamasi odatda istiqloq so‘zi bilan yaqin ma‘noda qo‘llaniladi va uzluksizlikni anglatuvchi chuqur, keng qamrovli jarayonni aks ettiradi.

Fenomen – (yun. Phainomenon – yuz beruvchi) – 1) ko‘zga ko‘rinib turgan hol; 2) noyob, kam uchraydigan hol, yoki buyuk, yagona bo‘lgan inson; 3) hissiy bilish, tajribada berilgan ma‘lum bir holni anglatuvchi falsafiy atama; hissiy tajriba yordamida payqaladigan va anglanadigan hodisa, jonli mushohada obyektini bildiradigan tushuncha.

Milliy g‘urur – 1) shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o‘z-o‘zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma‘naviy merosdan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro‘-e‘tibordan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

Muholifat – (arabcha «muholafat» - kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat) – rasmiy siyosatga, hukmron qarashlarga mos bo‘lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo‘l, demokratiyaning muhim belgisi. Muholifat uch xil bo‘lishi mumkin: a) parlament doirasida; b) undan tashqarida; yohud v) siyosiy partiyalar ichida.

Ma‘rifat – Ma‘rifatning lug‘aviy ma‘nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma‘rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya jarayonidir. Ma‘rifat so‘zining ko‘pchilikdagi ma‘nosi maorifdir. Ma‘rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma‘lumotlar majmuasini bildiradi.

E‘tiqod – Dunyoqarash. Biror dinga e‘tiqod qilish – uni haq deb bilib, uni ta‘limotini tan olish.

Tasavvuf – islomdagi diniy-falsafiy oqim. 8 asrda arab mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Bu ta‘limot o‘sha davrda savdogarlar va kosiblarning manfaatini ko‘zlagan. Tasavvufning asosiy mohiyati inson va uning Xudoga munosabatidir, ya‘ni solihning Xudo vasliga yetishishidir.

Komillik – insonning kamolotga erishuv jarayonidagi barkamolligi darajasini ifodalovchi tushuncha. Komillikning har bir davrga xos mezonlari mavjud. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak,

baxilga nisbatan saxiy, tanbalga nisbatan serg'ayrat, qo'rqqoqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o'ziga xos o'lchov vositasini o'taydi.

Qadriyat – umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy, diniy turlarga bo'linadi.

Aksiologiya – (yun. «axio» - qadriyat va «logos» - fan, ta'limot) – qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan.

Milliylik – muayyan xalqqa xos bo'lgan, uni boshqalardan farqini ko'rsatuvchi xususiyatlar majmui. Milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'naviyat – (arab. – ma'nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Umuminsoniy qadriyat – barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, moddiy va ma'naviy manfaat, mezonlar majmui.

Milliy qadriyat – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyat shakli.

Umumbashariy – butun dune, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolarga aytiladi.

Ozodlik – barcha demokratik erkinliklarga erishishning, haq-huquqlari kafolatlangan va ta'minlangan jamiyatning bosh sharti.

Obod Vatan – fuqarolari erkin, ozod, yaratuvchilik faoliyati bilan band bo'lgan, xavfsizligi ta'minlangan farovon hayot qurish makoni.

Fuqarolik jamiyati – iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohasiga to'g'ri keladigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi ko'lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.

Ehtiyoj – inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog'liq ekanligini ifoda etuvchi holat.

Integratsiya – milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatidan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va, mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ixtiyoriy ravishda birlashishi, bir-birlariga o'zaro ta'sir etishi jarayoni.

Vatanparvarlik – Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat.

Demokratik institutlar – jamiyatning demokratik tuzumini barpo etishga xizmat qiluvchi omil bo'lib, unga quyidagilar kiradi. 1) Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar. 2) Yuridik maqomga ega bo'lgan muxolifat. 3) Mulkchilik instituti.

Sharqona demokratiya - urf-odat, qadriyatlarga asoslangan o'ziga xos demokratiya.

Siyosiy demokratiya - jamiyat siyosiy tizimini xalqqa yaqinlashtirish, siyosiy adolatsizliklarning oldini olish.

Ijtimoiy demokratiya - bugungi davr demokratiyani islohotlar jarayoniga aylantirish.

Irqchilik – odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqqlariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayrimilliy ta'limot. Irqchilar insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik – irqiy (ko'zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashqi, ikkinchi darajali jismoniy) belgilar bilan bog'lab, ularni oliy va quyi, bekamu-ko'st va noraso irqqlarga ajratadilar.

Aqidaparastlik – muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llashga urinish. Bu atama faqat salbiy ma'noda qo'llanib, muayyan olim yoxud oqim tomonidan bayon etilgan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy ravishda kengaytirishga urinishni anglatadi.

Fanatizm – Biron g'oyaga, shaxsga uning mazmunini, mohiyatini chuqur anglamasdan johillarga ishonish va unga ergashishdir va u hayotda turli sohalarda uchraydi.

Manqurt – «Manqurt» o'z eli, tarixi, qon-qarindoshini, hatto o'zi tuqqan onasini ham unutgan, o'z kelajagini tasavvur eta olmaydigan kishilar va xalqlarning majoziy obrazi. U xalqlarning manqurtlarga aylanishida bosh aybdor davlat va mafkuraga to'la bo'ysundirilgan jamiyatdir degan xulosaga keladi. Masalan, Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanida «Manqurt» afsonasidagi shaxs obrazi.

Tafakkur – (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi.

Vatan tuyg'usi – Vatan tuyg'usi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik jo'sh uradi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. YA'ni, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usini ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi».

Targ'ibot-tashviqot – insonni biror xarakterga rag'batlantirish va kishida biror narsaga shavq uyg'otishga yo'naltirish.

Pragmativ – o'z amaliy faoliyatida ko'proq foyda olishni o'ylaydigan va shunga ko'proq foyda olishni o'ylaydigan va shunga ko'proq ahamiyat berish zarur deb bilguvchi shaxs.

ILOVALAR

1-ilova

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov "G'oya" tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni haqida

Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz.

I.Karimov. Yukak ma'naviyat – engilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008 yil, 71-bet.

Milliy g'oya haqida juda ko'p va uzoq fikr yuritish mumkin. U hayotning o'zi kabi cheksiz mavzudir. Milliy g'oya xalqning milliy manfaatlaridan kelib chiqadi va uni o'zida ifoda etadi.

I.Karimov. "Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga javoblar, 1998 yil 2-soni "Biz kelajagamizni o'z qo'limiz bilan quramiz". T. 7. T., "O'zbekiston" 1999 yil. 297-b.

Millatni asrash kerak, millatni asrash uchun esa uning haqiqiy tarixini o'rganish, avaylab himoyalash kerak. Milliy g'oya haqida gapirganimizda ana shu jihatlarni albatta inobatga olishimiz zarur.

O'ylaymanki, bu sohada eng ustuvor vazifamiz-xalqimiz orasida katta ma'rifiy-amaliy ishlarni olib borib, milliy mafkuramizga kuch-quvvat beradigan, uni yangi-yangi marralar sari safarbar etadigan, keng ommaga ta'sir o'tkazishga, xalqni o'ziga tarafdor etishga xizmat qiladigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manbalarni to'g'ri belgilab olishdir.

I.Karimov. "Hushyorlikka da'vat". O'zbekiston Milliy axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar, 1999 yil iyun. "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz". T.8. T., "O'zbekiston" 2000 yil. 23-b.

Odamzod qanday tizim, qanday muhitda yashamasin, baribir o'z qalbida muayyan bir g'oyaga, maslak-maqсадga ehtiyoj sezadi.

I.Karimov. Hushyorlikka da'vat. O'zbekiston Milliy axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar, 1999 yil iyun. "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz". T.8. T., "O'zbekiston" 2000 yil. 23-b.

Milliy g'oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi

I.Karimov. Yukak ma'naviyat – engilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008 yil, 72-bet.

Milliy g'oya tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni.

Bizni birlashtiradigan bitta g'oya bo'lishi kerak. U ham bo'lsa, shu vatanning, shu tuproqning, el-yurtning manfaatidir.

I.A.Karimov. «Elni Vatan manfaati birlashtiradi». Prezidentning bir guruh yozuvchilar bilan qilgan suhbatidagi so'zi. 1993 yil aprel. « O'zbekiston: Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura». T.1. T., « O'zbekiston» 1996 yil. 198 b.

Xo'sh, biz o'zimiz tanlagan va ma'qul deb topgan g'oyani ta'riflashga, tushuntirishga, odamlarni shunga ergashtirishga tayyormizmi? Bu ulug' g'oyani odamlar yuragiga etkaza olamizmi, yo'qmi?

I.A.Karimov. «Buyuk maqsad yoʻlidan ogʻishmaylik» Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida 1993 yil 6 mayda soʻzlangan nutq. «Oʻzbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura». T.1. T., «Oʻzbekiston» 1996 yil 201 b.

Jamiyatimizda bugun mavjud boʻlgan xilma-xil fikrlar va gʻoyalalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarining intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning eʼtiqodi va dunyoqarashidan qatʼi nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona gʻoya – mafkura boʻlishi kerak.

I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnalining 1998 yil 2-soni «Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz» T.7. T., «Oʻzbekiston» 1999 yil. 92 b.

Milliy gʻoya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor boʻlishi zarur.

U Vatanimizning shonli oʻtmishi va buyuk kelajagini uzviy bogʻlab turishga, oʻzimizni ulugʻ ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yoʻl ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil daʼvat qiladigan gʻoya boʻlishi kerak.

I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnalining 1998 yil 2-soni «Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz» T.7. T., «Oʻzbekiston» 1999 yil. 92 b.

Milliy gʻoya, milliy iftixor kundalik mashaqqatli ishlarimizda va bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, gʻayratimizga gʻayrat qoʻshib, haqiqatan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bagʻishlab, ruhimizni baland, belimizni baquvvat qilishiga ishonaman.

I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnalining 1998 yil 2-soni «Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz» T.7. T., «Oʻzbekiston» 1999 yil. 92 b.

Har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yoʻli va maqsadlarini aniq-ravshan charogʻon etadigan mafkura – milliy gʻoyani shakllantirishning asosiy sharti – odamlarning tafakkuri, dunyoqarashining voqelikka nisbatan taʼsirini inobatga olishdir. Shu maʼnoda milliy gʻoya, milliy ong tuygʻusining mohiyatini toʻgʻri anglash, uni tarbiya qilish, uni bugungi kunning eng zarur vazifalaridan biri sifatida eʼtirof etish, bu xususda bahtu munozaralar olib borish, fikr almashish, ochiq-oydin gapirish, oʻylaymanki, ijtimoiy taraqqiyotimiz uchun katta naf keltiradi.

I.A.Karimov. «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblar «Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz» T.7. T., «Oʻzbekiston» 1999 yil. 298 b.

Erkin fuqaro – ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega boʻlgan shaxs maʼnaviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy gʻoyamiz boʻlishi zarur.

I.A.Karimov. «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblar «Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz» T.7. T., «Oʻzbekiston» 1999 yil. 303 b.

Milliy gʻoya millatni, xalqni birlashtirishga qaratilishi kerak.

I.A.Karimov. «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblar «Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz» T.7. T., «Oʻzbekiston» 1999 yil. 308 b.

Hayot mavjud ekan, jamiyat, davlat bor ekan, har qaysi millat, har qanday xalq oʻz yoʻlini, maqsadini, loʻnda qilib aytganda, oʻzining milliy gʻoyasini, milliy mafkurasini aniqlab olishga harakat qiladi. Hayot taraqqiy etgan sari bunday masalalar yanada boyib, yanada takomillashtirib boraveradi. Shu maʼnoda, bu borada turlicha qarashlar, muhokamalar boʻlishini tabiiy xol sifatida qabul qilish kerak.

I.A.Karimov. «Milliy istiqloq mafkurasi konsepsiyasining asosiy tamoyillariga bagʻishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda soʻzlangan nutq, 2000yil 6 aprel» «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz» T.8. T., «Oʻzbekiston» 2000 yil. 462 b.

Biz milliy g'oya, milliy mafkura nima uchun, kim uchun kerak, uning ma'no-mohiyati nimadan iborat, degan muhim masalaga yana bir bor oydinlik kiritib olishimiz darkor.

I.A.Karimov. «Milliy istiqloq mafkurasini konsepsiyasining asosiy tamoyillariga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda so'zlangan nutq, 2000yil 6 aprel» «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz» T.8. T., «O'zbekiston» 2000 yil. 464 b.

Milliy g'oya davlatimiz, jamiyatimiz, xalqimizning yuksalishi yo'lida, buyuk kelajak barpo etishdek ezgu maqsadga erishish va jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib obro'-e'tibor topishimizda birlashtiruvchi kuch, qanot bo'lishi shart.

I.A.Karimov. «Milliy istiqloq mafkurasini konsepsiyasining asosiy tamoyillariga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda so'zlangan nutq, 2000yil 6 aprel» «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz» T.8. T., «O'zbekiston» 2000 yil. 472 b.

Mana shunday ozod kunlarda bilib-bilmay yo'ldan toyib, ya'ni kuppa-kunduzi yo'lini yo'qotib, yot ellarda chalinayotgan nog'oraga o'ynab yurgan ayrim yoshlarning ko'zini ochishda milliy mafkuramiz muhim o'rin tutishi shubhasiz. Chunki milliy mafkura – bu xalqning, millatning o'tda yonmaydigan suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodidir.

I.A.Karimov. Milliy istiqloq mafkurasini-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. «Fidokor» gazetasi muhбири savollariga javoblar. «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz» T.8. T., «O'zbekiston» 2000 yil. 507 b.

Men xalqni birlashtiruvchi, yuksak maqsadlar sari chorlovchi mafkura – milliy g'oyaning jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ilgari ham qayta-qayta aytib o'tganman. Biz uning mazmun-mohiyati, ufqlarini umumiy tarzda belgilab oldik.

I.A.Karimov Hushyorlikka da'vat. O'zbekiston Milliy axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar, 1999 yil iyun. «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz». T.8. T., «O'zbekiston» 2000 yil. 28 b.

2-ilovalar.

Milliy g'oya shakllanishida zardo'shtiylik dini g'oyalarning o'rni

Millatimizga xos ilk g'oyalari zardo'shtiylik tarzidagi diniy-falsafiy ta'limot sifatida shakllangan. Uning g'oyalari bilan bog'liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda nafaqat ulkan ma'naviy-ma'rifiy meros, shu bilan birga, xalqimizning ma'naviy-ruhiy tiklanishi va qadriyatlarimizni asrab-avaylashning negizi hamdir. Zardo'shtiylikning asosi bo'lgan “Avesto” kitobida qadimgi xalqlarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy g'oyalari aks etgan. Ularning asosini olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari — yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat orasidagi ziddiyatga asoslangan g'oyalari tashkil qilib, ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal kabilar bu dinning ustuvor tushunchalaridir. Ushbu g'oyalarda erli xalqlarni birlashtirishga da'vat etuvchi yuksak vatanparvarlikni tarbiyalaydigan fikrlar mujassam bo'lib, ular shu zamin farzandlari uchun g'urur, o'zlikni anglash va kuch-qudrat timsolidir.

“Avesto”da nafaqat Zardo'sht ta'limoti, balki unda o'sha davrning eng asosiy g'oyalari xamda bu g'oyalarga tayanib yozilgan qo'shiqlar, hikoyat va rivoyatlar jamlangan. Bir necha kitobdan iborat bo'lgan “Avesto” jamiyat va inson hayotining barcha sohalaridagi g'oyalarni umumlashtirgan, mintaqamiz xalqlarining ular asosida shakllangan yashash va hayot kechirish qonun-qoidalarini o'zida ifodalagan. Jumladan, unda quyidagi g'oyalari aks etgan:

-Mol-dunyoga hirs qo'yima, ochko'z bo'lma. Dunyo (boylikka) hirs qo'yish dunyo lazzatlarini bemaza, bexalovat qiladi. Samoviy abadiy lazzatlardan mahrum etadi.

-G'azabdan o'zingni asra, chunki g'azab tufayli inson o'z ishlarini, ezgu maqsadlarini unutadi... Halol mehnatdan qoladi. G'azab tufayli hayotda halovat yo'qoladi, safo (xursandchilik kayfiyati) o'ladi.

-Uyquga ruju qo'yima, savob ishdan qolasan.

-Sergaplik gunohlarni ko'paytiradi. Kamsuxanlik ezguliklarni ko'paytiradi. Chunki kamsuxanlik fikrlab so'zlashga imkon beradi.

Yurtimizni miloddan oldingi IV asrda zabt etgan makedoniyalik Aleksandr “Avesto”ning birgina nusxasini qisman (tibbiyot, falakiyot, falsafa, adabiyot) saqlab qolib, uni o'rganish uchun ustoz Aristotelga yuborgan, qolgan nusxalarini esa yo'qotishni buyurgan. Bu haqida Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi:

“Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistonning) 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o‘sha vaqtda Abistonning beshdan uchi yo‘qolib ketdi”. Ba‘zilar Aleksandr “Avesto” tilini bilmagani, uning mohiyatini tushunmagani uchun kitobning qadriga etmagan va yo‘q qilishni buyurgan, degan haqiqatdan yiroq fikrni bayon qiladi. Haligacha teran fikrlari bilan jahon ahlini lol qoldirib kelayotgan mashhur faylasuf Aristoteldek buyuk tafakkur sohibidan ta‘lim-tarbiya olgan Aleksandr kitobning qadrini tushunmaganiga ishonib bo‘ladimi? U shunchalik savodsiz kishi bo‘lganmi? Yo‘q, albatta. Aleksandr kitob nima ekanini, unda aks etgan g‘oyalar odamlarga kanday ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini yaxshi bilgan. Shu bilan birga, u o‘z qo‘shiniga qattiq qarshilik ko‘rsatgan yurtimiz xalqlarining g‘oyalari “Avesto”da o‘z ifodasini topganini, o‘sha davrdagi avlod-ajdodlarimizning istibdodga bosh egmasdan, kitobdagi ushbu g‘oyalarga tayangan holda, tez orada yana istiqloq uchun kurashga chiqishini nihoyatda yaxshi tushungan. Xullas, Turonzamin xalqlarini o‘z ajdodlari qoldirgan ezgu g‘oyalardan bebahra qilish, tafakkurini qaramlikda saqlashning eng yaxshi va maqbul yo‘li — uni o‘zligidan judo etish, g‘aflatda saqlash, tarixini unutishga maxkum qilish orqali amalga oshirilishini yaxshi bilgan jahongir Aleksandr “Avesto”ni yo‘q qilishga urinishi tabiiy edi. Keyinchalik boshqa jahon fotihlari ham ana shunga o‘xshash yo‘llardan borgan bu fikrni isbotlaydi. “Avesto” miloddan avvalgi XIII asrdan to milodning IV gacha bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘zida aks ettirgani uchun milliy g‘oyalarni asrab-avaylash, xalqni jipslashtirish, uni ma‘naviy yuksaklikka da‘vat etish, odamlar o‘rtasida mehr-oqibatni mustahkamlash va milliy an‘analarni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etgan. “Avesto” o‘sha davrdagi ustuvor huquqiy va ahloqiy g‘oyalar, ma‘budlar sha‘niga aytilgan madhiyalar, dastlabki yakkaxudolik dinining asosiy aqidalarini, yaratuvchanlik, mehnatsevarlik, yaxshilik, bag‘rikenglik, davlatchilik g‘oyalarni o‘zida jamlagan muqaddas manba hisoblanadi.

Mustaqillik davrida “Avesto”ga munosabat tubdan o‘zgardi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining “Adolatli jamiyat sari” asarida “Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma‘naviy, tarixiy merosidir”, - deb baho bergan edi. O‘zbekiston hukumati tashabbusi bilan YUNESKO Bosh konferensiyasi 30-sessiyasi “Avesto” yaratilishining 2700 yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi (1999, noyabr). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 martdagi maxsus qarori bilan 2001 yil noyabr oyida “Avesto” kitobining 2700 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

3-Ilva

Birinchi Prezident Islom Karimov “Mafkura” tushunchasi, uning mohiyati haqida.

Oldimizda turgan eng muhim masala, bu-milliy istiqloq mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbiiq etishdir.

Milliy istiqloq mafkurasi xalqimizning azaliy an‘analariga, udumlariga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr – oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma‘rifat tuyg‘ularini ongimizga singdirishi lozim.

I. Karimov. Buyuk maqsad yo‘lida adashmaylik Oliy Kengashning 1993 yil 6 may kuni bo‘lib o‘tgan 12- sessiyasida so‘zlagan nutqi. “O‘zbekiston:milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura”.T.1. T.,”O‘zbekiston”, 1996 yil, 203-bet.

O‘zining hayotini, oldiga qo‘ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o‘z kelajagi haqida qayg‘uradigan millat hech bir davrda milliy g‘oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi.

I.Karimov. “Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasidagi so‘z boshi, “Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas‘ulmiz”. T.9 T., “O‘zbekiston” 2001 yil. 221-b.

Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotish muqarrar.

I.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali Bosh muharririning savollariga javoblar, 1998 yil 2-soni “Biz kelajagamizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”. T. 7. T., “O‘zbekiston” 1999 yil. 84-b.

Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko‘zlagan va uning dunyodagi o‘rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lishiga qodir g‘oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman.

I.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali Bosh muharririning savollariga javoblar, 1998 yil 2-soni “Biz kelajagamizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”. T. 7. T., “O‘zbekiston” 1999 yil. 89-b.

Sodda qilib aytganda, jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo‘lmish oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g‘ayrat manbai bo‘lishi lozim.

I.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali Bosh muharririning savollariga javoblar, 1998 yil 2-soni “Biz kelajagamizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”. T. 7. T., “O‘zbekiston” 1999 yil. 91-b.

Bu mafkura, xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha‘ni-sharafi, or-nomusi, ishonch e‘tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g‘oyalar tizimidir.

I.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali Bosh muharririning savollariga javoblar, 1998 yil 2-soni “Biz kelajagamizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”. T. 7. T., “O‘zbekiston” 1999 yil. 99-b.

Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog‘lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o‘z muddolariga erishishi uchun ma‘naviy-ruhiy kuch – quvvat beradigan poydevor bo‘lgan kelgan.

I.Karimov. Milliy istiqloq mavkurasi – xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javoblar. “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz”. T.8. T., “O‘zbekiston” 2000 yil. 490-b.

Mafkura – jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Har qanday inson, tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin, toki hayot mavjud ekan mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlar bor ekan ular o‘z taraqqiyot yo‘lini, ertangi kun ufqlarini o‘zining milliy g‘oyasi milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi. I.Karimov. Milliy istiqloq mavkurasi – xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javoblar. “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz”. T.8. T., “O‘zbekiston” 2000 yil. 490-b.

Yangilanishlar jarayonini, islohotlarni mafkurasiz amalga oshirish mumkinmi, umuman mafkurasiz yashash mumkinmi yoki yo‘qmi?

Men shu o‘rinda ulug‘ Ahmad Yassaviy bobomizning bir fikrini keltirib o‘tmoqchiman: “Agar odamda ishonch bo‘lmasa, odamda din bo‘lmasa, umuman, mafkura bo‘lmasa, u hayvonga o‘xshagan bir jinsga aylanib qoladi”. E‘tibor bering, olis o‘tmishda yashagan ajdodlarimiz ham mafkura inson ma‘naviy kamolotining, jamiyat taraqqiyotining asoslaridan biri ekanini ta‘kidlashgan. I.Karimov. Mafkuraviy kurash masalasi bo‘yicha Oliy majlis V sessiyasi foyesida jurnalistlar bilan bo‘lgan suhbatdan, 2001 yil 11-12 may. “Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas‘ulmiz”. T.9. T., “O‘zbekiston” 2001 yil. 339-b.

Yangi mafkuraning asl mazmuni – yangicha, erkin fikrlaydigan, mutelik va jur‘atsizlik tuyg‘usidan mutlaqo xoli, mustaqil insonni tarbiyalashdir. Buyuk kelajagamizning xuquqiy kafolati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining bir yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda so‘zlangan nutq. 1993 yil 7 dekabr. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. T., “O‘zbekiston”, 1996 yil, 110-bet.

4-ilova

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг “Коррупция билан боғлиқ жиноятлар”ни назарда tutuvchi қуйидаги моддалар:

1. Ўзлаштириш ёки растрата йўли билан талон-тороғ қилиш (167-модда);
2. Сохта тадбиркорлик (179-модда);
3. Сохта банкротлик (180-модда)%;
4. Божхона тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузиш (182-модда);

5. Солиқлар ёки бошқа мажбурий тўловларни тўлашдан бўйин товлаш (184-модда);
6. Ҳокимият ёки мансаб ваколатини суиистеъмол қилиш (205-модда);
7. Ҳокимият ёки мансаб ваколати доирасидан четга чиқиш (206-модда);
8. Мансаб сохтакорлиги (209-модда);
9. Пора олиш (210-модда);
10. Пора бериш (211-модда);
11. Пора олиш-беришда воситачилик қилиш (212-модда);
12. Товламачилик йўли билан ҳақ - беришни талаб қилиш (214-модда);
13. Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштириш (243-модда);
14. Контрабанда (246-модда) мавжуд.

5-илова

О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Davlat xokimiyati idoralarining xalq uchun ishlashi - demokratik taraqqiyot talabi ekanligi haqidagi fikrlari.

“...avvalambor, qonun loyihalarini puxta va ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ridan- to‘g‘ri tartibga soladigan darajada ishlab chiqish, ayniqsa, idoraviy hujjatlarni keskin qisqartirish zarur, deb hisoblayman.”

(Mirziyoyev Sh. M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., “O‘zbekiston”, 2017 9-bet)

“Yangi qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlarning asosiy ma‘nosini aholiga yetkazish bo‘yicha samarali mexanizm yaratish kerak”

(Mirziyoyev Sh. M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., “O‘zbekiston”, 2017 10-bet)

“Sudlarda ishlarni ko‘rish sifatini oshirish, ayniqsa, fuqarolik ishlarida ovora bo‘lib yurishlarning oldini olish, aynan bir instantsiya sudida ishni bir necha marotaba ko‘rib turli qarorlar qabul qilish amaliyotiga chek qo‘yish vaqti keldi”

(Mirziyoyev Sh. M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., “O‘zbekiston”, 2017 11-bet)

“Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘zlari tomonidan qonunni buzish bilan bog‘liq har qanday holatga prinsipial baho beriladi va qat‘iy chora ko‘riladi. Bunga hech kimda shubha bo‘lmasligi kerak. ... Bularning barchasi, o‘z navbatida, inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga, xalqimizning davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi”.

(Mirziyoyev Sh. M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., “O‘zbekiston”, 2017 12-bet)

“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni avvalo, barcha bo‘g‘indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur”.

(Mirziyoyev Sh. M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., “O‘zbekiston”, 2017 16-bet)

“2017-yildan boshlab barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimi joriy etiladi”.

(Mirziyoyev Sh. M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., “O‘zbekiston”, 2017 17-bet)

“Har bir tuman hokimi va tuman ichki ishlar bo‘limlari rahbarlarining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy etiladi. Bu rahbarlarning asosiy vazifasi mahallada uchastka inspektorlari bilan ishlashni tashkil etishdan iboratdir”

(Mirziyoyev Sh. M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., “O‘zbekiston”, 2017 25-bet)

“Bir fikrga alohiga urg‘u berib ta‘kidlamoqchiman: Yoshi ulug‘ insonlar, katta avlod vakillariga e‘tibor va amaliy g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, ularning pensiyalarini oshirish, tibbiy xizmat va ijtimoiy-maishiy ta‘minotini yaxshilash bundan buyon ham Prezident uchun, Hukumatimiz va barcha hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi”

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O`zbekiston", 2016 12-bet)

“Bundan keyin tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qilish - davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga to‘sqinlik qilish, deb baholanadi”.

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O`zbekiston", 2016 15-bet)

“Biz uchun bebaho boylik bo‘lgan inson salomatligini asrash maqsadida sog‘liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning birlamchi bo‘g‘inidagi bo‘linmalari va qishloq vrachlik punktlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, tez tibbiy yordam va yuqori texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatadigan, ixtisoslashgan maxsus markazlarni yanada rivojlantirish yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish Hukumatning e‘tibor markazida bo‘lishi darkor”.

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O`zbekiston", 2016 16-bet)

“Aholi bilan doimiy muloqot qilish, uning qonuniy talablari, so‘rov va takliflarini amalga oshirish uchun aniq choralar ko‘rishni men o‘zim uchun eng muhim va ustuvor vazifa, deb hisoblayman. Endi nafaqat hukumat, balki mutasaddi vazirlik va idoralar, xo‘jalik birlashmalari, shuningdek, hokimlarning ham bu boradagi faoliyati yakunlari bo‘yicha hisobot berish tizimi joriy etiladi va shunga qarab ularning ishiga baho beriladi.”

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O`zbekiston", 2016 17-bet)

“Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalkimiz bilan. SHunda xalqimiz bizdan rozi bo‘ladi. Xalq rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi. Xalq bizdan rozi bo‘lsa, Yaratgan xam bizdan rozi bo‘ladi”.

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O`zbekiston", 2016 18-bet)

“Biz barcha davlat idoralari faoliyatida aholining murojaatlari bilan ishlash bo‘yicha sifat jihatidan mutlaqo yangi tizimga o‘tishimiz darkor. Xususan, 2017 yildan boshlab barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimi joriy etiladi”.

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O`zbekiston", 2016 18-bet)

“Davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga baho berishda qonuniylikni ta‘minlash, fuqarolarning xuquq va erkinliklari qanday himoya qilinayotgani, ularga davlat xizmatlari ko‘rsatishning sifati va ochiqligi biz uchun eng asosiy mezon bo‘lishi shart. Shu borada bir fikrni yana takrorlab aytmoqchiman: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”.

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O`zbekiston", 2016 19-bet)

“Bugungi kunda nafaqat Bosh vazirning elektron pochta va qabulxonasiga, balki Prezident nomiga kelib tushayotgan fuqarolarning qonuniy murojaat va shikoyatlarini batafsil o‘rganish va ularda ko‘tarilgan masalalarni yechish bo‘yicha ishlarni faol davom ettirish g‘oyat muhim, deb hisoblayman”.

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O`zbekiston", 2016 19-bet)

“Bundan keyin vazirlik va idoralar, xo‘jalik birlashmalari rahbarlari va hokimlarning faoliyati natijasi quruq iqtisodiy raqamlar bilan emas, balki ularning odamlar bilan qanday muloqot olib borayotgani va ishni tashkil etgani, fuqarolarning muammolarini qay darajada hal qilayotganiga qarab baholanadi va tegishli xulosalar chiqariladi. Ayni shu masalada ularning faoliyati ijobiy bo‘lsa, xalq ulardan rozi bo‘lsa, rahmat deymiz, aksi bo‘lsa – biz bunday rahbarlar bilan xayrlashamiz”.

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O`zbekiston", 2016 19-bet)

“...banklar endi xalqimizni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o‘rgatishi va shunga yetaklashi lozim bo‘ladi”.

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., "O`zbekiston", 2016 23-bet)

“Oliy Majlis Senati tomonidan har bir viloyatda navbatma-navbat namunaviy xalq deputatlari kengashlari ishini tashkil etish tajribasi joriy etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularning asosiy maqsadi va vazifasi - aholining barcha toifalari bilan doimiy muloqotda bo‘lish, fuqarolarning qonuniy talab va ehtiyojlarini nafaqat o‘rganish, balki ularni ta‘minlashdan iborat”.

(Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., “O‘zbekiston”, 2016 25-bet)

“Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan siyosat bundan keyin ham so‘zsiz davom ettiriladi. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni - bu Bosh vazir yoki uning o‘rinbosarlari bo‘ladimi, hukumat a‘zosi yoki hududlar hokimi bo‘ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak”.

(Mirziyoyev Sh. M Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017 6-bet)

“Eng asosiy ustuvor vazifa - «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturini amalga oshirish, «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan olijanob g‘oyani izchillik bilan hayotga tatbiq etishdan iborat”.

(Mirziyoyev Sh. M Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017 7-bet)

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi, har bir tuman va shahardagi Xalq qabulxonalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini samarali tashkil etishni ta‘minlash darkor”.

(Mirziyoyev Sh. M Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017 8-bet)

“...ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma‘lum darajada uzilib qolmoqda”.

(Mirziyoyev Sh. M Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017 10-bet)

“...aholi uchun maqbul narxda turli maishiy elektr texnika buyumlarini ishlab chiqarishni ta‘minlashimiz kerak”.

(Mirziyoyev Sh. M Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017 14-bet)

“Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini sezishi kerak”.

(Mirziyoyev Sh. M Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017 20-bet)

“Eng muhim vazifamiz - mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz, avvalo biz - rahbarlarning faoliyatidan rozi bo‘lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o‘z aravasini o‘zi tortishi, o‘z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o‘zi shaxsan javob berishi kerak. SHundan keyin jamiyatimizda o‘zgarish bo‘ladi, rivojlanish bo‘ladi”.

(Mirziyoyev Sh. M Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017 53-bet)

“Hammamiz xulosa qilaylik: jonajon Vatanimiz, olijanob xalqimizning ishonchini qozonish, uning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish uchun faqat tinimsiz mehnat, izlanish va tashabbus ko‘rsatib yashash kerak. Odamlar buni kundalik hayotda sezishi, ko‘rishi zarur”.

(Mirziyoyev Sh. M Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017 53-bet)

“Odamlar orasida yashash, ularning dardiga quloq solish, aholining ehtiyojlari va qonuniy talablarini amalga oshirish uchun tezkor choralar ko‘rish – har bir rahbarning asosiy vazifasi, deb hisoblayman”

(Mirziyoyev Sh. M Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O‘zbekiston”, 2017 481-bet)

“Biz bundan buyon mamlakat, viloyat miqyosidagi masalalardan quyiga – tuman yoki qishloq, kerak bo‘lsa, mahalla darajasidagi muammolarga qadar tushib boramiz”.

(Mirziyoyev Sh. M Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O‘zbekiston”, 2017 91-bet)

“Yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir odamning dardi va tashvishini eshitib, joylarda to‘planib qolgan o‘tkir muammolarning yechimini topishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqamiz va ijrosini nazoratga olamiz”.

6- ilova

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga
1-ILOVA

2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi
bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI

1. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.

1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-hukuk islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;

- siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishi.

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

- davlat boshqaruvi markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;

mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

- «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

- xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;

- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

- mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliya-ti samaradorligini oshirish;

- ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-xuquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

Yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini sudyalalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlar-ning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessida tomon-larning tortishuvi va teng huquqliligi tamoyillarini har tomon-lama tatbiq etish;

«Xabeas korpus» institutini ko'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

- sudlarni mustahkamlash;

- sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

2.2. Fuqarolarning xuquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

- fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tik-lashning barcha zarur choralarini ko'rish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati-da fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash;

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samara-dorligini oshirish.

2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekrimi-nallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini in-sonparvarlashtirish;

odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshi-rish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibi-ni takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instan-siyalarni qiskartirish;

elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va hukuqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va hukuqbuzarliklarning oldi-ni olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samarador-ligini oshirish;

diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakplariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy chora-larni kuchaytirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexa-nizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

- aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu bora-da davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, omma-viy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

2.5. Sud-huquq tizimida konuniylikni yanada mustahkamlash:

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini sama-rali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli hukuqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sa-bab va sharoitlarni bartaraf etish;

sud, huquqni muhofaza ksluvchi va nazorat idoralari xodimla-rini o'ktish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshi-rish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlari orasida hukuqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmla-rini joriy etish;

- huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati usti-dan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:

- davlat organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorli-gini oshirish;

advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlarining ro-lini oshirish;

notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish.

3. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustaxkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:

makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarish-larni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

soliq yukini kamaytirish va solivda tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, solik ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengay-tirish;

ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlar-dan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashti-rish, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor me-xanizmlarini boskichma-boskich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

bank tizimini isloh kilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barkarorligi va ishonchligini mustahkamlash, istikbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

milliy iqtisodiyotning mutanosibli va barkarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

ishlab chikarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chikarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

yuqori texnologiyali kayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chikarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

- ishlab chikarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va but-lovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoklararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chikarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkilotish;

xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rnini va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoklari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

- yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

- tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chikarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chikarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

- paxta va boshqoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuka va yog olinadigan ekinlar-pi ekish, shuningdek, yangi intensiv bog va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

- fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chikarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, Tayyorlash, saqlash, sotish, kurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun kulay shart-sharoitlar yaratish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chikarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar

bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, ag-rokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chikarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan kishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsulдорlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqei yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat xam boy va kuchli bo'ladi», degan tamoyilni amalga oshirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xo'rijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ula-nishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarini takomillashtirish va soddalashtirish;

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

3.5. Viloyat, tuman va shaxarlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintakalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasilagi farqlarni kamaytirish;

yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga karam tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalarini va boshqa ishlab chikarish obyektlarini joy-lashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmokdarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

budjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish;

yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

4.2. Axolini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:

- aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan ko'llab-kuvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy she-rikligini rivojlantirish;

- aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'likni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish;

oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqalokdar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rmini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi kizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muxandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish xamda modernizatsiya qilish:

aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar kurish orqali yanada yaxshilash;

aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash;

odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'k qilish bo'yicha zamonaviy obyektlar bilan ta'minlash;

aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama kulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmokdari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya man-balaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mexnat bozorining za-monaviy ehtiyojlariga moye yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim muassasalarini kurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmogini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning xar tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuk-saltirish;

- umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chukurlashtirilgan tarzda o'rganish;

- bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shugullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini kurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalari-ga qabul kvotalarini bosqich-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuklarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro man-faatli va amaliy tashqi siyoyeat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar

5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish;

fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekt sifatidagi o'rnini va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shniq muhitini shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;
- O'zbekiston Respublikasining tashki siyosiy va tashki iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish .

7-ILOVA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

28.07.2017 y. PQ-3160

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA SOHANI RIVOJLANTIRISHNI YANGI BOSQICHGA KO'TARISH TO'G'RSIDA

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Bu jarayonda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, uning joylardagi tuzilmalari hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlilali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda.

Mamlakatimizda qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlarining quyi bo'g'inlari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularning xalq bilan muloqot qilishini ta'minlash, bu borada samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.

Ana shu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ularning ko'lami va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borish, tuman (shahar) darajasidagi xodimlar mehnatiga haq to'lashning barqaror tizimini yo'lga qo'yish, sohada faoliyat olib borayotgan muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va ularning samarasini oshirish maqsadida:

1. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini birlashtirish yo'li bilan ularning negizida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazini (keyingi o'rinlarda - Markaz deb ataladi) qayta tashkil etish haqidagi taklifi ma'qullansin.

2. Markaz faoliyatini tashkil etishda quyidagi asosiy vazifalarga alohida e'tibor qaratilsin:

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish, bu borada keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan iborat "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo'lga qo'yish;

dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish; jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar - el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

milliy g'oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish;

targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni muntazam yo'lga qo'yish;

yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya an'analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish.

3. Belgilab qo'yilsinki:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar (shaharlar) hokimlari tegishli ravishda hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qiladilar.

4. Qayta tashkil etilayotgan Markaz Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazining barcha huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanishi inobatga olinsin.

5. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining tashkiliy tuzilmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tuzilmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari va tuman (shahar) bo'linmalarining namunaviy tuzilmalari 1 - 4-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

6. Markaz rahbariga uning tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

7. Belgilab qo'yilsinki:

Markaz va uning hududiy bo'limlari hamda bo'linmalari faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

Markaz rahbari maqomi, maishiy ta'minoti, tibbiy va transport xizmatidan foydalanish shart-sharoitlariga ko'ra - vazirga, Markaz rahbarining birinchi o'rinbosari va o'rinbosari - tegishli ravishda vazirning birinchi o'rinbosari va o'rinbosariga tenglashtiriladi;

Markaz xodimlariga davlat boshqaruvi organlari xodimlari uchun belgilangan ish haqi, mukofotlash va moddiy yordam ko'rsatish shartlari tatbiq etiladi.

8. Toshkent shahar hokimligi O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Markaz hamda "Tafakkur" va "Ma'naviy hayot" jurnallari tahririyatini joylashtirish uchun bino ajratish bo'yicha taklif kiritsin.

9. Markaz bir oy muddatda o'z Ustavini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga kiritsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

ushbu qarorni amalga oshirish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni 2017 yilda Ijtimoiy soha bo'yicha tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida ajratsin, 2018 yildan boshlab esa - O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutsin;

Markazga 5 ta avtotransport vositasini, jumladan, 3 ta xizmat ko'rsatadigan, 1 ta navbatchi va 1 ta maxsus avtobusni saqlab turish uchun hamda Markazning hududiy bo'limlariga jami 14 ta xizmat ko'rsatadigan avtotransport vositasini saqlab turish uchun limit ajratsin.

11. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda Markaz, hududiy bo'limlar va bo'linmalar xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha yagona tarif setkasini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

12. Markaz manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati lektorlari faoliyatini moliyalashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqsin hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga kiritsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Markazni zarur telekommunikatsiyalar, internet axborot tarmog'iga kirish va telefon aloqasi, jumladan, hukumat telefon aloqasi bilan belgilangan tartibda ta'minlasin.

14. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar (shaharlar) hokimlari ikki oy muddatda Markazning hududiy bo'limlari va bo'linmalarini belgilangan tartibda zarur xizmat xonalari, mebel jamlamasi, kompyuter texnikasi, aloqa vositalari va internet tarmoqlari bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi "Milliy g‘oya targ‘iboti va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida"gi PQ-451-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan, deb hisoblansin.

16. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar yuzasidan bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchilari X. Sultonov, R. Komilov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
"Xalq so‘zi" 2017 yil 29 iyul

Sh. Mirziyoyev

8-ILOVA

MA‘NAVIYAT - ENG TA‘SIRCHAN VA QUDRATLI QUROLIMIZ!

SHAVKAT MIRZIYOYEV

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Prezidentimizning 2017 yil 28 iyulda imzolangan "Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida"gi PQ-3160 sonli qarori milliy ma‘naviyatimiz tarixining yorqin voqealaridan biri bo‘ldi. Barcha sohalarda kabi ma‘naviyat va ma‘rifat, tarbiya sohasini yangi bosqichga ko‘tarishning huquqiy, siyosiy, tashkiliy, moliyaviy shart-sharoitlarini yaratib berdi.

O‘tgan yillar davomida Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov tashabbusi bilan bu borada juda katta ishlar qilindi. Biroq, mavjud tizimni dunyoda yil sayin kuchayib borayotgan globallashuv, yangi tahdid va xatarlar, **murakkab va tahlikali vaziyat** talablariga javob bermayotgan edi. Zamon mavjud holat, bajarilgan ishlarni tanqidiy baholashni, zamonning talab va shiddatiga mos takomillashtirishni talab etmoqda edi.

Qaror o‘ta muhim tashkiliy, metodologik, huquqiy yangilik va xususiyatlarga ega. Biz uning ayrim jihatlari to‘xtalamiz.

Mafkura kerakmi? U qanday bo‘lishi kerak? Milliy g‘oyamiz qanday maqsad, vazifalarni ifodalashi kerak? degan savollarga javob topildi. MDH mamlakatlarida birinchilardan bo‘lib o‘z milliy g‘oyamizni angladik. Prezident Qaror, farmoyishlari bu umummilliy g‘oyaviy harakatga madad bo‘ldi. Milliy g‘oya mahalla, korxonalar, ta‘lim muassasalariga kirib bordi. Erishgan natijalarimizga o‘zining hissasini qo‘shdi.

Qarorning eng muhim tashkiliy, huquqiy-siyosiy jihati ma‘naviyat, ma‘rifatning maqomi oliy darajaga ko‘tarilganida ko‘rinib turadi. Chunki Qarorda "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat Kengashiga raislik qilishi belgilab qo‘yildi. Bu maqom mamlakatimizda ma‘naviyat va ma‘rifat sohasini yangi bosqichga ko‘tarilishining oliy kafolati bo‘ldi. Buni ma‘naviyatchilarimiz bir-birlari bilan ko‘rishganida, telefonda, ijtimoiy tarmoqlarda bir-birlarini shodon qutladilar. Bu bejiz emas, chunki jahon tarixida davlat rahbari o‘z xalqi ma‘naviyati, farzandlari tarbiyasining g‘amxo‘ri, rahnamosi bo‘lgani kamdan kam uchraydi.

Respublika Ma‘naviyat targ‘ibot markazi va Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazlarining ilmiy va tashkiliy kuchlari birlashdi. Ularning negizida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi qayta tashkil etildi. Bu chora ilgari bir maqsadga xizmat qilayotgan ikki markazni — ilm bilan amalni birlashtirdi.

Xodimlarning umumiy cheklangan soni ikki karradan ziyodga oshirildi. Ilgari goh alohida, goh bir-birining vazifalarini takrorlab kelayotgan ikki Markaz bir jismga, bir maqsad yo‘lida yangi, yagona va qudratli Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markaziga birlashdi.

Mazkur soha ilmga tayanmasa, rivojlanmaydi. Shu bois Markaz tuzilmasida sohaning ilmiy ta‘minotiga alohida e‘tibor qaratilgan. Ayni vaqtda Markazning hududlar, jamoat tashkilotlari, madaniyat va sport tashkilotlari, ta‘lim-tarbiya muassasalari bilan ishlashga ixtisoslashgan, bu boradagi ishlarning axborot-tahlili bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar ish boshlamoqda.

Qaror sharofati bilan "**Ma‘rifat**" targ‘ibotchilar jamiyati"ga asos solindi. Bu ma‘naviy-ma‘rifiy sohaga katta imkoniyatlar beradi. Targ‘ibotga uzluksizlik bag‘ishlaydi. Sir emas, ba‘zan Mustaqillik bayrami, Navro‘z bayramlari arafasida yuzlab olim, ijodkor, san‘atkorlarni to‘plab, jadval asosida tuman-shaharlarga, asosan jamoatchilik yo‘sinida yo‘llar edik. Bayram o‘tgach, tanaffuslar yuzaga kelardi. Endi Prezident Qarori sharofati bilan mamlakatda targ‘ibot-tashviqotning yuragi yil 12 oy, 365 kun urib turadigan bo‘ldi. Targ‘ibotchilar turli sohalarga ixtisoslashib, doimiy asosda moddiy-ma‘naviy

rag'batlantirib boriladi. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat markazining "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati bilan ishlash bo'limiga" Respublikamizdagi eng zo'r targ'ibotchilarini a'zo qilib, ishni tizimli tashkil qilish vazifasi yuklatildi.

Ilgari Respublika Ma'naviyat targ'ibot Markazining hududlarda va qisman tuman-shaharlarda bo'limlari ishlar, moliyalashtirilar edi. Biroq, ayrim tumanlarda ish jamoatchilik asosida yuritib kelinayotgan edi. Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazining esa na hududiy, va shahar tuman bo'limlari bor edi. Prezident Qarori ana shu muammoni hal qildi. Ma'naviyat va ma'rifatning mustahkam moliyaviy bazaga asoslangan, kuchli ijro vertikali yaratildi.

Qaror **ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash**, ularning ko'lami va miqyosini kengaytirish, takomillashtirish talablarini qo'ymoqda. Bu bejiz emas. Chunki, amaliyotda targ'ibot mazmun-mundarijasida "hamma joyda bir xil"lik, targ'ibot kechayotgan hududning xususiyatlari, ma'naviy muammolari bilan bog'lanmagan holatlar uchrar edi. Boshqacha qilib aytganda, Case study kabi sinalgan va zamonaviy usullardan foydalanish qoniqarsiz edi. Qaror asosida targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuv joriy etiladi.

Qarorda ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ko'lami va miqyosini kengaytirish zarurati alohida urg'ulangan. Darhaqiqat, targ'ibot bilan qamrab olish foizining pastligi aholining xabardorlik darajasining pastligiga olib kelayotgan edi. Qarorda bu muammoni hal qilishning ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratib berildi.

Yangi bosqichda yangi imkoniyatlarga ega mafkura bizga kirib kelgan, kelayotgan, tayyorlanayotgan tahdidlarni on line kuzatib borishi, har bir yurtdoshimizda ularga qarshi immunitetni shakllantirish zarur. Ana shu yangi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tadqiqot va targ'ibotning yuksak, ilmiy texnologiyalar bilan qurollangan, o'tkir ko'zli, xalqchil so'zli, jar solinuvchi minora bo'lishi talab etilmoqda. Bir so'z bilan aytganda milliy mafkuramiz yangi bosqichda Harakatlar strategiyamizga hamohang – Harakatlar mafkurasiga aylanishi zarur.

Qarorda olimlarimiz, targ'ibotchilarimizga madad beruvchi metodologik yangiliklar bor. Jumladan, uning matnida "jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan **ichki tahdidlar**" ko'rsatib berildi. Ya'ni 1) el-yurt taqdiriga loqaydlik, 2) mahalliychilik, 3) urug'-aymoqchilik, 4) oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik "ichki tahdidlar" sifatida sanab o'tilgan. Shu paytgacha biz bu tahdidlarga yengil qarab, "kamchilik", deb qarab kelar edik. Vaholanki, bugun bizni qiynayotgan jinoyatchilik, diniy ekstremistik oqimlarga adashib kirib qolishlar, buzilgan yosh oilalarning yig'layotgan bolalari, qarovsiz o'smirlar ana shu "kamchilik"larning ayanchli oqibatlarini bo'ldi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, xalqlarning o'z mustaqilligini boy berishlariga asosiy sabab ichki tahdidlar bo'lib kelgani sir emas. Hatto Buyuk Sohibqiron Amir Temur yaratgan Buyuk saltanatni tanazzulga olib borgan ham ichki tahdidlar bo'lganini afsus bilan eslaymiz. Shuning uchun ham Qarorda ichki tahdidlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish qattiq vazifa qilib qo'yildi.

Bu bejiz emas, chunki biz shu paytgacha "tahdid", deganda ko'pincha uzoqqa, tashqariga qaradik. Aslida ichki tahdidlar tashqi tahdidlarga yo'l ochib berishiga, ularni chaqirishiga e'tibor bermadik. "Chetdan kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurash e'lon qildik. "O'zingdan chiqqan baloga qayga borasan davoga", maqolimiz e'tiborsiz qoldi. Bugun o'zimizdan chiqayotgan ichki "ommaviy madaniyat" tahdid sola boshladi. Bunga to'ylarimiz dabdabasi jamiyat muammosi sifatida ijtimoiy tarmoqlardan tushmayotganini eslash ham kifoya bo'lar.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida inson qalbi, ongi bilan ishlash sohalarini mudofaa vazirligiga teng qo'ydilar. Bu hikmat bejiz aytilmadi. Ushbu fikrni "Askarning jangovar tayyorgarligi bu juda muhim. Lekin askar o'qni qayoqqa qarab otishini mafkuraviy tayyorgarlik hal qiladi", degan mashhur harbiy aforizm qo'llab-quvvatlaydi. Chunki chegarachini ong, ongni esa ma'naviyat, mafkura boshqaradi.

Ichkarida g'oyaviy bo'shliq bo'lmasa, tashqaridan kelayotgan balo kira olmaydi, sig'maydi. Aylanib, bo'shliq izlab boshqa tomonga ketadi. Shu bois Qaror avvalo "ichkari"ni – jamiyatning ichki, sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitini to'kis, barqaror, mukammal qilishimiz zarurligini talab qilmoqda.

Qaror diagnostik, profilaktik va manzillilik xususiyatlariga ega. Unda jahondagi mafkuraviy vaziyat, tendensiyalar bilan birgalikda mamlakatimizdagi og'riqli 7 ma'naviy-mafkuraviy muammo ochiq va achchiq qayd qilindi. Bular:

1) oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi samarasizligi; 2) chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarining yuzaki tarzda olib borilayotgani; 3) jinoyatchilik; 4) diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shib qolish; 5)

milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik; 6) erta turmush qurish; 7) oilaviy ajralishlar kabi boshi tarbiyaga borib taqaladigan ma'naviy illatlarga siyosiy diagnoz qo'yib berdi.

Chunki ilm-fanga asoslanmagan sohaning kelajagi yo'q. Buyuk bobomiz Imom Buxoriy biz avlodlariga "Ilmsiz najot yo'q va bo'lmag'ay", deya haqiqatni yozib qoldirgan edi. XXI asr – texnologiyalar asri ana shu haqiqatning bugungi isboti. Shu sababli Prezident Qarori bizdan yuqoridagi ma'naviy illatlarning sabablarini, ildizlarini, omillarini ilmiy o'rganishni talab qilmoqda. Masalan, bundan 100, 1000 yillar ilgari ham ajdodlarimizda oilalar buzilgan. Ularni faqat 1 ta sabab – o'lim ajratgan. Boshqa hech narsa ajralishga sabab bo'lmagan. Qaror bizni **"g'oyaviy-tarbiya ishlarining yuzaki tarzda olib borilayotgani"**dan ogohlantirib, bu ahvolga chek qo'yishni talab qilmoqda. Yuzaki ishlash bu – masalaning "ichiga kirmasdan", noilmiy, ya'ni natijasiz, xo'ja(yin)ko'rsin uchun "shug'ullanish" degani. Qarorning mana shu joyi soha xodimlari, barcha vazirlik, idoralarning katta-kichik rahbarlarimizning ma'naviyat va ma'rifat, milliy g'oya, tarbiya masalalariga munosabatlarini qayta ko'rib chiqishlarini taqozo qilmoqda.

Qarorning profilaktik jihati ma'naviy hayotimizda uchrayotgan **"salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda"**, degan dasturiy ko'rsatmada mustahkamlab qo'yilgan. Ichki va tashqi tahdid o'z ishini qilganidan keyin emas, balki oldini olish isbot talab qilmaydigan haqiqat. Shu sababli Qaror profilaktik, preventiv targ'ibot, tarbiyaga ustuvorlik talabini qo'ymoqda.

Qarorda to'qqiz yo'nalishdagi asosiy, kompleks yo'nalishlar vazifalar belgilab berildi. Ularda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlari targ'ibotini tizimli va izchil amalga oshirish, jahonda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarni har tomonlama yoritish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi g'oyaviy kurashish, milliy g'oyani keng targ'ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, xalqimizning ertangi kunga ishonchini kuchaytirish, targ'ibot-tashviqot ishlariga aholining xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish, sohaning ilmiy asoslangan, muntazam monitoringini ta'minlash, yoshlarda sog'lom dunyoqarash, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, Internetdan foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya an'alarini asrab-avaylash, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish vazifalari belgilab berildi.

Ushbu vazifalar ijrosi mamlakatimizda ma'naviyat-ma'rifat sohasini yangi bosqichga ko'tarib, Vatanimizning mafkuraviy himoyasini yanada mustahkamlashi shubhasiz.

Muhammadjon Quronov, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbarining birinchi o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, proffesor

